

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
A K A D E M I Y A

# EKOLOGIYA HUQUQI

*O‘zbekiston Respublikasi IIV tomonidan Vazirlik oliy ta’lim  
muassasalari uchun darslik sifatida ruxsat etilgan*

*(Ikkinchi nashr)*

TOSHKENT

**Taqrizchilar:**

Toshkent davlat yuridik instituti professori, yuridik fanlar doktori,  
professor **M.B. Usmonov**;

O‘zbekiston Milliy Universiteti huquqshunoslik fakulteti dekani,  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **R.A. Ikramov**

**E-40 Ekologiya huquqi:** Darslik / J.T. Xolmo‘minov, N.B. Shoimov,  
O.A. Kamalov, O.J. Xolmuminov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi  
IIV Akademiyasi, 2014. – 235 b.

Darslikda «Ekologiya huquqi» fanining tushunchasi, predmeti, metodlari, tizimi, prinsiplari va manbalari, tabiat resurslariga nisbatan mulkchilik, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi va nazoratining ekologik-huquqiy holati, ekologik huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik, yer, suv, yer osti boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, o‘rmon, atmosfera havosini muhofaza qilish va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik-huquqiy tartibi, ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiya hamda atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish masalalari atroflicha yoritilgan.

IIV Akademiyasining tinglovchilari va professor-o‘qituvchilariga, huquqni muhofaza qilish idoralarining amaliyotchi xodimlariga hamda ekologik huquq masalalari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

**BBK 67.99 (2U) 5ya73**

---

## KIRISH

Ekologiya muammosi davrimizning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qoldi. Insoniyat XXI asrga qadam qo‘yar ekan, uning oldida olamni asrash, kelajak avlodning barqarorligini ta‘minlash, turli ekologik muammolarning oldini olishdek dolzarb masala ko‘ndalang turibdiki, bu hech kimni tashvishga solmay qolmaydi.

Natijada iqlimning o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib ketishi, turli kasalliklarning paydo bo‘lishi, fasllarning o‘zgarib borishi kabi salbiy oqibatlar kelib chiqmoqda. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish, tabiiy resurslarni ishdan chiqarish, ekotizimdagi ekologik aloqalarni buzish global muammo bo‘lib qoldi. Hozirgi paytda dunyoning qaysi bir mintaqasini olib qaramaylik, inson hayoti uchun katta xavf tug‘dirayotgan ekologik vaziyatni bartaraf qilishdek og‘ir muammolar o‘z yechimini kutib turganligining guvohi bo‘lamiz.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganlaridek, «Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolardan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir»<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 2013-yilning «Obod turmush yili»<sup>2</sup> deb nomlanishi yoshlarga bozor iqtisodiyoti sharoitida ekologik ta‘lim va tarbiyani xalqaro andozalar talabi darajasida olib borilishini ham taqozo etadi.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida «Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar» va 54-moddasida «Mulkdor o‘z mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart», deb ifoda etilgan.

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолотлари // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т., 1998. – 110-б

<sup>2</sup> *Каримов И.А.* Инсон манфаати, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада эркин ва обод бўлишига эришиш – бизнинг бош мақсадимиздир // Инсон ва қонун. – 2012. – 8 дек.

Qomusimizning 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir»<sup>1</sup>, deb ko‘rsatilganligi ham alohida ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov hozirgi sharoitda barcha ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va geografik xususiyatlarni inobatga olib, mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ular jumlasiga havo va suv muhitiga bo‘ladigan zararli ta‘sirlarni kamaytirish, sanoat korxonalarida zamonaviy tozalash qurilmalarini o‘rnatish, mavjud yer va qazilma boyliklaridan oqilona foydalanish, jonli tabiat genofondini saqlab qolish, shahar va qishloqlarda aholi uchun qulay sharoit yaratish, jahon jamoatchiligi e‘tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish kabi dolzarb masalalar kiradi.

Bu masala xususida Prezidentimiz Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida alohida qayd etganidek, «...atrof-muhitni muhofaza qilish aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta‘minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va shu kabi katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar bo‘yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, atrof-muhitni himoya qilishni ta‘minlash tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarning roli va o‘rnini belgilashga qaratilgan «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish fursati yetdi, deb o‘ylaymiz»<sup>2</sup>, degan ko‘rsatmalari tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish sohasida bir qator muammolarni bartaraf etishda asos bo‘ldi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydagi 142-sonli qaroriga asosan «2013-2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha harakatlar Dasturi»<sup>3</sup> qabul qilinganligini alohida ta‘kidlash lozim.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2012.

<sup>2</sup> *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., – 2010.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2013. – № 22. – 282-м.

Ushbu Dasturni bajarish quyidagi beshta asosiy yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshiriladi:

– aholi va davlat uchun yashash muhiti va ekologik xavfsizlik darajasining kafolatlangan va qulay shart-sharoitlarini yaratish;

– iqtisodiyot tarmoqlarini ekologizatsiyalashtirish, texnologik jarayonlarni va tabiatni muhofaza qilish faoliyatini takomillashtirish;

– atrof-muhitning ishlab chiqarish va xoʻjalik faoliyati chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olish;

– atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanish, ekologik taʼlim va barqaror rivojlanish maqsadlaridagi taʼlim sohasida tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini va meʼyoriy-uslubiy bazani rivojlantirish;

– tabiatni muhofaza qilish faoliyatini takomillashtirish va tabiiy muhitni transchegaraviy ifloslanishining oldini olish boʻyicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish<sup>1</sup>.

Umuman olganda, tabiat mutanosibligining buzilishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va atrof-muhit ifloslanishining 90-97 % insonlarning xoʻjasizlarcha faoliyat yuritishlari bilan bogʻliq. Tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va ularni ekologik muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik, iqtisodiy rivojlanishda ekologik talablarni inkor etish, tabiat boyliklarining kamayib ketishiga, ekologik muvozanatning buzilishiga, jamiyatning esa inqiroz holatiga tushib qolishiga va ekologik xavf paydo boʻlishiga olib keladi.

Mustaqillik yillarida tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlarni takomillashtirish va rivojlantirishga oid keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Oʻzbekiston Respublikasining ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi oʻnlab qonun hujjatlari qabul qilindi.

Bu qonunlarning qabul qilinishi u yoki bu darajada tabiatni muhofaza etish munosabatlarini takomillashtirishga, tabiiy resurslarni muhofaza etishning huquqiy vositalari samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Xususan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablariga javob beruvchi, xalqimizning milliy boyligi hisoblangan har bir tabiat obyektining yangicha huquqiy holatini belgilovchi Yer kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida», «Suv va suvdan foydalanish toʻgʻrisida», «Yer osti boyliklari toʻgʻrisida», «Oʻsimliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida»,

---

<sup>1</sup> Oʻsha manba. – 282-m.

«Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida», «O‘rmon to‘g‘risida», «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida», «Chiqindilar to‘g‘risida», «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida», «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida», «Radiasiya xavfsizligi to‘g‘risida», «Yer kadastrini to‘g‘risida», «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida», «Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida», «Madaniy meros obektlarini huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida», «Arxeologiya merosi obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida» qabul qilingan qonunlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydagi «2013-2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha harakatlar dasturi to‘g‘risida»gi qarorining qabul qilinganligi moddiy boyliklarimiz asosi bo‘lgan tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishda yangicha mazmun kasb etdi.

Komil ishonch bilan aytish mumkinki, tabiat – biosferani saqlab qolish va uni o‘zgartirish ko‘p jihatdan inson faoliyati, ayniqsa ekologik-huquqiy savodxonlik, ekologik huquqiy ta’lim va tarbiya bilan ham bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Mustaqillik yillarida «Obodlik ko‘ngildan boshlanadi» degan chuqur mazmunli ibora el-yurtimiz o‘rtasida keng tarqalib, odamlarimizni bunyodkorlik tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etib kelayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi», – deb e’tirof etgan g‘oyalari barkamol avlodni har tomonlama tarbiyalab voyaga yetkazishda ekologik huquqiy ta’lim va tarbiyani xalqaro andozalar asosida olib borishni talab etadi.<sup>1</sup>

Shu ma’noda AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Shveysariya, Italiya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalariga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularda birinchi galdagi vazifa sifatida ekologik-huquqiy ta’lim va tarbiyaga alohida e’tibor berilgan.

Ushbu darslik ekologiya qonunchiligiga kiritilgan so‘nggi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar, tegishli Davlat dasturlari talablarini inobatga olingan holda tayyorlangan. O‘ylaymizki, darslik hurmatli kitobxon va aziz o‘quvchilarga ekologiya sohasidagi bilimlarni kengroq egallashga yordam beradi.

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Инсон манфаати, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада эркин ва обод бўлишига эришиш – бизнинг бош мақсадимиздир // Инсон ва қонун. – 2012. – 8 дек

---

---

## UMUMIY QISM

### *Birinchi bob*

## JAMIYAT VA TABIATNING O‘ZARO ALOQADORLIGI. EKOLOGIYA HUQUQI, UNING PREDMETI, TIZIMI VA MANBALARI

### 1-§. Tabiat, jamiyat va inson. Atrof-tabiiy muhitning hozirgi zamon holati

**Tabiat** – keng ma’noda – borliq, olam va uning xilma-xil shakllari; tor ma’noda – kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo‘lgan atrof tabiiy muhit. Jamiyat va tabiat tizimini ko‘rib chiqayotganda ikkinchi tor ma’nodagi tushuncha qo‘llaniladi. Chunki inson o‘zining hayoti davomida butun borliqdan emas, balki uni o‘rab turuvchi va uning ta’siri doirasida turgan atrof tabiiy muhitdan foydalanishi mumkin.

Shu tariqa insoniyat tarixida jamiyat bilan tabiat o‘rtasida to‘xtovsiz va xilma-xil o‘zaro ta’sirlar ro‘y berib kelgan. Ammo tabiat insonlarsiz bu moddiy dunyoda hukm surib kelgan, lekin insonlar tabiatning bir bo‘lagi bo‘lib, ular tabiatsiz hayot kechira olmaydi. Insonlar o‘z hayoti uchun zarur bo‘lgan, barcha narsani tabiatdan oladi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh uchun xom ashyo, qurilish uchun binokorlik materiallari, nafas olish uchun atmosfera havosi, ichish uchun suv, dam olish uchun go‘zal landshaftlar va h.k. Shunday qilib inson hayoti davomida foydalanilgan barcha narsalarni tabiiy modda va kishilar faoliyatining mahsulidir.

**Jamiyat** – keng ma’noda insonlarning tarixan qaror topgan birgalikdagi faoliyatlari majmui yoki tor ma’noda – ijtimoiy munosabatlarning konkret tipi. Shunday qilib, aqliy mehnat faoliyatiga ega bo‘lgan insonlar yig‘indisi bo‘lgan jamiyat atrof tabiiy muhit bilan *passiv (sust)* emas, balki *aktiv (faol)* ta’sir doirasida bo‘lishi muqarrardir.

**Inson** – tirik organizmlar turkumiga kiruvchi murakkab ijtimoiy va mehnat faoliyatini yurgazuvchi individ. Inson tarixiy – jamoat jarayoni subyekti bo‘lib, u Yer kurrasidagi moddiy va ma’naviy-madaniy rivojlanishning asoschisidir. Inson boshqa turdagi tirik mavjudotlar bilan genetik bog‘langan holatda, lekin ulardan ongining yuqoriligi, mehnat qurollarini

ishlab chiqara olishi, nutqning rivojlanganligi, ijodiy faolligi hamda axloqiy, ma'naviy va ruhiy o'z-o'zini anglay olishi bilan ajralib turadi.

Ingliz olimi Ch.Darvinning ta'limotiga ko'ra, insonlar hayvonlarning ma'lum bir turlarini mehnat faoliyati aktivlashuvi, ya'ni kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi mobaynidagi evolyutsion rivojlanish mahsuli. Lekin fan va texnika yutuqlari bunday ta'limotning mutloq to'g'ri emasligi haqidagi ma'lumotlarga ega va boshqa gipotezalarni oldinga surmoqda. Nima bo'lganda ham kishilar jamiyati mana bir necha million yildirki Yer kurrasida tabiat bilan o'zaro uzviy bog'langan holda yashab kelmoqdalar va bu bog'liqlik kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzida sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlarning 9/10 qismida inson faoliyatining mahsuli aks etmoqda. Bu jarayonlarni doimo ham ijobiy deb bo'lmaydi. Chunki ekologik xavfsiz muhit, ya'ni insonlarning muhim hayotiy manfaatlari va avvalambor toza, sog'lom, qulay tabiiy sharoitga ega bo'lish talabini to'la qondirishga qodir bo'la oladigan atrof tabiiy va ijtimoiy muhit holati inqiroz va talafot tomon intilib bormoqda.

Agarda jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga inson hayotining tarixi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ularni quyidagi munosabat shakllariga ajratsak bo'ladi:

- 1) oddiy;
- 2) oddiy-iqtisodiy;
- 3) iqtisodiy;
- 4) iqtisodiy-ekologik;
- 5) ekologik.

Jamiyat va tabiat o'rtasidagi oddiy munosabat shakli – kishilarning ekologik tizimni buzmaydigan soddalashtirilgan hayot tarzi. Ekologik tizim (ekotizm) – tirik organizmlar majmui va ularning yashash muhiti yig'indisi bo'lib, tirik organizmlar o'zaro va atrof tabiiy muhit bilan uzviy aloqadorlik qonuniyatlari asosida bo'lgan holati. Bu shakl kishilarning ibtidoiy jamoa tuzumidagi hayot tarziga, ya'ni insoniyat tarixining ilk ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasi davriga xosdir.

Kishilar faoliyatining tabiatga oddiy-iqtisodiy ta'siri davrida ma'lum bir hududlarda sezilarli darajada ekologik xavfsiz muhitga ta'sir etgani uchun ham qadimgi yozuv va qonun kuchiga ega bo'lgan kitoblarda tabiatga nisbatan insonlarning ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari ko'rsatilib o'tilgan. Masalan, zardo'shtlarning «Avesto» kitobiga binoan bolalar yoshligidanoq daraxt ko'chatini o'tkazishlari shart bo'lgan. Inson



butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir. Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi jazosiga mahkumdir. Lekin bu kitobda ekologik jazo sifatida bir turdagi tabiiy obyektning buzilishi uchun ikkinchi bir turdagi tabiiy obyektning qutulishini ham me'yor qilib qo'yganlar. Suvni iflos qilgan yoki ov itini o'ldirgan kishi 10000 ruhiyatni tetiklashtiradigan o'simlik bargi terishi, 1000 ta echkeemar, 1000 ta suv qo'ng'izi va kasallik tarqatuvchi pashshani o'ldirib, gunohini yuvishi lozim bo'lgan.

Qadimgi Vavilonda shoh Hammurapi tomonidan «O'rmonlar muhofazasi»ga oid qonun bor yo'g'i shohning tiriklik davrida (eramizdan avval 1792-1750-yillarda) hukm surgan xolos. Xuddi shunday holat er.avval III asrda Hindiston rojasi Ashoki qaroriga «Hayvonot dunyosini ovlash qoidalarini» ham taalluqlidir.

Shunday qilib, ekologik xavfsiz muhit inqirozi kishilar faoliyatining atrof-muhitga antropogen ta'sirining uch oqibatlar majmui – tabiiy resurslar kamayishi, atrof-muhit ifloslanishi va ekologik tizimlarni buzilishi mahsulidir.

*Tabiiy resurslar kamayishi* – kishilarning xo'jalik va boshqa hayotiy faoliyati manbai bo'lgan tabiiy obyektlarning yo'qola borishidir. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, «insoniyat sivilizatsiyasi» davrida, to'g'rirog'i iqtisodiy madaniyatlashgan kishilarning izchil faoliyati davrida Yer kurrasidagi o'rmonlarning 2/3 qismi kesilib ketdi, 250 xil turdagi hayvon va o'simliklar yo'q bo'lib ketdi, 3-4 mlrd. gektar yer qishloq xo'jalik oborotidan chiqarib yuborildi, atmosfera havosidagi kislorodning zaxirasi 10 mlrd. tonnaga kamaydi. Keyingi 100 yil ichida, fransuz olimi A.Gerrenning ma'lumotlariga ko'ra, tuproq eroziyasi va texnogen buzilishi 2 mlrd. gektar yerni unumdorligini yo'qotib yuborgan. Shu kunlarda Yer kurrasida 1 daqiqada 20 ta o'rmon kesilmoqda, kuniga bir turdagi hayvonot yoki o'simlik turi qizil kitobga kiritilmoqda.

Tabiiy resurslarning kamayib borishidan tashqari atrof tabiiy muhitning ifloslanishi ekologik tizimlarning buzilishiga, modda va energiya almashuvining tabiiy holatda kechishiga keskin ta'sir qilmoqda. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi deb tabiiy moddalar (tuproq, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi) tarkibining fizik va kimyoviy o'zgarishiga aytiladi. Agarda bunday o'zgarish inson hayotining faoliyati bilan kechsa – antropogen ifloslanish, uning ishtirokisiz kechsa – tabiiy ifloslanish deyiladi.

*Ekologik inqiroz* – jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat muvozanatining barqaror ravishda buzilishi natijasida atrof tabiiy muhit holatining yomonlashib borishi, davlat boshqaruv va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuzaga kelgan holatdan chiqa olmasliklari, ekologik tizimlarni tiklash imkoniyatlarining yo‘qolishi, tabiiy muhit inqirozi yoki ijtimoiy muhitning falokatidir. Ekologik inqirozga misol qilib, Orol dengizi va uning atrofidagi holatini olsak bo‘ladi. Qirq yil mobaynida Orol dengizi akvatoriyasi 7 baravar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, uning minerallashuvi esa o‘nlab baravar oshib, dengizni tirik organizmlarning yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada qariyb barcha hayvonot va nabotot olami tanazzulga uchradi va yo‘qoldi<sup>1</sup>.

Aholi soning ko‘payishi va suvga bo‘lgan ehtiyojning ortishi, yangi yerlarni jadal o‘zlashtirish, sug‘orma dehqonchilikni yanada rivojlantirish, suv taqchil bo‘lgan yillarning muntazam takrorlanib turishi eng yangi tarixdagi yirik global ekologik halokatlardan biri sodir bo‘lishiga – sayyoramizdagi eng chiroyli suv havzalaridan birining qurib borishiga olib keldi. Qachonlardir dunyoda eng katta ko‘llar toifasiga kirgan Orol dengizi insoniyat ko‘z ongida halokatga yuz tutib bormoqda.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikdagi sa‘yi-harakatlari tufayli 1995-1997-yillarga kelib, Orolga suv quyilishi 15-17 kub km.gacha ko‘paytirildi. Yopiq havzaning suv taqsimoti xalqaro shartnoma va deklaratsiyalar orqali tartibga solinmoqda.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ilk bor qabul qilgan ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi qonunlaridan biri «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi 1992-yil 9-dekabr qonuni. Bu qonun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir qatorda qabul qilingan bo‘lib, undagi prinsip va me‘yorlar tabiat bilan jamiyat munosabatlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda bo‘lishini taqozo qiladi. Mamlakatimiz yosh, tez sur‘atlar bilan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tomon olg‘a borayotgan davlatlar toifasiga kiradi. Iqtisodiy rivojlanish, vaqtinchalik, juda boy (100 ga yaqin mineral xom ashyo turidan foydalaniladi) tabiiy resurslardan foydalanishga suyangan holda amalga oshmasdan iloji yo‘q. Shuning uchun ham milliy qonunchiligimiz orqali tabiat in‘om-

---

<sup>1</sup> *Karimov I.A.* BMT Bosh Assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutq // Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T. 19. – T., 2011. – B. 15.

laridan foydalanish va ularni muhofaza qilish shakli iqtisodiy-ekologik ko‘rinishdadir. Qabul qilingan ekologiyaga oid 100 dan ziyod qonunlar tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qila oladi, lekin bu qonun me‘yorlarini hayotga tatbiq qilishning iqtisodiy, huquqiy, siyosiy chora-tadbirlarini ishlab chiqish shu kunning dolzarb masalalari turkumiga kiradi.

*Ekologik konsepsiya* – tabiat va jamiyatning o‘zaro ta’siri to‘g‘risidagi qarashlar tizimi, ya’ni jamiyat qonunlari bilan tabiat qonunlarining o‘zaro harakat yo‘nalishlari o‘rni, ahamiyati va mohiyati haqidagi dunyoqarash.

*Jamiyat qonunlari* – kishilarning xatti-harakatlarini yoki biron-bir obyektga nisbatan munosabatini belgilaydigan huquqiy-me‘yorlar yig‘indisi.

*Tabiat qonunlari* – kishilarni o‘rab turuvchi tabiiy muhitda kechayotgan voqea, hodisa, jarayonlarning jamiyat qonunlariga bo‘ysunmaydigan va kishilar faoliyatisiz namoyon bo‘la oladigan kechinmasi. Tabiat qonunlariga quyidagilar kiradi: tabiiy omillarning birgalikda harakat qilishi, tabiiy modda (suv, energiya, kislorod, uglerod va shu kabi)larning katta va kichik aylanishi, modda va energiya saqlanish, tabiiy resurslarning kamaya borishi, evolyutsion tezlanish, tirik organizmlarning evolyutsion rivojlanishi va h.k.

*Naturalistik konsepsiya* – jamiyatdan ustun turuvchi tabiatni ilohiy kuch, dono yaratuvchi, ideal borliq deb qaraydigan falsafiy oqimlar va maktablar. Bunday qarashlar tizimi tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning oddiy va oddiy-iqtisodiy shakli davridagi kishilarga xos dunyoqarash. Shuning uchun ham ularning xudosi suv, olov, yer va boshqa tabiat obyektlari yoki hodisalari bo‘lib kelgan. Ular shu muhitda tabiatning bir bo‘lagi sifatida yashab kelganlar va o‘zgacha yashashni tushuna olmaydilar ham.

Naturalistik konsepsiyasiga qarama-qarshi dunyoqarash *iste‘molchilik konsepsiyasi* – jamiyat qonunlarini tabiat qonunlaridan ustun yoki kishilarni tabiat ustidan hukmronlik g‘oyasini ilgari suradiganlar. Bunday g‘oya namoyondalari jamiyatni iqtisodiy munosabat shakliga olib kelganlar. Bu oqimga kiruvchilar asosan bozor munosabatlari shakllana boshlagan kapitalizmning boshlang‘ich davrida turgan «yangi biznes» sohiblaridir. Ular haqida buyuk amerikalik yozuvchi Djek London o‘zining o‘lmas asarlarida aks ettirgan va ularning «oltin orqasidan quvib, butun borliqdagi tabiatni faqatgina iqtisodiy talablarini qondirish manbai deb qaraydiganlar» deb atagan.

Alarmizm namoyondalari ma'lum bir yagona partiyaga birlashganlar va aniq bir dunyoqarashga ham ega emaslar, lekin ularning ekologik inqirozning oldini olishga bor kuch va bilimlarini sarf qilayotgan olimlar, ishchilar, maishiy-xizmat va sport sohasida ishlaydigan turli kasb sohiblari bo'lib, «Grinpis», «Yashillar partiyasi», «Kedr» kabi oqimlarga birlashganlar. Ularning soni 10 dan oshib ketgan va o'z saflariga 30 mln.dan oshiq kishilarni birlashtirganlar.

Alarmizmchilarga yaqin bo'lgan dunyoqarash *ekologik inqiroz sabablari konsepsiyasi*. Ular ham ekologik inqirozning kelib chiqish sabablarini ilmiy-texnik taraqqiyot va aholi sonining tez sur'atlarda o'sib ketishi deb biladilar. Shuningdek, sivilizatsiya va demografik portlash ekologik xavfsizlik darajasiga teskari proporsional va ekologik inqiroz holatidan chiqib ketish uchun demografik holatni boshqarish va tabiiy resurslarga nisbatan aholi sonini uyg'unlashtirish kerak deb hisoblaydilar. Bunday tadbirlar har bir mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlari, tabiiy sharoiti va resurslari imkoniyatlariga monand ravishda olib borilishi lozim, deb e'tirof etadilar.

*Tabiatga aralashmaslik* konsepsiyasini harakatsizliklar strategiyasiga kiritish mumkin. Chunki, *birinchidan* – ekologik tizimlarni ayrim hudud va mintaqalarda buzilganligiga befarq, aralashmasdan qarab turib bo'lmaydi. *Ikkinchidan*, Yer kurrasida yashayotgan 7 mlrd.dan ziyodroq aholini moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga majburmiz. Tabiatga aralashmaslik prinsipini alohida bir muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biosfera qo'riqxonasi va qo'riqxonalarda amalga oshirsa bo'ladi, lekin ommaviy tarzda tabiatdan ajralgan insonlarning hayotini tasavvur qilish qiyindir.

*Atrof tabiiy muhitga kishilarni moslashtirish* orqali ekologik inqirozdan chiqib ketishni tavsiya etayotganlar bir tomonlama ekologik tizimlarni tashqi kuchlarga nisbatan qarshi turish (buferlik) va o'z-o'zini tiklash qonuniyatlariga ishongan holda insonlarning harakat doirasini shunga monand ravishda olib borishni tavsiya etsalar, ikkinchi tomondan, kishilarni tarixan atrof-muhitga moslashib borishining evolyutsion jarayonlarini jadallashtirishni yoqlab chiqadiganlar. Bu konsepsiya namoyondalarini tabiat qonunlarini jamiyat qonunlariga ko'chirishga urinayotganlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Afsuski, bu qonunlar hozirgi insoniyat tarixi bosqichida ko'pincha bir-biriga zid kelmoqda va biri ikkinchisini inkor etishi mumkin.

*O'sish chegarasi va organik rivojlanish konsepsiyasi* namoyondalari Yer kurrasi resurslari imkoniyatlariga monand ravishda, ilmiy-texnik va

insonlarning o'sish chegarasini belgilash yoki bunday ilmiy asoslangan o'sishni chegaralashni ma'lum bir region (mintaqa), hudud yoki ma'muriy chegarada amalga oshirishni tavsiya etadi.

Afsuski, ilmiy-texnikaviy jihatdan rivojlanmasdan turib tez sur'atlarda o'sib borayotgan aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi. Ilm-fanni «konservatsiya» qilish va insonlarning o'sishini «nol» variantga tushirish 5-10 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar emas. Bu jarayon uzoq va katta kuchni talab qiladigan tadbirlardandir. Chunki, bu masalani birinchi navbatda aholisi tez o'sib borayotgan va musulmon diniy e'tiqodi kuchli bo'lgan davlatlarda amalga oshirish kerak bo'ladi, lekin bu juda mushkul ishdir. «Rim klubi» a'zolarining modeli (buning filiali «Toshkent klubi») jahon iqtisodiyotining ma'lum bir tipdagi regionlarda maishiy-texnik yutuqlarni hayotga keng tatbiq qilish va oilani rejalashtirishni shu yerdagi iqtisodiy, madaniy, tarixiy, ma'naviy holat darajasiga qarab turib o'sish va organik rivojlanishni cheklashni tavsiya etadiganlar.

*Global boshqaruv konsepsiyasi* namoyondalari atrof tabiiy muhit komponentlari yagona bir tizimda harakat qiladi va ular ajralmasdir degan g'oyani olg'a suruvchilardir. Shuning uchun ham atrof tabiiy muhitni saqlab qolish ma'lum bir hudud yoki mamlakat doirasida emas, balki xalqaro miqyosda, butun dunyo hamjamiyatining birgalikdagi tadbiri orqali amalga oshirilishini, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun davlatlar ustidan turuvchi yagona bir tashkilotni tuzishni, ushbu tashkilot nafaqat boshqaruv, balki nazorat vakolatiga ega bo'lishini yoqlab chiqadilar. Ularning fikricha, BMTning YUNEP, YUNESKO, VOZ, MOP degan tashkilotlari hozirgi kunda faqatgina davlatlarning ekologiya borasidagi faoliyatini kuzatadilar va faktlarni keltirish bilan cheklanadilar. Afsuski, bunday oqim namoyondalari Yer kurrasidagi hamma davlatlarning suveren huquqi bo'lmish tabiiy resurslardan o'z qonunlariga binoan foydalanish imkoniyatlarini osonlikcha berib qo'ymasliklarini inobatga olishmaydi. Lekin, bizning fikrimizcha, ekologik global boshqaruv tizimiga insoniyat oldinmi-kechmi albatta yetib boradi. Chunki, ma'lum bir joydagi ekologik inqiroz, (Orol dengizi muammosi, Chernobil AES falokati, Tojikiston Regar aluminiy zavodi, Oxota dengizining radioaktiv moddalar bilan zaharlanishi) mahalliy ekologik inqiroz emas, balki global ta'sir kuchiga ega bo'lgan inqiroz ekanligi hammamizga ayondir.

*Muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasi* namoyondalari jamiyatning ekologik talablarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish

talablariga moslashtirishni taklif qiladilar. Bu oqim qarashlari rivojlangan davlatlarda keng targʻib qilinyapti.

*Ekologik revolutsiyalar konsepsiyasi* – siyosiy tuzum va kishilarning ekologik dunyoqarashlarini keskin ravishda – revolyutsion yoʻl bilan isteʼmolchilik psixologiyasidan ekologik talablar doirasiga oʻtkazish. Ammo bu taklif qanchalik yaxshi boʻlmasin, quyidagi qoidani esdan chiqarmaslikka undaydi: kishilik jamiyatida (tabiatdagi singari) revolyutsion yoʻl bilan biron-bir tadbirni amalga oshirish ularda salbiy oqibatlarining kelib chiqishiga sabab boʻladi.

*Sotsialistik konsepsiya* asoschilari K.Marks va F.Engels tomonidan keng taʼriflangan dunyoqarash atrof tabiiy muhit holatini inobatga olib jamiyat kuchlarini bir meʼyorda rejali rivojlantirishni yoqlab chiqadiganlar. Albatta, bu dunyoqarash amalda (70 yil Sovet tuzumi hukm surganda) oʻz ifodasini topa olmadi. Tabiatni biron-bir mamlakat darajasida muhofaza qilish yoki undan foydalanish ekologik holatga emas, balki iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy holatga qarab olib borilishini isbot qildi. Tabiiy resurslarning aniq hisobini olish va ulardan rejali foydalanish biron-bir hudud yoki mamlakatda emas, balki butun bir hudud yoki Yer kurrasi boʻyicha global holda amalga oshirilishi mumkin boʻladi.

Yuqorida sanab oʻtilgan ekologik konsepsiyalardan tashqari dunyoning turli joylarida, turli dunyoqarashga ega boʻlgan qarashlar tizimidagi partiyalar, oqimlar, harakatlar, kengashlar, jamgʻarmalar mavjud. Lekin, bizningcha, *ekologik konsepsiya – tabiat qonunlari bilan jamiyat qonunlarini oʻzaro uygʻunlashgan va ilmiy asoslangan holda rivojlanshini yoqlab chiqadigan qarashlar tizimidir*. Aks holda boshqacha qarashlar tizimi noekologik konsepsiyalar tizimiga kiradi.

Shunday qilib, biz tabiat va jamiyat oʻrtasidagi turlicha munosabat shakllarini koʻrib chiqdik. Lekin insonlarning tabiatga nisbatan dunyoqarashlari ularning xarakteriga oʻxshab turlicha boʻlishi tabiiy holdir. Buyuk olim oʻrta asrning ulugʻ faylasufi bobokalonimiz A.N.Forobiy aytganidek, «kishilarning dunyoqarashlari, ularning tashqi koʻrinishiga oʻxshab turlicha boʻladi va fazilat ularning ilmiga, hayot tarziga, yashash muhitiga toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliqdir». Biz ham oʻrta asrning ulugʻ faylasufi A.N.Forobiyning fikriga qoʻshilgan tarzda ekologiya borasidagi dunyoqarashlarni koʻrib chiqamiz. N.F.Reymers: «ekologiya keng maʼnoda insonlarni yashab ketishi haqidagi taʼlimot», deb bejiz aytmagan. Chunki insonlarning Yer kurrasida yashash muddati ularning ekologik dunyoqarashlarini amalda tatbiq qila olish imkoniyati bilan belgilanadi.

## 2-§. «Ekologiya huquqi» tushunchasi, predmeti, vazifalari va tizimi

Jamiyat va tabiat o'rtasidagi iqtisodiy munosabat shakli fanda yangi ta'limotni – «ekologiya»ni yuzaga keltirdi. «Ekologiya» so'zi fanga nemis biolog olimi Ernest Gekkel (1866–1869-yillarda) tomonidan olib kirilgan. E.Gekkel Ch.Darvinning tirik organizmlarning evolyutsion rivojlanish qonuniyatlarini keng tatbiq etib, 1866-yil 14-sentabr kuni o'zining «Umumiy morfologiya» nomli kitobiga ekologiya haqidagi o'zining ilk fikrlarini bayon etadi. Ekologiya so'zini fanga olib kirishga XIX asrning ikkinchi yarmida eng rivojlangan va Yevropaning aksariyat davlatlarida sanoat, ishlab chiqarishning gurkirab rivojlanishi natijasida, atrof tabiiy muhit holatining keskin yomonlashuvi, ekologik inqirozning yuzaga kelishi, kishilar va tirik organizmlar hayoti bilan shug'ullanuvchi aynan biologlarni tashvishga solishi asosiy sabab bo'ldi va yangi fanni olg'a surishga asos bo'ldi.

Shunday qilib, «ekologiya» tushunchasini asosan ikkiga bo'lib o'rganamiz. *Tor ma'noda o'rgansak*, uyimiz haqidagi ta'limotga, *keng ma'noda* esa, tirik organizmlar yashaydigan makon haqidagi ta'limotga ega bo'lamiz. Shuningdek, bu tushuncha fan sifatida tirik organizmlarning o'zaro va ular atrofini o'rab turuvchi tabiiy muhit bilan munosabatlar yoki aloqadorlik qonuniyatlarini o'rganadi.

«Ekologiya» so'zining grekcha lug'aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, «oikos» – «uy», «turar joy» va «logos» – «ta'limot» yoki kengroq ma'noda «tabiatda qanday jamiyat bo'lishidan qat'i nazar, tirik organizmlar (mavjudotlar) yashaydigan makon haqidagi ta'limotdir». «Ekologiya» tushunchasi amaliyotga juda sekinlik bilan kirib keldi. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida ingliz fiziologi I.Berdonsanderson hamda amerikalik olimlar S.Farbe va K.Shreterlar ekologiya to'g'risida o'zlarining fikr va ta'limotlarini yozdilar. Ekologiya XX asrning boshlariga kelib fanning mustaqil sohasi sifatida shakllandi. Keyinchalik ekologiya xususida AQShda 1913-yilda Ch.Edamsning «Hayvonlar ekologiyasini o'rganishga oid qo'llanma»si, ingliz zoologi Ch.Eltonning «Hayvonlar ekologiya»si, Rossiya ekologiya maktabining asoschilaridan zoolog olim D.N.Kashkarevning «Hayvonot ekologiyasi asoslari» kabi kitoblari chop etildi.

Umuman olganda, ekologiya huquqining fan sifatida shakllanishida huquqshunos olimlarning xizmatini alohida ta'kidlash zarur. Mazkur fanning asoschisi sifatida M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat

universitetining yer va kolxoz huquqi kafedrası mudiri N.D.Kazansevning xizmati katta bo'lgan. Ekologiya huquqi dastlab, «Tabiatni huquqiy muhofaza qilish» nomi bilan 1960-yilning sentabr oyidan Qozon universitetida, 1973-yildan boshlab M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan.

Ekologiya huquqi O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlarida alohida fan tarmog'i sifatida 1980-yildan boshlab o'qitila boshlandi.

Demak, ekologiya huquqi huquq tizimining yagona bir tarmog'i hisoblanib u tabiat, jamiyat va umuman insoniyat o'rtasidagi o'zaro ekologik munosabatlarni tartibga soladi, uning huquqiy-ekologik prinsiplarini, normalarini o'rganuvchi fan sifatida shakllanib boradi. Chunki, inson tabiatdan foydalana borib, uning geografik muhitini o'zgartiradi, tabiiylikka putur yetkazib, rivojlanish muvozanatini buzadi, tabiiy jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday ekologik salbiy ta'sirning oqibati esa tabiatdagi o'zaro mutanosiblikka zarar yetkazib, biosfera va inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun ham tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi muvozanat me'yorini saqlab qolish, ona tabiatdan va uning boyliklaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilishga juda katta e'tibor berish insoniyat oldidagi dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Zero, hozirgi sharoitda, tabiatni muhofaza qilish, ekologik muammolarni hal etish, ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurash insoniyatning ongli faoliyati bo'lmog'i lozim.

Shunday ekan, ekologiya huquqi tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi mavjud qonuniyatlarni ochib beradi, boshqa ekologiya huquqi institutlarini kengroq o'rganish uchun nazariy asos hisoblanadi, ekologik siyosatning shakllanishiga va rivojlanishiga keng ta'sir ko'rsatadi, ekologik-huquqiy ong va tafakkur hamda ekologik-huquqiy ma'naviyat va madaniyatning negizini yaratadi.

Ekologiya huquqining huquq tizimida mustaqil fan tarmog'i sifatida tan olinishi uning predmeti va metodiga oid maxsus belgilaridir. Ekologiya huquqi fanining predmeti u o'rganadigan masalalarning majmui hisoblanadi. Demak, *ekologiya huquqi fanining predmeti* – tabiat, jamiyat va insoniyat (kishilar) o'rtasidagi o'zaro tabiiy mutanosiblikni saqlash hamda ekologik huquqiy munosabatlarni mustahkamlashdan iborat.

Ekologiya huquqi boshqa huquq tarmoqlaridan o'zining subyektiva va obyektiga egaligi, davlat ekologik boshqaruv tizimi mavjudligi, ekologik huquqiy normalarga rioya qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza etish, xalqaro ekologiya huquqi normalari bilan



bog‘liqligi nuqtai nazaridan farq qiladi. Buni keng ma’noda ekologiyaga oid muammolar chegara bilmasligi va global tusga ega ekanligi bilan tushuntirish mumkin.

Hozirgi kunda barcha fanlar qatori ekologiya huquqining bir qator vazifalari mavjud. Bu vazifalar uning maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq.

***Ekologiya huquqining asosiy maqsadi*** – tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, hozirgi va kelajak avlod uchun tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni huquqiy ekologik muhofaza qilish hamda jamiyatdagi ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish.

Shunday qilib, ekologiya huquqi fanining hozirgi kundagi *asosiy vazifalari* quyidagilar hisoblanishi mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasining ekologik siyosatini mustahkamlash;
- mustaqil respublikamizdagi mavjud tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni ekologik-huquqiy muhofaza qilish;
- iqtisodiy, huquqiy, geografik va milliy xususiyatlarni inobatga olib, ekologiya sohasida qabul qilingan qonun ustuvorligini ta’minlash;
- xalqimiz, ayniqsa yoshlar o‘rtasida ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyani rivojlantirish;
- ommaning huquqiy-ekologik ma’naviyati va madaniyatini yanada yuksaltirish;
- ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini mustahkamlash;
- xalqaro ekologiya huquqi prinsiplariga rioya etish, ularni hayotga joriy etish va xalqaro ekologiya huquqi talablari asosida ish olib borish.

Ekologiya huquqi fani bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan *umumiy* va *maxsus* qismlardan iborat. Ekologiya huquqi fanining tizimi – ekologik qonuniyatlarga asosan, o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq ekologiya huquqi institutlarining mantiqiy joylashish majmui hisoblanadi. Ekologiya huquqi maxsus qismining normalarini amalda joriy etishda umumiy qism normalarining qoidalari tatbiq etiladi. Umumiy qismning normalari faqat maxsus qismning normalari asosida yoki birgalikda qo‘llaniladi. Maxsus qism normalarini qo‘llashda umumiy qism normalari yo‘naltiruvchi va tartibga soluvchi normalar hisoblanadi. Shunday ekan, ekologiya huquqi maxsus qismining normalari umumiy qism normalari qoidalariga va institutlariga asoslangan va unga muvofiqdir.

*Ekologiya huquqining umumiy qismi* – hamma qismlarga va institutlarga tegishli umumiy masalalarning bir tartibda ko‘rib chiqilishi va

o'rganilishi holatini namoyon etadi. Mazkur darslikning umumiy qismida: «ekologiya huquqi» tushunchasi, predmeti, metodi, tizimi, prinsiplari va manbalari, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi va nazoratining huquqiy-ekologik holati, ekologik huquqbuzarliklar va ekologik-huquqiy javobgarlik masalalari o'rganiladi.

*Ekologiya huquqining maxsus qismida esa* – yer, suv, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, o'rmon, atmosfera havosi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik-huquqiy tartibi hamda atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish masalalari yoritiladi. Har qanday o'quv fani muayyan metodga, usulga ya'ni o'rganilayotgan hodisalarni anglab yetish vositalariga ega bo'ladi.

### **3-§. Ekologiya huquqining metodi, prinsiplari va manbalari**

*Ekologiya huquqining metodini* tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, muvozanatni aks ettiruvchi ekologik-huquqiy bilimlar olishda qo'llaniladigan ilmiy faoliyat prinsiplari, usullari tashkil qiladi.

Umuman olganda, metodlarni xususiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, barcha o'quv fanlariga xos bo'lgan metodlar bo'lib, ularning asosida tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiy qonuniyatlari yotadi. Ikkinchisi, maxsus metodlar bo'lib, ularga tarixiy, mantiqiy, sotsiologik, qiyosiy, kibernetik va sistemali metodlar kiradi.

Ushbu talabdan kelib chiqadigan bo'lsak, ekologiya huquqi fanining metodlari tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va muvozanat, ularning rivojlanish qonuniyatlari, tabiatni hozirgi va kelajak avlod uchun saqlashning ahvoli va mohiyati haqida ekologik-huquqiy bilim olishga yordam beruvchi usul va vositalar birligidan iborat.

Ekologiya huquqi kursining metod (usul)lari o'zaro bog'liq bo'lgan muayyan tizimini tashkil qiladi. Bu tizimga bir qancha metodlarni kiritish mumkin.

*Tarixiy-huquqiy metod* – ekologiya sohasida tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi o'zaro tabiiy bog'liqlikni tarixiy asosda o'rganishni taqozo etadi. Mazkur metodda kishilik jamiyatining turli davrlarida ro'y bergan ekologik hodisalar, tabiat va inson o'rtasidagi muayyan mutanosibliklar haqida tegishli ekologik huquqiy bilim olish imkonini beradigan tarixiy-huquqiy ekologik manbalar, qonunlar, boshqa huquqiy normalar tarixiy tahlil qilinadi.

**Mantiqiy metod** – ekologik-huquqiy muammolarni o‘rganishda, ekologik huquqbuzarliklarga baho berishda har tomonlama to‘g‘ri mantiqiy xulosa chiqarishga undaydi, ekologiya huquqi fanini o‘rganishda, ekologik qonun hujjatlarini qo‘llashda ma’lum ziddiyatlarni keltirib chiqarishning oldini oladi.

**Sotsiologik metod** – ekologik muammolarni hal qilishda, turli so‘rovlar orqali o‘rganishni, anketalar yordamida ekologiya sohasida turli ma’lumotlar to‘plashni, huquqiy-ekologik statistik ma’lumot va olingan natijalardan foydalanishni talab qiladi.

Bu metod orqali, ekologik-huquqiy talim-tarbiya, ekologik-huquqiy ma’naviyat va madaniyat hamda ekologiya borasida olib boriladigan boshqa tadbirlarning samaradorligi aniqlanishi mumkin.

**Qiyosiy metod** – ekologik muammolar va ularning oldini olish, ekologik huquqbuzarliklar va ularga qarshi kurash yoki ekologiya sohasi bilan bog‘liq barcha hodisalar, tushunchalar, nazariya va g‘oyalar, jarayonlarni o‘zaro solishtirish, taqqoslash va shu asosda ular o‘rtasidagi mavjud o‘xshashliklar hamda farqlarni aniqlash imkonini beradi. Ekologik muammolarni bilish va hal qilishda turli mamlakatlarning ekologik-huquqiy qonunlari taqqoslab o‘rganilishi mumkin.

**Kibernetik metod** – ekologiya muammosini yoki ekologiya huquqi oldiga qo‘ygan barcha vazifalarni hal qilish borasida, matematik-statistik, axborot-qidiruv tizimini yaratishda ushbu metodlarni qo‘llagan holda huquqiy-ekologik statistik axborotni kompyuterlar yordamida bilib olish, saqlash, qayta ishlashda turli xil texnika vositalarini qo‘llashni o‘rganishga yordam beradi.

**Sistemali metod** – ekologiya huquqi fani ekologik muammolarni o‘rganish va ularni hal qilish, ushbu global muammoning oldini olishda tizimli yondashuvni hisobga olgan holda ilmiy obyektivlik hamda tarixiylik prinsiplariga asoslanadi. Ushbu metodlar, deyarli barcha fanlarga xos bo‘lib, bevosita ekologiya huquqi fani uchun ham qo‘llanishi mumkin. Bundan tashqari, ekologiya huquqining bir qator o‘ziga xos metodlari ham mavjud.

**Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy metodi** – bu tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishda ekologik nazoratning davlat va jamoat usullarini qo‘llash, ekologiya sohasida boshqaruvni tashkil etishda taqiqlovchi, ruxsat beruvchi, tavsiya beruvchi, majburlovchi, kompensatsiyalovchi va boshqa normalarni huquqiy jihatdan belgilash, ekologik huquqbuzarliklar uchun ekologik iqtisodiy va yuridik javobgarlik choralarini belgilash, yetkazilgan ekologik zararni qoplash yoki to‘lash tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

***Tabiatni muhofaza qilishning ma'muriy huquqiy metodi*** – asosan, tabiatni muhofaza qilish yoki ekologiya sohasida, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish yo‘li bo‘lib, taqiqlovchi, oldini oluvchi hamda majburlovchi normalarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

***Tabiatni muhofaza qilishning fuqaroviy-huquqiy metodi*** jamiyatdagi munosabatlarni huquqiy-ekologik tartibga solish yo‘li bo‘lib, moddiy (iqtisodiy) manfaatdorlikni qo‘llash orqali tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan kelib chiqadi.

***Ekologlashtirish metodi*** – ekologiya sohasidagi barcha muammolarni hal etishda, ekologiya huquqi normalarini qabul qilishda, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda, tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashda «ekologiyalashtirish», ya’ni ekologik talabga javob beradigan texnologiyalar joriy etish va ekologik muozanatni saqlashda namoyon bo‘ladi.

Ekologiya huquqi fani predmeti va metodlarini huquqiy tartibga solishda uning prinsiplari katta ahamiyatga ega.

Ekologiya huquqi fanining prinsiplari deganda, ekologiya huquqi normalarida mustahkamlab qo‘yilgan, uning umuman mazmunini va alohida institutlari mazmun va mohiyatini belgilovchi nazariyaning g‘oyalari hamda qoidalari tushuniladi. Shunisi e‘tiborliki, ekologiya huquqining prinsiplari tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi uzviy, chambarchas bog‘liqlikni mustahkamlaydi.

Zero, ekologiya huquqi fanining o‘ziga xos prinsiplari shundaki, u mazkur fanning, tabiatni muhofaza qilishning asosiy maqsad va vazifalari bilan mustahkam bog‘liq.

Ekologiya huquqi fanining prinsiplari va mohiyati O‘zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunining 3-4 moddalari talabidan kelib chiqadi<sup>1</sup>.

Demak, ekologiya huquqi fanining prinsiplari umumijtimoiy, huquqiy fanlarga xos va alohida o‘ziga xos prinsiplarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) tabiat resurslaridan oqilona, samarali foydalanish va ularni muhofazasini ta‘minlash;
- 2) insonning yashash muhiti bo‘lmish biosfera va ekologik tizimlari barqarorligini saqlash;

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1993. – №1. – 37-м.

3) inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g'amxo'rlik qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

4) fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash;

5) ta'lim muassasalarida ekologik o'qishning majburiyligi;

6) jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg'unlashtirish;

7) tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun haq to'lash va umumiy asoslarda foydalanganlik uchun haq to'lamaslik;

8) ekologik ekspertiza o'tkazishning majburiyligi;

9) tabiatdan oqilona foydalanishni va tabiatni muhofaza qilishni rag'batlantirish;

10) tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishda oshkoralik;

11) tabiat resurslarini doimo tiklab borishning zarurligi;

12) tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, mintaqalararo va xalqaro manfaatlarini uyg'unlashtirish;

13) tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlatning tashqi va ichki ekologik siyosatini mustahkamlash;

14) tabiatni muhofaza qilish qonunlari talablarini buzganlik uchun javobgarlik.

Mazkur prinsiplarning ustuvorligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (50, 54, 55, 80, 93 va 100 m.m.) o'z aksini topgan va mustahkamlangan.

Ekologik-agrar qonunlarning hammasida ham aniq prinsiplar ko'rsatilmagan. Ammo O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30 aprelda qabul qilingan. «Yer kodeksi»da<sup>1</sup> yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplari aniq ko'rsatib berilgan.

Barcha fanlar kabi ekologiya huquqi fani ham o'zining manbalariga ega. Tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi ekologik munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soladigan normativ huquqiy hujjatlar ekologiya huquqining manbalari hisoblanadi.

Normativ ekologik huquqiy aktlar – tegishli vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilgan yuridik hujjati hisoblanib, umumijburiy xususiyatga ega, shuningdek normativ ekologik huquqiy hujjatlar ham bir qator *xususiyatga ega*:

1) ular ekologik huquqiy normalarni belgilab beradilar, o'zgartiradilar va bekor qiladilar;

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1998. – №5-6. – 82-м.

2) tabiatni muhofaza qilishga oid qoidalarning mazmuni batafsil yoritiladi;

3) belgilangan ekologik huquqiy normalarga umummajburiy tus beradi yoki tabiatni muhofaza qilishga oid bo'lgan ilgari belgilangan ekologik huquqiy normalarning amalda bo'lishini bekor qiladi yoki to'xtatadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida ekologiya huquqi fanining tarixiy rivojlanishi quyidagi *bosqichlardan* iborat bo'lishi mumkin:

1) 1924–1957-yillar O'zbekistonda dastlabki yer-suv, agrar islohotlarning o'tkazilishi va olib borilishi;

2) 1957–1963-yillarda O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishga oid qonunlarning qabul qilinishi;

3) 1968–1981-yillarda respublikamizning yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmon, hayvonot dunyosi va atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlari kodifikatsiya qilinishi;

4) 1985–1990-yillarda tabiatni muhofaza qilishga oid bir qator o'zgarishlar, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining tashkil etilishi;

5) 1991-yildan hozirgi davrgacha, ya'ni O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi, sobiq ittifoqning yemirilishi hamda bir qator ekologik va agrar ahamiyatga ega bo'lgan qonunlarning qabul qilinishi bilan bog'liq.

Demak, biz yuqorida to'xtalib o'tgan normativ ekologik-huquqiy hujjatlar quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

1. Qonun – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bosh yo'naltiruvchi hisoblanib, barcha ekologik qonunlar Konstitutsiya talablariga mos ravishda qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55, 80, 93 va 100-moddalarida bevosita tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq huquqiy asoslar aniq belgilab berilgan<sup>1</sup>.

2. Ekologiyaga oid qonunlar – O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosatini mustahkamlovchi huquqiy normalar bo'lib, Oliy Majlis sessiyalarida muhokama etilgach, matbuotda e'lon qilinib, xalq muhokamasidan keyin tegishli takliflar inobatga olinib qabul qilinadi.

Ular jumlasiga «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» (1992-y.), «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» (1993-y.), «Yer osti boyliklari to'g'ri-

---

<sup>1</sup> Qarang: Шоимов Н.Б. Атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш ва экологик хавфсизликни таъминлашнинг конституциявий-ҳуқуқий асослари // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг Ахборотномаси. – 2012. – №4. – Б. 62-65

sida» (2002-y.), «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida» (1996-y.), «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida» (1997-y.), «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida» (1997-y.), «Yer kodeksi» (1998-y.), «O‘rmon to‘g‘risida» (1999-y.), «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida» (2000-y.), «Chiqindilar to‘g‘risida» (2002-y.), «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi (2004-y.) va boshqa qonunlarni kiritish mumkin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari Konsultatsiyaning 94-moddasiga binoan, Prezident tomonidan chiqariladigan va ekologik muammolarni hal qilish, ularning oldini olish va tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlar ekologiya huquqining manbai hisoblanadi.

Prezidentimizning mustaqillik davrida qabul qilingan bir qator farmon va qarorlari ekologiya masalalarini hal qilishga qaratilgan bo‘lib, benihoya katta ekologik, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va xalqaro ahamiyatga ega. Ular jumlasiga:

– «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash to‘g‘risida»gi 1997-yil 25-iyundagi farmoni;

– «Sanitariya qonunlarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida»gi 1998-yil 2-mart farmoni;

– «O‘zbekiston Respublikasining Yer resurslari davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi 1998-yil 24-iyuldagi farmoni;

– «Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida»gi 1998-yil 10-oktabrdagi farmoni;

– «O‘zbekiston Respublikasi Davlat o‘rmon qo‘mitasini O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasiga aylantirish to‘g‘risida»gi 2000-yil 7-fevraldagi farmoni;

– «Yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalar berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2007-yil 7-iyundagi qarori;

– «Noruda foydali qazilmalarni o‘z ichiga olgan yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 2011-yil 2-maydagi qarori;

– «2013-2017-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-

tadbirlari to‘g‘risida»gi 2013-yil 19-apreldagi qarori va boshqa ko‘plab farmonlari katta ahamiyatga ega.

4. Vazirlar Mahkamasining qarorlari – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga asosan, Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Mazkur huquqiy holat, bevosita ekologik muammo va tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq qaror va farmoyishlar bo‘lishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining tabiatni muhofaza qilish va ekologiya muammasi bilan bog‘liq qaror va farmoyishlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasining ekologik qonunlari va Prezidentning farmonlarini amalga oshirishga qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining:

– «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1998-yil 29-may 235-sonli qarori;

– «2011-2015-yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2010-yil 29-dekabrdaqi qarori;

– «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha Davlat Komissiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 2010-yil 24-dekabrdaqi qarori;

– «Yer qa‘rini geologik jihatdan o‘rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 2011-yil 28-iyuldaqi qarori;

– «2011-2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit davlat monitoringi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2011-yil 31-oktabrdaqi qarori;

– «O‘zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish va suv iste‘moli tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 2013-yil 19-martdaqi qarori;

– «2013-2017-yillarda O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha harakatlar dasturi to‘g‘risida»gi 2013-yil 27-maydaqi qarori;

5. O‘zbekiston Respublikasidagi turli vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid buyruq va



yo'riqnomalari davlat boshqaruvi organlarining normativ-huquqiy hujjatlari. Masalan, Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar va Adliya vazirliklari va boshqalar tomonidan qabul qilingan buyruq va yo'riqnomalar ekologiya huquqining ham manbai bo'ladi.

Ular Konstitutsiyamizga asosan qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunlari va Prezidentning ushbu sohadagi farmonlari hamda hukumat qararlarini bajarishga qaratilgan.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasining ekologik masalaga oid normativ huquqiy hujjatlari ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bunday ekologik huquqiy hujjatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida amalda bo'ladi.

7. Davlat hokimiyati mahalliy organlarining tabiatni muhofaza qilish va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan qarorlari. Ta'kidlash joizki, davlat ijroiya hokimiyat organlarining ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlari vakillik organlari hamda yuqori turuvchi ijroiya organlarining ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid hujjatlariga muvofiq kelishi shart.

Ekologiya huquqi o'quv fani sifatida turli ijtimoiy va huquqiy fanlar bilan chambarchas bog'langan. Bu uzviy bog'liqlik ushbu fanlarning o'rganish obyekti umumiylikidan, ahamiyatligidan kelib chiqadi. Ular o'z predmeti doirasida tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlar hamda u bilan bog'liq turli ijtimoiy hodisalarni o'rganadi.

Bu fanlarning xususiyati shundaki, ular o'zlari o'rganadigan fan sohasiga va uning aniq predmetiga ega bo'ladi.

Shunday ekan, ekologiya huquqi fani ijtimoiy fanlar bo'lmish iqtisodiyot, siyosatshunoslik, falsafa va sotsiologiya fanlari bilan uzviy bog'liqdir.

*Iqtisodiy fanlar va ekologiya huquqi.* Iqtisodiy fanlar ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, xo'jalik hayotini tashkil etish, xo'jalik sohalari mehnat, moliya va shunga o'xshash bazis hisoblanuvchi

hodisalarni o'rganadi. Ekologiya huquqi fani esa tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi iqtisodiy holat bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni ekologik nuqtai nazardan o'rganadi.

Ekologiya huquqining yana bir xususiyati shundaki, u bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda har bir tabiat obyektidan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni talab qiladi.

*Siyosatshunoslik va ekologiya huquqi.* Siyosatshunoslik siyosatni, uning shakllarini, siyosiy jarayonlar, davlat hokimiyatiga erishish vositalari, partiyalar va ularning faoliyatini, davlat va shaxsning o'zaro munosabatlarini hamda fuqarolik jamiyati va shunga o'xshash ko'plab siyosiy muammolarni o'rganadi.

Ekologiya huquqi esa aynan shu jamiyatda inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'lanish, davlatning ekologik siyosati va uning xalqaro miqyosdagi o'rni bilan bog'lanadi.

*Falsafa va ekologiya huquqi.* Falsafa tabiat va jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. U tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi ekologik-huquqiy masalalarni umumiy tarzda, ijtimoiy hodisa sifatida o'rganishi mumkin.

Ammo ekologiya huquqi fani falsafiy xulosalarga tayangan holda tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi turli muammolarni huquqiy-ekologik jihatdan o'rganishni aniqlashtiradi hamda bir qator nazariy va amaliy masalalarni o'rganadi.

*Sotsiologiya va ekologiya huquqi.* Sotsiologiya jamiyatning yaxlit va alohida tuzilishi, ijtimoiy guruhlar sotsial jarayonlar, alohida shaxslar va guruhlar xulq-atvori qonuniyatlari haqidagi fan hisoblanadi. Sotsiologiya o'zining xulosalarida ijtimoiy tajriba va so'rov ma'lumotlariga asoslanib ish olib boradi.

Ekologiya huquqi fani esa o'z rivojlanishida tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi muammolarni yechishda, oldini olishda sotsiologik tadqiqotlar, so'rovlar, ijtimoiy tajriba xulosalari, ekologik huquqiy fikr va dunyoqarashga ega bo'lgan g'oyalardan foydalanadi.

*Huquqiy fanlar va ekologiya huquqi.* Ekologiya huquqi o'quv fani yuridik fanlar bilan uzviy aloqadordir. Ekologiya huquqi fanining asosiy poydevori bo'lib davlat va huquq nazariyasi hisoblanadi hamda umum metodologik nazariy fan sifatida namoyon bo'ladi.

Ekologiya huquqi fanining ham hayotiyliigi, ham xususiyati shundaki, u ko'plab huquq tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lgan fanlar, ya'ni:

- 1) siyosiy ta'limotlar va huquqiy qarashlar tarixi;

2) davlat huquqi, davlat qurilishi va boshqaruvi, ma'muriy huquq va moliya huquqi, inson huquqi, konstitutsiyaviy huquq;

3) fuqarolik huquqi, oila huquqi, fuqarolik protsessual huquqi, xalqaro huquq, xo'jalik huquqi, mehnat huquqi;

4) qishloq xo'jalik huquqi, yer, suv, o'rmon va tog'-kon huquqi;

5) jinoyat va jinoyat-protsessual huquqlari, kriminologiya, prokuror nazorati huquqi;

6) musulmon huquqi, soliq, bojxona va boshqa huquq tizimi sohalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Xullas, ekologiya huquqi juda dolzarb fan bo'lib, u global ekologik muammoni o'rganishda, uni hal qilishda yuqoridagi ijtimoiy va huquqiy fanlarning nazariy qoida va xulosalariga bevosita tayanib ish olib boradi.

### ***Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:***

1. «Tabiat», «jamiyat» va «inson» tushunchalari nima?

2. «Ekologiya» so'zi qanday ma'noni anglatadi?

3. Prezident I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ekologik muammolarning qaysi jihatlariga ko'proq to'xtalgan?

4. Ekologiya huquqining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

5. Nima uchun ekologiya huquqi umumiy va maxsus qismlarga bo'lib o'rganiladi?

6. Ekologiya huquqi fani qaysi yuridik va ijtimoiy gumanitar fanlar bilan uzviy chambarchas bog'langan holda o'rganiladi?

7. Bugungi kunda ekologik muammolarning oldini olish uchun qanday harakatlarni amalga oshirish lozim?

8. Ekologik konsepsiya deganda nimani tushunasiz?

9. Ekologik konsepsiyaning qanday turlarini bilasiz?

10.) Alarmizm nima?

11. Ekologiya huquqining metodi deb nimaga aytiladi?

12. Ekologiya huquqining qanday prinsiplarini bilasiz?

13. Ekologiya huquqining manbalari nima va unga nimalar kiradi?

---

---

## *Ikkinchi bob*

### **EKOLOGIYA SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI VA NAZORATI. TABIY OBYEKTLARGA NISBATAN MULK HUQUQI**

#### **1-§. «Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi va nazorat etish» tushunchasi hamda uning vazifalari**

Bozor iqtisodiyoti sharoiti va mustaqillik O‘zbekiston Respublikasida tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni talab qiladi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini tashkil etish hamda nazoratini kuchaytirish va uni olib borish mustaqil davlatimiz ekologik siyosatining asosini tashkil etadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi davlat organlari tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni tashkil qilishda namoyon bo‘ladi va jamiyatda ijtimoiy boshqaruvning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini shakllantirish orqali davlat o‘zining ekologik vakolatini va siyosatini amalga oshiradi. Ushbu boshqarishni tashkil etish asosida inson atrof-muhitni yaxshilash, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash maqsadlari turadi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi orqali davlat tabiiy resurslarining mulkdori sifatida tabiiy resurslardan foydalanishni tashkil etish maqsadida ularni tassarruf etish huquqini amalga oshiradi.

Ekologiya huquqi fanida ekologiya sohasida davlat boshqaruvi alohida institut hisoblanib, o‘z xususiyatiga ko‘ra, bir qator prinsiplari, shakllari va funksiyalari bilan farqlanib turadi.

Chunki Sobiq ittifoq davrida ma’muriy buyruqbozlik ushbu sohaga ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatgan. Endilikda ma’muriy buyruqbozlik mazkur sohada yo‘qotildi, hozirgi sharoitda ko‘p mulkchilikning xususiyatlari inobatga olinib, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi amalga oshirilmoqda.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi – davlatning ijroiya farmoyish berish va ijroiya boshqaruv faoliyati bo‘lib, u tabiat va inson o‘rtasidagi mavjud muvozanatni saqlashga qaratilgan, tabiat resurslaridan

foydalanuvchi subyektlarning o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlari, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish tartibi bilan bevosita bog'liqdir.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvining obyekt – insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish borasidagi faoliyati va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvidan maqsad tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish, ularning bajarilishini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi va ekologik qonunlarga qat'iy rioya etish, inson hayoti uchun qulay ekologik muhit yaratish, mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish hamda barcha tabiat boyliklarini kelajak avlod va mustaqil davlatmizning ravnaqi uchun ko'z qorachig'i-dek saqlashdan iborat bo'lishi lozim.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini ta'minlash bir qator prinsiplarga amal qilishni ham taqozo etadi. Bular:

- inson hayoti va uning sog'lig'ini ta'minlash, buning uchun tabiat obyektlarini saqlash va tiklab borish;

- tabiat resurslariga nisbatan davlat mulkchiligi;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida ekologik muammolarni hal qilishda davlatning alohida e'tibor berishi;

- ekologiya sohasida davlat boshqaruvini olib borish, tashkil etish va bajarish jarayonida turli samarali iqtisodiy metodlardan foydalanish lozimligi;

- ekologik muammolarni hal qilishda keng jamoatchilik, fuqarolar, jamoat tashkilotlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini jalb qilish;

- demokratik sentralizm va qonuniylik;

- kelajak avlod oldida ekologik muammolarni hal etishdagi javobgarlik kabi va boshqa asosiy xususiyatga ega bo'lgan prinsiplar mavjud.

Bulardan tashqari, ushbu sohada qonunchilik, rejalashtirish va bo'ysunish kabi umumiy prinsiplarni ham o'z ichiga oladi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi uch shaklda amalga oshiriladi:

- 1) *huquq ijodkorligi* – bunda ekologiya sohasini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish mumkin bo'ladi;

- 2) *huquqni tatbiq etish* – davlat tomonidan aniq tadbirlarni amalga oshirish uchun qabul qilingan normativ hujjatlarni boshqarish jarayonida qo'llashni ta'minlash;

3) *huquqni muhofaza qilish* – davlatning ekologiya sohasini boshqarish va bu bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa talablarni o‘z vaqtida bajarmaganlik uchun tegishli javobgarliklar belgilashi orqali amalga oshiriladi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini tashkil etishning alohida metodlari ham mavjud bo‘lib, bunda, albatta, ko‘p mulkchilik va subyektlarning ushbu sohadagi xususiyatlari inobatga olinadi. Masalan, ko‘rsatmaning majburiyligi, chiqarilgan buyruqlarning davlat organlari tomonidan bajarilishi, davlat tomonidan ruxsat berilishi (ekologik ekspertiza uchun) va boshqalar.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayoni davlat boshqaruvini mustahkamlovchi o‘zining bir qator funksiyalariga tayanadi.

- 1) atrof tabiiy muhit sifatining normativlari va standartlari;
- 2) ekologik monitoringning mavjudligi;
- 3) tabiat resurslariga nisbatan ekologik kadastrning yuritilishi;
- 4) ekologik ekspertizaning o‘tkazilishi;
- 5) ekologik nazoratni tashkillashtirish va olib borish;
- 6) ekologik to‘lov va soliqlarni undirish;
- 7) ekologiya sohasidagi qonunlarni buzganlik uchun aniq

javobgarliklar mavjudligi.

Biz mavjud ko‘rsatilgan funksiyalarni keyingi paragraf va boblarimizda aniq va kengroq tahlil qilishga harakat qilamiz.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik muammolarni hal etish bir qancha davlat organlarining birgalikda va chambarchas ish olib borishini taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi.

Bu shundan dalolat beradiki, yuqoridagi organlar o‘z huquqiy vakolatlari jarayonida ekologik muammolarni hal etishda davlatning ekologik siyosatini amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunida ekologiya sohasida davlat boshqaruviga katta e’tibor berilib, alohida II bob «Davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining tabiatni muhofaza etishga taalluqli huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari» (7-11 moddalar) deb nomlanadi.

Davlat boshqaruv organlarini ekologiya sohasidagi vakolatlariga qarab tizimga bo'lish mumkin.

Umumiy va maxsus.

Umumiy vakolatli davlat boshqaruvi organlariga quyidagilar kiradi:

- Prezident va uning devoni;
- Oliy Majlis;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi;
- Vazirlar Mahkamasi;
- Mahalliy hokimiyatlar.

Prezident ekologiya sohasidagi ishlarni amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasida ko'rsatilgan yoki o'z vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni hal etadi.

Shuningdek, Prezident o'z vakolati doirasida:

1) ekologiya sohasidagi qonunlarni imzolaydi va shunga oid farmon, farmoyish va qarorlar qabul qiladi;

2) ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash uchun zaruriy chora-tadbirlar ko'radi;

3) Oliy Majlis tasdig'iga tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining raisi lavozimiga nomzod taqdim etadi;

4) ekologik inqiroz yoki talofat ko'rgan hududlar yoki butun hudud bo'yicha favqulodda holat joriy etadi;

5) respublika ichki va xalqaro ekologik siyosatiga doir vakolatlarni amalga oshiradi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 7-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining tabiatni muhofaza qilishga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari berilgan bo'lib, unga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

– tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;

– davlat ekologiya dasturlarini tasdiqlash;

– tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

– hududlarni favqulodda ekologik vaziyat, ekologik ofat va ekologik halokat zonalari deb e'lon qilish, bunday zonalarning huquqiy rejimini va jabrlanganlarning maqomini belgilash;

– tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni muvofiqlashtirib borish;

– tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun haqning chegara miqdorlarini belgilash, shuningdek to‘lovlarni undirish bo‘yicha imtiyozlar belgilash;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish.

Amaldagi qonunchilikka asosan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ hujjatlariga muvofiq Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari quyidagilardir:

– tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosat yuritish;

– tabiat resurslaridan foydalanishni tartibga solish;

– tabiiy resurslarga nisbatan tabiat kadastr yuritilishi tartibini belgilash va bunday kadastr yuritilishini ta‘minlash, respublika ahamiyatiga molik tabiiy resurslarning zaxiralarini tasdiqlash;

– ekologiya jihatidan tang vaziyatlar, tabiiy ofatlar va falokatlarning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

– tabiiy ofatlar va yirik avariylarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

– tabiiy resurslardan foydalanganlik, atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik, chiqindilar, zararli ta‘sir etuvchi boshqa narsalar joylashtirib tashlaganlik uchun haq to‘lash tartibini, shuningdek tabiiy resurslardan foydalanish, chiqindilar joylashtirish limitlarini belgilash;

– ekologiya maorifi va tarbiyasi tizimini yaratish hamda uning amal qilishini ta‘minlash;

– tabiatdan alohida tartibda foydalaniladigan hududlarning chegaralarini, tabiatni muhofaza qilish va xo‘jalik faoliyati rejimlarini tasdiqlash;

– tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish;

– O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolat doirasiga kiradi.

E’tirof etish lozimki, tabiatni muhofaza qilish sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining vakolatlari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

– o‘z hududida tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, mintaqaning (hududning) ekologiya dasturini tasdiqlash;

– tabiiy resurslarni hisobga olish va ularning ahvoliga baho berish, ekologiya jihatidan zararli bo‘lgan obyektlarni ro‘yxatga olish;



– tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta'minlash;

– tabiiy resurslardan foydalanish huquqini beruvchi, sanoat chiqindilarini yoki ro'zg'or chiqindilarini to'plash yoki ko'mib tashlashga ruxsatnomalarni belgilangan tartibda berish yoki ularni bekor qilish;

– tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar undirish;

– tabiatning muhofaza qilinishi ustidan nazorat o'rnatish, atrof muhitga zarar yetkazayotgan mahalliy ahamiyatga molik obyektlar faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish va qayta ixtisoslashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

– O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan boshqa masalalarni tartibga solish davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarning vakolatiga kiradi.

Atrof muhitga zarar yetkazayotgan tadbirkorlik subyektlari hisoblangan mahalliy ahamiyatga molik obyektlarning faoliyatini to'xtatib qo'yish (favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va salomatligi uchun boshqa real xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bog'liq holda faoliyatni o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib qo'yish hollari bundan mustasno) yoki tugatish va qayta ixtisoslashtirish, shuningdek ularga berilgan tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga doir ruxsatnomani bekor qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Maxsus tizimga kiruvchi davlat organlari ekologiya sohasidagi tegishli vakolatlariga qarab, *kompleks, tarmoqlararo va funksional* guruhlariga bo'linadi.

*1. Kompleks guruhlariga kiruvchi davlat organlari quyidagilardir:*

– Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;

– Sog'liqni saqlash vazirligi;

– Davlat sanitariya nazorati;

– O'zgidromet;

– Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

– O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.

*2. Tarmoqlararo guruhga quyidagilar kiradi:*

– Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi;

– O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi;

– Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi;

– Ichki ishlar vazirligi;

– Yer resurslari davlat qo'mitasi;

– O'zbaliq.

### *3. Funksional guruhga quyidagilar kiradi:*

- Ichki ishlar vazirligi;
- Bojxona qo‘mitasi;
- Soliq qo‘mitasi;
- Yer qa‘rini geologik o‘rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;
- Davlat veterinariya nazorati va boshqalar.

Yuqorida nomlari ko‘rsatib o‘tilgan barcha vazirlik, idora va qo‘mitalar ekologiya sohasida boshqaruv va nazorat etish ishlarini amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga qat‘iy amal qiladilar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining barcha qarorlari hamda Oliy Majlisning qarorlarini bajaradilar, shuningdek o‘z nizomlari va boshqa normativ hujjatlarga tayanib ish olib boradilar.

## **2-§. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlarining tizimi va vakolatlari**

Ekologiya sohasida davlat boshqaruv organlarining vakolatlari deganda ularning shu sohadagi faoliyatlarining alohida turlari tushunilishi lozim.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruv organlari quyidagi vakolatlarni amalga oshiradilar:

Tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni qabul qilish yo‘li bilan davlat organlari qonun va hukumat qarorlaridagi qoidalarni yanada rivojlantiruvchi va detallashtirilgan idoraviy normativ hujjatlar qabul qiladilar. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida yer solig‘iga oid me‘yorlar kiritilgan va unga muvofiq yer solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Bundan tashqari, yer solig‘ini hisoblash va undirish bo‘yicha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan 2002-yil 21-yanvarda tasdiqlangan va Adliya vazirligida 27-mart 2002-yil 1118-raqam bilan davlat ro‘yxatiga olingan «Yer solig‘ini hisoblash va tiklash tartibi to‘g‘risida»gi Yo‘riqnomalar bilan tartibga solinadi. Idoraviy me‘yoriy hujjatlar asosan me‘yoriy hujjatlarda texnik va tabiiy fanlar talablarini kiritish lozim bo‘lganda qabul qilinadi. Bunday yo‘riqnomalar geologiya va konlardan foydalanish sohasida ko‘p qabul qilingan.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvining asosiy elementi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishning davlat tomonidan nazorat qilinishidir. Bu katta ahamiyatga ega.

«Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»<sup>1</sup> gi qonunda mazkur masalaga alohida e‘tibor berilgan va unga qonunning VII bob, 28–32-moddalari bag‘ishlangan.

Shu bilan birga, ekologiya sohasida davlat nazorati va uning huquqiy tomonlari bir qator huquqiy adabiyotlarda<sup>2</sup> ham ko‘rsatilgan. Umuman olganda, quyidagi xususiyatlar «ekologik nazorat» tushunchasini belgilab beradi:

– ekologik nazorat respublikamizda tabiatni muhofaza qilishning asosiy bo‘lagi;

– u mustaqil davlatimizning ekologik siyosatini o‘zida aks ettiradi;

– ekologiya sohasida davlat boshqaruvining asosiy elementi.

Amaldagi «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 29-moddasiga asosan, ekologik nazoratning quyidagi vazifalari mavjud:

– atrof tabiiy muhit holatini hamda xo‘jalik yuritish va boshqa faoliyat ta’siri ostida unda bo‘ladigan o‘zgarishlarni kuzatib borish;

– atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni himoya qilishga doir qonunlar talablari va atrof muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlarning bajarilishini tekshirish.

Ekologik nazorat tizimi Davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat, idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazoratidan iborat.

Aytish joizki, tabiatni muhofaza qilish sohasida ekologik nazorat jarayonida quyidagilar ustidan nazorat o‘tkaziladi:

1) mavjud tabiat obyektlari: yer, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi, o‘rmon, o‘simlik va hayvonot dunyosining holatini nazorat etish;

2) ishlab chiqilgan ekologik loyihalar, hujjatlar va ularning barcha sohalarda qo‘llanilishi nazorat qilish;

3) tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat etish;

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1993. – № 1. – 37-м.

<sup>2</sup> Калонов Б.Х. Ўзбекистон Республикасида давлат экология назоратининг ҳукукий муаммолари. ю.ф.н.дисс... автореферати. – Т., 2004. – Б.21.

4) amaldagi ekologik qonunlarga rioya qilinishini nazorat etish.

Ekologik nazoratning quyidagi *shakllari* mavjud:

- axborotlash;
- ogohlantirish;
- jazolash.

Amaldagi qonunchilikka asosan ekologik nazoratning quyidagi *turlari* mavjud:

- 1) atrof tabiiy muhit monitoringi;
- 2) davlat ekologik nazorati;
- 3) idoraviy ekologik nazorati;
- 4) ishlab chiqarish nazorati;
- 5) jamoat ekologik nazorati.

«Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 28-moddasida *atrof tabiiy muhit monitoringi* berilgan va unga asosan, O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslarini kuzatish, hisobga olish, ularga baho berish va ularning istiqbolini belgilashni ta‘minlash maqsadida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimi tashkil etiladi.

Atrof tabiiy muhitning holati, tabiiy resurslardan foydalanish ustidan kuzatuv maxsus vakolat berilgan idoralar, shuningdek faoliyati atrof tabiiy muhitning holatini yomonlashtiradigan yoki yomonlashtirishi mumkin bo‘lgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan amalga oshiriladi.

Maxsus vakolat berilgan idoralar, shuningdek aytib o‘tilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o‘z kuzatuvlariga doir materiallarni tegishli davlat idoralariga bepul berishlari shart.

Monitoring tuzilishi, mazmuni va uni amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 31-moddasida ko‘rsatilganidek, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi *davlat nazoratini* davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, maxsus vakolatli davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar maxsus vakolatli davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi;

– O‘zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

– O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi;

– O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi.

Maxsus vakolatli davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshirishda qatnashishga idoraviy ekologiya xizmat bo‘linmalarini belgilangan tartibda jalb etishlari mumkin.

«Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 32-moddasida tabiatni muhofaza qilish sohasidagi *idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazorati* qayd etilgan bo‘lib, unga binoan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning ekologiya xizmati shu vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati ustidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi idoraviy nazoratni amalga oshiradi.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ishlab chiqarish nazoratini korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ekologiya xizmati amalga oshiradi va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof tabiiy muhitni sog‘lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning talablari bajarilishi yuzasidan dasturlar hamda ayrim tadbirlar ijrosini tekshirish maqsadini ko‘zlaydi.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi jamoat nazoratini jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, fuqarolar amalga oshiradilar.

Idoraviy, ishlab chiqarish nazoratini amalga oshiruvchi ekologiya xizmatlarini va ekologiya sohasidagi jamoat nazoratini tashkil etish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi tartibi ushbu qonun va mazkur xizmatlar hamda jamoat nazorati to‘g‘risidagi nizomlar bilan tartibga solib boriladi.

Amaldagi ekologik qonunlar talablaridan ma‘lumki, ekologik nazoratni olib borishda bir qancha *usullardan* foydalaniladi:

1) kuzatib borish, ma‘lumotlar olish va berish;

2) tekshirish;

3) ekologik halokat va xavfning oldini olish;

4) ekologik qonunlar buzilishining oldini olish;

5) tegishli ruxsatnomalar berish, faoliyatni cheklash, to‘xtatish va bekor qilish;

6) tegishli jarimalar solish;

7) sodir etilgan huquqbuzarlik qurollarini musodara qilish.

Xullas, ekologiya sohasida davlat nazoratini olib borish barcha tabiat obyektlaridan oqilona foydalanishni va ularni muhofaza qilishni ta'minlaydi hamda ekologik qonun va talablarning to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvining yana bir funksiyasi ekologik ekspertiza hisoblanadi.

**Ekologik ekspertiza deganda** rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlash tushuniladi.

*Ekologik ekspertizaning maqsadi* – tabiatni muhofaza qilish, odamlar salomatligini saqlash va jamiyatning ekologik xavfsizligini ta'minlash uchun xo'jalik yuritishdagi zararli faoliyatlarning oldini olish.

*Ekologik ekspertizaning asosiy vazifasi* – muayyan xo'jalik obyektlarining atrof tabiiy muhitga va kishilar salomatligiga ta'siri darajasini baholashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi va «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi<sup>1</sup> qonunlari ekologik ekspertizaning huquqiy asoslari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi qonuni 2000-yil 25-mayda qabul qilingan bo'lib, 26 moddadan iborat.

Aytish joizki, ekologik ekspertiza o'tkazish uchun aniq maqsad bo'lishi kerak. Amaldagi qonunda ushbu masalaga alohida e'tibor berilgan. Mazkur qonunning 3-moddasida ko'rsatilganidek, ekologik ekspertiza quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

– mo'ljallanayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilinishidan oldingi bosqichlarda bunday faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

– rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyat atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa yoki shunday ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, bunday faoliyatning ekologik xavflilik darajasini aniqlash;

– atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning yetarliligi va asoslilikini aniqlash.

---

<sup>1</sup> Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2000. – № 5-6. – 144-м.

Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish muddati o'ttiz kundan oshmasligi lozim. Uni o'tkazish muddati davlat ekologik ekspertizasi obyektining murakkabligiga qarab O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi tomonidan ko'pi bilan ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

*Ekologik ekspertiza turlari asosan quyidagilardan iborat:*

- 1) davlat ekologik ekspertizasi;
- 2) jamoat ekologik ekspertizasi;
- 3) ekologik audit.

Qonunga asosan, ekologik ekspertiza buyurtmachisi yoki boshqa manfaatdor shaxslarning ekologik ekspertiza ekspertining faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

*Ana shu talablarni amalga oshirish uchun ekologik ekspertiza bir qator prinsiplarga asoslanadi:*

- 1) qonuniylik;
- 2) xolislik;
- 3) asoslilik;
- 4) ekologik xavfsizlik talablarini hisobga olishning majburiyligi;
- 5) har qanday rejalashtirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ehtimol tutilgan ekologik xavflilik prezumpsiyasi;
- 6) xo'jalik va boshqa xil faoliyatning atrof tabiiy muhitga va fuqarolar sog'lig'iga ta'sirini baholashning kompleksligi («Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi qonunning 5-m).

*Davlat ekologik ekspertizasi* – ekologiya sohasida vakolatli davlat organi tomonidan tayinlangan komissiya faoliyati bo'lib, uning xulosasi butun sohalar uchun bajarilishi majburiydir.

*Jamoat ekologik ekspertizasi* – ekologik asoslanish zarur bo'lgan har qanday faoliyat sohasida nodavlat, notijorat tashkilotlari va fuqarolarning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirishga to'sqinlik qilish taqiqlanadi.

Jamoat ekologik ekspertizasi davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilishidan qat'i nazar amalga oshirilishi mumkin. Jamoat ekologik ekspertizasining xulosasi tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi.

*Ekologik audit* – ekologik auditorlar (firmalar)ning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda atrof tabiiy muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ishlab turgan korxonalar va boshqa obyektlarni mustaqil ekologik ekspertiza qilishi.

Ekologik audit xo'jalik va boshqa xil faoliyat obyekti mulkdorining qaroriga binoan o'tkaziladi.

Bulardan tashqari, sohaviy, ilmiy, huquqiy, normativ va sanitariya – ekologik ekspertizalar ham o‘tkazilishi mumkin.

Umuman olganda, ekologiya sohasida (davlat) ekologik eksperti-zasini o‘tkazish va uni olib borish tabiat boyliklari va inson hayotini saqlashdan iborat bo‘lib, davlat ekologiya ekspertizasining ijobiy xulosasiga ega bo‘lmagan loyihalarni amalga oshirishni man etadi.

### **3-§. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining obyektlari, subyektlari tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari**

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir, deb ko‘rsatilishi tabiiy resurslarga nisbatan davlat va xalqning egaligini belgilaydi. Masalan, yerga nisbatan davlat mulki deganda shuni tushunish kerakki, yer ustidan va barcha yer fondi toifalaridan hukmronlikni, ya’ni uni tasarruf qilish huquqini faqat davlat amalga oshiradi.

Davlat yerning egasi sifatida yerga oid hamma masalalarni hal eta oladi, ya’ni foydalanish uchun beradi, qaytarib oladi, yerdan foydalanish maqsadlarini belgilaydi, yer tuzish ishlarini amalga oshiradi va hokazo.

Zero, yer – umummilliy boylik deganda undan shu hududda yashay-digan xalqlarning manfaatini ko‘zlab foydalanish tushuniladi yoki xalq bevosita yerning egasi hisoblanmaydi, ya’ni yer xalqning mulki hisoblanmaydi. U bu huquqni ma’lum davlat organlari orqali amalga oshiradi. Yerga nisbatan mulk huquqini xalq o‘zicha, bevosita amalga oshira olmaydi.

Shuning uchun ham tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining subyekti – asosan davlat. Demak, davlat qonun asosida tabiat resurslaridan foydalanish va uni bekor qilish huquqiga ega bo‘ladi hamda qonun asosida uni boshqa foydalanuvchilarga beradi.

O‘zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 17-moddasiga asosan yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlari belgilanib, «yuridik shaxslar ushbu kodeks va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lishlari mumkin.

Jismoniy shaxslar ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foyda-



lanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishlari mumkin».

O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunining 18-moddasida: «Mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar suvdan foydalanuvchilar bo'lishlari mumkin. Qonunlarda nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilotlar va shaxslar ham suvdan foydalanuvchi bo'lishlari mumkin» deb ko'rsatilgan.

Demak, O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslardan foydalanish tartibi umumiy va maxsus yo'sinda olib boriladi.

Tabiatdan umumiy tarzda foydalanish fuqarolar tomonidan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun tyokinga tabiiy resurslarni ayrim foydalanuvchilarga biriktirmay va hech qanday ruxsatnomalar bermay turib amalga oshiriladi.

Tabiatdan maxsus yo'sinda foydalanish tariqasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarga ishlab chiqarish va o'zga xil faoliyatni amalga oshirish uchun tabiiy resurslar haq olib maxsus ruxsatnomalar asosida egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga beriladi (O'zbekiston Respublikasining Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni, 6-modda).

Tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilikning obyekti – tabiiy resurslar, ya'ni yer, suv, o'rmon, o'simlik va hayvonot dunyosi, yer osti boyliklari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 8-moddasida ko'rsatilgan barcha yer fondi toifalari, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida ko'rsatilgan yagona davlat suv fondi, «O'rmon to'g'risida»gi qonunning 5-moddasida ko'rsatilgan davlat o'rmon fondi, «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 5-moddasida ko'rsatilgan o'simlik dunyosi obyektlari, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida ko'rsatilgan hayvonot dunyosi obyektlari, «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida ko'rsatilgan yer osti boyliklari davlat fondi va boshqalar tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilikning obyekti hisoblanadi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolik kodeksi»ning 168-moddasiga asosan fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat mulk huquqining subyektlari bo'ladi. Mulk huquqining obyekti masalasi ham O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida aniq ko'rsatilgan.

«Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo boʻshligʻi, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qogʻozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk obyektlari mulk boʻlishi mumkin» (Fuqarolik kodeksi, 169-modda).

Tabiat resurslariga nisbatan *mulk huquqining mazmuni* asosan uchta elementdan iborat: tabiat resurslariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilish huquqi.

Mazkur holat, Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasida yanada mustahkamlangan. Unga asosan «Mulq huquqi shaxsning oʻziga qarashli mol-mulkka oʻz xohishi bilan va oʻz manfaatlarini koʻzlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek oʻzining mulk huquqini, kim tomonidan boʻlmasin har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iborat. Mulq huquqi muddatsizdir», deb koʻrsatilgan. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasining «Oʻrmon toʻgʻrisida»gi qonuniga asosan oʻrmondan foydalanuvchilar oʻrmonni tasarruf qilish huquqiga ega emas, zero bu huquq faqat oʻrmonning egasi boʻlgan davlatda saqlanib qoladi. Bundan koʻrinib turibdiki, oʻrmondan foydalanuvchi subyektlar oʻrmonning mulk huquqi asosida egasi hisoblanmaydilar va tasarruf qilish huquqiga ega emaslar. Ushbu holatdan xulosa qilib aytish mumkinki, «Oʻrmon toʻgʻrisida»gi qonunning 7-moddasiga asoslanib, oʻrmondan foydalanuvchi subyektlar faqat oʻrmonni egallash va undan foydalanish huquqiga egadirlar.

Tabiat resurslaridan foydalanuvchi subyektlarning tabiat resurslaridan foydalanishga oid munosabatlarida tabiiy resurslarga egalik huquqi katta ahamiyatga ega. Bu huquq orqali tabiiy resurslardan foydalanuvchi subyektlar oʻzlarini tabiiy resursning «xoʻjayini» sifatida his etadilar. Mazkur huquq tufayli tabiiy resurslardan foydalanuvchilar qonunda belgilangan tartibda undan mustaqil tarzda foydalanishlari mumkin. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 17-moddasida yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga boʻlgan huquqlari aniq koʻrsatilgan. Ushbu qonunning 20-moddasida «Yer uchastkalariga doimiy va muddatli (vaqtincha) egalik qilish hamda ulardan doimiy va muddatli (vaqtincha) foydalanish huquqi» ham aniq oʻz aksini topgan.

Tabiiy resurslardan foydalanish huquqining mazmuni haqida fikr yuritilganda, mazkur huquqning cheklanishi, tugatilishi masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shunday holatlar, «Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida» qonunning 23-moddasida, «Suv va suvdan foydalanish toʻgʻrisida»gi qonunning

34-moddasida, «Yer kodeksi»ning 42-moddasida, «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonunning 10-moddalarida qonuniy o‘z ifodasini topgan.

Demak, tabiiy resurslardan foydalanish huquqi mazmunining o‘zgarishi foydalanishda bo‘lgan tabiat obyektlarining bir toifadan ikkinchi toifaga o‘tishi, ayrim maydonlardan foydalanish rejimining o‘zgarishi bilan bog‘liq.

Zotan, tabiiy resurslardan foydalanish huquqi to‘g‘risida gap borganda bu huquqni bekor qilish yoki to‘xtatib qo‘yish masalasi ham katta ahamiyatga ega. Amaldagi qonunlarda, masalan, suvdan foydalanish huquqini bekor qilish tartibi «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 37-moddasida Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni bekor qilish tartibi Yer kodeksining 36-moddasida va boshqa qonunlarda o‘z aksini topgan.

Tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqining mazmuni tabiat obyektlaridan foydalanuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlari bilan ham chambarchas bog‘liq.

Tabiat resurslaridan foydalanuvchi subyektlarning o‘z huquq va majburiyatlarining mazmunini yaxshi anglab yetishlari hamda unga rioya qilishlari tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza etish, tabiatni muhofaza qilish va ekologik qonunchilik talablarini bajarishga, belgilangan talablarni buzmaslikka xizmat qiladi.

Amaldagi bir qator qonunlarda, jumladan, «Yer kodeksi»ning 5-bob 39- 42-moddalarida yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi egasining huquq va majburiyatlari, «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonunning 21-moddasida o‘rmondan doimiy foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari, 22-moddasi o‘rmondan vaqtincha foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari aniq ko‘rsatilgan.

Xullas, yuqoridagi barcha holatlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga, sodir etilishi lozim bo‘lgan ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashish uchun asosiy manba bo‘ladi.

Tabiiy resurslarga nisbatan *mulk huquqini muhofaza qilish* har bir obyektidan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar», deb ko‘rsatilishi har bir tabiat resurslaridan foydalanuvchilar mazkur obyektlardan oqilona foydalanishlari va ularni muhofaza qilib, ko‘z qoroqchig‘a asrashlariga undaydi.

Shuning uchun ham tabiat resurslariga nisbatan davlat mulkchiligini muhofaza qilish tabiat resurslaridan foydalanuvchi subyektlarning mulk huquqini muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lib, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning ushbu holat yuzasidan huquq va majburiyatlarini amalga oshirish, bu borada davlat nazoratini olib borish hamda nojo‘ya xatti-

harakatlar, ya'ni ekologik huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun yuridik javobgarlikni belgilash bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida ko'rsatilganidek, mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan ko'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Mazkur g'oya tabiat resurslaridan foydalanuvchilarga nisbatan bir qator mas'uliyatlar yuklaydi. Bunda foydalanuvchilarni yer, yer osti boyliklari, suv o'rmon, atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosidan noto'g'ri foydalanganlik uchun faqat javobgarlikka tortish emas, balki ularning tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan mulk huquqini muhofaza qilishdan iborat. Bunda davlat tomonidan bir qator mas'uliyatli ishlar olib borish talab etiladi. Masalan, ekologik va agrar qonunlarning mohiyatini tushuntirish, zamonaviy ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanib tabiatni muhofaza qilish ishlarini yaxshilash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash, ekologik huquqiy ta'lim va tarbiyani, ekologik huquqiy ma'naviyat va madaniyatni oshirish, tabiat obyektlaridan foydalanishni nazorat etish va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu talablarni amalga oshirishda asosan jamoatchilik va mahalla qo'mitalarining faol ishtiroki katta rol o'ynaydi. Shunday ekan, tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqini muhofaza qilish asosan sud tartibida va ma'muriy tartibda olib boriladi.

Tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqini sud tartibida himoya qilish yer, suv, yer osti boyliklari, havo, o'rmon, o'simlik va hayvonot dunyosiga nisbatan egalik huquqi, mulk huquqi, bitim va shartnomalarning qonuniyligi oqibatida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar, tabiat obyektlaridan foydalanish va uni muhofaza qilish huquqlarini buzganlik uchun yetkazilgan zararlar yoki sodir etilgan ekologik jinoyatlarning ko'rib chiqilishida namoyon bo'ladi.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqini muhofaza qilish ma'muriy tartibda ham olib borilishi mumkin. Bunda sodir etilgan ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy organlar tomonidan ma'muriy jazolar qo'llanilishi, mansabdor shaxslarning chiqargan tegishli aktlari yuqori organ tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqini muhofaza qilish usuli, ma'lum huquq tarmog'i talabi asosida olib boriladi. Umuman olganda, tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqini, davlat mulkchiligini qonun asosida qo'riqlash asosan intizomiy-huquqiy, ma'muriy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy va jinoyat-huquqiy usullar orqali amalga oshiriladi.

Har qaysi usul o‘zining alohida xususiyatiga ega bo‘lib, yetkazilgan zarar, uning oqibati, qonunga xilofligi hamda da’vo arizasida ko‘rsatilgan holatlarning qay darajada sodir etilganligi bilan bog‘liq.

Shunday qilib, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqini muhofaza qilish mehnat, ma’muriy, fuqarolik va jinoyat huquqiy tizimlar bilan bog‘liq bo‘lib, sodir etilgan va yetkazilgan zarar uchun aniq jazo choralari yuqoridagi huquq tizimlarida va amaldagi qonunchilikda aniq ko‘rsatilgan.

1992-yil 9-dekabrida qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasida tabiatni muhofaza qilishdan maqsad berilgan va unga asosan:

– inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo‘lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoit yaratish;

– jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish;

– ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish;

– ekologiya xavfsizligini ta’minlash;

– tabiat obyektlari bilan bog‘liq madaniy merosni asrab qolish.

Ushbu maqsadlarga erishish barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatori ichki ishlar organlari zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida»gi 1997-yil 25-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida»gi qarorida huquqiy va huquqiy-ekologik muammolarni hal etishda Ichki ishlar vazirligi va organlari faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan, shuningdek IIV bir qator vazifalarni bajarishi zarurligi ko‘rsatib bergan.

Ekologik muammolarni hal etish, ekologiya sohasidagi huquq-buzarlik va jinoyatlarning oldini olish va ochishda IIVning bir qator bo‘linmalari ijobiy ishlarni amalga oshirib, ekologik qonunlar ijrosini ta’minlamoqda<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Qarang: Шоимов Н.Б. Ички ишлар органларининг экологик қонунлар ижросини таъминлаш фаолияти: Ўқув қўлланма. – Т., 2011.

*O‘zbekiston Respublikasi IIV devoni* – respublikamizda IIV faoliyatiga oid bir qator buyruqlar, Nizom va yo‘riqnomalar qabul qilish, ularning joylarda amalga oshirilishini nazorat etadi va ta‘minlaydi.

*Profilaktika inspektorlari* – mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlariga ekologik-huquqiy tartib o‘rnatish, tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun talablarining bajarilishini ta‘minlash hamda ekologik-profilaktik huquqiy nazorat ishlarini amalga oshirishga ko‘maklashadilar.

*Yo‘l patrul xizmati xodimlari* – avtotransportdan foydalanganda atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, unga qarshi kurashish hamda avtotransport shovqinlarining normal holatda bo‘lishini ta‘minlashga yordam beradilar.

*Yong‘in xavfsizlik xizmati xodimlari* – tabiat va xalq xo‘jaligi obyektlarining yong‘inga qarshi holatini baholash, tabiat obyektlari muhofazasiga ko‘maklashish, yong‘inga qarshi kurashish va uning oldini olish, tabiat obyektlarini muhofaza qilish ishlarini amalga oshiradilar.

*Ichki ishlar tergov bo‘linmalari xodimlari* – amaldagi qonunlarimizda ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashadilar, ularning oldini olishni va sodir etilgan ekologik-huquqbuzarliklarni to‘la ochib berishni ta‘minlaydilar.

*Ko‘riqlash xizmati* – o‘zaro kelishuv yoki shartnoma asosida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan va boshqa muhim tabiiy, tarixiy ekologik obyekt hamda komplekslarni qo‘riqlaydilar, muhofaza qiladilar.

Ko‘rinib turibdiki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ichida ichki ishlar organlariga vakolatlari ekologik muammolarni o‘z doirasida hal etishda katta mas‘uliyat yuklangan va ularning mazkur sohadagi faoliyati ko‘p qirralidir.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ichki ishlar organlari ekologik muammolarni hal qilishda, yana bir qator tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Avvalambor, ichki ishlar organlari o‘z faoliyatini to‘la bajarishi uchun huquqiy asosga yoki huquqiy manbaga ega bo‘lmog‘i lozim. O‘zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi qonuni ana shunday huquqiy manba bo‘lishi mumkin.

Fikrimizcha, ichki ishlar organlarining tabiatni muhofaza qilish sohasida faoliyatini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi qonunni qabul qilish va unda ichki ishlar organlarining ekologik-huquqiy faoliyatiga kengroq e‘tibor berish; ikkinchidan, ichki

ishlar organlari o'z ekologik faoliyatlarini yanada yaxshilashlari uchun huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar, ya'ni, prokuratura, adliya, milliy xavfsizlik xizmati, soliq, bojxona va boshqa organlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish hamda kengaytirish; uchinchi, ichki ishlar organlari ekologiya muammolarini hal qilish sohasida tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, «Ekosan» xalqaro jamg'armasi va shu kabi boshqa korxonalar, muassasa, tashkilotlar bilan yaqindan aloqa qilishi va bu sohadagi muammolarni ular bilan birgalikda hal etishi; to'rtinchi, O'zbekiston Respublikasi IIV huzurida tabiatni muhofaza qilish ishini amalga oshiruvchi alohida bo'linma tuzish va uning huquqiy vakolatini kengaytirish, ya'ni barcha ekologik muammolarni hal etish faoliyati bilan bog'lash; beshinchi, ichki ishlar organlari xodimlari aholiga, ayniqsa yoshlar o'rtasida ekologik-huquqiy suhbatlar, kechalar, uchra-shuvlar o'tkazishi, ularning ekologik-huquqiy ma'naviyati va madaniyatini yanada oshirishga ko'maklashishi; oltinchi, ekologik qonunlar va boshqa tabiatni muhofaza qilishga oid huquqiy hujjatlarni oddiy, ommabop shaklda tushuntiruvchi sharhlar, savolnomalar, ommabop kitob va boshqa ekologik-huquqiy adabiyotlar turkumini chop etishni kengroq yo'lga qo'yish.

Xullas, ichki ishlar organlarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish va uni takomillashtirish katta ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimiz ekologik siyosatini asoslovchi xususiyatlardan biridir.

Tabiat resurslari bo'lgan yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, o'rmon, atmosfera havosi va boshqalarga nisbatan mulkchilik eng muhim siyosiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu masala O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra: «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umum-milliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir».

O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralarining tizimini belgilaydi hamda tabiat boyliklaridan mustaqil foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi davrida qabul qilingan ekologik va agrar qonunlarda yuqoridagi konstitutsiyaviy talablar mustahkamlab qo'yilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi (5-m.), «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi (3-m.),

«Yer osti boyliklari to'g'risida»gi (3-m.), «O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi (3-m.), «Hayvonot dunyosini, muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi (3-m.), «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi (1-m.), «Yer kodeksi» (16-m.), «O'rmon to'g'risida»gi (4-m.), «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi (6-m.) qonunlarda ko'rsatilgan talablar tabiat resurslariga nisbatan belgilangan mulkchilikni qonun doirasida hal etishga qaratilgan.

Shu bilan birga, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining belgilari qonunchilik normalarida ko'rsatib qo'yilgan.

1. Tabiiy resurslarning ajralmasligi (o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi, birligi) – bunda ma'lum bir tabiiy obyektning mulk sifatida boshqa bir obyekt bilan ajratib bo'lmaydi. Masalan, yerdan yer osti boyligini, suvdan baliqni ajratib bo'lmaydi. Zero, suv obyektlariga mulk huquqi baliqqa bo'lgan mulk huquqidan ajralmasdir.

2. Tabiiy resurslarning bebaholigi, bahosizligi yoki qiymatining yo'qligi – ayrim tabiiy obyektlar (tuproq, yer qa'ri, bog', o'rmon, hayvonot va o'simliklar dunyosini evolyutsion rivojlanish va kishilarning zaruriy mehnat faoliyatining mujassamlashgan holdagi natijasi ekanligi, uning aniq bir qiymatini belgilab olish imkoniyatini bermasligi. Masalan, bir paytning o'zida yerning ham ko'chmas mulk, ham tabiiy obyektning ajralmas bir bo'lagi ekanligi.

3. Tabiiy resurslarning moddiylikligi – o'zining obyektiv ko'rsatkichlariga binoan tabiiy resurslarni mulk sifatida o'zlashtira yoki undira olmasligi. Masalan, atmosfera havosi, fazoviy elementlar, iqlim resurslari va hokazo.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ularni turlarga bo'lish mumkin.

1. Umumsiyosiy tabiiy resurslar – davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining vakolat doirasiga kiruvchi mudofaa zaruriyatlari, xavfsizlikni ta'minlash, davlat chegaralarini qo'riqlash va shunga o'xshash siyosiy vazifalarni bajaruvchi tabiat obyektlari, yer uchastkalari yoki suv manbalari.

2. Umumiy iqtisodiy tabiiy resurslar – sanoat, transport, energetika, kosmik tizimlar, yadro va shunga o'xshash boshqa iqtisodiy zarur obyektlar bilan band bo'lgan tabiiy obyektlar va yer uchastkalari.

3. Umumeologik tabiiy resurslar – ekologik vazifalarni bajaruvchi alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, yer uchastkalari, suv manbalari, akvatoriyalar va boshqa tabiiy obyektlar.



Ushbu kategoriyaga tarixiy va tabiiy yodgorliklar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, alohida bir tabiiy obyektlar (tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan yodgorliklar, noyob turdagi daraxtlar, mo‘jizaviy sharsharalar, tabiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan cho‘qqi-tosh, nodir yer osti boyliklari va boshqa ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan topilmalar kiradi.

***Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:***

- 1. Ekologiya sohasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimi hamda vazifalarini tushuntiring.*
- 2. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining asosiy vazifalarini tushuntiring.*
- 3. Ekologiya sohasidagi vakolatli organlarning tizimini tushuntiring.*
- 4. Ekologik ekspertizaning usullari.*
- 5. Ekologiya sohasida davlat boshqaruv shakli va tushunchasi.*
- 6. Tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqining asosiy belgilarini tushuntiring.*
- 7. Tabiiy resurslardan umumiy va maxsus foydalanishning tartibini tushuntiring. Ekologiya sohasida boshqaruvni tashkil etishda IIOlarning vazifasi va rolini tushuntiring.*
- 8. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining qanday turlari mavjud?*
- 9. Ekologik nazoratning qanday turlari mavjud?*
- 10. Ekologik qonunlar ijrosini ta‘minlashda ichki ishlar organlarining o‘rni qanday?*

---

---

*Uchinchi bob*

**EKOLOGIK-HUQUQIY JAVOBGARLIK VA EKOLOGIK  
HUQUQBUZARLARLIKNING OLDINI OLISH**

**1-§. Ekologik huquqbuzarliklar: tushunchasi, mohiyati,  
mazmuni va xususiyatlari**

Jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Aholining tez ko'payib borishi va ehtiyoji to'xtovsiz o'sishi bilan bog'liq holda sodir bo'layotgan iqtisodiy rivojlanish resurs sig'imi yuqori texnologiya sharoitida Yer sayyorasining qiyofasini tez o'zgartirishga, unga tuzatib va to'ldirib bo'lmaydigan ziyon yetkazishga sabab bo'lmoqda.

Mineral xom ashyo resurslarining cheklanganligi, tabiat komplekslarining resurslarni takror ishlab chiqarish imkoniyatlarining, shuningdek, ishlab chiqarish chiqindilarini neytrallashtirish va o'ziga singdirish xossalari chegaralanganligi ekologik muammolar yechimini topishni murakkablashtiradi. Bular aniqlangan ekologik-iqtisodiy muammolarni tadqiq etadigan va kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan halokatli ekologik muammolarning yechimini topishga xizmat qiladigan fanni shakllantirish va rivojlantirishga ijtimoiy ehtiyojning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Toshkent shahar Kengashiga o'tkazilgan saylov jarayonida qatnashib, shu yerda jurnalistlarning savollariga javob berar ekan, Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan murakkab ekologik vaziyat haqida so'z yuritdi. Bunda Orol dengizi muammosini faqat anjumanlar, konferensiyalar o'tkazish bilan hal qilib bo'lmasligi, bu yo'lda amaliy ishlar, natijalar kerakligi, shu bois respublikamizda faoliyat yuritayotgan ekologik harakatlar birlashgani, mamlakatimiz parlamentining quyi palatasida O'zbekiston Ekologik harakatidan saylanadigan deputatlar uchun 15 ta o'rin ajratilgani hamda ekologiya masalalariga siyosiy tus berilgani bevosita qayd o'tib o'tiladi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Шоимов Н.Б. Ички ишлар идоралари фаолияти учун экология ҳуқуқи фанини ўқитишнинг аҳамияти. // Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академиясининг Ахборотномаси. – 2010. – №4. – Б. 74.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisida e‘lon qilingan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da esa ekologiya masalalarini ham demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifasi sifatida belgilash zarurligiga oid fikrlar bildirib, «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi qonun loyhasini ishlab chiqish fursati yetganligini ta’kidladi<sup>1</sup>.

Dunyo va Vatanimiz tajribalari shuni ko‘rsatadiki, tabiatni vayron etish, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish oqibatida atmosfera havosi va ekologik muvozanatning izdan chiqishi kuzatilmoqda va ekologiya sohasidagi noqonuniy xatti-harakatlar ko‘payib bormoqda.

Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 47, 50 va 51-moddalarida tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari belgilangan.

Ekologik huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarlik huquqiy javobgarlik institutining bir qismi bo‘lib, uning tushunchasi, mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini bilib olish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va boshqa huquqiy adabiyotlarda<sup>2</sup> ushbu masalaga alohida e‘tibor berilgan.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar va ekologik jinoyatlar tegishli tartibda javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi.

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarlikka nisbatan qo‘llaniladigan «yuridik javobgarlik» tushunchasi bir qator xususiyatlar bilan bog‘liq:

*birinchidan*, sodir etilgan ekologik huquqbuzarliklarga nisbatan yuridik javobgarlik huquqiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi, qo‘llaniladi;

*ikkinchidan*, uning asosiy maqsadi va mohiyati ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar, ekologik va agrar qonunlarning buzilishiga qarshi kurash hamda ekologik qonunchilik va huquqiy tartibotni ta’minlashdan iborat.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепсияси. – Т., 2010. – Б.5.

<sup>2</sup> *Холмўминов Ж.Т.* Экология ҳуқуқи: Чизмалар альбоми. – Т., 2002. – Б.200.; *Холмўминов Ж.Т.* Экология ва ҳаёт: қонунчиликни такомиллаштириш масалалари. – Т., 2010. – Б. 210.

to'g'risida»gi qonunining 47-moddasiga asosan, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik:

«Tabiatni muhofaza qilishning standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-texnik talablarini buzishda, shu jumladan korxonalar, inshootlar, transport vositalari va boshqa obyektlarni rejalashtirish, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish yoki ularni tugatish chog'ida, ekologiya nuqtai nazaridan xavfli mahsulotlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan olib kelishda hududning belgilab qo'yilgan ekologiya sig'imini, ekologiya normalari, qoidalarini buzishda;

tabiiy boyliklardan o'zboshimchalik bilan foydalanishda, davlat ekologiya ekspertizasi talablarini bajarmaganlikda;

tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun, atrof tabiiy muhitga zararli moddalar chiqarganlik va oqizganlik, qattiq chiqindilar joylashtirganlik, bu muhitni ifloslantirganlik va unga zararli ta'sir ko'rsatishning boshqa turlari uchun belgilangan haqni to'lashdan bosh tortganlikda;

tabiatni muhofaza qilish obyektlarini qurish rejalarini, tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa tadbirlarni bajarmaganlikda;

atrof tabiiy muhitni tiklash, unga bo'ladigan zararli ta'sir oqibatlarini bartaraf etish va tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish choralarini ko'rmaganlikda;

tabiatni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirayotgan idoralarning ko'rsatmalarini bajarmaganlikda;

alohida muhofaza qilinadigan hududlar va obyektlarning huquqiy tartibotini buzganlikda;

atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirni hisobga olish qoidalarini buzganlikda;

ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini, kimyolashtirish vositalarini, shuningdek radiaktiv va zararli kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, ulardan foydalanish, ularni zararsizlantirish va ko'mib yuborish vaqtida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzganlikda;

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning obyektlarga borishiga, ayrim shaxslar va tabiatni muhofaza qilish jamoat tashkilotlariga esa o'z huquq va vazifalarini ro'yobga chiqarishlariga to'sqinlik qilganlikda;

atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslaridan foydalanish to'g'risida o'z vaqtida va to'g'ri axborot berishdan bosh tortganlikda aybdor bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan intizomiy, ma'muriy, jinoiy va boshqa yo'sindagi javobgarlikka tortiladilar» deb ko'rsatilgan.

Xullas, ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik – aybdorning qonunga xilof xatti-harakat yoki harakatsizligi oqibatida O‘zbekiston Respublikasining ekologik tizimiga yoki ekologiya sohasiga yetkazilgan zarar, ekologik sohani mustahkamlash yoki uni rivojlantirishga tajovuz qilish, ekologik talablarni o‘z vaqtida amalga oshirishga putur yetkazish hamda ekologiya sohasidagi qonun va talablarni buzishda namoyon bo‘ladi.

Ta’kidlash o‘rinliki, ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarlik subyektning huquqiy normalarga qarshi qilgan xatti-harakati bilan qasddan yoki ehtiyotsizlikdan, tabiat obyektlariga – yer, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi, o‘rmon, hayvonot va o‘simliklar dunyosiga, hamda inson salomatligi va yashash muhiti uchun xavfli bo‘lgan harakat yoki harakatsizlik oqibatidir.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklarning turlari va belgilari ana shu huquqbuzarliklarni tavsiflaydigan xususiyatdir.

Ekologiya sohasidagi sodir etiladigan huquqbuzarliklarning o‘ziga xos bo‘lgan quyidagi belgilari mavjud bo‘lganda, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar kelib chiqadi.

- 1) aybning mavjudligi;
- 2) ijtimoiy xavfliligi;
- 3) huquq normalariga zidligi;
- 4) jazoga sazovorligi.

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarni tavsiflovchi belgilardan biri *ayblilik* hisoblanadi. Bunda ekologik huquq normasini yuridik javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan shaxs buzadi va shaxs bu harakatni qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etadi.

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun aniqlangan ayb – shu sohada shaxsning o‘zi sodir etgan huquqqa xilof harakatiga va uning zararli oqibatlariga ruhiy munosabatidir.

Tasodif yoki baxtsiz hodisa natijasida biror kimsaga yoki korxonaga, muassasa, tashkilotga aybsiz zarar yetkazish hodisasi ekologik huquqbuzarliklar jumlasiga kirmaydi.

Ekologik huquqbuzarliklarni sodir etishda *ijtimoiy xavflilik* darajasi shundan iboratki, bunda ekologik huquqbuzarliklar jamiyatning, davlatning ekologik tizimiga, ekologiya sohasidagi boshqaruvga va ekologik siyosatga tajovuz qiladi yoki ayrim ekologik huquq va manfaatlar poymol etiladi. Ekologik huquqbuzarliklarning zararliligi yoki xavfliligi shundaki, u jamiyat, davlatning ekologik manfaatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ekologiya sohasida *huquq normalariga zidlikda* – ma’lum qilmish oqibatida ekologik qonunlarning yoki muayyan ekologik huquqiy normalarning buzilishi mavjud bo‘ladi.

Yoki ekologik huquqbuzarliklar tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi yoxud boshqa ekologik huquq normalarida belgilab qo'yilgan taqiqni buzadi. Agarda belgilangan ekologik taqiqalar buzilmasa, unda ekologik huquqbuzarliklar mavjud deb tan olinmaydi.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar yuzaga kelishi uchun *jazoga sazovorlik* bo'lishi shart. U ma'lum ekologik huquqbuzarliklar uchun uni sodir etgan shaxs (subyekt)ning vakolatli davlat organi tomonidan ma'lum javobgarlikka tortilishini o'zida ifodalaydi.

Ayrim hollarda shaxs qonunga binoan javobgarlikdan ozod etilishi mumkin, lekin buni ham tegishli vakolatli davlat organlari amalga oshiradilar.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar tarkibiga: subyekt, obyekt, subyektiv tomon va obyektiv tomon, ekologik huquqbuzarliklar oqibatida ekologik tizim, manfaat va sohaga yetkazilgan zarar hamda u bilan bog'liq holatlar kiradi.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklarning quyidagi turlari mavjud:

1) intizomiy-huquqiy (mehnat intizomi va unga amal qilish, kech qolish va ishga kelmaslik oqibatida);

2) ma'muriy-huquqiy (tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquq normalarini buzish);

3) fuqaroviy-huquqiy (majburiyat, shartnoma va bitimlarni o'z vaqtida bajarmaslik oqibatida mulkiy, moddiy va ma'naviy zarar yetkazish);

4) jinoiy-huquqiy (ekologiya sohasidagi jinoyatlarni sodir etish).

Shuni ta'kidlash joizki, sodir etilgan ekologik huquqbuzarliklarning turi va uning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab, davlat majburlov choralari ham o'zgarishi mumkin.

## **2-§. «Ekologik javobgarlik» tushunchasi, mohiyati va turlari**

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishni ta'minlash choralari tizimida qonun hujjatlariga rioya qilmaganlik, ekologik talablarni buzganlik uchun javobgarlik choralari muhim o'rinni egalaydi.

Ekologik javobgarlik – atrof tabiiy muhitga keltiriladigan zararning oldini olish va ularni qoplash yuzasidan kelib chiqadigan huquqiy normalar va ularga mos keluvchi huquqiy munosabatlarning iqtisodiy-huquqiy kompleksidir.

Ta'kidlash joizki, ekologik javobgarlik quyidagi ikki turga bo'linadi:

- 1) ekologik – iqtisodiy javobgarlik;
- 2) ekologik – huquqiy (yuridik) javobgarlik.

*Ekologik-iqtisodiy javobgarlik* – ijtimoiy javobgarlik turi bo'lib, u atrof tabiiy muhitga yetkazilgan va qonun bilan belgilangan me'yordan oshmagan zarari bilan belgilanadi va keltirilgan zararni pul miqdorida so'zsiz qondirish bilan ifodalanadi.

Tabiiyki, bu javobgarlikning ikki turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- a) foydalanganlik uchun to'lovlar;
- b) ifloslantirganlik uchun to'lovlar.

*Ekologik-huquqiy javobgarlik* – ekologik qonun me'yorlarini buzganligi oqibatidagi noqulay sharoitlarning majburiy kechinmasi yoki subyektlarning yuridik javobgarlikka tortilishi.

*Yuridik javobgarlik deganda*, huquq normalarini buzganlik uchun jazo choralarini qo'llash oqibatida huquqbuzarga salbiy oqibatlar tug'dirish va davlat tomonidan huquq talablarini bajarishga majbur etish tushuniladi. Yuridik javobgarlik ijtimoiy javobgarlikning bir turi bo'lib, huquqiy normalarda belgilanadi va davlatning majburlash kuchini qo'llash imkoniyatlari bilan hamisha bog'liq bo'ladi.

Yuridik javobgarlik huquqbuzarlik sodir etilganda va uning salbiy oqibati kelib chiqqanda vujudga keladi. Yuridik javobgarlik davlatning majburlov xarakteridagi choralarini huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilishi bilan bog'liq va u huquqbuzarlikka qarshi kurashning muhim vositasidir.

Ekologiyaga doir qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlik o'zining asosiy maqsadi va tamoyillari bilan boshqa qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikdan farq qilmaydi, ammo ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ushbu xususiyatlar o'simlik va hayvonot dunyosiga yetkazilgan zararni taksa uslubi asosida undirish va ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun maxsus jazo choralarini, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatib turish va undan mahrum qilish choralarini qo'llashdan iboratdir.

Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik quyidagi maqsadlarga ega: tabiiy obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan jazo choralarini qo'llash; atrof tabiiy muhitga va inson salomatsizligiga yetkazilgan zararni qoplash; yangi ekologik huquqbuzarlikni sodir etishni ogohlantirish.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklarga nisbatan qo‘laniladigan choralarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularning eng og‘irlari jinoyatlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga asosan qo‘llaniladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan javobgarlik turlari yer, suv, yer osti boyliklari, o‘rmon, atmosfera havosi, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bilan bog‘liq qonun hamda talablarni buzganlik uchun qo‘llaniladi.

Ekologik huquqiy (yuridik) javobgarlikning quyidagi to‘rt turi mavjud:

- 1) intizomiy javobgarlik;
- 2) ma‘muriy javobgarlik;
- 3) fuqaroviy javobgarlik;
- 4) jinoiy javobgarlik.

Ekologiya huquqida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun intizomiy javobgarlik masalasi katta ahamiyatga ega.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarlik intizomiy-huquqiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

*Intizomiy javobgarlikka tortishdan maqsad* – shaxsning sodir etilgan ekologik huquqbuzarlik uchun moddiy va ma‘naviy javobgarlikni his etishi, huquqbuzarlarni tarbiyalash va boshqa xodimlar o‘rtasida shunday ekologik huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ekologik-agrar qonunlarga hamda mehnat qonunlariga hurmat bilan qarash, ekologiya tizimida olib borilayotgan tadbirlarni amalga oshirishda, ekologik siyosatni mustahkamlashda mehnat intizomiga qattiq rioya qilishni ta‘minlashdir<sup>1</sup>.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun intizomiy javobgarlikka tortishga subyektning davlat tomonidan belgilangan ekologik tadbirlarni bajarmasligi hamda amalga oshirmasligi, o‘z mehnat burchiga sadoqat bilan yondashmasligi oqibatida ekologik tizimga zarar yetkazishining o‘zi kifoya.

Fuqarolar va mansabdor shaxslar, ijarachilar, fermer, dehqon xo‘jaliklari, qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkatlari), xususiy korxonalar, korxonalar, muassasa, tashkilotlar intizomiy javobgarlikning subyektini bo‘lishi mumkin.

Ekologiya sohasida huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun intizomiy javobgarlikka tortish asosan mehnat qonunlari bilan tartibga solinadi.

---

<sup>1</sup> Qarang: Холмұминов Ж.Т. Дисциплинарная ответственность за нарушения сельскохозяйственного законодательства // Хозяйство и право. – 2001. – № 6. – С. 75-78



Ekologiya sohasida intizomiy huquqbuzarlikning obyekti – nafaqat ish tartibi, balki ekologiya sohasida belgilangan ichki tartib va uni to‘ldirib turadigan tegishli ekologik-huquqiy normalar (dalolatnomalar, nizom, ustav va boshqalar) hisoblanadi.

Ushbu soha bo‘yicha intizomiy javobgarlikka tortish boshqa yuridik javobgarliklar turiga qaraganda ancha ta’sirli va ijobiy natija beradi.

Xodimni intizomiy javobgarlikka tortish shartlaridan biri huquqbuzarning ma’lum aybga ega bo‘lishi, hamda intizomiy huquqbuzarlik sodir etgan subyektning u yoki bu miqdorda yetkazgan zarari hamda bu zararning oqibati hisoblanadi.

Ekologiya sohasida qo‘llaniladigan intizomiy javobgarlik mehnat intizomini buzish oqibatida hamda o‘z xizmat vazifasini yetarli darajada hamda burchini mas’uliyat bilan bajarmaslik natijasida vujudga keladi.

Jumladan, ekologik huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun jazo chorasi O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksida batafsil yoritilgan<sup>1</sup>.

Mazkur qonunning 181-moddasiga binoan, xodimga mehnat intizomini buzganlik uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy choralarni qo‘llashga haqli:

1) hayfsan;

2) o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o‘rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish ushbu Kodeksining 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

3) mehnat shartomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3 va 4-bandlari).

Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarni qo‘llash taqiqlanadi.

Ekologik huquqbuzarliklarni sodir etganda intizomiy jazo chorasi, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 82-moddasiga asosan ish beruvchining buyrug‘iga ko‘ra rasmiylashtiriladi.

Intizomiy jazo qo‘llashdan oldin xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati talab qilinishi lozim. Xodimning tushuntirish xati berishdan bosh tortishi unga nisbatan jazo qo‘llashga to‘siq bo‘la olmaydi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. – Т., 2010

Ekologik huquqbuzarliklar uchun intizomiy jazo qo‘llashda sodir etilgan nojo‘ya xatti-harakatning qay darajada og‘ir ekanligi, shu xatti-harakat sodir etilgan vaziyat, xodimning oldingi ishi, xulq-atvori hisobga olinadi va bir oy ichida qo‘llaniladi.

Masalan, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun intizomiy javobgarlik yerdan oqilona foydalanmay, unda ekilgan ekin mahsuloti sifatining yomonlashishi, agrotexnika qoidalarini buzganlik, yerning meliorativ holatini buzish, suvdan foydalanish talablari va tartibini buzish, havoni ifloslantirish va boshqa hollarda qo‘llanilishi mumkin.

Intizomiy javobgarlikka tortishning bir qator xususiyatlari mavjud. U, birinchidan, u boshqa javobgarlik turidan yengilroq tusda ekanligi bilan, ikkinchidan, faqat korxonada, muassasa, tashkilot rahbari tomonidan qo‘l ostida ishlovchi xodimga nisbatan qo‘llanilishi bilan farq qiladi.

Demak, ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun intizomiy javobgarlikni yakka tartibda emas, balki umumiy yig‘ilishlarda, ko‘pchilik huzurida muhokama qilib qo‘llash yaxshi natija beradi.

Ekologiya huquqida intizomiy javobgarlikka tortish ko‘proq tarbiyaviy ahamiyatga ega, ammo bunday javobgarlikka olib keladigan huquqbuzarlik sodir etilishi oqibatida huquq sohasining belgilangan huquqiy-ekologik tartibi va normalari buziladi.

Bir so‘z bilan aytganda, ekologiya sohasida qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash, barcha korxonada, muassasa va tashkilotlar, ularning mulki va tegishli huquqlarini himoya qilish, atrof tabiiy muhitni barqarorlashtirish, inson salomatligini saqlash va kelajak avlodni sog‘lom o‘stirishga xizmat qiladi.

Ma‘muriy-huquqiy javobgarlik yuridik javobgarlikning bir turi sifatida ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun ham qo‘llaniladi.

Ekologiya sohasida ma‘muriy huquqiy javobgarlikka tortish uchun faqat ma‘muriy huquqbuzarlikning sodir etilishi kifoya.

Ma‘muriy-huquqiy javobgarlikka tortishning asosi va uning tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining «Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida»gi kodeksida aniq ko‘rsatilgan<sup>1</sup>.

Ushbu kodeksning 10-moddasiga ko‘ra, ma‘muriy huquqbuzarlik deganda qonun hujjatlariga binoan ma‘muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka,

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. – Т., 2010

davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklarga asosan ma'muriy javobgarlikni belgilashdan maqsad – barcha fuqaro va yuridik shaxslar ekologik qonun talablarini bajarishlari, jamiyat, davlat oldidagi ekologik mas'uliyatlarni bilishlari va amalga oshirishlari yoki ekologik huquqbuzarliklarni sodir etganlarni qayta tarbiyalash va tegishli jazo choralari ko'rishdan iborat.

Ekologiya sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik deganda, huquqqa va belgilangan qonunga asosan qarshi qilingan xatti-harakat oqibatida O'zbekiston Respublikasi ekologiya tizimiga va O'zbekiston Respublikasi ekologik qonunlariga hamda uni amalga oshirish talablariga rioya etmaslik yoki unga amal qilmaslik, yoinki uni buzish holatlari tushuniladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik o'z ichiga quyidagi 4 elementni (tarkibni), ya'ni subyekt, obyekt, subyektiv va obyektiv tomonlarni qamrab oladi.

Ekologiya sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlikning subyektlari jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 13-moddasiga asosan, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortiladilar.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining mansabdor shaxslariga ekologik huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik alohida yo'riqnomal<sup>1</sup> asosida ham qo'llanilishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarning bir necha turi ko'rsatilgan va tegishli jazo choralari qo'llanilishi ham batafsil yoritilgan.

Ushbu kodeksning VIII bobi 65-96 moddalari aynan shu masalalarga bag'ishlangan bo'lib, bir necha yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1) yerlardan foydalanish va uni ekologik muhofaza qilish yo'nalishi (65–69 moddalar);

2) yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish talablarini buzish (70-71-moddalar);

---

<sup>1</sup> Qarang: Табиатни муҳофаза давлат қўмитаси органлари мансабдор шахслари томонидан табиий муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги ҳуқуқбузарлик учун маъмурий жавобгарликни татбиқ этиш тўғрисидаги йўриқнома. – Т., 1998. – Б. 51.

3) suv zaxiralarini muhofaza qilish va suvdan foydalanish bilan bog'liq yo'nalish qoidalarini buzish bilan bog'liq yo'nalish (72-76- moddalar);

4) o'rmon fondidan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog'liq yo'nalish (77-80-moddalar);

5) o'simlik va o'rmonlarni muhofaza qilish (79-82-84-89-moddalar);

6) muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini buzish bilan bog'liq yo'nalish (82-modda);

7) atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan yo'nalish (85-88-moddalar);

8) ov qilish, hayvonot va o'simliklar turlarini saqlash bilan bog'liq bo'lgan yo'nalish (90-95-moddalar);

9) loyihalarni davlat ekologik (sanitariya-ekologik) ekspertizasining ijobiy xulosasiz ro'yobga chiqarish bilan bog'liq yo'nalish (96-modda) va boshqalar.

Yuqorida qayd etilgan moddalarda ko'rsatilgan ekologik huquqbuzarliklar uchun tegishli jazo choralari mazkur moddalarning sanksiya qismida ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 23-moddasiga asosan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi:

1) jarima;

2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish;

3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish;

4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositasini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan maxrum etish);

5) ma'muriy qamoqqa olish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat sanitariya epidemiologiya xizmati barcha sohalarda, jumladan ekologiya tizimida hamda sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilishni, u qaysi mulk shaklida bo'lishidan qat'i nazar, barcha korxonalar, muassasa, tashkilotlar, fuqarolar respublika hududida sanitariya qoida va talablariga rioya qilishlari lozim. Mazkur talab O'zbekiston Respublikasi «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi va «Veterinariya to'g'risida»gi qonunlarda<sup>1</sup> o'z ifodasini topgan.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. –1992. – № 9. – Б. 335-355.

Jumladan, «Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi qonunning 30-moddasiga asosan:

«Davlat bosh sanitariya vrachi va uning muovini sanitariya qonun va talablarini buzganlik uchun, gigiyena talablariga rioya etmaganligi, ushbu masala bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalarni bajarmaganlik uchun tegishli ma‘muriy jazo choralarini belgilashi mumkin», –

mansabdor shaxslarga – ikki oylik ish haqidan oshmagan miqdorda;

boshqa fuqarolarga nisbatan, – bir oylik ish haqidan oshmagan miqdorda jarima solishi mumkin.

Ushbu ma‘muriy javobgarlik natijasida undirilgan jarimalar Toshkent shahar va viloyat epidemiya fondlariga o‘tkaziladi.

Muxtasar qilib aytganda, ekologik huquqbuzarliklarga nisbatan ma‘muriy javobgarlikni qo‘llash, ekologik qonun va talablarning to‘la amalga oshishini, tabiiy obyektlarni qonun bilan qo‘riqlashni, ushbu sohada sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishga va unga qarshi kurashishga katta yordam beradi.

Fuqaroviy huquqiy javobgarlik ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan mulkiy zarar oqibatida namoyon bo‘ladi.

Fuqaroviy-huquqiy (mulkiy) javobgarlikka tortishdan maqsad ekologiya sohasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan moddiy va ma‘naviy (mulkiy) zararlarni o‘z vaqtida qoplashdir.

Yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning umumiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida<sup>1</sup> o‘z ifodasini topgan.

*Ekologiya sohasida fuqaroviy-huquqiy javobgarlikni qo‘llash uchun quyidagi shartlar bo‘lishi kerak:*

– yetkazilgan zararning mavjudligi;

– aybning bo‘lishi;

– harakat yoki harakatsizlik qonunga (huquqqa) xilofligi;

– zarar oxirgi zarurat va zaruriy mudofaa tufayli yetkazilgan bo‘lsa, ushbu holatni hisobga olib, sud tomonidan jazo chorasini belgilashdir.

Fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning o‘ziga xos tomoni shundaki, subyektning ekologiya sohasida huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun

---

<sup>1</sup> Yetkazilgan zarar uchun fuqarolik huquqiy (mulkiy) javobgarlik fuqarolik kodeksida aniq ko‘rsatilgan: Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. – Т., 2011.

ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi uni yetkazilgan zararni o'z vaqtida to'lash yoki qoplash majburiyatidan ozod etmaydi<sup>1</sup>.

Shuning uchun ham ekologiya huquqida fuqaroviy-huquqiy javobgarlik davlatning ekologik manfaatini, ekologik talablarni, ekologik qonunlarni, subyektlar yoki mulk egalari yetkazgan ekologik zararni qoplash hamda mazkur sohadagi barcha huquqiy normalarni bajarishiga qaratilgandir.

Ushbu talab, «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 48-49, 51-52-moddalarida batafsil yoritilgan.

Ekologiya sohasida fuqaroviy-huquqiy javobgarlik quyidagi hollarda namoyon bo'lishi mumkin:

1) tabiat boyliklaridan foydalanish va tabiatni muhofaza qilish talablari va qonunlarini buzganlik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash, to'lash, qaytarish.

Ushbu holatlar O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi» (86-88-m), «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonun (25-m), «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi qonun (47-50-m), «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonun (117-118-m.)larida batafsil ko'rsatilgan.

2) yer, suv, yer osti boyliklari, o'rmon, hayvonot va o'simliklar dunyosi davlat (umumxalq) mulki bo'lib, ushbu obyektlar oldi-sotdi, hadya qilish, garovga qo'yish, ayriboshlashga ruxsat etilmaydi.

Qilinayotgan barcha harakatlar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelishi mumkin emas va har qanday tuzilgan bitimlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va boshqa qonun talablariga mos kelishi lozim (Fuqarolik kodeksi, 113-128-m.);

3) tabiat boyliklaridan foydalanishda ekologiya tizimidagi subyektlar qonuniy huquqlarini himoya qilish bilan birgalikda, ular (o'zlari) tomonidan yetkazilgan zararni ham qoplashlari, to'lashlari shart.

Bunda Fuqarolik kodeksining 324–339 moddalari talabidan kelib chiqiladi.

Masalan, korxonalar, muassasa, tashkilot chiqargan zararli chiqitlari bilan atmosfera havosini ifloslantirishi, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini buzishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida majburiyatlarni bajarmaslik va buzish uchun ham javobgarlik ko'rsatilgan.

---

<sup>1</sup> Qarang: Холмўминов Ж.Т. Экологик қонун талабларини бузганлик учун фуқаровий-ҳуқуқий жавобгарлик муаммолари // Хўжалик ва ҳуқуқ. – 2001. – №2. – Б. 17-20.

Ushbu qonunning 333-moddasiga asosan, qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javob beradi. Qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan hamma choralarni ko'rmaganligini (jumladan ekologiya sohasida ham) isbotlasa, u aybsiz deb topiladi. Aybning yo'qligi majburiyatni buzgan shaxs tomonidan isbotlanadi.

Fayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik tufayli ekologiya tizimiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar ekologik zarar yetkazuvchi tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Qonun hujjatlarida yoki shartnomada jabrlanuvchilarga zararni to'lashdan tashqari tovon to'lash majburiyatlari ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Qonuniy harakatlar tufayli yetkazilgan zarar qonunda nazarda tutilgan hollarda to'lanishi lozim va hokazo.

Ekologik huquqbuzarlik (jinoyat)lar natijasida yetkazilgan zarar asosan ikki shaklda namoyon bo'ladi:

1) *iqtisodiy-ekologik* – ushbu shaklda sodir etilish jarayoni tabiat zaxiralaridan foydalanuvchi subyektlarning mulki hamda daromadlariga zarar yetkaziladi;

2) *ekologik-huquqiy* – yetkazilgan zararning xususiyati shundaki, yer-suvni ifloslantirish, yerlarni va boshqa tabiat obyektlarini foydalanishdan chiqarish, daraxtlarni qirqish, atmosfera havosini ifloslantirish va boshqa holatlarda namoyon bo'ladi.

Shunisi e'tiborliki, ekologiya sohasida tomonlarning shartnoma va shartnoma majburiyatlarini buzganlik oqibatida ham fuqaroviy-huquqiy javobgarlik qo'llanishi mumkin.

Ekologiya sohasida shartnoma tuzish – fuqaroviy-huquqiy bitimlarning turlaridan biri. Uning farqlovchi xususiyati shundaki, u ikki yoki ko'p tomonlama bitimdan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham shartnoma ekologiya sohasida majburiyatlar paydo bo'lishining eng muhim asoslaridan biridir.

Ekologiya sohasida shartnomalar tuzish shakli bo'yicha yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin.

Ekologiya sohasida xalqaro shartnoma majburiyati bilan bog'liq bo'lgan masalalar «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 53-moddasida va O'zbekiston Respublikasining boshqa ekologik qonunlarida aniq ko'rsatilgan.

Ekologik huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni qo‘llash o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, boshqa yuridik javobgarliklarga nisbatan ancha og‘irroqdir.

Ekologik huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni qo‘llashdan maqsad – ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarlikka baho berish, uning oldini olish, unga qarshi kurashish va boshqalardir.

Ekologiya sohasida jinoiy-huquqiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi uchun jinoiy huquqbuzarlik (jinoiyat) sodir etilishi darkor.

Ushbu sohada jinoiy huquqiy javobgarlikka tortishning huquqiy asosi asosan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida va bir qator yuridik adabiyotlarda<sup>1</sup> ko‘rsatilgan.

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik (jinoiyat) – tabiat boyliklariga, davlatning ekologik siyosati va ekologik boshqaruv tizimiga, ekologiya sohasida qabul qilingan huquqiy-normativ hujjat va qonunlarga, talablarga, inson, uning yashash muhiti, kelajagi va hayotiga nisbatan qasddan yoki ehtiyotsizlikdan qilingan ijtimoiy xatti-harakat yoki harakatsizlik.

Ekologiya sohasida sodir etilgan huquqbuzarlikning elementi quyidagilardan iborat: obyekt, subyekt, obyektiv tomoni va subyektiv tomoni.

Ekologiya sohasida sodir etilgan jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning o‘ziga xos belgilari: aybning mavjudligi, ijtimoiy xavflilik darajasi, huquqqa zidligi va jazoga sazovorligi boshqa turdagi huquqbuzarliklarga nisbatan og‘irroq ko‘rinishda bo‘ladi va O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan tartibga solinadi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning obyekt – tabiat boyliklari yer, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi, o‘rmon, hayvonot va o‘simliklar dunyosi hamda inson hayoti va atrof-muhit.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarni subyekt – jismoniy va yuridik shaxslardir.

Obyektiv tomoni – subyekt tomonidan amaldagi tabiatni muhofaza qilish va ekologik qonunlarni qo‘pol buzish. Bu quyidagi talablarni o‘z ichiga oladi: a) mavjud ekologik qonunlarni buzish; b) tabiat va uning boyliklariga zarar yetkazish yoki unga xavf tug‘dirish; c) subyektiv tomoni tegishli huquqbuzarlik sodir etilishi va o‘zaro bog‘liqlik.

Subyektiv tomoni – subyektning qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida ekologik jinoyat sodir etishi. Zero, bunda ayb, qilmishning

---

<sup>1</sup> Кабулов Р. Уголовная ответственность за нарушение санитарного законодательства или правил борьбы с эпидемиями. – Хуқуқ–Право–Law. – 2000. – С. 67–68.



ijtimoiy xavfliligi, huquqqa xilofligi va jazoga sazovorlik darajalari yuqoridagi xatti-harakatlarni o‘zida ifoda etadi.

Ekologiya sohasida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazoning belgilanishi ayrim prinsiplarga tayanadi.

a) yuridik javobgarlikka tortishning haqiqat mezoniga mosligi;

b) qilingan ijtimoiy xatti-harakat uchun qonuniy jazoni belgilash va uning muharrarligi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida birinchi marta ekologiya sohasidagi jinoyatlar ko‘rsatilib, unga alohida, XIV bob «Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar» deb nom berilgan. Mazkur jinoyatlar Jinoyat kodeksining 193-204 va 229<sup>1</sup> - moddalarida o‘z aksini topgan.

Jumladan, Kodeksning 193-moddasida – ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish; 194-moddasida – atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish; 195-moddasida – atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik; 196-moddasida – atrof tabiiy muhitni ifloslantirish; 197-moddasida – yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish; 198-moddasida – ekinzor, o‘rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish; 199-moddasida – o‘simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish; 200-moddasida – veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish; 201-moddasida – zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish; 202-moddasida – hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish; 203-moddasida – suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish; 204-moddasida – muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish; 229<sup>1</sup> -moddasiida – yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish jinoyatlari uchun javobgarlik ko‘rsatilgan<sup>1</sup>.

Ekologiya sohasida sodir etilgan jinoyatlar uchun eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ekologiya sohasida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo choralari ancha kuchaytirilgan.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2013.

Xullas, ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik (jinoyat)lar uchun jinoiy javobgarlikning qo'llanilishi katta ahamiyatga ega bo'lib, bu mazkur sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish, unga qarshi kurashish va sodir etilganlari uchun odil jazo berishga qaratilgandir<sup>1</sup>.

### **3-§. Ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ularning oldini olish borasidagi ichki ishlar organlarining roli va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunining 3-moddasida tabiatni muhofaza qilishdan maqsad ko'rsatilgan va unga asosan tabiatni muhofaza qilishdan maqsad:

– inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo'lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish;

– ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish;

– ekologiya xavfsizligini ta'minlash;

– tabiat obyektlari bilan bog'liq madaniy merosni asrab qolishdir - deb ta'kidlanganligi, O'zbekiston Respublikasining Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida qonunining 1-moddasiga binoan, qonunning maqsadi quyidagi tartibda ko'rsatib o'tilgan, ya'ni: muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi, shuningdek, ushbu qonunning 2-moddasida asosiy vazifalari tipik, noyob, qimmatli tabiiy obyektlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolishdan, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olishdan, tabiiy jarayonlarni o'rganishdan, atrof tabiiy muhit monitoringini olib borishdan, ekologik ma'rifat va tarbiyani takomillashtirishdan iborat ekanligi ichki ishlar organlari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklatilganligini ko'rsatib turibdi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish,

---

<sup>1</sup> Qarang: Шоимов Н.Б. Экология соҳасидаги жиноятлар учун жавобгарликни кучайтиришнинг баъзи жиҳатлари // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг Ахборотномаси. –2012. – №2. – Б. 29-33.

huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida»gi 1997-yil 25-iyun farmoni va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida»gi qarorida huquqiy va ekologik-huquqiy muammolarni hal etishda ichki ishlar organlarining faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgani va IIV bir qator vazifalarni bajarishi zarurligi ko'rsatib berilgan.

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ularni oldini olishda barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatori, ichki ishlar organlarining ham faoliyati va vazifasi ancha kengdir.

Ichki ishlar organlarining ekologik huquqbuzarlik va jinoyatlarga qarshi kurashish, ularning oldini olish bilan bog'liq ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasi IIVning nizom va bir qator buyruqlarida aniq ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi IIV tashkilotchiligi doirasida, boshqa mutasaddi tashkilotlar hamkorligida respublikamizda har yili ikki bosqichda «Toza havo», «Yo'l harakat xavfsizligi» oyligi, «To'r» kabi ekologiya borasidagi tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadbirlarni amalga oshirishda asosan ichki ishlar xodimlari faol ishtirok etib, tadbir davomida ekologiya sohasidagi sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan hozirgi vaqtda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan bir qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish samaradorligini oshirish, ekologik munosabatlarni tartibga solish maqsadida bir qancha qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 maydagi 142-sonli qaroriga asosan «2013-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlarni Dasturi to'g'risida»gi<sup>1</sup> va 2011-yil 31-oktabrdagi «2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi atrof tabiiy muhit monitoringi Dasturi to'g'risida»gi 292-sonli qarori hamda «Orolbo'yi genofondini muhofaza qilish xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»<sup>2</sup>gi qarorlari qabul qilinganligini alohida ta'kidlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari ekologiya sohasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2013.– № 22. – 282-м.

kurashishlari uchun ekologik huquqiy targ'ibot ishlarini olib borishlari, fuqarolarning ekologik ongi, ma'naviyati va madaniyatini oshirishga ko'maklashishlari hamda ushbu ishni boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligida olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

***Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:***

- 1. Ekologik huquqbuzarliklarning tasnifi haqida so'z yuriting.*
- 2. «Ekologik-iqtisodiy javobgarlik» tushunchasiga ta'rif bering.*
- 3. Ekologik-huquqbuzarlik uchun intizomiy javobgarlik qaysi normativ-huquqiy hujjatga binoan qo'llaniladi?*
- 4. Profilaktika inspektorlarining ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishdagi asosiy faoliyati nimadan iborat?*
- 5. Ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishda HOlari qaysi tashkilotlar bilan ko'proq hamkorlik qilishadi?*
- 6. Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni natura shaklida qoplash tartibini tushuntiring.*
- 7. Ekologik huquqiy javobgarlikning qanday turlari bor?*
- 8. Ekologik-iqtisodiy va ekologik fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning o'xshash va farq qiluvchi jihatlari nimada?*
- 9. Nima sababdan ekologik huquqbuzarliklar sodir etiladi?*
- 10. Ekologik huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish uchun qanday choralar amalga oshirilishi zarur?*

---

---

## *MAXSUS QISM*

### *To'rtinchi bob*

#### **YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA UNI MUHOFAZA QILISHNING EKOLOGIK-HUQUQIY TARTIBI**

##### **1-§. «Yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning ekologik-huquqiy tartibi» tushunchasi**

Tabiat boyliklari orasida yer, yer resurslari alohida xususiyatga ega bo'lib, qanday davlat bo'lmasin uning iqtisodiy qudrati yer resurslari bilan bog'liqdir. Jumladan, mustaqil O'zbekistonimiz xalqi hayoti, turmush tarzi, faoliyati va farovonligining tub asosi yer resurslaridan oqilona foydalanishga tayanadi. Shu sababli uni muhofaza qilish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 44,9 million gektar bo'lib, qishloq xo'jalik tarmog'iga ajratilgan yerlar 28 million gektar (ya'ni butun hududning 62 foizini tashkil etadi). Shundan, 23 million gektar sahro yerlarda joylashgan yaylovlardir, 0,7 million gektar lalmi haydaladigan, 4,3 million gektarni esa sug'oriladigan yerlar tashkil etib, bu 15 foiz hududni o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining 95 foizi ana shu toifaga kiradigan yerlardan olinadi.

O'zbekiston Respublikasida yer bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Yer Kodeksi»<sup>1</sup> va ana shu qonunlarga asoslanib chiqarilgan boshqa qonun va qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bunday hujjatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tegishli qarorlari hamda ayrim buyruqlari kiradi.

Shuningdek, yer bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)»<sup>2</sup>, «Dehqon xo'jaligi»<sup>3</sup>, «Fermer xo'jaligi»<sup>1</sup>, to'g'risidagi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1998. – № 5–6. – 82-м.

<sup>2</sup> O'sha manba.. – 1998. – № 5–6. – 84-м.

<sup>3</sup> O'sha manba. – 1998. – № 5–6. – 88-м.

qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Soliq kodeksi va boshqa qonunlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog‘liq suv, o‘rmon, tog‘- konga taalluqli munosabatlar, shuningdek o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosidan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq boshqa maxsus qonunlari bilan ham tartibga solinadi.

Shuni alohida aytish lozimki, O‘zbekiston Respublikasidagi yer maydonini huquqiy-ekologik muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni ta‘minlovchi asosiy manba «Yer kodeksi» hisoblanadi. Shunday ekan, mazkur Kodeksining ayrim xususiyatlarini sanab o‘tish o‘rinlidir.

*Birinchi*dan, Yer kodeksi O‘zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida yerdan oqilona foydalanish va uni huquqiy muhofaza qilishning asosini tashkil etadi.

*Ikkinchi*dan, u yangi ijtimoiy tuzum – bozor munosabatlarini mustahkamlash uchun yangi huquqiy zamin tayyorlab, qishloq xo‘jaligida agrar islohotlarni amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etdi.

*Uchinchi*dan, Yer kodeksi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni hamda qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishda asosiy huquqiy manba hisoblanadi.

*To‘rtinchi*dan, 1990-yil 20-iyundagi O‘zbekiston Respublikasining «Yer to‘g‘risida»gi qonunidan batamom farq qilib, hozirgi sharoitda yerdan foydalanish va uni huquqiy muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha muammolarni to‘laroq aks ettiradi.

*Beshinchi*dan, Yer kodeksi yangi talab va bozor iqtisodiyoti sharoitida qabul qilingan «Fermer xo‘jaligi», «Dehqon xo‘jaligi» va «Qishloq xo‘jaligi shirkati» to‘g‘risidagi qonun talablarini hamda «Yer kadastri to‘g‘risida»gi yangi qonunni qo‘llash, amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etib, muhim manba hisoblanadi.

*Oltinchi*dan, Yer kodeksining eng muhim jihati, barqarordir. Mazkur qonunning barqarorligi uning normalari, prinsiplari va ahamiyati uzoq muddatli davrni hisobga olib qabul qilinganligidadir.

Yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko‘zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni,

---

<sup>1</sup> O‘sha manba. – 2004. – № 9. – 134-m.

xo‘jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqiylilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta’minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek, bu sohada qonuniylilikni mustahkamlashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida yer resurslaridan oqilona foydalanish va uni huquqiy-ekologik muhofaza qilish konstitutsiyaviy talabi va asosiy prinsiplari «Yer kodeksi»da o‘z asosini topgan.

Jumladan, 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Yer kodeksi»ning 2-moddasiga binoan yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

– eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi bo‘lmish yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish;

– yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta’minlash;

– qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlarni, eng avvalo, sug‘oriladigan yerlarni alohida muhofaza etishni, sug‘oriladigan yerlarni kengaytirib borishni hamda ulardan qat’iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta’minlash;

– qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo‘li bilan va boshqa tarzda qo‘llab-quvvatlash;

– yerga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash;

– yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliligini ta’minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish;

– yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lash;

– yerlarning holati haqidagi axborotning to‘liq bo‘lishini hamda undan erkin foydalanishga yo‘l qo‘yilishini ta’minlashga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasining yer resurslari boy va o‘ziga xos xususiyatga ega. Ekologiya huquqida mamlakatimizning yer fondi toifalarini o‘rganish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Yagona davlat yer fondi toifalarga bo‘linishining huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi»da ko‘rsatilgan<sup>1</sup>. Zero, yer

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1998. – № 5-6. – 82-м.

fondining huquqiy asosi mazkur qonunning II bob 8-10-moddalarida aniq o'z aksini topgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning asosiy maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi:

1) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi;

2) aholi punktlarining (shahar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari – shaharlar va posyolkalar, shuningdek, qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar – ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;

4) tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek, ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tarixiy madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;

6) o'rmon fondi yerlari – o'rmon bilan qoplangan, shuningdek, o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;

7) suv fondi yerlari – suv obyektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

8) zaxira yerlar (8-modda).

Hayot rivojlanishi va amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zi hollarda qonunda belgilangan yer toifalari boshqasiga o'tkazilishi ham mumkin.

Mazkur holat amaldagi «Yer kodeksi»ning 9-moddasi talablari asosida hamda talab darajasida belgilab qo'yilgan huquqiy normalarga to'la mos kelishi va javob berishi lozim. Yerlardan asosiy foydalanish **maqsadi** – yerlardan yer kadastr hujjatlarida aks ettiriladigan aniq maqsadlarni ko'zlab foydalanishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibi va shartlaridir.

Yerlarni yer fondining bir toifasidan boshqasiga o'tkazish yerlardan asosiy foydalanish maqsadi o'zgargan taqdirda amalga oshiriladi.



Yerlarni yer fondi toifalariga bo'lish, bir toifadan boshqasiga o'tkazish yerga egalik qilishga va uni foydalanishga berish huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yer fondining toifasi yerni egalik qilishga va foydalanishga berish huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan qabul qilinadigan yer uchastkalarini berish to'g'risidagi qarorlarda, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi guvohnomalarda, shartnomalarda, boshqa hujjatlarda, davlat yer kadastru hujjatlarida, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish hujjatlarida ko'rsatiladi.

Yerlarni bir toifadan boshqasiga o'tkazishning belgilangan tartibini buzish bunday o'tkazish faktlarini g'ayriqonuniy deb va ular asosida tuzilgan yer uchastkalariga doir bitimlarni haqiqiy emas deb topishga, shuningdek, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olishni rad etishga asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi «Yer kodeksi»ga asosan, yer uchastkasi – yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimga hamda yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning davlat yer kadastrida va davlat ro'yxatiga olish hujjatlarida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo'lgan qismidir.

Yer uchastkasining chegarasi rejalarda (chizmalarda) qayd etiladi va naturada (joyning o'zida) belgilanadi. Yer uchastkasining maydoni naturada (joyning o'zida) chegara belgilanganidan keyin aniqlanadi.

Yer uchastkasi bo'linadigan va bo'linmaydigan bo'lishi mumkin.

O'zining asosiy foydalanish maqsadini o'zgartirmagan va yong'inga qarshi, sanitariya, ekologiyaga oid, shaharsozlik hamda boshqa majburiy normalar va qoidalarni buzmaganda holda qismlarga bo'lish mumkin bo'lgan va bu ish amalga oshirilganidan keyin hosil bo'lgan qismlarning har biri *mustaqil yer uchastkasi* hisoblanadi.

Foydalanish maqsadiga ko'ra mustaqil yer uchastkalariga bo'linishi mumkin bo'lmagan yer uchastkasi bo'linmaydigan yer uchastkasi hisoblanadi.

Yuqoridagi yer fondi toifalarining o'z nomi va foydalanish xususiyatidan ko'rinib turibdiki, har bir kategoriya yer fondi toifasining hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati qattadir.

Xullas, har bir yer fondi toifalaridan qonunda belgilangan tartibda, o'z maqsadi yo'lida oqilona foydalanilishi va huquqiy-ekologik muhofaza qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yerga nisbatan mulkchilik eng muhim: ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham huquqiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, iqtisodiy taraqqiyotning amalga oshishi ko‘p jihatdan yerga nisbatan mulkchilik shakliga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi<sup>1</sup>.

Umuman olganda, yerga nisbatan davlat mulkchiligi yoxud xususiy mulkchilik belgilanishi mumkin. Hozirgi sharoitda ko‘pchilik davlatlarning yerga oid qonunchiliklarida yerga nisbatan davlat mulkchiligi bilan birga xususiy mulkchilik ham belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida mazkur masalaga juda to‘g‘ri e‘tibor berilgan. Jumladan, respublika Konstitutsiyasining 55-moddasida: «Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir», deb ko‘rsatilgan.

Mamlakatimizda, 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasida ham tabiiy resurslarga, jumladan yerga nisbatan mulkchilik belgilandi.

Tabiiy resurslarni berish, ulardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning shartlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari bilan belgilanadi.

Mazkur muammo amaldagi «Yer kodeksi»ning 16-moddasida esa quyidagicha o‘z ifodasini topgan.

Yer davlat mulki – umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo‘yilmaydi, O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Yuridik shaxslar Yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yerga doimiy egalik qilish, undan doimiy muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lishlari mumkin.

Jismoniy shaxslar Yer kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi»da yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqlari quyidagicha belgilangan.

---

<sup>1</sup> Холмўминов Ж.Т. Табиий ресурслардан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг экологик-ҳуқуқий муаммолари. – Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2009. – Б.240.; Узокова Г.Ш. Ерга нисбатан мулк ҳуқуқи. – Т., 2012. – Б. 100

Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga boʻlgan mulk huquqi savdo va xizmat koʻrsatish sohasi obyektlari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiylashtirilganda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vujudga keladi.

Diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan, Oʻzbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarning yer uchastkalariga mulk huquqi ularga oʻzlari vakolatxona binosi sifatida foydalanayotgan imorat yoki imoratning qismlari, shu jumladan vakolatxona boshligʻining qarorgohi ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga, shuningdek mazkur vakolatxonalarining imoratlarini qurish uchun yer uchastkalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi.

Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning – diplomatiya korpusi xodimlarining, Oʻzbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan matbuot vakillarining, firmalar, kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar doimiy vakolatxonalari xodimlarining, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarda doimiy asosda ishlovchi shaxslarning, shuningdek respublikada doimiy istiqomat qiluvchi va yashash uchun guvohnomasi boʻlgan shaxslarning yer uchastkalariga boʻlgan mulk huquqi ularga uy-joy binolari shu binolar joylashgan yer uchastkalari bilan birga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilinganda vujudga keladi (18-modda).

Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham berilishi mumkin.

Fuqarolarning yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlanadi.

Yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjatining shakli, uni roʻyxatga olish va bunday hujjatni berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

## **2-§. Yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi, nazorat etish tartibi hamda yer qonunchiligi talablarini buzganlik uchun javobgarlik**

Amaldagi «Yer kodeksi»ning 4-moddasiga asosan yer munosabatlarini tartibga solish sohasida Vazirlar Mahkamasining vakolatlari koʻrsatilgan.

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga kiradi:

- yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- yer kodeksiga, boshqa qonun hujjatlariga muvofiq yer munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida normativ hujjatlar qabul qilish;

- tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan davlat dasturlarini tasdiqlash;

- qishloq xo‘jaligining tabiiy moslashuvi jihatidan yerlarni rayonlashtirish, yer tuzishni, yer monitoringi o‘tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;

- davlat mulkidagi yerlarni tasarruf etish;

- yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda vazirliklar hamda idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

- yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqini belgilangan tartibda yer kodeksining 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;

- yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil etish;

- yer munosabatlarini tartibga solish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Shuningdek, amaldagi yer qonunchiligida (Yer kodeksi, 5-modda) yer munosabatlarini tartibga solish sohasida viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ham aniq o‘z ifodasini topgan.

Yer kodeksiga asosan ularning vakolatlari quyidagilardan iborat:

- tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha hududiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- yer resurslaridan belgilangan maqsadda, oqilona va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

- yer tuzishni, yer monitoringi o‘tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;

- yuridik shaxslarga qishloq xo‘jalik ehtiyojlari hamda boshqa davlat va jamoat ehtiyojlari uchun egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish;

– o‘lchamidan qat’i nazar barcha yerlarni olib qo‘yish, alohida qimmatga ega bo‘lgan unumdor sug‘oriladigan yerlar, muhofaza etiladigan hududlar egallagan yerlar, shahar atrofi yerlari va shaharlarning yashil zonalari yerlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o‘quv yurtlarining tajriba maydonlari, o‘rmon o‘simliklari bilan qoplangan yerlar bundan mustasno;

– diplomatiya vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarga mazkur vakolatxonalarining binolarini, shu jumladan vakolatxona boshlig‘i qarorgohini qurish uchun yer uchastkalarini mulk etib realizatsiya qilish;

– yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqini belgilangan tartibda yer kodeksining 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;

– yer munosabatlarini tartibga solish sohasida viloyatlar, Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Qonunchilikda (Yer kodeksi, 6-modda) yer munosabatlarini tartibga solish sohasida tumanlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ko‘rsatilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

– yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar tumanlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradi:

– tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona va samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

– yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

– fuqarolarga, yuridik shaxslarga egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish, shuningdek, tubdan yaxshilash ishlari amalga oshirilgan sug‘oriladigan yerlar, pichanzorlar va yaylovlardan tashqari yerlarni, o‘rmon o‘simliklari bilan qoplangan yerlardan tashqari o‘rmon fondi yerlarini, san‘at, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan yerlarni, suv fondi yerlarini olib qo‘yish – har bir yer egasiga va yerdan foydalanuvchiga o‘n gektargacha o‘lchamda;

– fuqarolarga fermer xo‘jaligi yuritish uchun yerlarni ijaraga berish;

– fuqarolarga, yuridik shaxslarga zaxira yerlardan yer uchastkasining o‘lchamidan qat’i nazar, egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish;

– yer uchastkalarini savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlari bilan birgalikda yuridik va jismoniy shaxslarga mulk etib realizatsiya qilish;

– yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini kim oshdi savdosi asosida fuqarolarga realizatsiya qilish;

– yer tuzishni, yer monitoringi o‘tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;

– yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni, yer ijaraga berish shartnomalarini, shuningdek, servitutlar to‘g‘risidagi kelishuvlarni davlat ro‘yxatiga olish;

– yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqini belgilangan tartibda Yer kodeksining 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;

– qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari tashkil etilgan, qayta tashkil etilgan va tugatilgan hollarda, ularning yerga egalik qilish va yerdan foydalanishi masalalarini hal etish;

– yer munosabatlarini tartibga solish sohasida shaharlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Shuningdek, Yer kodeksida shaharlar davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari ham yetarli asosda ko‘rsatilgan. Zero, Yer kodeksining 7-moddasiga asosan yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar shaharlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradi:

– yerlardan oqilona va samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

– yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

– yer uchastkasining o‘lchamidan qat’i nazar, shahar chegarasi doirasida egalik qilishga, foydalanishga va ijaraga yer berish, shuningdek, yerni olib qo‘yish. Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarning yerlari bundan mustasno;

– yer uchastkalarini savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlari bilan birgalikda yuridik va jismoniy shaxslarga mulk etib realizatsiya qilish;

– yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini kim oshdi savdosi asosida fuqarolarga realizatsiya qilish;

– yer tuzishni, yer monitoringi o‘tkazilishini va davlat yer kadastri yuritilishini tashkil etish;

– yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni, yerni ijaraga berish shartnomalarini, shuningdek, servitutlar to‘g‘risidagi kelishuvlarni davlat ro‘yxatiga olish;

– yerga egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, yer uchastkasini ijaraga olish huquqlarini hamda yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqini belgilangan mulk huquqini belgilangan tartibda ushbu Kodeksning 36-moddasiga muvofiq bekor qilish;

– yer munosabatlarini tartibga solish sohasida shaharlar davlat hokimiyati organlarining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

Yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi alohida o‘rin tutadi.

Ma‘lumki, yer fondi tarkibiga o‘rmon fondi yerlari ham kiritilgan bo‘lib, bu yerlarni boshqarish Yer resurslari davlat qo‘mitasi zimmasiga yuklatilgan. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 24-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni e‘lon qilindi. Farmonga ko‘ra, Yer resurslari davlat qo‘mitasi zimmasiga O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qoidalarini ro‘yobga chiqarish, yerga oid munosabatlar sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish va yer fondlaridan oqilona foydalanishni ta‘minlash vazifalari yuklatilgan.

Shu bilan birga, Yer qonunchiligiga rioya etishni nazorat qilish, yerdan foydalanishni yaxshilash Yer resurslari davlat qo‘mitasining asosiy vazifalari etib belgilangan. Tuproq unumdorligini saqlash, oshirish, yer tuzishni tashkil etish, yer resurslariga beriladigan bahoni hisobga olishni takomillashtirish, yer fondining holatini kuzatib borish, tuproqdagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, yerlarni baholash, yerga salbiy ta‘sir o‘tkazish jarayonlari oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish maqsadida yerlar monitoringini amalga oshirish, davlat yer kadastrini tashkil etish va yuritish, yerga bo‘lgan huquqni ruyxatga olish, davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslarni yerlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy holati, ularning toifalari, sifat xususiyatlari, yer uchastkalarining qayerda joylashganligini va hajmini, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risida ma‘lumotlar va hujjatlar bilan ta‘minlash, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish, yer qonunlari buzilishini bartaraf etish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o‘z vaqtida choralar ko‘rish kabilar ham shunday vazifalar qilib belgilandi.

Yer resurslari geodeziya kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi yerga oid munosabatlarni tartibga solish, yer tuzish, yer monitoringini amalga oshirish, davlat yer kadastrini yuritish hamda yerlardan foydalanishni nazorat qilish va ularni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organ hisoblanib, Vazirlar Mahkamasi oldida hisobot beradi. Yer resurslari geodeziya kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitalari bo‘linmalari viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi yer resurslari davlat qo‘mitasiga bo‘ysunadilar hamda Qoraqalpog‘iston Respublika Vazirlar Kengashiga va viloyat hokimlariga hisobot beradilar.

Yerdan foydalanish hamda uni ekologik muhofaza qilish ustidan nazorat olib borish yer resurslaridan oqilona foydalanishni, yer to‘g‘risidagi qonunlarga rioya qilishni va yer sohasidagi ayrim huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi. Yerdan foydalanish hamda uni ekologik muhofaza qilish masalasi Yer kodeksining 84-moddasida batafsil ko‘rsatilgan bo‘lib, quyidagicha ifodalangan.

Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy davlat hokimiyati organi, shuningdek maxsus vakolatga ega bo‘lgan davlat organlari amalga oshiradilar.

Yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni posyolka, qishloq va ovul fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradilar.

Tabiatni muhofaza qilish jamiyatlari, ilmiy jamiyatlar va boshqa jamoat birlashmalari, shuningdek fuqarolar yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat organlariga va posyolka, qishloq, ovul fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlariga ko‘maklashadilar.

Yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning asosiy vazifalari yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishlarini ta‘minlashdan iboratdir.

Shuningdek, yerdan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari o‘z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega bo‘ladilar:

– yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish masalalari yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazish, mazkur masalalar bo‘yicha barcha zarur hujjatlarni va materiallarni olish, tuproqning kadastr ma‘lumotlariga mosligini aniqlash maqsadida tuproqni tekshirish;



– yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishining sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan, barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan ko‘rsatmalar (yozma buyruqlar) berish;

– aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolarni ma‘muriy javobgarlikka tortish, yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha da‘volar taqdim etish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun tegishli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga hamda huquqni muhofaza qilish organlariga taqdimnomalar yuborish;

– yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun yer uchastkalarini olib qo‘yish, shu jumladan yerlarni ijaraga berish shartnomalarini muddatidan oldin bekor qilish haqidagi, shuningdek yerlardan foydalanishni cheklash va to‘xtatib qo‘yishga doir materiallarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga hamda posyolka, qishloq va ovul fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlariga taqdim etish;

– yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslardan zarur axborotlar olish, mazkur masalalar yuzasidan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlari va axborotlarini eshitish;

– yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini olib borish ishlarida qatnashish uchun mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb qilish.

Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar:

– yer uchastkalaridan belgilangan maqsadda foydalanilishini, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan yerlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini belgilangan tartibda tekshirishlari;

– yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish hamda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o‘z vaqtida choralar ko‘rishlari;

– yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq tadbirlar yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida ko‘rsatmalar berishlari shart.

Yuridik va jismoniy shaxslarning yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish borasidagi faoliyati bir yilda ko‘pi bilan bir marta tekshirilishi mumkin. Agar organ yerlardan oqilona foydalanmaslik va

ularni muhofaza qilmaslik sabablarini bartaraf etish yuzasidan ko'rsatmalar bergan bo'lsa, u belgilangan muddatda mazkur tadbirlarni tekshirishga haqlidir.

Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlar va mansabdor shaxslar o'z faoliyatlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar (Yer kodeksining 85-moddasi).

Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli (vaqtincha) egalik qilishga hamda ulardan doimiy va muddatli (vaqtincha) foydalanishga berilishi mumkin.

Yer uchastkalari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qishloq va o'rmon xo'jaligi yuritish uchun, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa boshqa maqsadlar uchun ham doimiy egalik qilishga beriladi.

Doimiy yoki muddatli (vaqtincha) foydalanish uchun yer uchastkalari:

- O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga;
- sanoat, transport hamda boshqi noqishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga;
- chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yer uchastkalari foydalanish uchun boshqa tashkilotlar va shaxslarga ham beriladi.

Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish huquqi yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlanadi. Davlat hujjatlarining shakllari, ularni ro'yxatga olish va bunday hujjatlarni berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer uchastkalaridan muddatli foydalanish qisqa muddatli – uch yilgacha va uzoq muddatli – uch yildan o'n yilgacha bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish zaruriyati taqozo etganda bu muddatlar tegishlicha qisqa muddatli yoki uzoq muddatli vaqtincha foydalanish muddatlaridan ortiq bo'lmagan davrga uzaytirilishi mumkin. Yer uchastkalaridan vaqtincha foydalanish muddatlarini uzaytirish shu uchastkalarni bergan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Yaylov chorvachiligi uchun yer uchastkalari qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga yigirma besh yilgacha muddatga berilishi mumkin.

Mazkur holatlar O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 20-moddasida o'z ifodasini topgan. Ta'kidlash joizki, yer uchastkalariga

egalik qilish va foydalanish uchun berish (realizatsiya qilish) ham katta ahamiyatga egadir, uning huquqiy holati amaldagi yer qonunchiligiga asosan quyidagicha ko'rsatilgan.

Yer uchastkalarini egalik qilish va foydalanish uchun berish (realizatsiya qilish) yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi.

Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Egalikdagi yoki foydalanishdagi yer uchastkasini boshqa shaxslarga berish (realizatsiya qilish) faqat shu uchastka belgilangan tartibda olib qo'yilganidan keyin amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalarini, temir yo'llar va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr uzatish liniyalari, magistral truboprovodlar qurish uchun, shuningdek qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ehtiyojlar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar yoki qishloq xo'jaligining sifati yomon yerlari beriladi (realizatsiya qilinadi). O'rmon fondiga qarashli yerlardan mazkur maqsadlar uchun yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) asosan o'rmon bilan qoplanmagan maydonlar yoki buta va arzonbaho dovdaraxtlar bilan qoplangan maydonlar hisobidan amalga oshiriladi.

Yer tuzish xizmati organlari berilgan (realizatsiya qilingan) yer uchastkasining chegaralarini naturada (joyning o'zida) belgilagunlariga va yerga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar berilguniga qadar ana shu uchastkaga egalik qilish va undan foydalanishga kirishish taqiqlanadi.

Yer uchastkalarini egalik qilish va foydalanish uchun berish (realizatsiya qilish) tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi (Yer kodeksi, 23-modda).

O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 36-moddasiga binoan, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning bekor qilinish hollari ham aniq o'z ifodasini topgan.

Unga asosan: butun yer uchastkasiga yoki uning bir qismiga egalik qilish huquqi yoxud undan doimiy yoki muddatli foydalanish huquqi, shuningdek yer uchastkasini ijara olish huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- 1) yer uchastkasidan ixtiyoriy voz kechilganda;
- 2) yer uchastkasi berilgan muddat tugaganda;
- 3) yuridik shaxs tugatilganda;
- 4) ijro hujjatlari bo'yicha undiruv yer uchastkasiga qaratilganda;
- 5) xizmatda foydalanish uchun chek yer berib qo'yishga asos

bo'lgan mehnatga oid munosabatlar bekor bo'lganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa;

6) yer uchastkasidan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilganida;

7) yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda, bu qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun hosildorlik darajasi uch yil mobaynida normativdan (kadastr bahosiga ko'ra) past bo'lishida ifodalanganda;

8) yer uchastkasidan tuproq unumdorligi pasayishiga, uning kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalanilgan taqdirda;

9) qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yer solig'i, shuningdek ijaraga olish shartnomasida belgilangan muddatlarda ijara haqi muntazam to'lanmay kelinganda;

10) qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan yer uchastkasidan bir yil mobaynida va qishloq xo'jaligi sohasiga taalluqli bo'lmagan ehtiyojlar uchun berib qo'yilgan yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanilmaganida;

11) meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi order kim oshdi savdosi asosida sotib olinganidan keyin yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanilmaganida, yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi garovda bo'lgan taqdirda esa, – garov shartnomasi muddati mobaynida foydalanilmaganida. Foydalanilmayotgan yer uchastkalari avvalgi egalardan ular to'lagan haq qiymati qoplangan holda olib qo'yiladi;

12) yer uchastkasi yer kodeksida nazarda tutilgan tartibda olib qo'yilganida.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir yer egasi, ijarachi va yerdan foydalanuvchilar yerdan oqilona foydalanishlari, uni muhofaza qilishlari hamda yerdan foydalanish bilan bog'liq barcha ekologik talablarga rioya qilishlari lozim.

Ushbu masala O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi V bob, 39-42-moddalarida o'z aksini topgan. Mazkur qonunning 39-moddasiga asosan, yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori quyidagi huquqlarga ega:

1) yer uchastkasida undan foydalanish maqsadiga muvofiq xo'jalik yuritish;

2) qishloq xo'jalik ekinzorlari va ko'chatzorlari hamda dov-daraxtlarga, yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsuloti va uni realizatsiya qilishdan olingan daromadga bo'lgan mulk huquqi;

3) yer uchastkasidagi mavjud keng tarqalgan foydali qazilmalar, oʻrmonzorlar, suv obyektlaridan xoʻjalik ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda foydalanish, shuningdek yerning boshqa foydali xossalarini ishga solish;

4) yerlarni sugʻorish va ularning zaxini qochirish, agrotexnika va boshqa melioratsiya ishlari oʻtkazish;

5) qishloq xoʻjalik ekinlarini, dov-daraxtlarni sugʻorish hamda boshqa maqsadlar uchun sugʻorish manbalaridan limitlarga muvofiq suv olish;

6) belgilangan tartibda uy-joy binolari, ishlab chiqarish, madaniy-maishiy hamda boshqa imoratlar va inshootlarni barpo etish, yer uchastkalaridan foydalanish maqsadi va loyiha hujjatlariga muvofiq ularni qayta qurish va buzib tashlash. Yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar bu ishlarni yer egalari bilan kelishib amalga oshirishga haqli;

7) yer uchastkasi olib qoʻyilgan taqdirda unga yetkazilgan zararning (shu jumladan boy berilgan foydaning) qoplanishini yoki yer uchastkasi-dan ixtiyoriy ravishda voz kechilganida sarflangan xarajatlarning toʻlanishini talab qilish;

8) yer uchastkasini yoki uning bir qismini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vaqtincha foydalanishga va ichki xoʻjalik ijarasiga berish.

Yer egasi boʻlgan fuqaro yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan kim oshdi savdosi asosida olingan shunday huquqni dehqon xoʻjaligi yuritish, yakka tartibda uy-joy qurish maqsadida kreditlar olish uchun garovga qoʻyishi mumkin.

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin.

Bu esa har bir yerdan foydalanuvchi huquq va majburiyatlarga ogʻishmay amal qilishini talab etadi. E. Delakrua aytganidek, kichkina boʻlsa ham har kuni nimadir burchni ado etish – ajoyib ish demakdir. Bu burch oʻz vaqtida yerdan foydalanuvchilar barcha boyliklar qatori, yer resurslariga oqilona munosabatda boʻlishida ham namoyon boʻladi.

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdori quyidagilarni bajarishi shart:

1) yerdan belgilangan maqsadga muvofiq oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarini qoʻllash, oʻz xoʻjalik faoliyati natijasida hududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yoʻl qoʻymaslik;

2) ishlab turgan irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari, muhandislik kommunikatsiyalarini soz holatda saqlab turish;

3) yerlarni muhofaza qilishga oid, Yer kodeksining 79-moddasida nazarda tutilgan turkum tadbirlarni amalga oshirish;

4) yer solig'ini yoki yer uchun ijara haqini o'z vaqtida to'lash;

5) boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlarining huquqlarini buzmaslik;

6) foydali qazilma konlarini ishlatish, qurilish va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun berilgan qishloq xo'jalik yerlari va o'rmonzorlarni ularga ehtiyoj qolmaganidan keyin o'z hisobidan qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi yoki baliq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga, mazkur ishlar boshqa yerlarda amalga oshirilgan hollarda esa, belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish;

7) foydali qazilma konlarini ishlatish chog'ida, shuningdek boshqa ishlarni amalga oshirish paytida o'zlariga egalik qilishga va foydalanishga hamda mulk etib berilgan (realizatsiya qilingan) yer uchastkalari hududidan tashqaridagi qishloq xo'jalik ekinzorlari, o'rmondan tashqaridagi qishloq xo'jalik ekinzorlari, o'rmonzorlar va boshqa yerlarga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish yoki uni mumkin qadar cheklash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

8) mahalliy davlat hokimiyati organlariga yerdan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish;

9) boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilarga, yer uchastkalarining ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplash qonun hujjatlariga muvofiq yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalarining ijarachilari va mulkdorlari boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin (Yer kodeksi, 40-modda).

Amaldagi qonunlar yerga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni, undan oqilona foydalanishni, uni har qanday nojo'ya xatti-harakat va ekologik buzilishlardan himoya qilishni talab etadi. Agar ana shu tadbirlarni amalga oshirmasak, kelajak avlod yerni yaroqsiz holga keltirganimiz uchun kechirmaydi, chunki undan nafaqat biz, balki ular ham foydalanadilar.

Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 90-moddasida yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun quyidagi javobgarliklar ko'rsatilgan.

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan amalga oshirilgan yer uchastkalari oldi-sotdisi, ularni hadya qilish, garovga qo'yish (yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini, shu jumladan kim oshdi savdosi asosida olingan

shunday huquqini, shuningdek yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga qo'yish bundan mustasno), yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan ayrboshlash haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Bunday bitimlarni amlaga oshirishda aybdor shaxslar qonunga binoan javobgar bo'ladilar.

Quyidagi holatlarda ham aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar:

- yerlardan belgilangan maqsadda foydalanmaganlikda;
- yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olganlikda;
- qishloq xo'jaligi yerlarini va boshqa yerlarni yaroqsiz holga keltirganlikda, ularni kimyoviy va radioaktiv moddalar, ishlab chiqarish chiqindilari va oqova suvlar bilan ifloslantirganlikda;
- yerlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan obyektlarni joylashtirganlikda, qurganlikda, loyihalashtirganlikda, foydalanishga topshirganlikda;
- yerlardan foydalanishning tabiatni muhofaza qilishga oid talablarini bajarmaganlikda;
- vaqtincha egallab turilgan yerlarni qaytarish muddatini buzganlikda yoki yerlarni belgilanga maqsadda foydalanishga yaroqli holatga keltirishga oid majburiyatlarni bajarmaganlikda;
- yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilarga va mulkdorlarga qarashli yer uchastkalarining marza belgilarini yo'q qilganlikda;
- davlat yer kadastrini ma'lumotlarini buzib ko'rsatganlikda;
- o'zboshimchalik bilan pichan o'rganlikda va chorva mollar boqqanlikda;
- yovvoyi o'tlar va zararkunandalarga qarshi kurash choralarini ko'rmaganlikda;
- yerlardan xo'jasizlarcha foydalanganlikda, yerlarning holatini yaxshilash hamda tuproqni suv va shamol eroziyasidan va tuproq holatining yomonlashuviga olib keladigan boshqa jarayonlardan saqlash majburiyatlarini bajarmaganlikda;
- yer uchastkalari berish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqishning belgilangan muddatlari va tartibini buzganlikda.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari egasiga qaytarib beriladi, qonunga xilof ravishda egalik qilingan va foydalanilgan vaqtda qilingan chiqimlarning o'ni qoplanmaydi.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari ularga g'ayriqonuniy ravishda egalik qilingan va foydalanilgan vaqtda qilingan sarf-harajatlar qoplanmagan tarzda tegishlilikiga ko'ra qaytariladi.

Yer uchastkalarini foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish, shu jumladan undagi imoratlarni buzish yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olgan shaxslar hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasini yer egasiga, yerdan foydalanuvchiga, yer uchastkasi ijarachisiga yoki mulkdoriga qaytarish tegishli tuman, shahar, viloyat hokimining qaroriga binoan yoki sudning hal qiluv qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi (90-modda).

Yer to‘g‘risidagi qonunning ushbu talablarini buzganlik uchun ya’ni, yerga xo‘jasizlarcha munosabatda bo‘lganlik va ekologik talablarni buzganlik uchun qonun qattiq jazo choralari belgilaydi.

Amaldagi qonunlarga muvofiq yer to‘g‘risidagi qonun va ekologik talablarni buzganlik uchun intizomiy, ma’muriy fuqarolik va jinoiy javobgarliklar qo‘llaniladi.

*Intizomiy-huquqiy javobgarlik* – bu yer to‘g‘risidagi qonunlarni va ekologik talablarni buzganlik uchun qo‘llanilib, asosan yerdan foydalanuvchilarning bajarishi va amalga oshirish lozim bo‘lgan majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaslikdan kelib chiqadi. Intizomiy-huquqiy javobgarlik korxonalar rahbari tomonidan qo‘llaniladi. Bu javobgarlik asosan mehnat qonunlari asosida amalga oshirilib, ko‘proq yer boyliklaridan oqilona foydalanish va uni ekologik holatlarini saqlash paytidagi mehnat intizomining buzilishi oqibatida vujudga keladi.

*Ma’muriy-huquqiy javobgarlik* – bu intizomiy javobgarlikka nisbatan og‘irroq bo‘lib, yer bilan bog‘liq bo‘lgan huquqbuzarliklar O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi<sup>1</sup> da ko‘rsatilgan.

Jumladan, ushbu qonunga asosan quyidagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik belgilangan.

Yerlardan xo‘jasizlarcha foydalanish, obyektlar qurish paytida unumdor qatlamni olmaslik, yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish, yerlarni foydalanishdan chiqarishga, hosildorlik pasayishiga, tuproqning buzilishi yoki yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladigan boshqa harakatlarni sodir etish, shuningdek tanazzulga yuz tutgan qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiyalashning belgilangan tartibini buzish, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan besh baravarigacha bo‘lgan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. – Т., 2010.



Qishloq xo'jaligi va boshqa yerlarni yaroqsiz holga tushirish, ularni ishlab chiqarish chiqitlari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan isloflantirish, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan besh baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (MJTK 65-m).

Yer berish tartibini buzish, xuddi shuningdek fermer va dehqon xo'jaligi yuritish uchun yakka tartibda uy-joy qurish va turar-joy binosiga xizmat ko'rsatish, jamoa bog'dorchiligi va polizchiligi uchun fuqarolarga yer berilishiga to'sqinlik qilish, –

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (MJTK 66-m).

Vaqtincha egallab turilgan yerlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni o'z o'rnida foydalanish uchun yaroqli holga keltirish yuzasidan majburiyatlarni bajarmaslik, –

eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (MJTK 67-m).

Tasdiqlangan yer tuzilishi loyiha hujjatlaridan tegishli ruxsat bo'lmay turib chetga chiqish, xuddi shuningdek tegishli organlar bilan kelishmay turib obyektlarni joylashtirish, loyihalashtirish, qurish va ularni foydalanishga topshirish, davlat yer kadastri yuritish qoidalarini buzish, yerlardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni buzib ko'rsatish, axborotlarni berishdan bo'yin tovlash yoki noto'g'ri axborot berish, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (MJTK 68-m).

Egalikdagi va foydalanishdagi yerlarning chegara belgilarini, o'rmonlardagi cheklov belgilarini yo'q qilish yoki shikastlantirish, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (MJTK 69-m).

Shuningdek, oʻrmon fondi yerlaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun ham maʼmuriy javobgarlik belgilangan. MJTKning 77-moddasiga koʻra, tegishli ruxsat olmay turib imorat solish, yogʻochni qayta ishlash, omborlar va boshqa inshootlar qurish maqsadida oʻrmon fondi yerlaridagi daraxtni kundakov qilish, oʻrmon fondi yerlarida pichanzorlar va yaylovlarni shikastlantirish, oʻzboshimchalik bilan pichan oʻrish va mol boqish, drenaj tizimlarini va yoʻllarni yoʻq qilish yoki shikastlantirish, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar maʼmuriy jazo chorasi qoʻllanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan boʻlsa, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

*Fuqarolik huquqiy javobgarlik* – bu asosan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning koʻrgan va yetkazgan zararlarini qoplash bilan bogʻliq.

Bu masala Oʻzbekiston Respublikasining Yer kodeksini 86-moddasida quyidagicha koʻrsatilgan. Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkaları ijarachilariga va mulkdorlariga yetkazilgan zararining oʻrni (shu jumladan boy berilgan foyda) quyidagi hollarda toʻla hajmda qoplanishi kerak<sup>1</sup>:

– yerlar olib qoʻyilgan, qayta sotib olingan yoki vaqtincha egallab turilganda;

– davlat qoʻriqxonalari, zakazniklar, milliy tabiat bogʻlari, tabiat yodgorliklari, madaniy-tarixiy yodgorliklar, suv havzalari. Suv taʼminoti manbalari, kurortlar tevaragida, daryolar, kanallar, suv tashlamalari, yoʻllar, truboprovodlar, aloqa liniyalari va elektr uzatish liniyalari boʻylab muhofaza, sanitariya va ixota zonalari belgilanishi munosabati bilan ularning huquqlari cheklanganda;

– suv havzalari, kanallar, kollektorlar, shuningdek qishloq xoʻjaligi ekinlari va dov-daraxtlar uchun zararli moddalar chiqaradigan boshqa obyektlar qurish va ulardan foydalanishning taʼsiri hamda yuridik va jismoniy shaxslarning hosil kamayishiga va qishloq xoʻjaligi mahsulotining sifati yomonlashuviga olib boradigan boshqa xatti-harakatlari oqibatida yerlarning sifati yomonlashgan taqdirda.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси. – Т., 2011.

Zararning o‘rni olib qo‘yilayotgan yer uchastkalari ajratib beriladigan korxonalar, muassasalar va tashilotlar tomonidan, shuningdek faoliyati yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilar va mulkdorlarining huquqlari cheklanishiga yoki yaqin atrofdagi yerlarning sifati yomonlashuviga olib borgan korxonalar, muassasalar va tashilotlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

*Jinoiy-huquqiy javobgarlik* – boshqa huquqiy javobgarliklarga nisbatan ancha xavfli va og‘irroq.

Ushbu jinoiy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga<sup>1</sup> asosan qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 197-moddasiga asosan, yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, – eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Xullas, ushbu qonunlarda ko‘rsatilgan jazo va ko‘rsatib o‘tilgan qonun talablarining asosiy maqsadi yer bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olish, unga qarshi kurashish va fuqarolarni tarbiyalashdan iboratdir.

### **3-§. Yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va vazifalari**

Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va ekologik qonunlarida ko‘rsatilgan talablarni o‘z vaqtida bajarish hozirgi kunda juda katta ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy ahamiyatga molik masalaga aylandi. Bu masala o‘z vaqtida aql-idrok bilan hal qilinmasa yoki tegishli nazorat organlari o‘zlarining bu sohadagi faoliyatini takomillashtirmasa yoxud qabul qilingan qonun va qoidalar to‘liq amalga oshirilmasa, aholining sihat-salomatligi, mamlakatimizning milliy xavfsizligi, qolaversa, yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlarning hayoti xavf ostida qoladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2013.

<sup>2</sup> Шоимов Н.Б. Ички ишлар органларининг экологик қонунлар ижросини таъминлаш фаолияти: Ўқув қўлланма. – Т., 2011. – Б. 63.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, «ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir»<sup>1</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ekologik tizimni sog‘lomlashtirish, ekologik muvozanatni saqlash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash davlatning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Bizga ma’lumki, davlat o‘z oldida turgan vazifalarni vakolatli organlari orqali amalga oshiradi. Davlatning ekologik, jumladan yerga oid qonunlar ijrosini ta’minlashdagi organlari safida huquqni muhofaza qiluvchi organlar alohida ahamiyatga molik vazifalarni bajaradi.

Prokuratura organlari O‘zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, ma’muriy va jinoiy ishlarni qo‘zg‘atadi, yer resurslariga yetkazilgan zararni qoplash da’vosini qo‘zg‘atadi.

O‘zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish va uni ekologik muhofaza qilishda barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatori ichki ishlar organlarining ham muhim o‘rni bor.

Ichki ishlar organlari O‘zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 8-moddasida ko‘rsatilgan barcha toifalaridagi yerlarni, jumladan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar, aholi punktlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan, tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan, o‘rmon, suv va zaxira yerlaridan oqilona foydalanish va ularni ekologik muhofaza qilish ishida aktiv ishtirok etadilar.

Jumladan, ichki ishlar organlari, ayniqsa «Profilaktika inspektorlari» aholi punktlari, shahar, dam olish, rekratsiyaviy mintaqalar va boshqa jamaot joylarining tozaligini nazorat qilishda o‘z vazifasini amalga oshiradi.

Umuman olganda, ichki ishlar organlari yer resurslaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanish maqsadida yer qonunchiligini tushuntirish, barcha toifa yerlardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza etish, profilaktik talablariga javob beradigan holatlarni belgilash, barcha kategoriya

---

<sup>1</sup> *Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 110.*

yerlarda ximiyaviy moddalar va boshqa chiqindilar tashlashning oldini olish, yer to'g'risidagi qonunchiliklarning buzilishiga qarshi kurash ishlarini olib boradi. Bu ishda ichki ishlar organlarining boshqa bo'lim va xizmatlari, qo'riqlash xizmatlari, DYHXX, YOXB, TB va boshqa xizmatlarining o'rni alohida ahamiyatga egadir.

***Takrorlash uchun savol va toprishiqlar:***

- 1. «Yer resurslariga nisbatan egalik qilish» tushunchasi va tartibi deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Yer monitoringi nima?*
- 3. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?*
- 4. Yer kadastr deb nimaga aytiladi?*
- 5. «Yer resurslariga nisbatan servitut huquqi» tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari haqida so'z yuriting.*
- 6. IIOlarining yer bilan bog'liq bo'lgan nizolarni tartibga solishdagi vazifasi va faoliyati nimalardan iborat?*
- 7. Yer resurslaridan foydalanishning turlari va tartibi qanday?*
- 8. Servitut qanday maqsadlar yo'lida belgilanadi?*
- 9. «Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar» tushunchasi va tartibi qanday?*
- 10. Zaxira yerlari qanday yerlar hisoblanadi?*

---

---

*Beshinchi bob*

**SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNING  
EKOLOGIK-HUQUQIY TARTIBI**

**1-§. «Suv resurslaridan foydalanish va uni ekologik muhofaza  
qilishning huquqiy tartibi» tushunchasi**

Tabiat boyliklari orasida suv alohida o‘rin tutadi. Chunki barcha tirik mavjudot hayotining asosiy manbai suvdir. Suvsiz hayot bo‘lishi mumkin emas. Ota-bobolarimiz suvni toza saqlashga, undan oqilona foydalanishga alohida e‘tibor berganlar. Shuning uchun ham ular «suv zar – suvchi zargar», «suv uchun kurash – hayot uchun kurash», deb bejiz aytishmagan. Sayyoramizda suv paydo bo‘lganidan keyingina hayot paydo bo‘lgan.

Insoniyat hayoti davom etishi uchun odamlar suvni, suv manbalarini, avvalo chuchuk suvni ehtiyot qilishlari lozim.

Sahroi Kabirdagi qabilalardan biriga mehmon bo‘lgan sayohatchilarning yuvinayotganini ko‘rib, mezbonlar ancha ranjishgan. Chunki, ular butun qabilaga bir necha kunga yetadigan suvni bir pasda tugatishgan. Ma‘lum bo‘lishicha, suv bu yerda eng aziz ne‘mat hisoblanib, uni qat‘iy nazorat ostida tarqatishar ekan.

Qadimgi Rimda suvning yangi manbalari haqida muntazam qayg‘urishgan. 312 yilda shaharga 16,5 km uzoqlikdagi toza suv manбайдan vodoprovod o‘tkazilgan. Taxminan oradan 50 yil o‘tgach, shaharga Annon daryosidan vodoprovod o‘tkazilgan bo‘lib, uning uzunligi 63 kmdan ortiq bo‘lgan, biroq bundan keyingi vodoprovod uzunligi 91 km edi. Shunisi qiziqki, vodoprovod suvi maxsus rezerv uarlarda yig‘ilib, tindirilgan. Unda suv bosimi kerakligicha bo‘lib, shu bosim tufayli jamoat hovuzlari, favvora, hammomlar, shuningdek shaxsiy uylar suv bilan ta‘minlangan.

Peruda «Suv xudosi» ibodatxonasi topilgan. Unda favvora va kanallar bo‘lgan, ular ibodatxona yaqinidagi sharshara suvi bilan to‘ldirilgan. Afinada esa eramizdan oldingi VI asrdayoq quduq suvidan foydalanish tartibini belgilaydigan qonun chiqarilgan.

Ichimlik suvining odam organizmi uchun ahamiyatini sharqning ko‘pgina olimlari yaxshi bilishgan. Masalan, Ibn Sino «Tib qonunlari»

kitobining birinchi jildida «Suvning sifati» haqida ko‘pgina ma’lumotlar keltirgan, suvning inson hayoti uchun zarur elementlardan biri ekani, suvning xususiyatlarini yaxshilaydigan bir necha usullarni bayon qilgan.

Ko‘rinib turibdiki, har doim odamlarni suv bilan ta’minlash masalasi muammo bo‘lib kelgan. Hattoki hozirgi paytda ham Gretsiya, Gollandiya, Germaniya, Shveysariya, AQSh va boshqa ko‘plab mamlakatlarda ichimlik suvi bilan ta’minlash dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida va ekologik muammolar avj olgan bir paytda respublikamiz fuqarolarining, suv resurslariga bo‘lgan ehtiyojlari ham benihoya katta. Kelajak avlodimizning taqdiri, sog‘lig‘i obiyotimiz bilan bog‘liq ekan, demak, ayni shu kunlarda qabul qilinayotgan suv to‘g‘risidagi qonun, qaror va farmonlar suv boyliklaridan oqilona foydalanish, uni bulg‘anish va ifloslanish hamda kamayib ketishidan saqlash ishiga ko‘maklashishi lozim. Suv resurslarini huquqiy ekologik muhofaza qilishda huquqiy-ilmiy yo‘nalishni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir<sup>1</sup>.

Yuqoridagi talablar hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni huquqiy muhofaza qilish, umuman olganda suv resurslari bilan bog‘liq barcha muammolar O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunida<sup>2</sup> o‘z aksini topdi.

«Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasiga asosan «Suv O‘zbekiston Respublikasining davlat mulki – umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo‘lib, u davlat tomonidan qo‘riqlanadi».

Ushbu qonunga asosan, O‘zbekiston Respublikasining yagona davlat suv fondi:

– jilg‘alar, soylar, daryolar, suv omborlari, ko‘llar, dengizlardan, kanallar, kollektor-drenaj tarmoqlari, buloqlar, hovuzlarning suvlari va boshqa yer usti suvlaridan;

– yer osti suvlari, qor zaxiralari va muzliklardan iboratdir.

Transchegaraviy suv obyektlarining (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolari, Orol dengizi va boshqa transchegaraviy suv obyektlarining) suvlaridan foydalanish huquqi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilanadi.

Mazkur qonunning 18-moddasida ko‘rsatilganidek, suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari, suv iste’molchilari uyushmalari, kommunal-

---

<sup>1</sup> Сув ҳуқуқи: Дарслик / ю.ф.д. проф. Ж.Т.Холмўминовнинг умумий таҳрири остида. – Т., 2011. – Б. 338

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1993. – № 5. – 221-м.

maishiy soha, gidroenergetika korxonalari, boshqa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar suvdan foydalanuvchilar bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 39-moddasiga binoan, barcha yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlari ham suv resurslaridan oqilona foydalanishlari va ularni muhofaza qilishlari shart.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonunning 16-moddasida qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) uchun suvdan foydalanishlari, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 11-moddasida dehqon xo'jaliklari uchun suvdan foydalanishning huquqiy tartiblari ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunining 19-moddasida «Suvlar va suv havzalaridan foydalanish shartlari» ham aniq ko'rsatilgan.

Suv resurslarini huquqiy ekologik jihatdan muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunining XXIV bob 97-102-moddalarida ko'rsatilgan.

Mustaqil respublikamizda suv manbalarini muhofaza qilish vazifalari shundan iboratki, «Hamma suvlar (suv obyektlari) aholi sog'ligiga zarar yetkazishi, shuningdek baliq zaxiralarining kamayishi, suv ta'minoti sharoitining yomonlashishi hamda suvning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari pasayishi, suvning tabiiy tozalanish xususiyati kamayishi, suvning gidrologik va gidrogeologik rejimining buzilishi natijasida kelib chiqadigan boshqa ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi hollaridan muhofaza qilinishi kerak.

Shunisi e'tiborliki, suv to'g'risidagi ushbu qonunda, suvni muhofaza qilishni, shuningdek, uning holati va rejimini yaxshilashni ta'minlovchi tadbirlarni amalga oshirish faoliyati suvlarning holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar, mahalliy hokimiyat organlari, tabiatni muhofaza qilish, suv xo'jaligi, sanitariya nazorati organlari hamda boshqa manfaatdor idoralar bilan kelishgan holda texnologiya, o'rmon melioratsiya va agrotexnika, gidrotexnika, sanitariya-texnika tadbirlarini o'tkazishlari shart deb ko'rsatilgan.

Hozirgi sharoitda suvlar ifloslantirilmoqda asosan (chiqit va sanoat chiqindilari). Ushbu muammo qonunning 99-moddasida ifodalangan. Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga quyidagilar taqiqlanadi:



– suv ishlab chiqarish chiqitlari, maishiy va boshqa xil chiqitlar hamda chiqindilarni obyektlarga tashlash;

– moylar, yog‘ochlar, kimyoviy va neft mahsulotlari hamda boshqa mahsulotlar bilan ifloslantirish;

– suv havzalarining yuzi, suv havzalarini qoplab turgan yaxlar va muzliklarning yuzasi, sanoat chiqitlari, maishiy chiqindi va boshqa tashlandiq chiqitlar, shuningdek yer usti va yer osti suvlarning sifatini yomonlashtirib yuboradigan neft va kimyoviy mahsulotlar bilan ifloslantirish;

– suvni o‘g‘itlar va zaharli ximikatlar bilan bulg‘atish.

Oqindi suvlarni suv obyektlariga oqizishga ushbu qonunning 73, 74 va 75-moddalarida ko‘rsatib o‘tilgan talablarga rioya qilingan taqdirdagina yo‘l qo‘yiladi. Shuningdek, amaldagi qonunda, aynan yer osti va kichik daryolarning suvlarini huquqiy ekologik muhofaza qilishga e‘tibor berilgan.

Mazkur qonunning 101-moddasida yer osti suvlarini muhofaza qilish tartibi ifodalangan.

Yer osti suvlarini chiqarish va undan foydalanish bilan shug‘ullanuvchi idoralar suv chiqarilayotgan uchastka va unga tutash hududlarda yer osti suvlariga doir rejimlarga rioya etilishini kuzatib borishlari, shuningdek foydalanilayotgan suvning miqdori va sifatining hisobini yuritishlari shart.

Basharti foydali qazilmalar konlarini qidirish, ularni o‘rganish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq, burg‘ilash hamda boshqa kon qidiruv ishlarini bajarish chog‘ida yer osti suvlari bor qatlamlar aniqlangan taqdirda, bu haqda tabiatni muhofaza qilish, suv xo‘jaligi organlarini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim. Sanoat oqindi suvlarini oqizish uchun qaziladigan quduqlar suvli qatlamlarni ifloslantirish manbaiga aylanishi mumkin bo‘lsa, bunday quduqlar qazish hollari man etiladi.

O‘z-o‘zidan suv chiqarib, suvi foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lgan quduqlarga suvni boshqarish uskunalari o‘rnatilishi, ular qonunlarda belgilangan tartibda to‘xtatib quyilishi yoki tugatilishi lozim.

Sifatli yer osti suvlari to‘planadigan manbalar tegrasida qattiq va suyuq chiqindilar to‘plash, axlatxonalar barpo etish, yer osti suvlarining ifloslanish manbaiga aylanish ehtimoli bo‘lgan sanoat, qishloq xo‘jalik obyektlari va boshqa obyektlar qurilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Yer osti suvlarini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ko‘rish, shu jumladan quduqlarni kuzatish tarmog‘ini yaratish faoliyati yer osti suvlarining holatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi.

Ko‘rinib turibdiki, ushbu moddada yer osti suvlarini huquqiy ekologik muhofaza qilishga har tomonlama e‘tibor berilgan.

Yoki, xo‘jalik faoliyati kichik daryolarning holati va rejimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar dehqon xo‘jaliklari suv xo‘jaligi, tabiatni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda suvni, uning musaffoligi va sifatini saqlash chora-tadbirlarini ko‘rishlari lozim.

Kichik daryolarning suvini muhofaza qilish mintaqalari, bu mintaqalardagi korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning xo‘jalik faoliyati rejimi qonunlar bilan belgilanadi.

Suv manbalarini ifloslanishdan muhofaza qilishning eng yaxshi yo‘li markazlashgan suv ta‘minotini tashkil qilishdan iborat.

Ochiq suv havzalaridan suv olinadigan joyni tanlashda suvning ifloslanmasligi, suv havzasiga yetarli miqdorda suv tushib turishini, suv havzasi atrofining to‘silganligini, qirg‘oqning buzilmasligini hisobga olish kerak. Suv olinadigan joyni tanlash har safar murakkab sanitariya masalasi hisoblanadi. Muhimi, suv olinadigan joy tanlanganda oqava suvlar tushadigan joydan xoli bo‘lishini va aholi yashaydigan punktning istiqboli, ya‘ni kengayishini nazarda tutish kerak. Shuningdek, suv olinadigan joy daryo irmoqlari va soylardan yuqorida bo‘lishi lozim. Suv daryo qirg‘og‘i chuqurligi kamida 2,5 metr bo‘lgan, qirg‘og‘i yuvilmaydigan joydan olinadi. Bu qoida suv omborlariga ham tegishlidir.

Har qanday suv manbai, ayniqsa, ochiq suv havzalari tashqi muhit bilan bog‘langanligi tabiiy hodisalar, sanoat va kommunal qurilishlar, aholining xo‘jalikdagi va turmushdagi faoliyati ta‘sir qilishini hisobga olib, vodoprovod qurilishida sanitariya zonasi tashkil etish lozim.

Mavjud qonunchilkka asosan, vodoprovodi bor tashkilotlar barcha vodoprovodlar uchun sanitariya muhofazasi zonasi tashkil qilishlari kerak.

Suvni muhofaza qilish tadbirlarini barcha ochiq suv havzalari, yer osti suv manbalarida ular markazlashgan yoki markazlashmagan suv ta‘minoti uchun foydalaniladimi yo‘qmi, bundan qat‘i nazar amalga oshirish shart.

Sanitariya-maishiy suv ta‘minotidan foydalanadigan rayonlarda sanitariya muhofaza zonasi yaratish zarur. Bunday hollarda sanitariya nazorati organlari va shu territoriyadagi suvdan foydalanishni va muhofaza qilishni boshqaradigan organlarga quyidagi hajmda yer ajratiladi:

– ochiq suv havzalari uchun 100 m. Suvning ikkala qirg‘og‘iga inspektorlik yo‘llari qilinadi, ko‘kalamzorlashtiriladi, shahar doirasida esa qirg‘oqlar qo‘shimcha ravishda obod qilinadi;

– o‘zanli va suv quyilib turadigan suv ombori uchun 300 m chor atrofi muhofaza qilinadi;

– artezian quduq uchun foydalaniladigan ayrim quduqlar, buloqlar va chashmalar yoki yer osti suvlari usti 30 m radiusda suvga chidamli materiallar bilan tom qilib yopiladi, maydoni kamida 0,25 ga bo‘ladi;

– ayrim quduqlar uchun yer osti suvi yoki infiltratsion suvdan foydalanganda 30 m radiusda usti yopiladi, maydoni kamida 0,75 ga bo‘ladi.

Ayrim rayonlarda, masalan, yirik shaharlar yoki sanoat korxonalarida, qishloq xo‘jaligida zaharli ximikatlar ko‘p ishlatilganda sanitariya nazoratining tegishli organlari talabiga ko‘ra bu zonalar kengaytirilishi mumkin.

Shuningdek, hozirgi sharoitda qishloq xo‘jaligi va boshqa korxonalar, muassasa, tashkilotlarda hamda respublikamizda suvdan foydalanish va uni huquqiy muhofaza qilishning bir qator ilmiy-huquqiy ekologik yechimlari ayrim huquqiy adabiyotlarda yoritilgan.

Ammo hozirgi bozor iqtisodiyoti va turmush tarzi yana yangi-yangi huquqiy-ilmiy va ekologik yechimlarni qo‘llashni talab qiladi.

Zero, suv resurslarini huquqiy ekologik muhofaza qilish aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashga xizmat qilib, gigiyenik jihatdan muhim ahamiyatga ega (hattoki kasallik tarqalishining oldini olishda ham ahamiyati kattadir).

Suv manbalarini ekologik muhofaza qilish, hayoti suv bilan bog‘liq bo‘lgan butun mavjudotni, umuman olganda, ona-tabiatni saqlab qolishga yordam beradi.

Xullas, suvdan huquqiy-ekologik foydalanish, suvdan foydalanish huquqiga ega bo‘lish, uni tasarruf etish, undan oqilona, tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik muhofaza qilish, foydalanilayotgan suv manbalaridan tegishli qonunlar asosida foydalanish, suvni sanitariya-epidemiya qoidalari asosida saqlash va undan foydalanish kabi talablarga rioya qilinmasa hattoki suvdan foydalanish huquqidan (vaqtincha) mahrum qilish ham mumkin. Umuman olganda, suvni ekologik muhofaza qilish ishini yanada yaxshilash – demak bu hayotni yaxshilash, uzoq-umr ko‘rish desak xato qilmaymiz.

## **2-§. Suvdan foydalanish va uni ekologik muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi hamda nazorat etish tartibi hamda javobgarlik masalalari**

Obihayotdan foydalanishdagi boshboshdoqlik va mas'uliyatsizlik yomon oqibatlariga olib kelishini Markaziy Osiyoda tashkil topgan mustaqil davlatlar hamda Qozog'iston Respublikasi meliorasiya va suv xo'jaligi xizmati rahbarlari obdon mulohaza qilib ko'rdilar. Bu masalaning ahamiyati va murakkabliklarini tushinib yetdilar.

1992-yilning 18-fevralida Qozog'iston Respublikasining Olmaota shahrida mintaqadagi davlatlararo suv zaxiralarini birgalikda boshqarish va muhofaza qilish yuzasidan ahdlashuvga kelishildi. Ahdnoma hujjatini Markaziy Osiyo respublikalari Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirlari imzoladilar. Hujjatda suv manbalaridan oqilona foydalanishga, suv zaxiralarini muhofaza etishda mintaqadagi barcha davlatlar teng huquqli hamda baravar mas'uliyatga ega ekangliklari ko'zda tutildi. Har bir respublika o'z hududida ahdnomaga asosan amal qilish majburiyatlarini oldi. Jumladan, ahdlashuvchi tomonlarning manfaatlarini hurmat qilish, suvdan foydalanishda bir-biriga ziyon yetkazmaslik, suvdan foydalanish va uning zaxiralarini ifloslantirmaslik haqida Ahdnomada ko'zda tutilgan talablarga og'ishmay amal qilish majburiyatlari e'tiborda tutiladi, deb kelishib olindi.

Tomonlar suvni isrof qilmaslik, bu bebaho boylikdan samarali foydalanish xususida, shuningdek, ekologiya muammolari, Orol dengiziga har yili zarur miqdorda suv yetkazib turish haqida bamaslahat bir fikrga keldilar.

1993-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni qabul qilinib, u suv va suvdan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga solishdan, aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanishdan, suvni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashdan, suvning zararli ta'sirini oldini olish va uni bartaraf qilishdan, suv obyektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdan iborat bo'ldi.

Mazkur qonunda davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari ham aniq ko'rsatildi.

Jumladan, qonunning 5-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari quyidagicha ko‘rsatilgan:

- suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qilish, ularga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish;

- suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda suv xo‘jaligiga oid strategik davlat dasturlarini qabul qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tasarrufiga kiradigan boshqa masalalarni hal etish.

Ushbu qonunning 6-moddasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular quyidagilar:

- suv resurslaridan kompleks va oqilona foydalanish, ularni boshqarish va muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- suv resurslaridan kompleks va oqilona foydalanish, ularni boshqarish va muhofaza qilish, shuningdek suvlarning zararli ta‘sirining oldini olish hamda ularni bartaraf etish sohasida vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, boshqa yuridik shaxslarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

- suv fondini hosil qilish va undan foydalanish tartibini, suvdan foydalanish, suv iste‘moli me‘yorlarini va suv obyektidan suv olish limitlarini (bundan buyon matnda suv olish limitlari deb yuritiladi) tasdiqlash tartibini belgilash;

- suvlarning davlat tomonidan hisobga olib borilishini hamda suvdan foydalanishni nazorat qilish va ularni muhofaza etishni ta‘minlash, davlat suv kadastrini va suv monitoringini yuritish;

- yirik avariya, falokatlar, ekologiya tangligi va suvlarning zararli ta‘siri oldini olish hamda ularga barham berish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun haq to‘lash, suv obyektlarini bulg‘atganlik va quritib qo‘yganlik uchun haq undirish tartibini belgilash;

- davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish;

- qonun hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Shunisi e‘tiborliki, mazkur qonunda mahalliy davlat hokimiyati organlarining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlariga ham e‘tibor qaratilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi tasarrufiga quyidagilar kiradi, chunonchi:

- o‘z hududidagi suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

- suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish va ularni muhofaza qilish sohasida qonuniylik hamda huquq-tartibotni ta‘minlash;

- suv obyektlari holatini hisobga olib borish va ularga baho berish, suvlardan foydalanilishi va ularning muhofaza qilinishi, belgilangan suv olish limitlariga rioya etilishi, suvdan foydalanuvchilarning suvdan foydalanish hisobini yuritishlari ustidan nazorat qilib borish;

- suv obyektlarini saqlash va ularning holatini yaxshilash, suvlarning zararli ta‘sir ko‘rsatishini, shuningdek bulg‘anishining oldini olish va uni bartaraf etish hamda avariya, toshqin, sel va tabiiy ofatlar natijasida vayron bo‘lgan obyektlarni tiklash yuzasidan tadbirlar o‘tkazish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalarni tartibga solish (7-modda).

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratining vazifasi suvdan foydalanish borasida belgilab qo‘yilgan tartibga barcha vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, davlat, kooperativ, jamoat korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarning rioya qilishlari, suvni muhofaza qilish, suvning zararli ta‘sirining oldini olish va bartaraf qilish vazifalarini, suvni hisobga olish qoidalarini, shuningdek, suv to‘g‘risidagi qonunlarda belgilab berilgan boshqa qoidalarni bajarishlarini ta‘minlashdir. «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 8-moddasiga asosan suvdan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi quyidagicha ko‘rsatilgan.

Suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, shuningdek bu sohada maxsus vakolati bo‘lgan hamda suvdan foydalanishni bevosita yoki havza (hududiy) boshqarish orqali tartibga solib turuvchi davlat organlari hamda boshqa tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi (yer usti suvlari), O‘zbekiston Respublikasi Davlat Geologiya va Mineral resurslar qo‘mitasi (yer osti suvlari) hamda O‘zbekiston Respublikasi sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat qo‘mitasi (yer osti issiq suvlari va mineral suvlar) o‘z vakolatlari doirasida suvdan foydalanishni tartibga solish sohasida maxsus vakolati bo‘lgan davlat organlari hisoblanadi.

Ma'lumki, 1991-yildan suv uchun haq to'lashning uzoq muddatga mo'ljallangan iqtisodiy normativlarini belgilab qo'yish zarur deb topildi. Shuning uchun ham suv iste'molining belgilab qo'yilgan limitlariga rioya qilinishini nazorat etish katta ahamiyatga egadir. Bu masalaga amaldagi suv qonunchiligida quyidagicha e'tibor berildi.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratining vazifasi suvdan foydalanish borasida belgilab qo'yilgan tartibi barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolar rioya qilishlari suvni muhofaza qilish, suvning zararli ta'sirining oldini olish va bartaraf qilish vazifalarini, suvni hisobga olish qoidalarini, shuningdek suv to'g'risidagi qonunlarda belgilab berilgan boshqa qoidalarni bajarilishini ta'minlashdir.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradilar.

Suvdan foydalanish ustidan idoraviy nazoratni O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi organlari amalga oshiradilar. Bundan tashqari, suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda jamoat birlashmalari, jamoalar va fuqarolarning ishtiroki ahamiyatlidir.

Jamoat birlashmalari, jamoalar o'z nizomlariga muvofiq suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlariga ko'maklashadilar. Bu tadbirlarni o'tkazishda davlat organlari jamoat birlashmalari, jamoat va fuqarolar takliflarini hisobga oladilar.

Xullas, suv resurslaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza etish ustidan davlat boshqaruvi hamda nazoratini olib borish katta ahamiyatga ega bo'lib, suv resurslaridan oqilona foydalanish, tejab-tergash va uning sofliqini saqlash hamda har qanday nojo'ya ekologik huquqbuzarliklarning olishni ta'minlaydi.

«Suvdan foydalanish huquqi» tushunchasi asosan ikki holat bilan bog'liq.

*Birinchidan*, u suv huquqining asosiy institutlaridan biri bo'lib, suv va suvdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish hamda suv bilan bog'liq barcha muammolarni o'z ichiga oladi.

*Ikkinchidan*, suvdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari bilan bog‘liq.

Asosan suvdan foydalanish huquqi ko‘proq suvdan foydalanish huquqining paydo bo‘lishi va bekor bo‘lish asoslari bilan ham bog‘liqdir.

Suvdan foydalanish huquqi bir qator prinsiplarga asoslanadi:

- suv resurslaridan oqilona foydalanish;
- suv resurslarini muhofaza qilish;
- boshqa barcha tabiat boyliklari bilan chambarchas bog‘liqligi;
- suv resurslaridan qonunda ko‘rsatilgan aniq maqsadlarda foydalanish;
- suvdan foydalanish davlatning ekologik siyosati bilan bevosita bog‘liqligi;
- suvdan foydalanganlik uchun tegishli haq to‘lash lozimligi;
- suv qonunchiligi bilan birga boshqa barcha ekologik qonunlarni o‘z vaqtida, kechiktirmay amalga oshirish va bajarish;
- suvdan foydalanish bilan bog‘liq xalqaro shartnomalar va konvensiyalarni o‘z vaqtida bajarish va boshqalar.

Suv resurslaridan foydalanishning barcha turlari «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunning VII bob 21 va 21<sup>1</sup>-moddalarida aniq ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunining 21-moddasiga ko‘ra, «suv obyektlari aholining ichimlik suvga bo‘lgan ehtiyojlarini, maishiy, davolash, kurort, sog‘lomlashtirish, xordiq chiqarish va boshqa ehtiyojlarini, qishloq xo‘jaligi, sanoat, energetika, transport, baliqchilik xo‘jaligi hamda boshqa davlat yoki jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun qonunlarda ko‘zda tutilgan talablar va shartlarga rioya qilingan holda foydalanishga beriladi. Oqindi suvlarni oqizish uchun suv obyektlaridan foydalanishga qonunlarda ko‘zda tutilgan hollarda hamda maxsus talablar va shartlarga rioya qilingan taqdirdagina yo‘l qo‘yilishi mumkin. Suv obyektlari ayni bir vaqtda bitta yoki bir nechta maqsadlarda foydalanishga berilishi mumkin». Respublikamiz sharoitida foydalanadigan suv resurslarining asosiy qismi qishloq xo‘jaligida sug‘orish maqsadlarida ishlatiladi. Uning qolgan qismi esa sanoatda hamda maishiy va kommunal maqsadlarda foydalaniladi. Ana shu har uchala yo‘nalish ham yildan-yilga ko‘proq suv talab qilmoqda. Natijada hududimizda suv masalasi tobora jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Bunday sharoitda suvni tejab-tergab ishlatish, uning behuda ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, qaytarma va oqova suvlardan unumli foydalanish, eng muhimi – suv manbalarini ifloslanishdan va ortiqcha minerallanishdan saqlash talab qilinadi.



Bundan tashqari, suvdan foydalanish turi ikki xil bo‘ladi. Suvdan umumiy foydalanish – suvning holatiga ta’sir qiladigan inshootlar yoki texnikaviy qurilmalarni qo‘llamay foydalanish.

Suvdan maxsus foydalanish – inshootlarni yoki qurilmalarni qo‘llash yo‘li bilan foydalanish. Inshootlar yoki texnikaviy qurilmalarni qo‘llamay turib, ammo suvning holatiga ta’sir qiladigan tarzda suv obyektlaridan foydalanish ham ayrim holatlarda suvdan maxsus foydalanish turiga kiritilishi mumkin.

Suvdan umumiy va maxsus foydalanish turlarining ro‘yxati suv xo‘jaligi, tabiatni muhofaza qilish, sanitariya nazorati, geologiya va mineral resurslar organlari tomonidan belgilab qo‘yiladi.

Shuningdek, suv qonunchiligida Suvdan birgalikda va tanho foydalanish masalasiga ham alohida e’tibor berilgan. Jumladan, suv obyektlaridan birgalikda yoki tanho foydalanish mumkin. Birgalikda foydalaniladigan suv obyektlari jumlasiga tanho foydalanish uchun berilmagan suv obyektlari kiritilishi mumkin.

Tanho foydalaniladigan suv obyektlariga mahalliy hokimiyat organlari qarori asosida biron korxonalar, tashkilot va muassasaga butunlay yoki qisman berib qo‘yilgan suv obyektlari kiradi.

Albatta, suv qonunchiligida suvdan ekologik talablarga rioya qilib foydalanuvchilarning birlamchi va ikkilamchiligiga alohida e’tibor berilgan.

Tanho foydalanish uchun suv obyektlari berib qo‘yilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar suvdan birlamchi foydalanuvchilar hisoblanib, ular suv xo‘jaligi va tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishgan holda boshqa korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga suvdan ikkilamchi foydalanish uchun ruxsat berishga haqlidirlar. Suvdan ikkilamchi foydalanish uchun berilgan ruxsatnomada suv obyektini berish maqsadi va undan foydalanishning asosiy shartlari ko‘rsatiladi.

Zarur hollarda suvdan ikkilamchi foydalanish shartlari, taraflarning o‘zaro huquq va burchlari suvdan birlamchi va ikkilamchi foydalanuvchilar o‘rtasidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Suvdan birlamchi foydalanuvchi suvdan ikkilamchi foydalanuvchining butun suv xo‘jaligi faoliyati uchun javobgar bo‘ladi.

Suvdan ikkilamchi foydalanuvchi, bashorati suvning tegishli ulushini suvdan birlamchi foydalanuvchi o‘zlashtirib olgan yoki undan foydalangan taqdirda, unga nisbatan da’vo qo‘zg‘ashga va yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilishga haqlidir.

Albatta, suvdan foydalanishning qonunda belgilangan muddatlari ham mavjud. Suv obyektlari doimiy yoki vaqtincha foydalanish uchun beriladi. Muddati avvaldan belgilanmagan holda foydalanish – doimiy foydalanish deb e'tirof etiladi. Suvdan vaqtincha foydalanish muddati qisqa va uzoq (3-20 yil) bo'lishi mumkin.

Suv obyektlaridan vaqtincha foydalanish muddatlari suvdan foydalanuvchi manfaatdor tomonlar iltimosnomasiga binoan, shu suv to'g'risida qaror chiqargan yoki undan maxsus foydalanish uchun ruxsatnoma bergan davlat organlari tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Demak, barcha suvdan foydalanuvchilarga qonun asosida yuqoridagi talablarga asosan suvdan foydalanish huquqi beriladi. Agar suvdan foydalanuvchilar undan foydalanish qoidalariga zid harakatlar sodir etsalar, ularning suvdan foydalanish huquqlari bekor qilinishi ham mumkin.

Jumladan, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning X bob 36-39-moddalarida suvdan foydalanish huquqini bekor qilish asoslari quyidagicha ko'rsatilgan:

- suvdan foydalanishga ehtiyoj qolmaganda yoki undan voz kechilganda;
- suvdan foydalanish muddati tugaganda;
- korxonalar, tashkilotlar, muassasalar yoki dehqon xo'jaligi tugatilganda;
- suv xo'jaligi inshootlari boshqa suvdan foydalanuvchilarga berilganda;
- tanho foydalanilayotgan suv obyektlarini qaytarib olishga zarurat tug'ilganda.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish qoidalari buzilgan yoki suv obyektidan belgilab qo'yilganidan boshqa maqsadda foydalanilgan, suv haqi to'lanmagan hollarda ham korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning suvdan foydalanish huquqi bekor qilinishi mumkin (ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoj va maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun suvdan foydalanish huquqi bundan mustasnodir).

Qonunlarda korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning suvdan foydalanish huquqini bekor qilishning boshqacha asoslari ham ko'zda tutilishi mumkin.

Zero, qonunchilikda suvdan foydalanish huquqini bekor qilish asoslari bilan birga, suvdan foydalanish huquqini bekor qilish tartibi ham aniq yoritilgan:

- suvdan maxsus, shuningdek ikkilamchi foydalanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilish;
- tanho foydalanish uchun berilgan suv obyektlarini qaytarib olish yo'li bilan bekor qilinadi.

Suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste'mol qilish unga ruxsatnoma bergan organning qarori bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Xullas, ushbu talablar suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog'liq muammolarni ijobiy hal qilish bilan birga, suv to'g'risidagi qonunlar buzilishining ham oldini oladi.

Suvdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning IX bob 32-35<sup>1</sup>-moddalarida aniq ko'rsatilgan. Mazkur qonuning 32-moddasida suvdan foydalanuvchilarning quyidagi huquqlari bayon etilgan:

- suv obyektlari qanday maqsadlar uchun foydalanishga berilgan bo'lsa, sfaqat shu maqsadlar uchun foydalanish;
- suvdan foydalanishni amalga oshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda inshootlar, qurilmalar hamda boshqa obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish;
- berilayotgan suvning miqdori va sifatini tekshirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, suvdan foydalanish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha olinmay qolgan suv uchun kompensatsiya talab qilish;
- suv resurslarini boshqarishga oid qarorlar qabul qilinishida ishtirok etish;
- manbaning taxmin qilingan va haqiqiy suvliligidan kelib chiqqan holda suv olish limitlarini o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish;
- o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishi, shu jumladan belgilangan suv olish limitlari va suv berish rejimiga muvofiq suv olish huquqining buzilishi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish huquqiga egadir.

Suvdan foydalanuvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, suvdan foydalanuvchilarning huquqlari qonun bilan qo'riqlanadi. Suvdan foydalanuvchilarning huquqlari buzilgan taqdirda bu huquqlar qonunlarda ko'zda tutilgan tartibda tiklanishi lozim bo'ladi.

Zero, qonunda suvdan foydalanuvchilarning huquqlarini cheklash hol-lari ham ifoda etilgan. Mazkur qonunning 34-moddasiga asosan qonunlarda ko'zda tutilgan hollarda aholi sihat-salomatligini saqlash maqsadlarini, davlatning boshqa manfaatlarini, shuningdek suvdan boshqa foydalanuv-chilar manfaatlarini ko'zlab, suvdan foydalanuvchilarning huquqlari cheklab qo'yilishi mumkin. Lekin bu holda aholining ichimlik va maishiy ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan foydalanish shart-sharoitlari yomon-lashib qolmasligi lozim.

Ayniqsa, barcha suv va suv obyektlaridan foydalanuvchilar qonunda ko‘rsatilgan majburiyatlarni ham amalga oshirishlari zarur.

Suvdan foydalanuvchilar:

- suv obyektlaridan oqilona foydalanishi, suvni tejab sarflash, suvlarning sifatini tiklash va yaxshilash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi;

- belgilangan suv olish limitlariga va suvdan foydalanish qoidalariga rioya etishi;

- suvdan maxsus foydalanishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ruxsatnomani rasmiylashtirishi;

- ifloslantiruvchi moddalar mavjud bo‘lgan oqindi suvlarni suv obyektlariga oqizishni tamomila tugatish chora-tadbirlarini ko‘rishi;

- boshqa suvdan foydalanuvchilar va suv iste‘molchilarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari buzilishiga, shuningdek suv obyektlariga, xo‘jalik obyektlari va tabiiy resurslarga (yerlar, o‘rmonlar, hayvonot dunyosi, foydali qazilmalar va boshqalarga) zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

- suv obyektlarini, suvni muhofaza qilish inshootlarini va boshqa inshootlarni, texnik qurilmalarni texnik jihatdan soz holatda saqlashi, ularni ishlatish sifatini yaxshilashi hamda ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etishi;

- suvni olish va berishda suv miqdori hisobini yuritishi, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobotni taqdim etishi;

- suv resurslaridan foydalanganlik, shuningdek suvni yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar va ko‘rsatilgan boshqa suv xo‘jaligi xizmatlari uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida shartnomaviy asosda to‘lashi;

- suvni tejash chora-tadbirlarini ko‘rishi;

- suv resurslaridan oqilona foydalanishda suv iste‘molchilariga ko‘maklashishi;

- suvlarning bulg‘anishi, ifloslanishi va kamayib ketishining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv obyektlariga suvlarning zararli ta‘sirini bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rishi, shuningdek yer usti va yer osti suvlari to‘planadigan maydonlarning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymasligi;

- suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo‘yi mintaqalari va sanitariya muhofazasi zonalarini saqlashning belgilangan rejimiga rioya qilishi;

- suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning vakillarini o‘z suv xo‘jaligi obyektlariga belgilangan tartibda kiritishi hamda ularga zarur axborotni taqdim etishi;

– suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etadigan avariylar va boshqa tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to'g'risida mahalliy davlat hokimiyati organlarini o'z vaqtida xabardor qilishi va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni amalga oshirishda, shuningdek suv obyektlarida ta'mirlash-tiklash ishlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etishi;

– baliqlarni, boshqa suv florasi va faunasini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishi shart.

Suvdan foydalanuvchilar zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin (35-modda).

Xullas, suvdan foydalanuvchilarning qonunda ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarga rioya qilishlari, ushbu talablarni doimo amalga oshirishlari suvdan oqilona foydalanish masalasiga yordam beradi.

*Suvlarni muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari.* O'zbekiston Respublikasi hududida suv resurslaridan foydalanuvchilar undan oqilona, tejab foydalanishlari, uni muhofaza qilishlari shart. Agar ushbu talablarga rioya qilinmasa, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tegishli huquqiy javobgarlik mavjud ekanligini eslatish lozim. Suv to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun tegishli javobgarlik masalasi O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunining XXVII bob 114-116-moddalarida o'z aksini topgan.

Ushbu qonunning 114-moddasida ko'rsatilganidek, suvdan foydalanish huquqini boshqaga berish hamda davlatning suvga egalik huquqini oshkora yoki yashirin shaklda buzadigan boshqa xil bitimlar haqiqiy hisoblanmaydi.

Bitimlarni buzishda aybdor bo'lgan shaxslar, shuningdek:

– suv obyektlarini o'zboshimchalik bilan egallab olgan yoki suvdan o'zboshimchalik bilan foydalangan;

– suvdan foydalanish limitlarini buzgan holda suv olgan;

– daryolarni bulg'agan va ifloslagan;

– suvni bulg'ash va ifloslashning yoki suv yetkazadigan zararli ta'sirning oldini oladigan inshootlari va qurilmalari bo'lmagan korxonalarni, kommunal obyektlarni va boshqa obyektlarni ishga tushirgan;

– suvdan (suv obyektlaridan chiqarib yoki ajratib olingan suvdan) xo'jasizlik bilan foydalangan;

– suv havzalarida suvni muhofaza qilish rejimini buzib, uning bulg'anishiga, tuproqni suv yuvib ketishiga va boshqa zararli hodisalar ro'y berishiga sabab bo'lgan;

- suv xo‘jaligi inshootlari va qurilmalariga shikast yetkazgan va ularni vayron qilgan;
- suv xo‘jaligi inshootlarini va qurilmalarini ishlatish qoidalarini buzgan;
- suvning holatiga ta‘sir qiluvchi to‘siqlar, nasos stansiyalari va boshqa inshootlarni o‘zboshimchalik bilan qurgan;
- suv haqi va suvdan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun solingan jarimalarni o‘z vaqtida to‘lamagan;
- rejalarda ko‘zda tutilib, suvni bulg‘anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashni, shuningdek suv hollati va rejimini yaxshilashni ta‘minlovchi gidrotexnika, texnologiya, o‘rmon-melioratsiya, sanitariya-texnika tadbirlari va boshqa tadbirlarni amalga oshirmagan;
- vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulangan;
- foydalanish va kuzatish quduqlarini yo‘q qilib tashlagan yoki ularga zarar yetkazgan;
- suv quduqlarini burg‘ilashning belgilangan qoidalari va texnologiyasini buzgan;
- suvni muhofaza qilish inshootlari va qurilmalarini qo‘rishning me‘yoriy muddatlarini barbod qilgan;
- qurilishi tugallanmagan suvni muhofaza qilish inshootlarini ularning samarali ishlashiga salbiy ta‘sir etuvchi kam-ko‘stini bitirmay va loyihadan chetga chiqishlar bilan foydalanishga topshirgan;
- suvni muhofaza qilish qoidalariga rioya etmagan;
- suvdan foydalanganlik haqidagi davlat hisobotlarini taqdim etmagan yoki ushbu ma‘lumotlarni buzib ko‘rsatgan;
- tabiatni muhofaza qilish nazoratini amalga oshiruvchi organlarning ko‘rsatmalarini bajarmagan;
- alohida qo‘riqlanadigan suv obyektlari rejimini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunlarga muvofiq jinoiy, ma‘muriy va o‘zga tarzda javobgarlikka tortiladilar.

Qonunlarda suv to‘g‘risidagi qonunlarning boshqa turdagi buzilishlari uchun ham javobgarlik belgilab qo‘yilishi mumkin.

Umuman olganda, suv resurslaridan noqonuniy foydalanganlik, u to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik va suvni muhofaza qilish talablariga e‘tibor bermaganlik uchun intizomiy, fuqarolik, ma‘muriy va jinoiy huquqiy chora-tadbirlar mavjud.

*Intizomiy-huquqiy javobgarlik* deyarli ko‘proq mehnat intizomini buzish oqibatida suv resurslaridan oqilona foydalanmagan taqdirda yoki suv to‘g‘risidagi qonunlar buzilganda paydo bo‘lishi mumkin.

Suv va suvdan foydalanish, uni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasiga asosan, xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli:

1) xayfsan;

2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish ushbu Mehnat kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3 va 4-bandlari).

Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarining qo'llanilishi taqiqlanadi.

*Fuqarolik-huquqiy javobgarlik* esa ko'proq suv to'g'risidagi qonunlarni buzish yoki undan oqilona foydalanmaslik oqibatida keltirilgan yoki yetkazilgan zarar natijasida kelib chiqadi. Jumladan, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuning 114-moddasiga asosan, suvdan foydalanish huquqini boshqaga berish hamda davlatning suvga egalik huquqini oshkora yoki yashirish shaklda buzadigan boshqa xil bitimlar haqiqiy hisoblanmaydi.

Mazkur qonuning 116-moddasiga binoan, o'zboshimchalik bilan egallab olingan suv obyektlari ulardan qonunsiz foydalanish vaqtida qilingan xarajatlar qoplanmagan holda o'z egasiga qaytarib olib beriladi.

Shuningdek, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning XXVIII bob 117-118-moddalari «suv to'g'risidagi qonunlarni buzish natijasida yetkazilgan zararlarni undirish» va «zarar yetkazishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar va boshqa xodimlarning moddiy javobgarligi» masalalariga bag'ishlangan.

Ushbu qonunning 117-moddasiga asosan, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari), fermer va dehqon xo'jaliklari va fuqarolar suv to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish natijasida yetkazilgan zararlarni qonun hujjatlarida belgilanadigan miqdorda va tartibda qoplashlari shart.

Bundan tashqari, mazkur qonunning 118-moddasida zarar yetkazgan mansabdor shaxslar va boshqa xodimlarning moddiy javobgarligiga ham alohida e'tibor berilgan. Jumladan, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar zarar xarajatlarini to'lashda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar va boshqa xodimlar belgilangan tartibda moddiy javobgar bo'ladilar.

Ta'kidlash kerakki, asosan suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik, ular to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun deyarli ko'p hollarda ma'muriy va jinoiy javobgarliklar qo'llaniladi.

Suv resurslarini muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari sifatida *ma'muriy-huquqiy javobgarlik* qo'llanilishi mumkin. Ushbu huquqiy javobgarlik «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi kodeksida aniq ko'rsatilgan. Mazkur kodeksning 72-moddasiga ko'ra, suvlarni ifloslantirish yoki bulg'atish, suv to'plash inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish – fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Korxonalar, kommunal va boshqa obyektlarni suvlarning ifloslanishi va bulg'anishi yoki ularning zararli oqibatlari oldini oluvchi inshootlar va qurilmalarsiz foydalanishga topshirish, shuningdek suv obyektlarining tabiiy holatini buzuvchi boshqa harakatlar qilish – mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Suv quduqlarini qazishning belgilangan qoidalari va texnologiyasini buzish, ishlatilayotgan va kuzatuv quduqlarini yo'q qilib yuborish yoki shikastlantirish, suv o'zi chiqadigan quduqlarni tartibga soladigan qurilmalar bilan jihozlash, shuningdek ishlatishga yaroqsiz quduqlarni konservatsiyalash yoki yo'q qilish choralari ko'rmaslik, sifatli yer osti suvlari hosil bo'ladigan tegrada yer osti suvlarining ifloslanishi yoki ularning sifati yomonlashishi manbai bo'lib qolishi mumkin bo'lgan sanoat, qishloq xo'jalik inshootlari va boshqa obyektlarni joylashtirish – fuqarolarga eng kam oylik ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, bir baravaridan uch baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi, ikkinchi yoki uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, uch baravaridan yetti baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Mazkur Kodeksning 74-moddasida ham suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalarini buzish bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.



Tabiiy suv oqimlari (jilg'alar, soylar, daryolar va boshqalar), suv havzalari (ko'llar, dengizlar, yer osti suvli qatlamlari) va boshqa tabiiy suv obyektlaridan olinadigan suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalarini, suv olish limitlarini buzish, shuningdek loyihada nazarda tutilgan baliqlarni muhofaza qilish inshootlari va qurilmalari bo'lmagan holda ulardan suv olishni amalga oshirish –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – ikki baravaridan olti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Sun'iy suv oqimlari (ochiq va yopiq kanallar, kollektor-drenaj tarmoqlari), suv havzalari (suv omborlari, sel suvlari to'planadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) hamda boshqa sun'iy suv obyektlaridan olinadigan suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalarini buzish, ya'ni suvdan xo'jasizlarcha foydalanish, suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir etuvchi gidrotexnika ishlarini va boshqa ishlarni o'zboshimchalik bilan bajarish, suv obyektlaridan belgilangan suv olish limitlari, suvdan foydalanish va suv iste'moli rejalarini buzish –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan ikki qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan to'rt baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan olti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – olti baravaridan o'n to'rt baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, ushbu Kodeksning 75-moddasida «Suvlarning davlat hisobini yuritish qoidalarini buzganlik» uchun ma'muriy javobgarlik ko'rsatilgan. Suv obyektlaridan olinadigan va ularga quyiladigan suv miqdorining dastlabki hisobini yuritish va oqib kelib qo'shilayotgan suvlar sifatini aniqlash qoidalarini buzish, shuningdek davlat suv kadastri yuritishning belgilangan tartibini buzish –

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ayni paytda, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 76-moddasida suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish,

ulardan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun ham ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Jumladan, suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish, eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish,

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzganlik uchun *jinoiy javobgarlik* ham belgilangan.

Ushbu kodesning 203-moddasiga binoan, suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Keyingi paytlarda suv huquqiy javobgarligini qo'llash taklif qiliniyapti. Bunga ko'ra, suvdan foydalanuvchilar ma'lum paytgacha suvdan foydalanish huquqidan mahrum etilishi mumkin.

Xullas, suv manbalarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish, ular to'g'risidagi qonunlarni o'z vaqtida bajarish va ularga amal qilish suv bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini oladi va unga qarshi kurashishga yordam beradi.

### **3-§. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va vazifalari**

Suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ishida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli ancha katta. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar «O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuning 4-moddasida ko'rsatilgan yagona davlat suv fondi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanal va hovuzlarning suvlari, yer osti suvlar va muzliklarni muhofaza qilish hamda mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlardan biri bo'lgan prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish

to'g'risida»gi qonunning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, ma'muriy va jinoiy ishlarni hamda suv resurslariga yetkazilgan zararni qoplash da'vosini qo'zg'atadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimidagi ichki ishlar organlari O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunining ijrosi ta'minlashda o'z tarkibiga kiruvchi quyidagi:

- qo'riqlash xizmati;
- profilaktika inspektorlari;
- tergov bo'limi;
- jinoyat qidiruv bo'limi va boshqa xizmat sohalari huquqbuzarliklarning oldini olish va suvga oid qonunlar ijrosini ta'minlashda o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadilar.

Masalan, birgina ichki ishlar organlari tizimidagi qo'riqlash xizmati mavjud davlat va alohida ahamiyatga ega bo'lgan suv obyektlarini (masalan, suv omborlari) qo'riqlaydilar. Ichki ishlar organlarining mazkur qo'riqlash funksiyasi tegishli shartnoma, o'zaro kelishuv asosida ham olib borilishi mumkin. Shuningdek, profilaktika inspektorlari ham o'z hududlarida suv obyektlarini muhofaza etish, uni ifloslantirmaslik, sanitariya talablariga mosligi va boshqa masalalarga oid tadbirlarni ham olib boradilar.

Umuman olganda, ichki ishlar organlarining barcha faoliyati «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 19-moddasiga, ya'ni «Suvlar va suv havzalaridan foydalanish shartlari»ga to'la mos kelishi va amaldagi ekologik qonunlar asosida bajarilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ekologik qonunlar ijrosini ta'minlash faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lib, ekologik qonun talablarini bajarish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda yordam beradi.

Zero, tabiatga, o'simliklar dunyosiga noto'g'ri munosabatda bo'lishga chek qo'yish, tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ko'paytirish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki hammamizning asosiy burchimizdir.

### ***Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:***

1. «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilingan?

2. «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

3. *Suv monitoringi nima?*
4. *Suv bilan bog'liq nizolarni hal etish tartibi qanday?*
5. *Suv bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari nimalardan iborat?*
6. *Suvdan foydalanish tartibini buzganlik uchun javobgarlik turlarini sanab bering.*
7. *IIOlarining suv to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlashdagi o'rni va vazifalari nimalardan iborat?*
8. *O'zbekiston Respublikasining suv fondini qanday suvlar tashkil qiladi?*
9. *Suvdan foydalanishning qanday turlari mavjud?*
10. *Suv obyektlaridan foydalanish muddatlari necha turga bo'linadi?*

---

---

## *Oltinchi bob*

### **YER OSTI BOYLIKLARI VA ATMOSFERA HAVOSIDAN FOYDALANISH, ULARNI MUHOFAZA QILISHNING EKOLOGIK-HUQUQIY TARTIBI**

#### **1-§. «Yer osti boyliklaridan foydalanish va uni ekologik muhofaza qilishning hozirgi ahvoli, huquqiy tartibi» tushunchasi va mazmuni**

Ona zaminimizda tabiat inom etgan boyliklar ko‘p, ammo biz ularning aksariyatidan ehtiyojimizga yarasha foydalanamiz. Mana shu boyliklar ichida yer osti boyliklari benihoya katta ahamiyatga ega. Yer osti boyliklarining asosiy xususiyati shundan iboratki, ular tiklanmaydigan tabiiy resurslarga kiradi. Negaki, ularni o‘simlik, hayvonot dunyosi singari tiklab bo‘lmaydi. Shunday ekan, ularni huquqiy muhofaza qilish, ayniqsa ulardan oqilona foydalanish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach barcha ma’naviy va tabiiy boyliklar O‘zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulkiga aylandi. Yer osti xazinalari – oltin, kumush, rangli va nodir metallar, eng qimmatbaho strategik xom ashyo bo‘lgan uran hamda yuzlab boshqa resurslar bundan buyon respublika xalqi manfaatlariga xizmat qiladigan bo‘ldi.

O‘zbekiston yerlari turli foydali qazilma boyliklariga ega. Vatanimiz hududida 2500dan ziyod yer osti boyliklari nuqtalari mavjud. Respublikamiz MDH davlatlari ichida oltin qazib olish bo‘yicha 2-o‘rinda, kumush, gaz bo‘yicha 3-o‘rinda turishi hammamizni quvontiradi.

Shunisi e’tiborliki, hozirgi paytda qazib olinayotgan 900 dan ziyod nuqtalarda 100 xil turdagi mineral xom ashyo borligi aniqlangan va 60 xili sanoat ishlab chiqarishida foydalaniladi.

Mustaqil Respublikamizda 142 ta neft, gaz, 6 ta ko‘mir, 34 ta asl metall, 7 ta qora metall, 54 ta rangli metall, 49 ta tog‘-kon, 19 ta sement ishlab chiqarish, 37 ta tog‘-kimyoviy, 372 ta qurilish materiallari korxonalari, 172 ta yer osti suvlari zaxiralari mavjud.

O‘zbekistonning takrorlanmas boyliklari hamisha muhofazaga va oqilona foydalanish tartibiga muhtoj. Sir emas, mustaqillikka erishgunimizga qadar respublikamiz hududida joylashgan barcha oltin konlari sobiq tuzumning oltin xazinasini to‘ldiruvchi xom ashyo bazasi sifatida xizmat qildi.

O‘zbekiston mamlakatning asosiy valuta sexlaridan biriga aylandi. Biroq bu yurtda yashayotgan xalq bundan sariq chaqalik naf ko‘rmadi. Aksincha, juda katta tabiiy boyliklarga ega bo‘lgan mehnatsevar, sabr-toqatli xalq qarzdor degan ta’nalarni eshitib qoldi. Qazib olingan qimmatbaho mahsulot O‘zbekiston quyoshini ko‘rmasdan, peshma-pesh markazdagi maxsus zavodga jo‘natib turildi. Rossiya federatsiyasi hududida joylashgan va sobiq SSSRda yagona bo‘lgan bu korxonada yurtimizdan yuborilgan oltin xom ashyosi qayta ishlanib, sof oltin holida (99,9 foiz) ajratib olinardi.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish joizki, O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi va respublikamiz rahbariyatining tinimsiz harakatlari evaziga o‘lkamiz hududidagi butun yer osti boyliklarining chetga olib chiqib ketilishiga batamom chek qo‘yildi. Natijada O‘zbekistonning oltin xazinasini yaratish uchun chinakam asos yaratildi. Endilikda respublikamizda sof oltin ajratib olish uchun imkoniyatlar yaratildi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasida 2002-yil 13-dekabrda «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»<sup>1</sup> qonunning qabul qilinishi barcha turdagi yer osti boyliklariga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirish uchun asos bo‘ldi.

Jumladan, ushbu qonunning 4-moddasida ko‘rsatilganidek, yer osti boyliklari O‘zbekiston Respublikasining mulki bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Shuni qayd etish lozimki, mazkur talablar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi hamda boshqa ekologik qonunlarda ham o‘z ifodasini topdi.

Xususiyatli tomoni shundaki, yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonunga asosan, konchilik munosabatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida konchilik munosabatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Yer osti boyliklaridan foydalanish chog‘ida yuzaga keladigan, yerdan, yer usti suvlaridan, o‘simlik va hayvonot dunyosidan, atmosfera havosidan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq munosabatlar tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Yer qa’rining foydalanilayotgan va foydalanilmayotgan uchastkalari, shuningdek texnogen mineral hosilalar yer osti boyliklari davlat fondini tashkil etadi (5-modda).

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2003. – № 1-2. – 1-м.

Yer osti boyliklaridan foydalanish va uni muhofaza qilishga doir talablarni bajarish e'tiborga molik masaladir va u har qanday sharoitda yer osti boyliklaridan oqilona foydalanishni va ekologik huquqiy muhofaza qilishni ta'minlaydi.

Yer qa'ridan foydalanish va uni muhofaza qilishga doir asosiy talablar «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi qonunning IV bo'lim, 35-moddasida aniq ko'rsatilgan. Yer qa'ridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishga doir asosiy talablar:

- yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish to'la-to'kis bo'lishini va undan kompleks foydalanilishini ta'minlash;

- foydali qazilmalarning o'zboshimchalik bilan kavlab olinishiga va ular joylashgan maydonlarda imorat qurilishiga yo'l qo'ymaslik;

- foydali qazilmalar zaxiralarining davlat hisobi yuritilishini amalga oshirish;

- foydali qazilmalar zaxiralarini tasdiqlash va geologik materiallarning davlat ekspertizasini o'tkazish;

- yer qa'ridan asosiy foydali qazilma va u bilan birga joylashgan foydali qazilmalar hamda qo'shib chiqadigan foydali komponentlarning iqtisodiy jihatdan rentabelli zaxiralari mumkin qadar to'liq chiqarib olinishini ta'minlash;

- foydali qazilma konlarini suv bosishdan, suv chiqib ketib to'lib qolishdan, yong'indan hamda foydali qazilmalar sifatini va konlarning sanoat ko'lamidagi ahamiyatini pasaytiruvchi yoki ularni ishga solishni murakkablashtiruvchi boshqa omillardan muhofaza qilish;

- yer qa'rida konservatsiya qilib qo'yiladigan foydali qazilmalar zaxiralarining, yer qa'ridan foydalanish bilan bog'liq ishlarni olib borishda kon qazilmalari, quduqlar va yer osti inshootlarining saqlanishini ta'minlash;

- uglevodorodlar va ularni qayta ishlash asosida hosil qilingan mahsulotlarni, boshqa moddalar va materiallarni yer ostida saqlashda, chiqindilarni saqlash va ko'mishda, oqova suvlarni chiqarib tashlashda yer qa'ri ifloslanishining oldini olish;

- foydali qazilmalarni kavlab oluvchi korxonalarini va foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog'liq bo'lmagan yer osti inshootlarini tugatish va konservatsiya qilishni belgilangan tartibda o'tkazishdan iborat.

Shunisi e'tiborliki, yer osti boyliklaridan foydalanish va mineral xom ashyoni qayta ishlash bilan bog'liq ishlarni bajarish loyihalari davlat ekologiya ekspertizasidan o'tkazilishi lozim.

Davlat ekologiya ekspertizasida talab qilinmaydigan ishlar ro'yxati Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hayotiy talab va ehtiyojlar shuni taqozo qilmoqdaki, foydali qazilmalar joylashgan maydonlarda va unga yaqin joylarda imorat qurish holatlari sodir bo'lmoqda. Shu munosabat bilan qonunchilikda mazkur maydonlarda imorat qurish bilan bog'liq shartlar amaldagi yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunda o'z aksini topgan.

Jumladan, aholi punktlari, sanoat obyektlari va boshqa obyektlarni joylashtirish uchun uchastkalar tanlashda bo'lg'usi imorat quriladigan uchastkaning yer qa'rida foydali qazilmalar yo'qligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasining xulosasi kerak.

Alohida hollarda sanoat ko'lamida o'zlashtirishga topshirilmagan foydali qazilma konlari (keng tarqalgan foydali qazilmalarning konlari bundan mustasno) joylashgan maydonlarda imorat qurishga, shuningdek bunday konlar joylashgan yerlarda foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog'liq bo'lmagan yer osti inshootlarini joylashtirishga, konchilik munosabatlari sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari bilan kelishuvga muvofiq, yer qa'ridan foydali qazilmalarni chiqarib olish imkoniyatlari ta'minlanishi hisobga olingan holda, yo'l qo'yiladi.

Foydali qazilmalar joylashgan (keng tarqalganlaridan tashqari) maydonlarda imorat qurishga va bunday joylarda qazilma qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan yer osti inshootlarini joylashtirishga alohida hollarda, konchilik munosabatlari sohasida maxsus vakolat berilgan davlat boshqaruv organlari bilan kelishilgan holda va yer qa'ridan foydali qazilmalarni qazib olish imkoniyatlari ta'minlangan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Keng tarqalgan foydali qazilmalar joylashgan maydonlarda imorat qurishga, shuningdek bunday joylarda foydali qazilma qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan yer osti inshootlarini joylashtirishga konchilik munosabatlari sohasida maxsus vakolat berilgan davlat boshqaruv organlarining xulosasi bo'lgan taqdirda hokimiyat mahalliy organlarining ruxsati bilangina yo'l qo'yiladi.

Qurilish obyektlari imorat qurish va rejasi tasdiqlangan loyihalarida nazarda tutilgan chegaralardagi maydonlarda olib borilganda bunday xulosa talab qilinmaydi.

Shuningdek, qimmatbaho metallarning mayda tub konlarini qidirishni ularni yer osti usulida ishlatish bilan qo'shib olib borishga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi («Yer osti boyliklari to'g'risida»gi qonunning 38-moddasi).



Foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yer osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanish uchun yer qa‘ridan foydalanish belgilangan tartibda tasdiqlangan texnik loyihalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yer osti inshootlaridan foydalanishda chiqindilar va oqova suvlar zararsizlantirilishi yoki belgilangan chegara doirasidan chetga chiqmasligi ta‘minlanishi, shuningdek ularning kon qazishmalariga, yer yuzasiga, atmosfera havosiga va suv obyektlariga kirib borishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rilishi kerak («Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunning 39-moddasi.)

Yer osti boyliklaridan foydalanishda noyob ochiq geologik jinslar va mineralogik hosilalar, meteoritlar, palenontologik, arxeologik hamda fan va madaniyat uchun ahamiyatga molik boshqa obyektlar topilib qolgan holda yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar tegishli uchastkadagi ishlarni to‘xtatib, bu haqda manfaatdor davlat organlariga xabar qilishlari shart.

Alohida ilmiy yoki madaniy qimmatga molik yer osti boyliklari uchastkalarini davlat qo‘riqxonalari yoxud tabiat yoki madaniyat yodgorliklariga mo‘ljallab ajratib olish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston geologiya-qidiruv xodimlari respublikamiz ravnaqi yo‘lida yoqilgi-energetika, qurilish industriyasi bazalarini mustahkamlash, qimmatbaho metallar va boshqa foydali xom ashyo qazib oluvchi yirik sanoat kompleksi rayonlarida qazilma boyliklar zaxiralarini aniqlashni ko‘paytirish, suv ta‘minotidagi bir qator yirik muammolarni hal qilish yo‘lida izlanishlari lozim. Chunki, bu masalaga mamlakatimizda alohida e‘tibor qaratilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1991-yilda «O‘zbekiston Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risi»da alohida farmon qabul qildi. Bizningcha, bu tarmoqqa yangicha huquqiy maqom berilishi, geologiya-qidiruv ishlarini olib borishda barqarorlikka erishishni, eng muhimi esa respublika ehtiyojlarini hisobga olgan holda ekologik talablar asosida geologiya tarmog‘ining yuksalishini ta‘minlaydi.

Xullas, yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan quyidagi shartlar bilan foydalanilsa: qazib olishda ana shu boyliklar va qazilma-resurslardan kompleks va oqilona foydalanish ta‘minlansa, shuningdek atrof-muhit, yer osti boyliklari ifloslanishining oldi olinsa; foydali qazilmalarni kavlab olish chog‘ida holati o‘zgargan yerlar rekultivatsiya qilinsa; qayta tiklanadigan foydali qazilmalardan tabiiy qayta tiklanishiga erishiladigan darajadagina foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni huquqiy muhofaza qilishda davlat boshqaruvi katta ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrda qabul qilingan «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»<sup>1</sup> qonunida ham ushbu masalaga alohida e‘tibor berilgan.

Jumladan, mazkur qonunning 7-moddasiga asosan: «Konchilik munosabatlari sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi konchilik munosabatlari sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari hisoblanadi».

Yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni huquqiy muhofaza qilish ustidan davlat boshqaruvi Vazirlar Mahkamasining asosiy diqqat e‘tiborida turadi hamda qonunga asosan bir qator vakolatlarga ega bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunga binoan Vazirlar Mahkamasining quyidagi vakolatlari mavjud:

- yer osti boyliklari davlat fondini tasarruf etish;
- mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish va takror hosil qilish, yer qa‘rini muhofaza qilish davlat dasturlarini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishini nazorat qilib borish;
- yer qa‘ri uchastkalarini foydalanishga berish va yer qa‘ri monitoringini amalga oshirish tartibini belgilash;
- foydalanishga berilgan yer qa‘ri uchastkalarining davlat hisobi yuritilishini va yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish huquqlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini tashkil qilish;
- foydali qazilmalar zaxiralarini tasdiqlash hamda foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansi, foydali qazilma konlari, foydali qazilma belgilari va texnogen mineral hosilalar davlat kadastrini yuritilishi tartibini belgilash;
- keng tarqalgan foydali qazilmalar ro‘yxatini tasdiqlash;
- yer qa‘rini geologik jihatdan o‘rgangan, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini tashkil qilish;

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2003. – № 1-2. – 1-м.

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish (8-modda).

Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni huquqiy muhofaza qilishda barcha organlar qatori mahalliy davlat hokimiyati organlarining ham alohida o‘rni mavjud. Shu munosabat bilan amaldagi «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunchilikda, mahalliy davlat hokimiyati organlarining konchilik munosabatlari sohasidagi bir qator vakolatlarining ko‘rsatilishi katta ahamiyatga egadir. Mazkur qonunning 9-moddasiga asosan, konchilik munosabatlari sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari jumlasiga:

– tegishli hududda mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish va takror hosil qilish, yer qa‘rini muhofaza qilish davlat dasturlari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida ishtirok etish hamda ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

– keng tarqalgan foydali qazilmalar kavlab olinayotganda yer qa‘ridan foydalanish shartlarini kelishib olish;

– yer qa‘ridan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish kiradi.

«Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqi» tushunchasini to‘liq tasavvur etish uchun yer osti boyliklaridan foydalanish turlari haqida tegishli tushunchaga ega bo‘lish lozim.

Demak, yer osti boyliklaridan foydalanish turlarini to‘g‘ri turkumlash yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish hamda ularni huquqiy ekologik muhofaza qilishni amalga oshirish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Yer osti boyliklaridan foydalanishni turkumlashning asosi bo‘lib, ularni tabiat obyekti sifatidagi roli hisoblanadi.

«Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunning 19-moddasida yer qa‘ridan foydalanishning quyidagi turlari aniq ko‘rsatilgan:

– geologik jihatdan o‘rganish;

– foydali qazilmalarni kavlab olish;

– texnogen mineral hosilalardan foydalanish;

– foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yer osti inshootlarini, shu jumladan neft, gaz, gaz kondensati, boshqa moddalar va materiallarni yer ostida saqlash inshootlarini qurish hamda ulardan foydalanish, chiqindilarni saqlash va ko‘mib tashlash;

– alohida muhofaza etiladigan geologik obyektlarni barpo qilish;

– nodir tosh xom ashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa geologik kolleksiyabop materiallarni to‘plash.

O‘zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonuniga asosan yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar, ya’ni subyektlar yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar.

Mazkur yer osti boyliklaridan foydalanuvchi subyektlarga yer osti boyliklaridan foydalanish cheklanmagan yoki cheklangan muddatga berilishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, yer osti boyliklari umummilliy boylik bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining mutlaq mulki hisoblanadi.

Yer osti boyliklaridan foydalanishda yer qa’rini geologik o‘rganish uchun berish katta ahamiyatga ega. Geologik o‘rganish uchun yer qa’ri belgilangan tartibda tasdiqlangan yer qa’rini geologik o‘rganish loyihasiga asosan amalga oshiriladi.

Yer qa’rini geologik o‘rganish ishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va yer uchastkalarini egallashga ruxsat berish yer qa’rini geologik o‘rganish ishlarini boshlash uchun asos hisoblanadi.

Xorijiy yuridik shaxslarga, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalariga geologik o‘rganish uchun yer osti boyliklari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.

Qazib chiqarilishi litsenziya asosida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan mineral resurslar turlarining ro‘yxati, yer osti boyliklaridan foydalanish huquqini beruvchi litsenziyalarni berish tartibi, shuningdek kon ajratmalarini berish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Litsenziya egasining yer osti boyliklaridan foydalanish, kon joylashgan maydon – kon ajratmasini olish va uning zaminidan foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen hosilalardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarini loyihalashtirishga, foydali qazilma qazib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yer osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanishga litsenziyada nazarda tutilgan shartlar va talablarga rioya etgan holda, zararli moddalarni, radioaktiv chiqindilarni va ishlab chiqarish chiqitlarini yer qa’rining ma’lum qismida ko‘mishga huquqi borligini tasdiqlaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga yer osti boyliklaridan foydalanishning bir yo‘la bir necha turi uchun litsenziyalar berilishiga yo‘l qo‘yiladi. Litsenziya yer osti boyliklaridan foydalanish uchun asosdir.

Tadbirkorlik tavakkalchiligi shartlari asosida geologik jihatdan o‘rganish uchun, foydali qazilmalarni kavlab olish, texnogen mineral hosilalardan foydalanish va foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog‘liq

bo‘lmagan boshqa maqsadlar uchun yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi yuzaga kelishining asosi litsenziya hisoblanadi.

Litsenziya tegishli davlat organining yer qa’ridan foydalanish bilan bog‘liq ishlarni olib borish uchun yer uchastkasi berilishini kafolatlovchi qarori mavjud bo‘lganda beriladi.

Litsenziya yuridik yoki jismoniy shaxsga litsenziya berishga vakolatli organ tomonidan beriladi.

Litsenziyalarni berish ochiq kim oshdi savdolari yoki yuridik va jismoniy shaxslarning litsenziya berishga vakolatli organlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralari natijalari asosida o‘ttiz kun ichida amalga oshiriladi.

Agar yer qa’ri uchastkasidan foydalanish huquqi yuridik shaxslarning yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan birlashmasiga beriladigan bo‘lsa, litsenziya bunday birlashmaning ishtirokchilaridan biriga berilib, unda mazkur ishtirokchi shu birlashma nomidan ish yuritayotganligi, shuningdek birlashmaning boshqa barcha ishtirokchilari ko‘rsatiladi.

Geologik jihatdan o‘rganish, foydali qazilmalarni kavlab olish, texnogen mineral hosilalardan foydalanish, foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yer osti inshootlariga qurish va ulardan foydalanish, alohida muhofaza etiladigan geologik obyektlarni barpo etish hamda nodir tosh xom ashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa geologik kolleksiyabop materiallarni to‘plash uchun litsenziyalar O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi tomonidan beriladi. Chiqindilarni saqlash va ko‘mib tashlash maqsadida yer osti inshootlarini qurish va ulardan foydalanish uchun litsenziyalar O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan berilgan litsenziyaga muvofiq yer qa’ri foydali qazilmalarni kavlab olish, texnogen mineral hosilalardan foydalanish, foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yer osti inshootlari qurish va ulardan foydalanish, alohida muhofaza etiladigan geologik obyektlar barpo etish uchun maydoni va chuqurligi cheklangan uchastkalar ko‘rinishida foydalanishga beriladi.

Kon ajratmasi chegaralarida xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyat yer qa’ri kimga berilgan bo‘lsa, faqat o‘sha foydalanuvchining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Kon ajratmalari O‘zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Foydali qazilmalarni tajriba-sanoat yo‘sinida kavlab olish uchun litsenziyaga muvofiq beriladigan yer qa’ri uchastkalaridan foydalanishda

kon ajratmasi talab qilinmaydi, uglevodorodlarni tajriba-sanoat yo‘sinida kavlab olish bundan mustasno.

Kon ajratmalarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Yer osti boyliklaridan xo‘jalik va ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun foydalanish ham o‘z xususiyatiga ega. Shuning uchun ham yer egalari va yerdan foydalanuvchilar o‘zlariga berilgan yer uchastkalari doirasida o‘z xo‘jalik va ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun portlatish ishlarini qo‘llamagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda zaxiralari foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansini hisobiga olinmagan keng tarqalgan foydali qazilmalarni kavlab olishi hamda yer osti inshootlarini qurishni litsenziya olmasdan amalga oshirish huquqiga ega.

Yer egalari va yerdan foydalanuvchilar tomonidan qonun hujjatlari buzilgan taqdirda keng tarqalgan foydali qazilmalarni kavlab olish va yer osti inshootlarini qurish belgilangan tartibda taqiqlanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunning 34-moddasi talablariga asosan yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish huquqi quyidagi hollarda cheklanishi, to‘xtatib turilishi yoki muddatidan ilgari tugatilishi mumkin:

– yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish bilan bog‘liq ishlar ta‘siri doirasidagi aholi hayotiga yoki sog‘lig‘iga, atrof-muhitga tahdid yuzaga kelganda;

– agar yer qa‘ridan foydalanuvchi bir yil mobaynida yer qa‘ri uchastkasidan foydalanishga kirishmagan bo‘lsa;

– yer qa‘ridan foydalanganlik uchun to‘lovlar muntazam ravishda to‘lanmagan taqdirda;

– yer qa‘ridan foydalanuvchi litsenziyaning asosiy shartlarini buzgan taqdirda;

– ushbu Qonunning 36, 37, 39 va 40-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar bajarilmagan taqdirda.

Yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish huquqi quyidagi hollarda tugatiladi:

– yer qa‘ri uchastkasidan foydalanishning belgilangan muddati tugaganda;

– yer qa‘ridan foydalanuvchi yer qa‘ri uchastkasidan foydalanish huquqidan voz kechganda;

– foydalanishiga yer qa‘ri uchastkasi berilgan yuridik shaxs tugatilgan yoki yakka tadbirkorning faoliyati tugatilgan taqdirda.

Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatib turish va tugatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Xullas, yer osti boyliklaridan foydalanish huquqi subyektlarining o'ziga xos xususiyati shuki, ular tegishli huquq va majburiyatlarni davlat mulk huquqining obyektiga bo'lgan yer osti boyliklariga nisbatan amalga oshiradilar va bu yedagi ayrim subyektlar bir vaqtning o'zida ham boshqaruv organ, ham foydalanuvchi yoki egalik qiluvchi organ bo'lib hisoblanadilar. Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqining obyektiga esa hamma hollarda davlat mulk huquqining obyektiga hisoblanadi va amaldagi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqi amaldagi qonunchilikka asosan ma'lum muddatga beriladi. Yer osti boyliklaridan foydalanish va uni qonuniy muddati O'zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi qonunida aniq ko'rsatilgan. Albatta, yer osti boyliklari, ma'lum foydalanuvchi subyektlarga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga qonun asosida beriladi. Jumladan, mazkur qonunning 10-moddasiga binoan, yer qa'ridan foydalanish cheklangan bo'lishi mumkin. Yer osti boyliklaridan foydalanish muddati oldindan belgilab qo'yilmagan bo'lsa, uning muddati cheklanmagan hisoblanadi. Yer osti boyliklari cheklangan muddatli foydalanish uchun litsenziyada belgilangan muddatga berib qo'yiladi. Zaruratga qarab, bu muddat uzaytirilishi mumkin. Yer osti boyliklaridan foydalanish muddati foydalanish huquqi berilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan, geologik jihatdan o'rganish, foydali qazilmalarni kavlab olish, texnogen mineral hosilalardan foydalanish, foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog'liq bo'lmagan yer osti inshootlarini, shu jumladan neft, gaz, gaz kondensati, boshqa moddalar va materiallarni yer ostida saqlash inshootlarini qurish hamda ulardan foydalanish, chiqindilarni saqlash va ko'mib tashlash, alohida muhofaza etiladigan geologik obyektlarni barpo qilish, nodir tosh xom ashyosi namunalarni, paleontologik qoldiqlarni va boshqa geologik kolleksiyabop materiallarni to'plash kabi, yer qa'ridan foydalanish turlari ko'rsatilgan (19-modda).

Mazkur turlarning huquqiy holati va ekologik ahamiyatini biz yuqoridagi paragraflarda ko'rib chiqqan edik.

Amaldagi qonunchilikda yer osti boyliklaridan foydalanish huquqining paydo bo'lishi bilan birgalikda, ayrim hollarda bekor bo'lish holatlari, ya'ni yer osti boyliklaridan foydalanish huquqini to'xtatish ham ko'zda tutilgan.

Qayd etish lozimki, yer osti boyliklaridan foydalanish uchun haq toʻlanadi. Mazkur masala «Yer osti boyliklari toʻgʻrisida»gi qonunning 21-moddasiga asosan amalga oshiriladi. Ushbu moddaga binoan, Yer qaʼridan foydalanish pullikdir, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Amaldagi qonunchilik yer qaʼridan foydalanuvchilar huquqlarining bekor qilish asoslari bilan bir qatorda ularni kafolatlaydi ham, unga koʻra, yer qaʼridan foydalanuvchilarning faoliyatiga davlat organlari aralashuviga yoʻl qoʻyilmaydi.

Yer qaʼridan foydalanuvchilarning buzilgan huquqlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tiklanishi kerak. Yer qaʼri uchastkalaridan foydalanish huquqi asossiz cheklanishi, toʻxtatib turilishi yoki tugatilishi oqibatida yer qaʼridan foydalanuvchilar koʻrgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi shart.

Yer qaʼridan foydalanuvchiga boshqa shaxslar tomonidan yetkazilgan zarar qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi.

Konlarning foydali qazilmalarga boy uchastkalari tanlab ishlatilganligida, shuningdek konning ishdan chiqishiga yoki yer qaʼri uchastkasidan kelgusida foydalanish imkoniyatini qisman yoki toʻla istisno etadigan sharoit yaratilishiga olib kelgan boshqa harakatlarda (harakatsizlikda) aybdor yer qaʼridan foydalanuvchining faoliyati natijasida davlatga yetkazilgan zarar qonun hujjatlariga muvofiq yer qaʼridan foydalanuvchining mablagʻlari hisobidan qoplanishi kerak deb koʻrsatilgan.

Yer osti boyliklaridan qonunga asosan foydalanuvchi subyektlar, yaʼni yuridik va jismoniy shaxslar ish jarayonlarida bir qator huquq va majburiyatlarga ega boʻladilar. Eʼtiborli tomoni shundaki, yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari bir-birlari bilan oʻzaro chambarchas bogʻliqdir.

Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatlari Oʻzbekiston Respublikasi «Yer osti boyliklari toʻgʻrisida»gi qonunda oʻz ifodasini topgan. Ushbu qonunga asosan, yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga egadirlar:

– oʻz faoliyati natijalaridan, shu jumladan yer qaʼri toʻgʻrisida olingan geologik va boshqa axborotdan, shuningdek kavlab olingan foydali qazilmalar yoki ularning litsenziya shartlariga koʻra tasarruflarida boʻladigan ulushidan foydalanish;

– agar litsenziyada boshqacha qoida belgilangan boʻlmasa, foydali qazilmalarni kavlab olish hamda mineral xom ashyoni qayta ishlash jarayonida olingan texnogen mineral hosilalardan foydalanish;



– yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish bilan bog‘liq ishlarni olib borish texnologiyasi yuzasidan qaror qabul qilish;

– texnik loyihalar va konchilik ishlarini rivojlantirish rejalariga, shuningdek uglevodorod konlarini ishlatish va obodonlashtirish loyihalariga belgilangan tartibda o‘zgartish kiritish;

– foydali qazilma konlarini ishlatish jarayonida foydalanuv konditsiyalarini qo‘llash;

– litsenziyaga muvofiq berilgan kon ajratmasi doirasida qo‘shimcha ruxsatnomasiz yer qa’ri geologik jihatdan o‘rganilishini amalga oshirish;

– kon ajratmasi va belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkalari doirasida ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish va ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish, shuningdek umum foydalanishdagi obyektlar va kommunikatsiyalardan shartnoma asosida foydalanish;

– yer qa’ri uchastkasidan foydalanish bilan bog‘liq ishlarning ayrim turlariga yoki majmuini bajaruvchilarni shartnoma asosida jalb etish;

– mineral xom ashyoga va uni qayta ishlash mahsulotlariga bo‘lgan konyunktura o‘zgarganligi munosabati bilan foydali qazilmalarni kavlab olish iqtisodiy jihatdan maqsadga nomuvofiq bo‘lganda, shuningdek litsenziya berilgandagidan ancha farq qiluvchi holatlar yuzaga kelganda yer qa’ri uchastkasidan foydalanish shartlarini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida iltimosnoma bilan murojaat etish.

Yer qa’ridan foydalanuvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar:

– yer qa’ri uchastkasi qaysi maqsadda berilgan bo‘lsa, undan shu maqsadda foydalanishi;

– yer qa’ridan foydalanish va mineral xom ashyoni qayta ishlash bilan bog‘liq ishlarni olib borish texnologiyasi normalari va qoidalariga rioya etishi;

– konchilik ishlarini rivojlantirishning texnik loyihalari va rejalaridagi, shuningdek uglevodorod konlarini ishlatish va obodonlashtirish loyihalaridagi talablarga rioya etishi;

– foydali qazilma konlarini ishlatish, yer qa’ridan foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish jarayonida geologik, marksheyderlik va boshqa hujjatlarni yuritishi hamda ularning saqlanishini ta’minlashi;

– chiqarib olinadigan va yer qa’rida qoldiriladigan asosiy foydali qazilma va u bilan birga joylashgan foydali qazilmalar hamda qo‘shilib

chiqadigan komponentlar zaxiralari, shuningdek mineral xom ashyoni va texnogen mineral hosilalarni qayta ishlash mahsulotlari miqdori va sifati hisobini yuritishi;

– kavlab olinayotganda qo‘shilib chiqadigan, lekin vaqtincha foydalanilmayotgan foydali qazilmalar va foydali komponentlarni saqlashi;

– foydali qazilmalarni kavlab olish va mineral xom ashyoni qayta ishlash chog‘ida nobudgarchilik normativlariga rioya etilishini ta‘minlashi;

– konlarning foydali qazilmalarga boy uchastkalari tanlab ishlatilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

– asosiy foydali qazilma va u bilan birga joylashgan foydali qazilmalar hamda qo‘shilib chiqadigan foydali komponentlar zaxiralarning holati va o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, shuningdek foydali qazilma konlari, foydali qazilmalar belgilari va texnogen mineral hosilalar davlat kadastrini yuritish uchun ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasiga taqdim etishi;

– kavlab olingan foydali qazilmalar hajmlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etishi;

– yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish bilan bog‘liq ishlar ta‘siri doirasidagi ishlovchilar (xodimlar) va aholining xavfsizligini ta‘minlashi;

– yer qa‘ridan foydalanish bilan bog‘liq ishlar bexatar olib borilishini, favqulodda vaziyatlarning oldini olish choralari ko‘rilishini, falokatlarini bartaraf etish rejalari ishlab chiqilishini ta‘minlashi;

– foydali qazilmalarni kavlab oluvchi korxonalarini va foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yer osti inshootlarini tugatish va konservatsiya qilishning belgilangan tartibiga rioya etishi;

– to‘kindi uyumlarining yonbag‘irlarini va ochiq konlarning yon chekkalarini rejalash yoki pog‘onalash ishlari, shuningdek eroziyaga qarshi tadbirlar o‘tkazilishini ta‘minlashi;

– atrof-muhitni muhofaza qilishga, shuningdek yer qa‘ridan foydalanishda ishdan chiqqan yer uchastkalarini va boshqa tabiiy obyektlarni keyinchalik foydalanish uchun yaroqli holatga keltirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishi shart.

Xullas, yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar yuqorida ko‘rsatilgan barcha huquq va majburiyatlarga rioya qiladilar, ularni bajaradilar, mazkur obyektidan oqilona foydalanish hamda uni huquqiy muhofaza qilishni ta‘minlaydilar.

## **2-§. Atmosfera havosining tirik mavjudot uchun ekologik ahamiyati va uni huquqiy ekologik muhofaza qilish masalalari**

Atmosfera havosi – yerni o‘rab olgan gazli qatlam, tabiiy omillardan biri. Atmosfera havosi tarkibida bir qancha gazlar bo‘lib, ularning asosini azot, aksincha (kislrorod), karbonat angidridi, xidrogen (vodorod), argon va boshqa inert gazlar tashkil etadi. Hammamizga ayonki, yer yuzidagi butun mavjudot havo bilan tirik. Havo inson uchun suv va quyoshdek mo‘tabar va aziz! Inson yashaydigan muhitni iflos qilmaslik, bundan bir necha asrlar oldin, 1382-yilda Farangiston qiroli Karl VI tomonidan qonunlashtirilgan va havoga «yomon hidli, ko‘ngil ozdiradigan» tutun chiqaruvchilar qattiq jazolangan.

Atrof-muhit, uning atmosferasi ifloslanishi to‘la yoki qisman inson faoliyati natijasi bo‘lib, buning bevosita yoki bilvosita ta’siri natijasida fizik-kimyoviy muhitga quyoshdan kelayotgan energiya, radiyatsiya darajasi va tirik organizmning sharoiti o‘zgaradi. Ona sayyoramizda hayotning mavjudligi ham yer atmosferasida yashash uchun eng zarur omil bo‘lgan kislrorodning yetarli miqdorda borligidandir. Biz havodan nafas olganimizda kislrorod nafas yo‘llari orqali organizmimizga singadi, modda almashinuvi singari murakkab ichki bioximik jarayonlar yuz beradi. Odam bir kecha-kunduzda tashqi muhitdan 20 kub metr havo oladi. Uning o‘pkasi minutiga 16-20 martagacha havo yutib, havo chiqaradi.

Ma’lumki, odamning o‘pkasi orqali bir minutda o‘rta hisobda 12 litr havo o‘tib turadi. Bir kecha-kunduzda esa 17 ming 290 litr havo o‘tadi. Bu esa 23 kilogrammni tashkil etadi. Demak, odam havoni ovqatga nisbatan 4-5 baravar ko‘p iste’mol qiladi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, atmosferaning og‘irligi 5300000 million tonnadan iborat. Shuncha yukni Moskvadan Sankt-Peterburg shahriga tashish uchun 4 milliard yil kerak bo‘ladi. Har 1000 yilda yerga havodan 3 millimetr chang tushadi. Abu Bakr Roziy ta’kidlaganidek, tabiatning beqiyosligini tan olmoq kerak. Kishining qanchalik sog‘lom, nosog‘lom bo‘lishi havo, iqlim va yashash tarziga bog‘liqdir.

Tadqiqotchi olimlarning ma’lumotlariga qaraganda, Amerikaning eng yirik sanoat shaharlari – Los-Anjelosda atmosfera havosiga har kuni 9 ming tonna, Nyu-Yorkda 10 ming tonna miqdorda gaz isi chiqarib tashlanadi. Nyu-Djersi shahrining atmosfera havosi tarkibida 44 xil kimyoviy modda borligi aniqlangan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda jahon mamlakatlarida 320 mln.dan ziyod avtomobil harakatda. Avtomobil motoridan havoga

chiqadigan gazlar tarkibida esa 200 xil turli zaharli kimyoviy moddalar borligi o'rganilgan.

Atmosferaga chiqit chiqarilishini kamaytirish maqsadida chiqariladigan gazlarni tozalashning yuqori samarali vositalarini qurgan holda aspiratsiya sistemalarini markazlashtirish, shu jumladan eskirgan tozalash apparatlarini modernizatsiya qilish va yangilari bilan almashtirish, yangi texnologiya sxemalarini joriy etish, zararli moddalar hosil bo'lishini kamaytirish metodlarini joriy qilish, mayda qozonxonalarini tugatish, atmosferani bulg'atuvchi moddalar chiqarilishini boshqarish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan sistemalarini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek 2015 yilgacha atmosferaga chiqariladigan iflos gazlarni 60-65 % kamaytirish kerak.

Shahar va sanoat markazlarida daraxtzorlarni ko'paytirish, yashil xiyobonlar sonini oshirish zarur. Olimlarimiz katta ko'cha bilan turar-joy binolari orasida yashil daraxtlarni ikki qator qilib o'tqazishni tavsiya qilyaptilar. Zero, havoning musaffoligi tabiat muvozanatining, inson salomatligining garovidir. Shu o'rinda yozuvchi Pavlenkning «Baxt» asarida shifokor tilidan roman qahramoniga aytilgan quyidagi so'zlarni keltirish mumkin: «Sizning dardingiz oddiy doriga – havoga muhtoj. U qancha mo'l bo'lsa, shuncha yaxshi, uyquda ham, bedorlikda ham. Sof havo sizning u yog'ingizdan kirib, bu yog'ingizdan chiqsin, har bir hujayrangizni yuvsin. Ochiq havoda ovqatlaning, uxlang ham. Shunday qilib cheklanmagan miqdorda havo qabul qiling».

Oddiy bir misol, respublikamizda transport vositalaridan chiqqan zaharli gazlar bir yilda har bir kishi hisobiga 203-208 kilogrammdan to'g'ri keladi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi mamlakat miqyosida barcha shahar va tumanlarda havoni tekshirish uchun doimiy nazorat punktlari o'rnatgan. Tekshirishlar natijasida havosining iflosligi bo'yicha Toshkent shahri eng oldingi o'rinlarda turishi aniqlangan. Ko'rinib turibdiki, atrof-muhitning ekologik holati va hududlar ekologik muvozanatining buzilishi ko'p jihatdan atmosfera havosining tarkibiga hamda uning turli ishlab chiqarishlar ta'siridagi salbiy o'zgarishlarga bog'liq. Bu o'zgarishlar sayyoraviy, regional va topologik (mahalliy) masshtabda ro'y beradi. O'zbekiston hududining o'ziga xos tabiiy xususiyatlari uni ekologik xo'jalik hududlarga ajratishga va har bir hudud yer usti atmosfera havosining ifloslanish potensialini aniqlashga imkon berdi. Chirchiq-Ohangaron va Farg'ona vodiysi hududlarida atmosfera havosi ifloslanish darajasining kattaligiga sabab bu yerdagi hududiy ishlab chiqarish majmualari nisbatan rivojlanganligi, avtotransport harakatining ko'pligi,

togʻ-kon sanoatining salbiy taʼsiri va qishloq xoʻjaligida zararli ximikatlardan ortiqcha foydalanishdadir?! Ayni vaqtda bu joylarda ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish yoki zararsizlantirish tadbirlari sust olib borilgan. 1990-yillar maʼlumotlariga koʻra, respublikada havoni bulgʻayotgan 35000 doimiy manba boʻlib, ularning yarmida chang va turli xil zararli gazlarni tutib qoluvchi va tozalovchi moslama boʻlib, bu moslamalarning 4,1 qismi esa buzuq yoki samaradorligi juda past edi.

Atrof-muhitning meʼyordan ortiq ifloslanishi yirik shaharlarga xos. Olmaliq, Fargʻona, Bekobod, Andijon, Ohangaron, Angren, Toshkent, Samarqand, Navoiy shaharlari atmosfera havosi eng koʻp ifloslangan shaharlar jumlasiga kiradi. Oʻzbekistonda yer usti havosining ifloslanishi 1983-yilda eng yuqori darajaga yetib, soʻnggi yillarda ahvolning bir-muncha yaxshilanganligi qayd qilingan. Tadqiqotlarning koʻrsatishicha, qishloq joylarda atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy omil qishloq xoʻjaligida foydalaniladigan turli xil uchuvchan kimyoviy moddalar boʻlsa, yirik shaharlarda esa shahar transportidir. Chunonchi, poytaxtimiz atmosfera havosining ifloslanishida shahar transportining hissasi 80% dan ortadi. Umuman respublika boʻyicha atmosferaga hanuz yiliga 2,41 mln. tonnaga yaqin zararli moddalar chiqarib yuborilmoqdaki, bular atmosfera havosinigina emas, balki suv, tuproq, inson, oʻsimlik va hayvonot dunyosiga ham maʼlum darajada zarar yetkazmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov: «Havo boʻshligʻining ifloslanishi ham respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdid»<sup>1</sup>, – deb bejizga aytmagan.

Mutaxassislarining maʼlumotlariga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4 mln. tonnaga yaqin zararli moddalar qoʻshilmoqda. Shularning yarmi uglerod oksidiga toʻgʻri keladi, 15%ni uglevodorod chiqindilari, 14%ni oltingugurt qoʻsh oksidi, 9%ni azot oksidi, 8%ni qattiq moddalar tashkil etadi va 4%ga yaqini oʻziga xos oʻtkir zaharli moddalarga toʻgʻri keladi.

Atmosferada uglerod yigʻindisining koʻpayib borishi natijasida oʻziga xos keng koʻlamdagi issiqxona effekti vujudga keladi. Oqibatda Yer havosining oʻrtacha harorati ortib ketadi. Arid mintaqasida joylashgan Oʻzbekiston Respublikasida tez-tez chang boʻronlarini qoʻzgʻatib turuvchi, atmosferani chang-toʻzonga chulgʻatuvchi Qoraqum va Qizilqum sahrolaridek yirik tabiiy manbalar mavjud!

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., – 1997. – Б. 129.*

Bu sohani yaxshilash uchun maxsus qonunlar qabul qilingan, mahalliy ma'muriy organlar tomonidan esa ko'plab qarorlar chiqarilmoqda. Afsuski, natijasi havo halokatining oldini olishga qodir emas?! Albatta, bunday noxush holatlarning sababi qonunning kuchi, ta'sirining kamligi, odamlarning ekologik-huquqiy madaniyati past darajada ekanligidadir.

Ushbu holatlarning oldini olish maqsadida hozirgi kunda havoni zararli gaz va zarrachalardan tozalashda turli zamonaviy usullar qo'llanilmoqda.

1. Fizik-kimyoviy usullar – havoni zararli gazlardan tozalashda qo'llaniladi. Bu usul ko'pincha gazlarni kimyoviy yo'l bilan tozalash deb yuritiladi. Kiyoviy birikmalardan tarkib topgan filtrlovchi uskunalar yordamida zavod, fabrika va kombinatlardan chiqadigan zaharli gazlar tutib qolinadi yoki turli katalizatorlar yordamida zararsizlantiriladi.

2. Fizik usullar – havodagi zararli gaz, qattiq va suyuq qo'shilmalar – chang, tutun va boshqalarni tozalashda qo'llaniladi va hokazo. Alohida qayd etish lozimki, atrof-muhitni, jumladan, atmosfera havosi ifloslanishining quyidagi turlari ma'lum:

– tabiatning mexanik ifloslanishi – bunda atmosferaga chang chiqishi, turli zaharli qattiq zarrachalar hamda ayrim predmetlar tushishi tushuniladi;

– atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi – turli gazsimon, suyuq va qattiq kimyoviy elementlar va birikmalar tabiatga tashlanishi va ularga salbiy ta'sir o'tkazishdan iborat;

– biologik ifloslanish – atrof-muhitga turli organik aerozollar, antibiotiklar, bakteriya viruslar va boshqa mikroorganizmlarning tushishidan yuzaga keladi;

– fizikaviy ifloslanish – tabiatdagi o'lik va tirik jinslarning hammasiga bir tyokisda ta'sir o'tkazadi.

Xullas, mutaxassislarning ma'lum qilishicha, «beshinchi okean» deb ataluvchi sayyoramiz atmosferasining zaharli moddalar bilan ifloslanishi keyingi yillarda keskin tus olgan. E'tibor beraylik, yerda, osmonda, yer osti boyliklarida ma'lum miqdorda chegara mavjud, ammo havo va suvda chegaraning ahamiyati yo'q. Keling, atmosfera havosini muhofaza qilaylik, o'zimizni-o'zimiz avaylab, kelajakni saqlaylik, halokatning oldini olaylik.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda barcha ekologik xususiyatlar inobatga olinib atmosfera havosini muhofaza qilishning huquqiy asosi<sup>1</sup> yaratilganligi o'ta quvonchli holdir.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Атмосфера хавосини муҳофаза қилиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1997. – №2. – 52-м; 2003. – №9-10. – 149-м; Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – 2006. – №41. – 405-м.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, atrof-muhit ifloslanishida havoga «tashlanayotgan» chiqindilar salmoqli o'rin tutadi. Agar 1 gektar maydonda boshqoli don poyasi yoqilsa, 500 gramm azot oksidi, 379 gramm uglevodorod, 3 kilogramm kul, 20 kilogramm is gazi va uglerod oksidi (SO) atmosferaga ko'tariladi. Oqibatda nainki havo, hatto tuproq tarkibi buzilib, eroziya kuchayadi, unumdorlik keskin kamayadi. Ma'lumki, kuzda ko'pincha xazon yoqib yuboriladi. Ammo bundan havo qanchalik bulg'anishini ko'pincha tasavvur qilmaymiz: 1 tonna xazon yoqilganda havoga 30 kilogramm uglerod oksidi ko'tariladi. Bitum yoqilganda hosil bo'lgan qurum inson organizmida sil va saraton kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Tabiatga bo'lgan munosabatda har bir harakatimiz ehtiyotkorlikni talab etadi. Faylasuf Gro Xarlem Brundtland aytganidek, «Tabiat – bu ajdodlarimizdan bizga qoldirilgan meros emas, balki kelgusi avlodlarimizga berishimiz kerak bo'lgan qarzdir».

Ma'lumki, atrof-muhit va atmosferani ifloslantirishning asosiy qismi yoqilg'i-energetika majmuasiga to'g'ri keladi. Bu sohada atmosferaga chiqarilayotgan oltingugurt, azot, uglerod oksidlari uzoq-uzoqlarga tarqaladi. U havoga singgach suv bilan o'zaro reaksiyaga kirishib, quruqlikka «kislotali yomg'ir» bo'lib yog'adi. Odatda, cho'l va tog'oldi hududda yashovchi aholi dizel yoqilg'isini ishlatadi. Dizel qurilmalari ishlatilganda atrof-muhitga is gazi (SO), uglevodorodlar (SnHm), azot oksidlari (NOx) yoyiladi, havo ko'p miqdordagi yonib ulgurmagan uglevodorodlarning qoldig'i bilan ifloslanadi.

Odamzod tabiatan yaratuvchi. Zero, inson tabiatga yetkazgan xatosini tuzatishga, murakkab ekologik vaziyatni o'nglashga harakat qiladi, kalavaning uchini topishga urinadi. O'tgan asrning yetmishinchi yillaridan boshlab dunyo hamjamiyati atrof-muhit ifloslanishi – globallashuvning oldini olish harakatini boshlagan edi.

Tabiat, atrof-muhit, atmosfera ifloslanishining oldini olishda, ayniqsa yoqilg'i-energetika majmuasida istiqbolli, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish – kelajak talabi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qo'llanishi, ekologik tozaligi nuqtai nazaridan judayam istiqbollidir. Yurtimizda bu sohada yetarli tajriba to'plangan. Markaziy Osiyo birlashgan energiya tizimi quvvatining 50 foizi mamlakatimizga to'g'ri keladi. Respublikamiz energetika balansiga ekologik toza qayta tiklanuvchi energiya manbalarini jalb qilish atrof-muhitga texnogen ta'sir o'tkazishdan muhofazalaydi. Shunday omillarning biri, dunyoda keng ishlatib kelinayotgan qayta tiklanuvchi

quyosh va shamol energiyalaridir. Quyosh energiyasi foydalanishga qulay bo‘lib, unda imkoniyatlar ham keng. Hozirgi paytda respublikamizda quyosh energiyasining 0,3 foizi o‘zlashtirilgan, xolos. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi BMTning Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda «Qoraqalpog‘iston qishloq aholisi uchun toza energiya» qo‘shma loyihasini amalga oshirdi.

Ta’kidlash lozimki, atmosfera havosini muhofaza qilish yo‘lida juda katta ishlar qilinib, 1993-yil 7-mayda O‘zbekiston Respublikasining Havo kodeksi qabul qilindi. Ushbu qonun IV bo‘lim, XV bob, 135 moddadan iborat bo‘lib, havoni muhofaza qilishga doir yangi huquqiy-ekologik tadbirlarni belgiladi<sup>1</sup>. Mazkur qonunning 3-moddasiga asosan «O‘zbekiston Respublikasining Havo kodeksi davlat manfaatlarini himoya qilish, havo kemalari parvozi xavfsizligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligi va fuqarolarining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida aviatsiya faoliyatini hamda samoviy hududdan foydalanish bilan bog‘liq boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi». Bundan tashqari, atmosfera havosini huquqiy muhofaza qilish Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va «O‘zbekiston havo yo‘llari» Milliy aviakompaniyasining, Davlat boshqaruvi va nazorati bosh inspeksiyasining tegishli buyruqlari hamda boshqa qonunlar bilan huquqiy ekologik muhofaza qilinadi. Shuning uchun ham «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 20-moddasida atmosfera havosidan foydalanish shartlari va talablari aniq ko‘rsatib berilgan<sup>2</sup>.

Havodan foydalanishda muayyan hudud havosining sifatini o‘zgartirmaslik, uni belgilangan normativlardan ortiq darajada ifloslantirmaslik yoki siyraklashtirmaslik sharti bilan yo‘l qo‘yiladi. Xalqaro bitimga muvofiq «vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, xususiylar ozon qatlamiga zararli ta’sir etuvchi kimyoviy moddalar ishlab chiqarish hamda bunday moddalardan foydalanishni qisqartirishlari va kelgusida batamom to‘xtatishlari shart» deb yozib qo‘yilgan.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy manbai huquqiy «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi<sup>3</sup> qonun hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Ҳаво кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1999. – №6. – 247-м; 1998 – №3. – 38-м; 2000. – №5-6. – 153-м; 2003. – №5. – 67-м; Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – 2008. – №28. – 261-м.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. – 1993. – №1. – 38-м.

<sup>3</sup> О‘sha manba. – 1997. – №2. – 52-м.



Unga asosan, atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi bo‘lib, u umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Mazkur qonunning 3-moddasiga muvofiq, atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- atmosfera havosining tabiiy tarkibini saqlash;
- atmosfera havosiga zararli kimyoviy, fizikaviy, biologik va boshqa xil ta‘sir ko‘rsatilishining oldini olish hamda kamaytirish;
- davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish nazarda tutiladi.

Yuqorida nomi zikr etilgan qonunning 4-moddasiga ko‘ra, fuqarolar hayot va sog‘lik uchun qulay atmosfera havosiga ega bo‘lish, atmosfera havosining holati hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida o‘z vaqtida va ishonchli axborot olish, atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlar chiqarilishi hamda fizikaviy omillarning atmosferaga zararli ta‘sir ko‘rsatishi orqali o‘zlarining salomatligi hamda mulkiga ziyon yetkazilgan hollarda zararni undirib olish huquqiga egadirlar. Fuqarolar atmosfera havosini avaylashlari, uning ifloslanishiga, kamayishiga va unga fizikaviy omillar zararli ta‘sir etishiga olib keluvchi harakatlarni qilmasliklari shart. Albatta, bu tadbirlar barcha tabiat boyliklari qatori, atmosfera havosidan oqilona foydalanish, uni ifloslanishdan saqlash uchun asosiy huquqiy tadbirlardir.

Ekologik muammo naqadar dolzarb ekanligi bois atmosfera havosini huquqiy muhofaza qilish, uning ifloslanishiga qarshi chora-tadbirlar belgilash, musaffoligini ta‘minlash masalasi «O‘zbekiston Respublikasidagi korxonalar to‘g‘risida»gi qonunning 12-moddasida o‘z aksini topgan. Unda barcha korxonalar havoga zaharli gazlar, chiqindilar, tutunlar va ximiyaviy moddalar chiqarganliklari uchun qonun oldida javobgarligi belgilangan.

Demak, «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunning 17-moddasi talablarini, ya‘ni atmosfera havosiga zararli ta‘sir ko‘rsatuvchi transport vositalari va boshqa qatnov vositalari hamda qurilmalarni ta‘mirleydigan va ularga texnik xizmat ko‘rsatadigan korxonalar va tashkilotlar ishlatilgan gazlardagi ifloslantiruvchi moddalar miqdori-

ning hamda ular fizikaviy omillari zararli ta'sir ko'rsatishining normativlarga muvofiqligini tekshirish va tartibga solib turishni ta'minlashiga oid vazifalarini ham o'z vaqtida bajarishlari lozim.

Atmosfera havosidan foydalanuvchi barcha yuridik va jismoniy shaxslar o'z vaqtida atmosfera havosini muhofaza qilishi va davlat standarti talabi asosida foydalanishlari shart va zarur. Shuning uchun ham «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunga asosan bir qator majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishlari lozim.

Ushbu qonunning 24-moddasiga asosan, barcha korxonalar, muassasa va tashkilotlarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari quyidagilardan iboratdir. Unga ko'ra:

- faoliyati atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlar, issiqxona gazlari va ozonni buzuvchi moddalar chiqarish;

- atmosferaga chiqarilgan chiqindilarni tozalash va zararli fizikaviy ta'sirni kamaytirish uchun inshootlar, asbob-uskunalar va apparaturalardan, shuningdek, ular ustidan nazorat qilish vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish;

- xo'jalik obyektlari tevaragida sanitariya-muhofaza zonalarini barpo etish;

- chiqindilar chiqarishni hamda zararli fizikaviy ta'sirni kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rish;

- chiqariladigan chiqindilar hamda fizikaviy omillar zararli ta'sirining yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlariga rioya qilish ustidan nazorat o'rnatish, ularning hisobini yuritish va belgilangan tartibda statistika hisobotini taqdim etish;

- energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, yoqilg'i-energetika resurslarini tejash, ekologik jihatdan toza energiya manbalaridan foydalanish chora-tadbirlarini ko'rish;

- meteorologiya sharoitlari noqulay kelishi kutilayotganligi munosabati bilan atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlar chiqarishni kamaytirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan kelishilgan holda chora-tadbirlar ko'rish;

- korxonalar va transport kommunikatsiyalarining ta'sir doirasida atrof-muhitga hamda aholi salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatilishini baholash;

- kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar hamda bug'lanuvchi birikmalarni saqlash, foydalanish va ulardan bo'shagan idishlarni zararsizlantirish shartlariga rioya qilish;

– atmosferaga birvarakayiga yoki avariya tufayli chiqindilar chiqishi, yashirin xavfli vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish, shuningdek, atmosfera havosining chegaralararo ifloslanishini kamaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

– chiqindilarni yo‘q qilishni ta‘minlash hamda ular to‘planib qolganda va qayta ishlanayotganda atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish chora-tadbirlarini ko‘rish.

Atmosfera havosini muhofaza qilish chora-tadbirlarini bajarish tuproq, suv va atrof tabiiy muhitning boshqa obyektlari ifloslanishiga olib kelmasligi lozim.

Mazkur qonunga asosan, atmosfera havosiga zararli ta‘sir ko‘rsatganlik uchun ma‘lum to‘lov to‘lash tartibiga ham rioya qilish talab etiladi.

Ushbu qonunning 25-moddasiga asosan, atmosfera havosiga zararli ta‘sir ko‘rsatganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartib va miqdorda undirib olinadi.

Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalarni va biologik organizmlarni chiqarganlik, unga fizikaviy omillarning zararli ta‘sir ko‘rsatganligi hamda atmosfera havosidan foydalanganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari to‘lash korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni havoni muhofaza qilish chora-tadbirlarini bajarishdan va yetkazilgan zararni qoplash majburiyatidan ozod etmaydi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat hisobini yuritish tartibini aniq belgilash ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, qonunda o‘z aksini topgan.

Quyidagilar davlat tomonidan hisobga olinishi zarur:

– atmosfera havosining holatiga zararli ta‘sir ko‘rsatayotgan yoki zararli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan obyektlar;

– foydalanilayotgan atmosfera havosining hajmlari;

– atmosfera havosiga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar, biologik organizmlar, issiqxona gazlari va ozonni buzuvchi moddalarning turlari va miqdori;

– atmosfera havosiga fizikaviy omillar ko‘rsatadigan zararli ta‘sirning turlari va hajmlari.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yagona tizim bo‘yicha amalga oshiriladi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat etish tartibi mamlakatimizdagi atmosfera havosiga oqilona

munosabatda bo'lish hamda uni huquqiy muhofaza qilishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunining II bo'lim 7-moddasidan 11-moddasigacha «Davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining tabiatni muhofaza etishga taalluqli huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari» aniq ko'rsatilgan.

Mazkur qonunda ifoda etilgan barcha organlarning vakolatlari bevosita atmosfera havosini muhofaza qilish masalasiga ham tegishlidir.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorat etish tartibi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi<sup>1</sup> qonunida o'z aksini topgan.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi katta ahamiyatga ega bo'lib, mazkur qonunning 5-moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari amalga oshiradilar.

Respublikamizda atmosfera havosidan foydalanish talab darajasida emas. Har yili havoga 4 million tonnagacha zararli moddalar tarqalmoqda. Shuning uchun ham atmosfera havosidan foydalanish va ungan bo'lgan munosabatni qattiq nazorat qilish lozim.

O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksini 4-moddasiga asosan, «Samoviy hududdan foydalanish to'g'risidagi Nizomga muvofiq samoviy hududdan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi va nazoratini olib borish O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi zimmasiga yuklatiladi. Fuqaro va eksperimental aviatsiya faoliyati sohasidagi boshqaruv va nazoratni O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma'muriyati amalga oshiradi.

Davlat aviatsiyasi faoliyati sohasidagi boshqaruv va nazoratni o'z vakolatlari doirasida Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning qaroriga muvofiq davlat boshqaruvining boshqa organlari amalga oshiradilar».

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuniga asosan yuqorida

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1997. – №2. – 52-м.

ko'rsatib o'tilgan tashkilotlarning respublika qo'mitalari tomonidan boshqarilib, nazorat etiladi.

Shuningdek, «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunga binoan, atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini olib borish masalasiga ham alohida e'tibor berilgan. Mazkur qonunning 28-moddasiga asosan, atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan, shuningdek, maxsus vakolat berilgan davlat organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan nazorat qilish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir.

Atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazorati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Atmosfera havosining holatini kuzatish, axborot to'plash, umumlashtirish, tahlil etish va istiqbolini belgilash atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi yagona tizimi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ana shunday qonun va huquqiy normalar mavjud bo'la turib ham atmosfera havosini muhofaza qilish ishida ayrim muammolar ham yo'q emas.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi standartlar haqidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida olish atmosfera havosini muhofaza qilishni ta'minlaydi.

«Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 6-moddasiga ko'ra, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi standartlar atmosfera havosini muhofaza qilish tartibini, uning holati ustidan nazorat usullarini aniqlab beradi, atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha o'zga talablarni belgilaydi.

Inson uchun atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi standartlar (sanitariya normalari) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Atrof tabiiy muhit obyektlari uchun atmosfera havosini muhofaza qilish, iqlimni va ozon qatlamini saqlash sohasidagi standartlar O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, atmosfera havosini muhofaza qilish uchun Tabiatni muhofaza qilish respublika va viloyat qo'mitalari olg'a qadam tashlab, aniq fikrni aytmoqlari lozim. Albatta, buni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni asosiy manba bo'ladi.

Hozirgi paytda bu masalada xorijiy mamlakatlar tajribasidan kengroq foydalanish zarur. U yerlarda ishlab chiqarish xarakteri bilan bog'liq bo'lgan har qanday xususiy mulkchilik tashabbusi ham jiddiy ekologik ekspertizadan o'tadi.

Bundan tashqari, AQSh, Angliya, Germaniyada shunday jazo choralari mavjudki, agar ma'lum korxonalar (zavod) atrof-muhitni nazorat qiladigan vazirlik yoki idoraning ko'rsatmasiga bo'ysunmasa, bu korxonalar batamom tugatiladi. Shunday ekan, biz havoning tozaligini ta'minlash uchun bor imkoniyatlarni qo'llab, nazoratni kuchaytirishimiz lozim.

Bugungi kunda atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishi eng muhim masalalardan biridir. 1979-yilda qabul qilingan BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YEIK) ning Atmosfera havosining uzoq masofalarda transchegaraviy ifloslanishi to'g'risidagi konvensiyasi atmosfera havosini ifloslantirish bilan kurashishda hamkorlikdagi harakatlar uchun asos yaratdi. Konvensiya atmosfera havosini ifloslantirish va uning mintaqaviy darajadagi oqibatlarini o'rganish va monitoringi hamda chiqindilarni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish sohasida harakatlarni birlashtirishni ta'minlovchi asosiy xalqaro kelishuvlardan biri hisoblanadi.

Mazkur hujjat majburiy yuridik kuchga ega bo'lgan protokollarni ishlab chiqish yo'li bilan aniq ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishni cheklash bo'yicha asos yaratdi. 1984-yildan to hozirgi davrga qadar bu borada sakkizta protokol qabul qilindi. Ular oltingugurt (oltingugurt dioksidi), azot oksidlari, uchuvchan organik birikmalar (UOB) og'ir metallar va barqaror organik ifloslantiruvchi (BOI) chiqindilar va transchegara oqimlarini qisqartirishga qaratilgan. Hali kuchga kirmagan protokol oksidlash, evtrofikatsiya va yer yuzi ozoni hosil bo'lishini keltirib chiqaruvchi oltingugurt dioksidi, azot oksidlari, ammiak va UOB chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan.

Uchuvchan organik birikmalar (UOB) to'g'risidagi Protokol (Jeneva, 1991) antropogen kelib chiquvchi UOB chiqindilarining 30%ga kamaytirilishini talab etadi. Troposfera ozoni miqdorini boshqarish hududlarida chiqindilar 1988-yil darajasidan ortmasligi kerak.

Ma'lumotlarni tahlil qilish avtomobil benzinini ishlab chiqarishda, simob chiqindilarini kamaytirish bo'yicha maqsadga muvofiq ishlar

bajarilayotganligini ko'rsatadi. Simob chiqindilarini kamaytirish maqsadida 2000-yil 23-oktabrda 405-sonli «Tarkibida simob bo'lgan lampalar va asboblardan foydalanish va zararsizlantirish bo'yicha korxonalar faoliyatini tartibga solish to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan. Boshqa metallar chiqindilarini kamaytirishga ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, chang tozalash zamonaviy tizimlarini o'rnatish hisobiga erishilmoqda.

Protokolga respublikaning qo'shilishi masalasini tayyorlash uchun birinchi navbatda har bir iqtisodiyot sektori bo'yicha chiqindilar milliy kadastrini qayta ko'rib chiqish, og'ir metall chiqindi manbalarini aniqlash va qo'llanilayotgan texnologiya hamda nazorat choralari samaradorligini baholashga kirishish kerak.

Barqaror organik ifloslantiruvchilar (BOI) bo'yicha Protokol (Orxus, 1998) atrof-muhitga BOI chiqindilarni tashlash, keltirish va ajratib chiqarishni cheklash, qisqartirish yoki to'xtatishni talab etadi. Protokol tomondan 16 modda, shu jumladan, 11 ta pestitsidlar, ikkita sanoat kimyoviy moddalari va uchta qo'shimcha ifloslantiruvchilar belgilangan, ba'zi pestitsidlarni ishlab chiqarish va foydalanish mutlaqo taqiqlangan (aldrin, xloridan, xlordekon, dildrin, endrin, geksabromdifenil, mireks va toksafenlar). Ikkinchi bosqichda yo'qotilishi lozim bo'lganlar: DDT, geptaxlor, geksa-xlorbenzol (GXB), polixlordifenillar (PXD). Protokol DDT, geksa-xlorbenzol (GXB), polixlordifenillar (PXD) shu jumladan lindan va PXDlardan foydalanishni qat'iy cheklaydi. Protokolda yangi va mavjud statsionar (turg'un) manbalarga chiqindilarning cheklangan miqdorini qo'llash uchun muddatlar belgilanadi va ularda maxsus tozalash qurilmalarini o'rnatish tavsiya etiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida o'simliklarni himoyalash, kimyoviy vositalar ishlab chiqarish, eksport va importni boshqarish bo'yicha qonunchilik va me'yoriy bazalar yaratilgan, ba'zi kimyoviy birikmalardan foydalanish taqiqlangan. Misol uchun 6 ta pestitsidlar – DDT, aldrin, xloridan, dildrin, endrin, geltaxlor Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat kimyo komissiyasining 2003-yil 28-martda qabul qilingan qarori bilan taqiqlangan.

### **3-§. Yer osti boyliklari va atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Har qanday holatda yer osti boyliklari to'g'risidagi qonun hujjatlarini hamda foydalanish va muhofaza qilish qoidalarini buzganlik uchun ma'lum javobgarliklar belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi qonunning V bo‘limi yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalariga doir nizolarni ko‘rib chiqish hamda yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalariga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalariga doir nizolar qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Zero, yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini hamda talablarini buzganlik uchun *intizomiy, ma‘muriy, fuqarolik (mulkiy) va jinoiy javobgarliklar* qo‘llaniladi.

*Intizomiy javobgarlik* – bu fuqarolarni tarbiyalash va ilk dastlabki qilingan nojo‘ya, qonunga xilof harakatlarning oldini olish, uni sodir etganlik uchun dastlabki chora hisoblanadi. Yer osti boyliklari haqidagi qonun va ekologik talablarni buzish holatlari mehnat talablariga xilof bo‘lganda bu chora bevosita korxonaga, muassasa, tashkilot rahbari tomonidan qo‘llaniladi. Bunda xodimning bevosita shu korxonaga, muassasa, tashkilotning ichki tartib-qoidalariga to‘la amal qilib, mehnat intizomini buzmasdan, unga aniq rioya qilishi talab etiladi. Agar ishchi yoki xizmatchi yer osti boyliklarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunni aniq bajarmasa yoki uning ekologik me‘yorlarini buzsa, aksincha uni bajarilish yoki saqlash bilan bog‘liq burchiga sovuqqonlik bilan yondashsa yoki o‘z burchini bajarmasa intizomiy javobgarlikka tortiladi.

Shuningdek, bu chora yer osti boyliklarini qazish, davlatga oltin va boshqa qimmatbaho metall hamda toshlarni topshirish bilan bog‘liq qoidalar buzilganda, bu nojo‘ya harakatlar bevosita ish jarayonida amalga oshirish va bajarish bilan bog‘liq bo‘lganda hamda boshqa ekologik talablar buzilganda rahbar tomonidan qo‘llaniladi.

«Yer osti boyliklari to‘g‘risidagi» qonun hujjatlari va ekologik talablarni buzganlik uchun *ma‘muriy-huquqiy javobgarlik* O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda o‘z ifodasini topgan.

Jumladan, ushbu kodeksning 70-moddasiga ko‘ra, foydali qazilmalar joylashgan maydonlarda o‘zboshimchalik bilan imoratlar qurish, foydali qazilma konlarini tabiatni muhofaza qilish va kon nazorati organlari bilan kelishmay turib ishga solish, yer osti boyliklaridan foydalanish talablarini buzish, yer osti boyliklarini muhofaza qilish qoidalarini va tabiiy muhitni, binolar va inshootlarni yer osti boyliklaridan



foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarning zararli ta‘siridan muhofaza qilish talablarini bajarmaslik, yer osti suvlari rejimini kuzatish uchun qazilgan quduqlarni, marksheyderlik va geologik belgilarni yo‘q qilish yoki shikastlantirish, xuddi shuningdek yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar tomonidan umumtarqalgan foydali qazilmalardan foydalanish qoidalarining buzilishi, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Konlarning boy uchastkalarini tanlab ishlatish, mineral xom ashyoni qazib olayotganda va qayta ishlashda foydali qazilmalarni normativdan ortiq nobud qilish, foydali qazilma konlarini yaroqsiz holga keltirish va foydali qazilma zaxiralaridan oqilona foydalanish talablarini boshqacha tarzda buzish – mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Marksheyderlik hujjatlarini yo‘qotish, tugatilayotgan yoki konservatsiya qilinayotgan konlarni va burg‘ilangan quduqlarni aholining xavfsizligini ta‘minlovchi holatga keltirib qo‘yish talablarini, shuningdek konservatsiya vaqtida konlarni, qazilayotgan joylarni va burg‘ilangan quduqlarni muhofaza etish talablarini bajarmaslik – mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha bo‘lgan miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning birinchi, ikkinchi yoki uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa – fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha bo‘lgan miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 71-moddasiga muvofiq, yer osti boyliklarini geologik jihatdan o‘rganish ishlarini olib borish qoidalarini va talablarini topilgan foydali qazilmalar zaxiralariga yoki foydali qazilmalar qazib olish korxonalarini, shuningdek foydali qazilmalar qazib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yer osti inshootlari qurish va ulardan foydalanish sharoitlariga noto‘g‘ri baho berilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan tarzda buzish, yer osti boyliklarini keyingi geologik jihatdan o‘rganishda va konlarni ishga solishda zarur bo‘lgan geologik hujjatlarni, foydali qazilma namunalari dublikatlarini va kernlarini yo‘qotib qo‘yish – mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha bo‘lgan miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa – eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi.

Tabiiy muhitni tiklash, tabiiy zaxirlarni qayta hosil qilish va tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatish oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rmaganlik – fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi. (O'zbekiston Respublikasining MJTKni 95-m).

Shuningdek, mazkur kodeksning 97-moddasiga asosan, sanoatda hamda O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi organlari nazorati ostidagi boshqa obyektlarda ishlarni bexatar olib borishga oid qoidalar, normalar va yo'riqnomalarni buzish – fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, -

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu qonunda boshqa holatlar uchun, jumladan, sanoatda hamda O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi organlari nazorati ostidagi boshqa obyektlarda portlovchi hamda radioaktiv materiallarni (manbalarni) hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanish qoidalarini, normalari hamda yo'riqnomalarini buzish – fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi (O'zbekiston Respublikasining MJTKni 98-m).

*Fuqarolik huquqiy javobgarlik* – yer osti boyliklarini huquqiy muhofaza qilishda ushbu javobgarlikning ta'siri katta. Bu javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 479-moddasi lga binoan «... yetkazilgan zarar, to‘la miqdorda zarar yetkazgan shaxs tomonidan to‘lanishi lozim. Zarar yetkazgan shaxs, bu zararining o‘z aybi bilan yetkazilmaganligini isbotlasa, zararni to‘lashdan ozod qilinadi.

Agar korxonalar, muassasalar, tashkilot xodimlari yer osti boyliklarini qazib olayotgan yoki boshqa ta‘mirlash ishlarini olib borayotganda, ya‘ni mehnat burchlarini bajarib turgan vaqtlarida, ularning aybi bilan yetkazilgan zararni to‘lashga majbur bo‘ladilar. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini 480-moddasida ushbu talablar aniq va ravshan ifoda etilgan.

Umuman olganda, fuqarolik javobgarligining mohiyati shundan iboratki, yer osti boyliklariga, ularning sifat va samaradorligiga, ekologik holatiga yetkazilgan zararni, har qanday holatda Fuqarolik qonunlariga asosan javobgarlikning mohiyatini belgilaydi.

*Jinoiy huquqiy javobgarlik* – O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksiga asosan amalga oshiriladi. Jinoyat kodeksining 197-moddasiga asosan, yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, –

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi, deb ko‘rsatilgan.

Umuman olganda, yer osti boyliklarida ishlash qoidalarini buzish quyidagi harakatlarda ifodalanadi va yuqorida ko‘rsatilgan ma‘lum javobgarliklarga sabab bo‘ladi:

a) yer osti boyliklarini o‘zaro shartnoma ruxsati yoki maxsus ruxsat etuvchi guvohnomasi bo‘lmagan shaxs tomonidan o‘zboshimchalik bilan ishlash. Bunday shaxslarga qalbaki guvohnomasi bo‘lgan shaxslar, guvohnomasining muddati o‘tib ketgan shaxslar, yoki g‘ayriqonuniy tarzda guvohnoma olgan shaxslar ham kiradilar;

b) maxsus ruxsatnomasi bor oltin izlovchi shaxslarning o‘zlariga biriktirilmagan hududlarda yer osti boyliklarini izlashlari;

v) oltin izlovchi artellarning a‘zolari tomonidan o‘zlariga tegishli bo‘lmagan hududlarda yer osti boyliklarini izlashlari;

g) xususiy shaxslar hamda maxsus ruxsatnomasi bor oltin izlovchi shaxslar tomonidan o‘lja qilish maqsadida yer osti boyliklariga ishlov berish qat’iy taqiqlanadi;

d) yer osti boyliklarida ishlash qoidalarini buzish xarakterlari o‘zi tugallangan jinoyatni bildiradi;

ye) xususiy shaxslar tomonidan qazilma boyliklari topilganda yashirib qolish va o'zlashtirish, boshqa oltin qidiruvchilar arteliga yoki boshqa shaxslarga topshirish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuniga asosan va «O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi»ni 93-moddasida atmosfera havosini muhofaza qilish haqidagi qonunlarni va ekologik talablarni buzganlik hamda unga amal qilmaslik uchun ma'muriy, jinoiy javobgarliklar belgilangan. Albatta, qonunda (ustavga muvofiq) atmosfera havosi haqidagi qonunlarni buzganlik uchun intizomiy va fuqarolik javobgarliklari ham mavjud.

Jumladan, «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan qonunning 29-moddasiga asosan, atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zarar o'rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplashlari shart. Zarar o'rnini qoplash aybdorlarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishdan ozod etmaydi

*Intizomiy-huquqiy javobgarlik.* Ushbu javobgarlik ishchi va xizmatchilarni, mansabdor shaxslarni mehnat qilish jarayonida bajarish kerak bo'lgan majburiyatlarini bajarmaslik, qabul qilingan farmon, qarorlar, buyruq va ko'rsatmalarga amal qilmaslikdan kelib chiqadi.

Intizomiy javobgarlik, asosan, atmosfera havosini muhofaza qilish haqidagi huquqiy normalarni bajarmaganlik uchun korxonalar, muassasalar va tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi.

Atmosfera havosi haqidagi qonunlarni buzganlik uchun intizomiy javobgarlik u sodir etilib aniqlangandan keyin 1 oy ichida qo'llanishi lozim. Agar ishchi, xizmatchi kasal yoki dam olishda bo'lsa, bu vaqt hisobga kirmaydi.

Intizomiy javobgarlikka tortilgan fuqaro berilgan jazodan norozi bo'lsa, u 1 hafta ichida sudga yoki boshqa «Mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi komissiya»ga murojaat qilishi mumkin.

Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun, tabiatni muhofaza qilish qoidalariga e'tibor bermaganlik va ularni bajarmaganlik uchun, tegishli reja va tadbirlarni amalga oshirmaganlik uchun korxonalar, muassasalar yoki tashkilot rahbari mukofotdan to'liq yoki qisman mahrum etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 181-moddasida intizomiy jazoning aniq turlari ko‘rsatilgan bo‘lib, xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarini qo‘llashga haqli:

1) hayfsan;

2) o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o‘rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish Mehnat kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3 va 4-bandlari).

Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo‘llash taqiqlanadi.

Xususan, xodimga nisbatan intizomiy jazo qo‘llashda huquqbuzarlik motivi, u qay vaziyatda sodir etilganligi, xodimning oldingi ish joyi va nihoyat, ekologik huquqbuzarlik sodir etish vaqtidagi ruhiy holatini hisobga olish zarurdir.

Shunisi e‘tiborliki, mazkur masala yuzasidan intizomiy jazo berilgani to‘g‘risidagi buyruq (farmoyish) yoki qaror xodimga ma‘lum qilinib, tilxat olinadi.

*Fuqarolik-huquqiy javobgarlik.* Mazkur javobgarlik, atrof-muhitni ifloslantirganlik, atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun va talablarni buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi1ga asosan belgilanadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik intizomiy javobgarlik asoslari bilan biroz bog‘liq va o‘xshash. Shuning uchun ham fuqarolik javobgarligi mehnat intizomi va uni vijdonan bajarish majburiyatining buzilishi, tegishli shartnomalarni o‘z vaqtida bajarmaslik, bitimlarning amalga oshirilish holatlariga e‘tibor bermaganlik oqibatida yetkazilgan zarar, shuningdek, ekologik talablarga rioya etmaslik va ekologik qonunlarni buzish oqibatida vujudga keladi.

Bunda asosiy talab yetkazilgan ekologik zarar qoplanishi va to‘lanishi lozim bo‘ladi. Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun va talablarni buzganlik uchun yetkazilgan zararni to‘latish tartibi xo‘jalik sudlariga da’vo arizasi berish bilan bog‘liq bo‘ladi va ular tomonidan hal etiladi.

O‘zbekiston hududida sanitariya qoidalarini qo‘pol ravishda buzib, havoni, suvni va boshqa tabiat boyliklarini ifloslantirsa hamda zarar yet-

kazsa, O‘zbekiston Respublikasi «Davlat Sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan qonun hamda O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablari asosida javobgarlik belgilanib, amaldagi qonunlar bilan tartibga solinadi.

*Ma‘muriy-huquqiy javobgarlik.* Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun va talablarni buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlik, O‘zbekiston Respublikasining «Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida»gi kodeksida<sup>1</sup> ko‘rsatilgan. Ushbu qonunda atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan 85-88-moddalarda aniq ma‘muriy javobgarlik hollari ko‘rsatilgan.

Mazkur ekologik huquqbuzarlikning obyekti atrof-muhit, ifloslantirayotgan obyektlar yoki asosan atmosfera havosi hisoblanadi. Subyekti esa korxonalar, muassasa, tashkilotlar yoki yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lishlari mumkin.

Mazkur huquqbuzarliklarni sodir etgan ushbu sohadagi yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan quyidagi turdagi mamuriy jazo ko‘llaniladi:

- 1) jarima;
- 2) ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni musodara qilish;
- 3) ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoning haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish;
- 4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (*transport vositasini boshqarish va ov qilish huquqlaridan*) mahrum etish;
- 5) ma‘muriy qamoqqa olish.

O‘zbekiston Respublikasi «Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi» kodeksning 85-moddasida ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarni atmosfera havosiga chiqarib tashlash, unga zararli fizikaviy ta‘sir ko‘rsatish yoki atmosfera havosidan belgilangan talablarni buzgan holda foydalanish, 86-moddasida atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootidan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek undan foydalanmaslik, 87-moddasida chiqindilarda ifloslantiruvchi moddalar normativdan ortiq bo‘lgan transport va boshqa harakatlanuvchi vositalar va qurilmalarni tayyorlash hamda foydalanishga chiqarish, 88-moddasida atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik uchun ham javobgarliklar ko‘rsatilgan.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. – Т., 2010.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarni buzganlik uchun fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

*Jinoiy-huquqiy javobgarlik.* O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi<sup>1</sup>ning atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bog'liq 2-moddasida sodir etilgan jinoiy huquqbuzarlik uchun jazo tizimi ko'rsatilgan.

Atrof tabiiy muhit (atmosfera havosini)ning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish uchun ham jinoiy javobgarlik ko'rsatilgan.

Jumladan, Jinoyat kodeksining 194-moddasiga asosan, maxsus vakolatga ega mansabdor shaxslar tomonidan zararli ekologik oqibatlarni keltirib chiqargan halokatlar yoki atrof tabiiy muhitning radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriyaviy ifloslanganligi yoxud odam hayoti yoki sog'lig'i, tirik tabiat uchun xavfli bo'lgan boshqacha tarzda ifloslanganligi haqidagi yoxud aholi salomatligining holatiga doir ma'lumotlarni qasddan yashirilishi yoki buzib taqdim etilishi aholining ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, –

eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, –

uch oydan olti oygacha qamoq yoki muayyan huquqdan mahrum qilib uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan ikkinchi jinoiyat turi bu, atrof-tabiiy muhitni, jumladan, atmosfera havosini ifloslantirganlik uchun jazo chorasini ko'rsatilishidir.

Ushbu masala Jinoyat kodeksini 196-moddasi quyidagicha o'z ifodasini topgan. Ushbu moddaga asosan, yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, –

eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2013.

O'sha qilmishlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, –  
uch oydan olti oygacha qamoq yoki muayyan huquqdan mahrum  
qilib, uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

#### **4-§. Yer osti boyliklari va atmosfera havosini ekologik-huquqiy muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va vazifalari**

Yer osti boyliklari va atmosfera havosini ekologik-huquqiy muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

Prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi va «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunlarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, ma'muriy va jinoiy ishlarni qo'zg'atadi, bu resurslarga yetkazilgan zararni qoplash da'vosini qo'zg'atadi.

Bojxona organlari «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi va «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunlarning ijrosi ta'minlab, davlat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza etish chora-tadbirlarining amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

Ichki ishlar organlarining yer osti boyliklari va atmosfera havosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish faoliyati alohida o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni 18-moddasi «Yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan foydalanish shartlari»ga bag'ishlangan.

Zero, ichki ishlar organlari ushbu talabni amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etib, yer osti boyliklaridan oqilona foydalanishni, ularni muhofaza qilishni, atrof tabiiy muhit va yer osti boyliklarining ifloslanishini oldini oladilar, ayniqsa, foydali qazilmalardan o'zboshimchalik bilan foydalanish, qazib olish hollariga ham chek qo'yish mumkin.

Yer osti boyliklarini ekologik-huquqiy muhofaza qilishda barcha profilaktika inspektorlari (ayniqsa, foydali qazilmalar mavjud joydagi profilaktika inspektorlari), DYHXX, yong'indan saqlash bo'limi, qo'riqlash xizmatlarining mas'uliyati katta bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha vazirlik va qo'mitalar qatori IIV ham atrof-muhit muhofazasi va tabiiy manbalardan foydalanish, ularni muhofaza qilishda bir qator ishlarni amalga oshiradi.



Atmosfera havosini ifloslantirish ko'proq transport vositalari faoliyati bilan bog'liq bo'lgani uchun atmosfera havosini muhofaza qilish asosan yo'l harakati xavfsizlik xizmati xodimlari zimmasiga tushadi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 14-noyabrda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi davlat avtomobil nazorati xodimlarining mas'uliyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori katta ahamiyatga ega.

Mazkur qaror DYHXX atmosfera havosini muhofaza qilishda alohida e'tibor berish, ularning huquqiy-ekologik madaniyati va ma'naviyati yuqori bo'lishi hamda o'z kasbini sevab, ardoqlashiga alohida e'tibor qaratdi.

Demak, DYHXX xodimlari O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilayotgan va foydalanilayotgan harakatdagi manbalar uchun quyidagi GOSTlardan foydalanishni nazorat qilishlari lozim:

- temir yo'l transporti bo'yicha 24028-80, 24585-81, 30574-98;
- avtomobil transporti va qishloq xo'jalik mashinalari bo'yicha 17.2.2.03-87; 21393-75; 17.2.2.02-98, 23734-98, 17.2.2.01-84, 17.2.2.02-86, 17-2.2.04-86.
- aviatsiya transporti uchun 17.2.2.04-86.

Shunisi e'tiborliki, RD 118.0027714.32-93-sonli «Atmosferaga zararli moddalar chiqarish uchun ruxsatnomalar berish tartibi» me'yoriy hujjatga asosan korxonalar va tashkilotlarga qo'zg'almas manbalardan chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar uchun Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan PDV me'yoriy loyihasiga muvofiq ruxsatnoma beriladi.

Respublikamiz hududiga transport va harakatlanuvchi vositalarni olib ketish va olib kelinishini nazorat qilish DYHXX vakolati doirasiga kiradi.

DYHXX avtomobil dvigatellaridan chiqayotgan ishlatilgan gazlar zaharliligini (tutun miqdorini), nazorat-o'lchov va boshqa ishlarini amalga oshiradilar. DYHXX xodimlari tomonidan o'tkaziladigan «Toza havo» tadbirini har doim o'tkazish atmosfera havosini muhofaza qilishga yordam beradi.

Xullas, ichki ishlar organlari tizimida atmosfera havosini muhofaza qilishda faqat DYHXX xodimlari emas, balki yong'inga qarshi kurashuvchi bo'lim, qo'riqlash bo'limlari, profilaktika inspektorlari ham tegishli yordam ko'rsatishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda ekologik barqarorlikni ta'minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ham hissalarini salmoqli bo'layotir.

### ***Nazorat uchun savol va topshiriqlar:***

- 1. Yer osti boyliklaridan foydalanish va uni ekologik muhofaza qilishning hozirgi ahvoli qanday?*
- 2. Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qanday talablar mavjud?*
- 3. Yer osti boyliklari sohasida davlat boshqaruvi organlarining qanday vakolatlari mavjud?*
- 4. Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?*
- 5. Amaldagi qonunchilikka asosan yer osti boyliklari to'g'risidagi va atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun talablarini buzganlik uchun qanday javobgarliklar mavjud?*
- 6. Atmosfera havosining tirik mavjudot hayotidagi ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?*
- 7. Amaldagi qonunchilikda atmosfera havosini muhofaza qilishning ekologik-huquqiy tadbirlari qanday ko'rsatilgan?*
- 8. Qonunchilikda atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi asosiy majburiyatlar qay darajada o'z aksini topgan?*
- 9. Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi deganda nimalarni tushunasiz?*
- 10. Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat nazoratini olib borish tartibi qanday?*
- 11. Hozirgi paytda atmosfera havosining transchegaraviy ifloslanishi holatini qanday baholaysiz va bu borada muammolar mavjudmi?*
- 12. Atmosfera havosini muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi hamda ozon qatlami buzilishining oldini olish haqida qanday xalqaro konvensiyalar mavjud?*

---

---

*Yettinchi bob*

**O‘SIMLIKLAR DUNYOSI VA O‘RMON BOYLIKLARINI MUHOFAZA  
QILISH HAMDA ULARDAN FOYDALANISHNING  
EKOLOGIK-HUQUQIY TARTIBI**

**1-§. «O‘simlik dunyosi va o‘rmon boyliklarini ekologik muhofaza  
qilish va ulardan foydalanishning ekologik huquqiy tartibi»  
tushunchasi va xususiyatlari**

Yer yuzida inson paydo bo‘lgandan beri millionlab yillar o‘tganligi ma’lum. Shundan buyon u o‘zini qurshab turgan tabiat bilan, atrof-muhit bilan, eng birinchi navbatda nabotot dunyosi bilan aloqada bo‘lib kelgan.

O‘simliklar yer yuzida odamning paydo bo‘lishi va turmush kechirishi uchun zarur bo‘lgan hamma sharoitlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Ular dastlabki odamlarning asosiy ovqati bo‘lgan, hozirgi kunda ham ularsiz kun kechirib bo‘lmaydi. O‘simliklardan oziq-ovqat, sanoat, tibbiyot, chorvachilik va boshqa ko‘pgina sohalarda foydalanilmoqda.

O‘simliklarning inson hayotidagi ahamiyati faqat shu bilan chegaralanmaydi. Ular normal biologik aylanishni ta’minlaydi va havoni kislorod bilan boyitadi. Ayni paytda mikroiklimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, issiqlik balansining shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Havoning namligini oshiradi, zararli moddalarning muayyan qismini yutadi. O‘simliklar eroziya va changga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning rekreatsiya ahamiyatini ham unutib qo‘ymaslik kerak. Keyingi yillarda insonning dam olish kunlarida shahardan tashqaridagi tabiat bag‘riga chiqishga intilishi, bo‘sh vaqtini tog‘lar, daraxtzorlar va suv havzalari bo‘yida o‘tkazishga ehtiyoj keskin kuchaydi. Biroq, inson har doim tabiatga, atrof-muhitga yaxshi munosabatda bo‘lyaptimi, ularga zarar yetkazmayaptimi? Afsuski, bu savollarga ijobiy javob berish qiyin.

Shuni qayd qilish o‘rinliki, yer yuzining 70 foizini o‘simliklar qoplab olgan. Jami ekiladigan madaniy-o‘simliklar yer yuzining 1,5 milliard gektariga teng bo‘lib, bu esa umumiy maydonning 1/10 miqdori tashkil etadi. Ta’kidlash lozimki, yer sharida 300 ming tur gulli o‘simlik mavjud. MDH davlatlari hududida ularning 21 ming turi, Markaziy Osiyoda 7 ming, respublikamizda 4 mingdan ziyod turi uchraydi.

O‘zbekiston o‘simliklar dunyosining xilma-xilligi, turlarga g‘oyat boyligi va ularning xalq xo‘jaligidagi muhim salmog‘iga ko‘ra o‘ziga

xos o‘ringa ega. So‘nggi yillar botanikada olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, o‘lkada 146 oilaga mansub 4500 ga yaqin yuksak o‘simlik turlari borligi ma‘lum bo‘ldi. Bularning aksariyat qismini qoqidoshlar (600 ga yaqin tur), burchoqdoshlar (450 ga yaqin tur), bug‘doydoshlar (260 ga yaqin tur), karamdoshlar, yalpizdoshlar, shviddoshlar, sho‘radoshlar, loladoshlar, chinniguldoshlar, yoronguldoshlar, govzabondoshlar, ra‘nodoshlar kabi yirik oilalarning vakillari tashkil etadi. O‘zbekiston florasi paydo bo‘lishi, tarqalishi, tur, turkum va oilalarning umumiy o‘xshashligi jihatidan Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalar, Eron, Afg‘oniston o‘simlik qoplamiga juda yaqin turadi.

Shunisi achinarliki, respublikamiz hududidagi 4500 ga yaqin o‘simliklar turlarining 10-12% i muhofazaga muhtoj, lekin bunga qarshi choralar ko‘rilyapti. Respublikada tabiatni muhofaza qilish maqsadida ixota o‘rmonlari bunyod etish davom etmoqda. So‘nggi yillarda esa qurilish materialli sifatida foydalaniluvchi import yog‘ochning keskin kamayishi munosabati bilan terakzorlar bunyod etilmoqda.

Bundan 30-35 yil muqaddam tyokislikdagi daryo va soylarning qirg‘oqlari ancha zich to‘qay va qamishzorlar bilan qoplangan bo‘lib, to‘qaylarda turang‘il, tol, jiyda, yulg‘un kabi daraxt va butalar yayrab o‘sar edi. Keyingi yillarda to‘g‘on, suv omborlari va kanallar qurilishi avj olib, daryo hamda soy suvlarining keskin kamayishi, sizot suvlarining sathi tobora kamayib, ularning minerallasuvi va sho‘rligi ortishi natijasida bu to‘qaylarning katta qismi tugab ketdi. Respublika yaylovlarining hozirgi ahvoli ham ancha tashvishlidir. Bularning asosiy sabablari - yaylovlardan noto‘g‘ri foydalanish, tog‘ oldi va chalacho‘l zonasidagi katta-katta maydonlar asossiz ravishda haydalib, ularga ekinlar ekilganligi, cho‘lda saksovul, tog‘larda archa kabi ko‘plab qimmatbaho daraxt va buta o‘simliklarining ko‘plab kesilib ketganligi, yaylovlarda chorva mollarini boqishda me‘yorlarga amal qilmaslik, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi, cho‘l zonalarida yangi-yangi shahar va yo‘llar qurilib, yangi konlar ishga tushirilib, aholi zichligining tobora ortishidir.

O‘zbekistonning o‘rmon fondi asosan tog‘ o‘rmonlaridan iborat bo‘lib, tabiatni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga egadir. Ular ajoyib tabiiy manzara yaratadi, o‘ziga xos sog‘lom mikroiklim hosil qiladi, suvni tejaydi va tuproqni eroziyadan asraydi, atrof-muhitning sanitariya-gigiyena holatini yaxshilaydi.

O‘zbekiston «Qizil kitobi»ga yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan o‘simliklarning 42 oila, 111 avlodga kiruvchi 301 turi kiritilgan. Bularning ko‘pi qimmatbaho dorivor o‘simliklardir. O‘zbekiston hududida

ma'lum sharoitlardagina uchraydigan, fan olamida endem deb yuritiladigan o'simliklarning 390 turi mavjud bo'lib, ular respublikamizning bebaho milliy boyligi va fahri hisoblanadi.

O'zbekistonning tabiiy florasi yovvoyi mevali, dorivor, texnika, manzarali, efirmoyli va boshqa o'simliklarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu rang-barang yovvoyi o'simliklardan insonlar manfaati yo'lida oqilona foydalanish va ularni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish respublika olimlari va keng jamoatchilik oldidagi eng muhim aktual vazifalardan biridir. Ma'lumki, o'simlikning qimmatini birinchi navbatda uning xususiyatlarini o'rganish tufayli aniqlanadi. O'zbekistonning yovvoyi o'simliklari xom ashyo nuqtai nazaridan hanuzgacha yetarli darajada o'rganilmagan.

Keyingi yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va sanoat qurilishi ishlarining jadal sur'atda ortib borishi tabiatga, shu jumladan o'simliklar dunyosiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, juda kam uchraydigan endem va relik turlar o'sib turgan sharoit o'zgartirilsa, ular tez orada qurib, yer yuzidan butunlay yo'qolib ketishi mumkin. Tabiiy o'simliklardan oziq-ovqat, ziravor, dorivor va xushmanzara o'simlik sifatida oqilona foydalanmaslik oqibatida ularning areallari torayib, zaxiralari esa keskin kamaymoqda, hatto ayrim turlari butunlay yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. Bularga misol tariqasida beh zira, anzur piyozi, lola va shirachlarning ko'pgina turlarini, sallagul va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Respublika hukumati ba'zi bir yovvoyi o'simliklar turlarining yo'qolib ketish xavfini e'tiborga olib, ayrim yovvoyi o'simlik turlarini yig'ishni tartibga solish maqsadida lola turlarining barchasi, za'faronlar, boychechaklar, anzur piyozi va boshqalarni davlat muhofazasiga olish hamda ularni «O'zbekiston Respublikasi qizil kitobi»ga kiritishga qaror qildi. «O'zbekiston Respublikasi qizil kitobi»ga 400 dan ortiq noyob o'simlik turlari kiritilgan.

«O'zbekiston Respublikasi qizil kitobi»ga kiritilgan, muhofazaga muhtoj barcha turlarni tabiatdan yig'ib olish, sotish va pochta orqali boshqa joylarga yuborish qat'iyan man etiladi. Bunday o'simliklarga zarar yetkazgan aybdor shaxslar ma'muriy yo'l bilan yoki qonun asosida jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Atrof-muhitning boshqa manbalari kabi o'simliklar dunyosini muhofaza qilish ham xalq xo'jaligining muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. O'simliklar bizga havoni tozalashda katta yordam beradi. O'z navbatida, biz ham o'simliklarning yaxshi rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Afsuski, hamma ham buni yaxshi tushunib yetmayapti.

Akademik T.Frank «Biz tabiat soʻzini tez-tez takrorlaymizu, ammo bizning oʻzimiz ham uning atigi bir kichik qismi ekanligimizni unutib qoʻyamiz», deb toʻgʻri aytgan edi.

Inson ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida oʻsimliklardan muayyan darajada foydalanadi. Biroq xoʻjalik ahamiyatiga ega boʻlgan oʻsimlik manbalari cheklangan. Mamlakatimizda dorivor oʻsimliklarning taxminan 100-110 turi yigʻib olinadi. Hozirning oʻzidayoq ularning 40 ga yaqin turi muhofaza ostiga olinib, ulardan samarali foydalanish taqozo qilinmoqda. Tabiat biz uchun oʻta mushkul va muhim boʻlgan ishni – yer kurrasida hayotni saqlash imkonini beradigan jarayonlarni vujudga keltiradi. Fan-texnika yutuqlari ana shu beminnat ishni bajara olishi mushkuldir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, inson qanday foydali ishni qilmasin, u avvalo atrof-muhitni saqlashi, undagi muvozanatni buzmasligi toʻgʻrisida qaygʻurishi lozim.

Umuman olganda, shifobaxsh oʻsimliklar dunyosining ilmiy tibbiyotda 300 ga yaqin, xalq tibbiyotida 500 turi, veterinariyada 100 turi ishlatiladi.

Boy flora asosan Markaziy Osiyoda, Kavkazda joylashgan. Oʻzbekistonning boy va turli-tuman oʻsimliklar dunyosi 4148 turdan tashkil topgan, ularning 577 turi shifobaxsh oʻsimlik hisoblanadi, 115 turi ilmiy tibbiyotda ishlatiladi, 47 turi esa Davlat farmokopeyasiga kiritilgan.

Akademik Sobir Yunusov «oʻsimliklarning qoʻliga pasport berish lozim», deb taʼkidlaydi. Yaʼni, ilmiy muassasalar dori yaratish oʻrniga oʻsimliklarni oʻrganib, dorivorligini aniqlab, tavsiyanomalar ishlab chiqishlari kerak. Dori-darmon tayyorlash bilan yagona institut, tashkilot shugʻullansa, maqsadga muvofiq boʻlardi. Bizningcha, dorivor oʻtlarni sanoatbop qilib oʻstiradigan yirik sovxozlar tuzish, yoʻqolib borayotganlarini asrab qolib, koʻpaytirish choralarini koʻrish kun tartibida turgan muhim masalalardan biridir.

Nabotot va shifobaxsh oʻsimliklarning tibbiyotdagi naqadar katta ahamiyati, fuqarolarning salomatligidagi oʻrniga oid hikoyat va hikmatlar toʻplangan holda xalqimizga armugʻon etildi. Bunday adabiyotlar oldin arab, fors, tojik, lotin va boshqa tillarda mavjud boʻlgan. Ushbu kitoblarda koʻplab nodir fikrlar, shifobaxsh oʻsimliklarni qaysi kasalliklarga davo ekanligi va qoʻllanilishi aniq va batafsil koʻrsatilgan.

Biz nabotot olami va shifobaxsh oʻsimliklarni har tomonlama huquqiy ekologik muhofaza qilish uchun quyidagi ekologik tadbirlarni amalga oshirishimiz lozim:

1) respublikamizda oʻrmonlarni kengaytirish, daraxtlar orasida oʻsadigan shifobaxsh oʻsimliklarning barcha turlarini saqlab qolish, ularni koʻpaytirish;

2) barcha joylarda, ayniqsa togʻlarda, choʻl va dalalarda mol boqishni tartibga solish;

3) shifobaxsh oʻsimliklarni huquqiy-ekologik muhofaza qilish, bogʻlarni, qoʻriqxonalarni, aynan tibbiyot maqsadida ishlatish uchun barpo etilgan laboratoriya va ilmiy tekshirish institutlari faoliyatining barcha imkoniyatlarini yanada kuchaytirish;

4) fuqarolar tomonidan aynan shifobaxsh oʻsimliklar bilan savdo-sotiq qilishni nazorat qilish, fuqarolar tomonidan xoʻjasizlarcha foydalanishni tartibga solish;

5) Davlat tabiatni muhofaza qilish qoʻmitasi faoliyatini bu sohadagi barcha tadbiriy ishlarni kuchaytirish;

6) tabiatni muhofaza qilish ishi bilan shugʻullanuvchi jamgʻarmalarning ishlarini yaxshilash va hokazo.

Shuningdek, yoshlarimiz oʻrtasida Oʻzbekiston Respublikasida 1992-yil 9-dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida»<sup>1</sup>gi, 1997-yil 26-dekabrda «Oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish toʻgʻrisida»<sup>2</sup>gi, «Oʻrmon toʻgʻrisida»<sup>3</sup>gi hamda boshqa ekologik qonunlarning mohiyatini kengroq muhokama qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bugungi kundagi dolzarb muammolaridan biridir.

Yuqoridagi ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ekologiya va atrof-muhit masalalari qoʻmitasining ishini yanada kuchaytirish, keng jamoatchilik yordamida ish olib borish, maktab oʻquvchilaridan keng foydalanish ham yaxshi imkon beradi. Shuningdek, shifobaxsh oʻsimliklarni muhofaza qilish qonun-qoidalari yer sathining koʻrinishi, manzarasi, oʻsimliklar dunyosining turli-tumanligi, kam uchraydigan oʻsimliklarni, ekologik tizim va ularning oʻzaro aloqalarini hisobga olgan holda atrof-muhitni muhofaza qiladigan obyektlarni tashkil qilishni koʻzda tutish kerak. Ushbu maqsadda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida»<sup>4</sup>gi qonuni katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, qayerda boʻlsa ham muhofaza etiladigan

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1993. – №1. – 37-м.

<sup>2</sup> Oʻsha manba. – 1998. – №1. – 12-м.

<sup>3</sup> Oʻsha manba. – 1999. – №5. – 122-м.

<sup>4</sup> Oʻsha manba. – 2005. – №1. – 14-м.

joylarda o‘simliklarning barcha turlari ma’lum mutanosiblikda saqlanadi. Hozirgi paytda barcha sohalarda, jumladan o‘simliklar dunyosini huquqiy muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish, ular haqidagi ayrim huquqiy hujjatlarga amal qilish talab darajasida emas.

Bizningcha, bu huquqiy tadbir nafaqat shifobaxsh o‘simliklar, balki barcha o‘simliklarni muhofaza qilish bilan birga, insonlarning sog‘lig‘ini, havoning musaffoligini, o‘rmonlarning boyligini, jonivorlarni ko‘paytirishni, yerning unumdorligini ta’minlaydi.

Xullas, bebaho boylik – nabotot olamini ko‘z qorachig‘idek asraylik, uning boyligiga boylik qo‘shish xususida yakdil bo‘lib, mas’uliyat bilan faoliyat ko‘rsataylik, respublikamizning bir to‘p ham o‘simligi yo‘qolib ketmasin. Birorta ham o‘simlik «Qizil kitob»ga tushmasin!

O‘rmon inson uchun tabiatdagi eng foydali boylik manbai, uning insonga beradigan tuhfalari benihoya katta. U turli-tuman foydali hayvon va parrandalar, yovvoyi meva va zamburug‘lar, qimmatli mo‘ynalar, kasalliklarni davolaydigan o‘t-o‘lanlar armug‘on etadigan hamda suv musaffoligi va toza havoni saqlashda, xalq xo‘jaligini rivojlantirishida ulkan hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, u havo va tuproq haroratini muvozanatga keltirib turadi, dalalarni quruq, issiq shamollardan himoya qilib, tuproq buzilishining oldini oladi.

Qadimgi Rimning mashhur jamoat arbobi Sitseron «o‘rmonlarni yo‘qotuvchi kishilar jamiyatimizning dushmanidir» degan edi. Keyingi paytlarda inson yashash shart-sharoitini yaxshilash uchun o‘rmonlarni hech ayamasdan qirqadigan bo‘ldi. Mana shu tufayli o‘rmonlarning bir qismi kesilib, 2 ming yil ichida 0,5 mlrd gektar yerda o‘rmon o‘rnida cho‘llar paydo bo‘ldi! Shuning uchun ham o‘z vaqtida A.Gumboldt «Insondan avval o‘rmon bo‘lgan, odam o‘zi bilan cho‘l keltiradi», deb bejizga aytmagan.

O‘rmon boyliklari bitmas xazina. Misol uchun faqat yog‘ochning o‘zidan 20 mingdan ortiq turli xil materiallar va modda olinar ekan. Hisob-kitoblarga ko‘ra bir kub metr yog‘ochdan 1,5 ming metr sun‘iy ipak yoki 600 ta trikotaj kostum yoxud 200 kilogramm qog‘oz olinadi. Ko‘rinib turibdiki, o‘rmon har tomonlama inson ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladigan, odamlarni va yerni boqadigan, kiyintiradigan, davolaydigan, ham tashnaligini qondiradigan asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham turk og‘alarimizning «serdaraxt qishloqda bemor kam bo‘ladi», degan maqolini eslashimiz zarur. Demak, inson hayoti tashqi muhit bilan chambarchas bog‘liq. U tashqi muhitning barcha omillari, tabiat va jamiyatning har tomonlama o‘zaro kompleks ta’siri ostida yashaydi.



Buyuk alloma Ibn Sino «odamning salomatligi tashqi muhit sharoiti bilan chambarchas bog'liq», deb yozgan edi. Shuning uchun ham inson hayoti barqaror va sog'lom kechishi uchun tabiatning asosiy omillari bo'lgan yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari, havo va yerning yashil qoplami ma'lum mutanosiblikda saqlanishi zarur.

Bu masalaga e'tibor berib, taniqli rus adibi S.P.Kostichev «agar yashil dunyo o'z faoliyatini bir necha yil to'xtasa, yer sharida butun jonli maxluq, shu jumladan, inson ham halok bo'lur edi», deb yozgandi. «Yashil dunyo» inson hayoti uchun naqadar ahamiyatga ega ekanini chuqurroq o'rganish maqsadida ayrim misollarga murojaat qilaylik.

To'rta daraxt bir kishining bir kecha-kunduzda kislorodga bo'lgan ehtiyojini qondira oladi. Yoki yana bir qiziqarli misolga e'tibor beraylik. Katta shahar sharoitida bir kub metr havoda 25 gramm chang va boshqa moddalar mavjudligi 36 ming bakteriya borligi aniqlangan. Olimlarimizning hisobiga ko'ra, bir gektar qoraqarag'ay daraxtzori 36 tonnagacha chang va boshqa moddalarni o'zida saqlab qoladi. Bir gektar yosh qarag'ay daraxtzor bir soatda o'zidan 0,154 kg dan 0,392 kg gacha uchuvchi fitonsid ajratadi yoki bir gektar o'rmonzor 30 kilogrammgacha fitonsid ishlab chiqaradi. Shuning uchun ham o'rmon havosi toza bo'ladi. Yaltalik olim M.N.Artemyeva bir gektar bargli daraxtzor bir sutkada 2 kg, ninabargli o'simliklar esa 5 kg gacha uchuvchi organik aralashma chiqarishini aniqlangan. Daraxtdan chiquvchi uchuvchi fitonsidlar ob-havodagi har xil zaharli mikroblarni o'ldiradi. Bundan tashqari, yashil o'simlik inson uchun zarur bo'lgan kislorod manbaidir. Kislorodsiz tirik organizm yashay olmaydi. Bir odamning o'rta hisobda bir kecha-kunduzda 500 litr kislorod yutishi aniqlangan.

Yer kurrasida o'simliklar har yili 500 milliard tonna karbonad angidrid gazini yutib, 400 milliard tonna kislorodni ishlab chiqaradi. Bir gektar maydondagi o'rmon 3-6 tonna is gazini yutib, 245 tonnagacha kislorod ishlab chiqaradi. O'rta yoshdagi bir daraxt ishlab chiqargan kislorod 3 odamga bir umrga yetadi.

Zararli hasharotlarga qirg'in keltiradigan foydali hashoratlar, o'rmon va daraxtzorlarda odatdagidan ikki marta ko'p yashaydi.

Yer yuzidagi o'rmonlarning umumiy maydoni 4100 million gektar atrofida, ya'ni bu quruqlikning 31 foizidan salgina oshadi. O'rmonlardagi yog'ochning miqdori 130-140 milliard metr kub. Mamlakatning o'rmon bilan ta'minlanganlik darajasini aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rmon maydoni juda yaxshi ko'rsatadi. Albatta, bu jihatdan Kanada eng oldingi o'rinda turadi. Kanadada jon boshiga 24,0 ga, Norvegiyada 2 ga, Yevropa-

ning ko'pchilik davlatlarida 0,1-0,4 ga o'rmon to'g'ri keladi. O'zbekistonda o'rmonlar maydoni 712,8 ming gektar bo'lib, har bir kishiga 0,04 gektar o'rmon to'g'ri keladi. E'tibor bering, biz o'rmonga qanchalik boymizu, lekin u kundan-kunga insonning jabriga uchramoqda, kamayib ketmoqda.

Keyingi 100 yil ichida AQShda 540 ming gektardan ortiq o'rmon kesilgan. Madagaskarda mustamlakachilik davrida o'rmonlarning 9/10 qismi qirqilgan. Asrimiz boshida Kubaning yarmidan ortiq maydoni o'rmon edi, hozir esa o'rmonlar mamlakat maydonining atigi 8 foizini tashkil etadi. Hozirgi paytda yashil boyliklarni muhofaza qilish va yangi yashil zonalar barpo etish ishi bilan 100 dan ortiq o'rmon xo'jaligi shug'ullanmoqda. Endilikda bu tadbir har bir korxonaga, muassasa, tashkilot va fuqaroning burchi bo'lmog'i lozim.

Ma'lumki, o'rmonlar inson hayoti uchun zarur bo'lgan yovvoyi meva va zambrug'lar, qimmatli mo'ynalar, kasalliklarni davolaydigan o't-o'lanlar, turli-tuman foydali hayvonot va parrandalar armug'on etadi.

O'rmon boyligining yana bir xususiyati shundaki, u tabiatda suv rejimini tartibga solib turuvchi, tuproqni suv, shamol eroziyasidan saqlovchi muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Tabiat shu qadar nozikki, katta shaharning kislorod balansini saqlab turish uchun 1 kishiga 25 kvadrat metr yashil maydon bo'lishi talab qilinadi. Daraxt va buta barglari, ko'katlar shahar osmonidagi changning 72 foizini ushlab qoladi. To'g'ri tanlanib o'tqazilgan daraxt va butazorlar shahar shovqinini ancha pasaytiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi paytda O'zbekiston o'rmon resurslarini saqlab qolish va ko'paytirish tobora keskinlashmoqda. Daraxtlar qoniqarsiz parvarish qilinayotganligi, zararkunandalar va kasalliklarga qarshi yetarli kurash olib borilmayotgani oqibatida o'rmon xo'jaligi korxonalarini ishining samaradorligi pasayishiga olib kelmoqda.

Shunisi ajablanarliki, xalq xo'jaligida ishlatiladigan o'rmondan tayyorlanadigan yog'och mahsuloti yiliga 370-410 million kub metrni tashkil etadi. 1954-yil Hindistonda o'tkazilgan o'rmonshunoslarning Kongressida «o'rmon – suv demakdir, suv esa hosil va hayot manbai» deb baholandi. Ko'rinib turibdiki, o'rmon tabiatning buyuk boyligidir, u suv, yer resurslarini saqlashda, butun hayvonot va nabodot dunyosini kamayib ketishdan saqlashda, atrof-muhitni yaxshilashda, dadil aytish mumkinki, yer yuzidagi butun turmushni sog'lomlashtirishda, ekologik holatning buzilishini oldini olishda juda katta rol o'ynaydi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimiz o'rmon fondining umumiy maydoni 9.147.275 gektarni tashkil etadi. Jumladan, shu

maydonning 3002541 ming gektari oʻrmon bilan qoplangan boʻlib, unda 12 mln. kub metr yogʻoch zaxirasi mavjud. Respublikamiz hududining 5,1 foizini daraxtzarlar tashkil etib, u har bir kishi boshiga 0,1 gektarni tashkil etadi. Oʻzbekiston Respublikasida jami 90 ta oʻrmon xoʻjaligi korxonasi mavjud boʻlib, bulardan 72 tasi oʻrmon xoʻjaligi, 6 tasi davlat qoʻriqxonasi, 2 tasi dorivor va oziqa oʻsimliklari oʻstirish va qadoqlashga ixtisoslashgan xoʻjalik, 2 tasi oʻrmon ovchilik xoʻjaligi, 2 tasi Zomin va Ugam-Chotqol milliy istirohat bogʻlari va 2 tasi xoʻjalik hisobidagi oʻrmon uchastkalari, 1 ta ixtisoslashtirilgan oʻrmon xoʻjaligi, 2 ta bosh oʻrmon korxonasi va 1 tasi ishlab chiqarish oʻquv markazidir.

Shuning uchun ham oʻrmonlarning har tomonlama ahamiyati va ularni oʻstirish uzoq muddatli boʻlganligi uchun oʻrmon boyliklaridan oqilona foydalanish, ularni ehtiyot qilib asrash, koʻpaytirish ishiga umumdavlat mohiyatini berish shart va zarur.

## **2-§. Oʻsimlik dunyosi va oʻrmon boyliklariga nisbatan mulk huquqi. Oʻsimlik dunyosi va oʻrmon boyliklaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari, bu sohaga oid nizolarni hal etish va yuridik javobgarlik asoslari**

Oʻzbekiston Respublikasi oʻsimliklar dunyosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish, undan foydalanishning huquqiy tartibi hamda boshqaruv va nazorat qilish hollari 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining «Oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida»<sup>1</sup> qonuni bilan tartibga solingan.

Mazkur qonun tabiiy sharoitda oʻsadigan oʻsimlik dunyosini, shuningdek, takror yetishtirish va genetik fondini saqlash uchun ekib oʻstiriladigan yovvoyi oʻsimliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Oʻrmonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar oʻrmonlar toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpogʻiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisidagi qonun

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1998. – № 1. – 12-м.

hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu qonun O'zbekiston Respublikasining barcha ekologik, geografik, iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– floraning tur bo'yicha tarkibini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish;

– tabiiy o'simlik jamoalarining va yovvoyi o'simliklar o'sadigan muhitning bir butunligini saqlab qolish;

– o'simlik dunyosidan oqilona foydalanishni va uni takror yetishtirishni ta'minlash;

– yuridik va jismoniy shaxslarning o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish. (Qonunning 2-moddasi).

O'zbekiston Respublikasida o'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi hamda nazorat etish katta ahamiyatga ega bo'lib, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunda o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi aniq ko'rsatilgan. Jumladan, mazkur qonunda ko'rsatilishicha, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, maxsus vakolat berilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida maxsus vakolat berilgan davlat boshqaruv organlaridir.

O'simlik dunyosi davlat mulki – umummilliy boylik bo'lib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir (3-modda).

O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvining asosiy xususiyati ham shundaki, u bevosita o'rmon boyliklarini, alohida muhofaza etadigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish bog'liq bo'ladi.

O'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ustidan davlat nazoratini olib borish katta ahamiyatga egadir. Ushbu

masala o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonunda o‘z ifodasini topgan.

Jumladan, mazkur qonunning 27-moddasiga asosan, o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ustidan idoraviy, ishlab chiqarish va jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xullas, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi hamda nazoratini olib borish o‘simliklar dunyosini ekologik-huquqiy muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta‘minlaydi.

Davlat o‘rmon fondi yerlarining huquqiy-ekologik holati nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Shuning uchun ham o‘rmonlarga bo‘lgan mulkchilik va davlat o‘rmon fondining huquqiy ahamiyatini qonunda belgilanishi katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonuniga asosan, «O‘rmonlar davlat mulki – umummilliy boylik bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish lozim hamda ular davlat tomonidan qo‘riqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha o‘rmonlar davlat o‘rmon fondini tashkil etadi. Davlat o‘rmon fondi:

- davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘rmonlardan, ya‘ni davlat o‘rmon xo‘jaligi organlari qaramog‘idagi o‘rmonlardan;
- boshqa idoralar va yuridik shaxslar foydalanadigan o‘rmonlardan iboratdir.

Shuningdek, mazkur qonunchilikda o‘rmon fondi yerlari va davlat o‘rmon fondi uchastkalari haqida ham aniq ko‘rsatma mavjud. O‘rmon bilan qoplangan yerlar, shuningdek o‘rmon bilan qoplanmagan, ammo o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar o‘rmon fondi yerlari hisoblanadi. O‘rmon fondi yerlarining chegaralari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

O‘rmon fondi yerlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda egalik qilish, foydalanish, shu jumladan, ijaraga berilishi mumkin.

Davlat o‘rmon fondi uchastkalari davlat o‘rmon fondining bir qismi bo‘lib, ularning muayyan chegarasi, maydoni, joylashgan manzili, huquqiy rejimi qayd etilgan hamda chizma-kartografik materiallarda ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Yuridik adabiyotlarda va «Oʻrmon toʻgʻrisida»gi qonunda oʻrmonlarni muhofaza qilish, qoʻriqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy koʻpaytirish sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorat etish tartibi koʻrsatilgan.

Oʻzbekiston Respublikasining «Oʻrmon toʻgʻrisida»gi qonuni mazmuni va talabidan kelib chiqadigan boʻlsak, oʻrmondan foydalanish huquqini va yuqorida koʻrsatilgan tartibni belgilovchi tashkilotlarni quyidagi turlarga boʻlish mumkin:

- 1) Vazirlar Mahkamasi;
- 2) Oʻrmon xoʻjaligi bosh boshqarmasi;
- 3) Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi;
- 4) mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- 5) oʻrmondan doimiy foydalanuvchilar.

Oʻrmondan foydalanish huquqini beradigan ushbu tashkilotlarning yuqoridagi tizimidan koʻrinib turibdiki, bu huquq asosan maʼmuriy ruxsat berish, boshqarish va nazorat etish tartibi orqali vujudga keladi.

Ushbu masala, «Oʻrmon toʻgʻrisida»gi qonunning 9-moddasida shunday uqtiriladi: «Oʻrmonlarni muhofaza qilish, qoʻriqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy koʻpaytirish sohasidagi davlat boshqaruvi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi oʻrmon xoʻjaligi bosh boshqarmasi va Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi oʻrmon xoʻjaligi bosh boshqarmasi va uning joylardagi idoralari davlat oʻrmon xoʻjaligi tashkilotlari hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur qonunda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oʻrmonga oid munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari aniq koʻrsatilgan. Oʻrmonga oid munosabatlarni tartibga solish sohasida quyidagilar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlariga kiradi:

– oʻrmonlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish boʻyicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

– davlat oʻrmon fondini tasarruf etish;

– oʻrmonlarning qoʻriqlanish toifalarini aniqlash tartibini belgilash;

oʻrmondan foydalanganlik uchun haq undirish tartibi va miqdorlarini belgilash;

– oʻrmonlarni muhofaza qilish, qoʻriqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy koʻpaytirish ustidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish;

– oʻrmonlarning davlat hisobini va davlat oʻrmon kadastrini yuritish tartibini belgilash;

– oʻz vakolat doirasiga kiruvchi boshqa masalalarni hal qilish.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikda mahalliy davlat hokimiyati organlarining oʻrmonga oid munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari ham belgilab qoʻyilgan. Ushbu masala «Oʻrmon toʻgʻrisida»gi qonunning 11-moddasida quyidagicha koʻrsatilgan:

– davlat oʻrmon xoʻjaligi tashkilotlari bilan kelishgan holda yuridik va jismoniy shaxslarga davlat oʻrmon fondi uchastkalarini berish, davlat qoʻriqxonalarining oʻrmonlari hamda davlat milliy tabiiy bogʻlarining qoʻriqxonalarini mintaqalari bundan mustasno;

– oʻrmonlarning davlat hisobi va davlat oʻrmon kadastrini yuritilishini taʼminlash;

– oʻrmonlarni muhofaza qilish, qoʻriqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy koʻpaytirish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

– oʻrmonlar holatiga zarar yetkazgan hollarda korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini cheklash, toʻxtatib qoʻyish va tugatish toʻgʻrisida qarorlar qabul qilish. Tadbirkorlik subyekti faoliyatini cheklash, toʻxtatib qoʻyish (favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va salomatligi uchun boshqa real xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bogʻliq holda oʻn ish kunidan koʻp boʻlmagan muddatga cheklash, toʻxtatib qoʻyish hollari bundan mustasno) yoki tugatish sud tartibida amalga oshiriladi;

– oʻrmonlarda mol boqish hamda yogʻochga taalluqli boʻlmagan resurslardan foydalanishning boshqa turlari normalarini davlat oʻrmon xoʻjaligi organlari bilan birgalikda belgilash va tartibga solish;

– oʻrmonlarni muhofaza qilish, qoʻriqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy koʻpaytirish borasida aholining maʼrifatli boʻlishini tashkil etish;

– oʻz vakolat doirasiga kiruvchi boshqa masalalarni hal qilish.

Oʻrmonlarni muhofaza qilish, qoʻriqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy koʻpaytirish ustidan davlat nazorati Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oʻrmonlarni muhofaza qilish, qoʻriqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy koʻpaytirish ustidan idoraviy nazorat Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi oʻrmon xoʻjaligi bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘simliklar antropogen ta’sirdan ko‘p zarar ko‘radi. Shuning uchun ham yer yuzida yo‘qolib ketayotgan yoki nodir o‘simliklar jumlasiga kirgan turlar soni yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Hozirgi kunda o‘simliklarning 25-30 mingga yaqin turi, ya’ni 8-10 foizi yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi. O‘simliklar turkumi ham jadal sur’atda yo‘qolib bormoqda. Ularning ko‘pchiligi faqat qo‘riqxonalar va dam olish maskanlarida saqlanib qolgan. Lekin shuni unutmaslik kerakki, turkum o‘simliklar to‘la yo‘q bo‘lib ketgandan keyin amalda qayta tiklanmaydi, to‘g‘rirog‘i mangu yo‘q bo‘lib ketadi.

Bizningcha, buning sababi, inson bilan tabiat o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, tabiat boyliklariga, jumladan, o‘rmon va o‘simliklarga shafqatsiz muomalada bo‘lishlik, qolaversa, odamlarning ekologik-huquqiy ma’naviyati va madaniyatini talab darajasida emasligi, profilaktik ishlarning yetarli darajada olib borilmaganligidadir.

O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish, ular to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik va ulardan noto‘g‘ri foydalanganlik uchun ekologik-huquqiy javobgarlik masalasi «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunida aniq ko‘rsatilgan. Ushbu qonunning 28-moddasiga ko‘ra, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Yuridik va jismoniy shaxslar o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda qoplashlari shart. Zararni qoplash aybdorlarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Qonunga muvofiq nabo‘t olami va shifobaxsh o‘simliklardan noto‘g‘ri foydalanganlik va ular to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik uchun quyidagi javobgarlik mavjud.

*Intizomiy-huquqiy javobgarlik.* Bu javobgarlik katta ekologik-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘proq mehnat qonunlari yoki intizomini buzish oqibatida ro‘y beradi. O‘simliklardan noto‘g‘ri, befarq foydalanganlik uchun intizomiy javobgarlik (yoki ta’siriy chora) asosan korxonalar, muassasa, tashkilot xodimiga aynan shu ishxonalar ma’muriyati tomonidan qo‘llaniladi. Shunisi tashvishliki, bizning respublikamizda shifobaxsh o‘simliklarni o‘stirish, ularni ko‘paytirish, saqlash uchun shirkat xo‘jaliklari, dehqon, fermer va ijara xo‘jaliklari yoki biror e’tiborli joylar deyarli yo‘q. Shifobaxsh o‘simliklar faqatgina parklar, qo‘riqxonalarda, ko‘plab tog‘larning ma’lum joylaridagina o‘sadi, xolos.



Shuni uchun ham intizomiy huquqiy javobgarlik qo'riqxonalar, parklar, ayrim kooperativ (shirkat xo'jaliklari, dehqon, fermer va ijara xo'jaliklari) rahbarlari tomonidan qo'llaniladi.

Intizomiy javobgarlik ba'zan xodimlar bajarishlari lozim bo'lgan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasliklari oqibatida ham qo'llanishi mumkin. Ta'kidlash kerakki, shifobaxsh o'simliklarni huquqiy-ekologik muhofaza qilish maqsadida intizomiy javobgarlik kam qo'llanilmoqda.

Intizomiy javobgarlikka tortish choralari O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi asosida amalga oshiriladi.

*Fuqarolik-huquqiy javobgarlik* – asosan shifobaxsh o'simliklardan foydalanishda, ularning tibbiy ahamiyatini hisobga olib terilayotganda, saqlashda, quritib olinayotganda yetkazilgan zarar asosida paydo bo'ladi. Ekologiya sohasidagi fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosiy mazmuni yetkazilgan zararni qoplash, ya'ni to'lash sharti bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o'simliklarning asosiy manbai bo'lgan adir, sahro va o'rmonlarni yong'in xavfidan saqlash, ularni asosiy ekologik muhofaza qilishga qaratiladi.

Shifobaxsh o'simliklarga zararkunandalik munosabatda ham ta'sir qilish mumkin. Ularni tomirlari bilan qo'porish, hali yetilmaganda mol qo'yib, yedirib yuborish, payhon qilish kabi hollarda tabiatga zarar yetadi.

Shuningdek, butun o'simliklarni kasallanishga olib kelish holati oqibatida ham zarar yetkaziladi. Bunda, asosan kasalliklarning oldini olmaslik, tushuntirish ishlarini yo'lga qo'ymaslik, o'simliklarni karantin qilish, shuningdek, fizik, ximik va biologik metodlardan foydalanish qoidalarini buzish hollari tushuniladi.

Bu qoidalarni buzuvchilar ko'pincha dam olishga chiqqanlar, mevalar va shifobaxsh o'simliklarni yig'uvchilar bo'lishi mumkin. Shunday «turistlar» ham uchraydiki, ular o'simliklarni sindirib, gulxan yoqadilar, daraxtlarni kesib, o't-o'lanlarni payhon qiladilar, dam olgan yerlarini iflos qilib ketadilar. Bu esa o'rmon kompleksining buzilishiga olib keladi. O'simliklar dunyosidagi o'zgarishlar hayvonot olamiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi: sayroqi qushlar yo'qolishi, zararkunandalar paydo bo'lishi, kemiruvchilar ko'payishi mumkin. Bu esa hududni epidemik va epizootik jihatdan dahshatli holatga olib kelishi mumkin.

Tabiatga mutlaqo zarar yetkazmay uzoq vaqt dam olish uchun ekoturizmni rejalashtirish va to'g'ri tashkil qilish katta ahamiyatga ega.

Alohida qayd etish o'rinliki, respublikamiz va ko'plab viloyatlarimizda o'simliklar noyob turlarining yo'qolib ketishiga asosiy sabab, rejasiz ravishda chorva mollarini boqishdir.

Chorva mollari o‘simliklarni, ayniqsa daraxtlarni zararlaydi, ular ko‘p bo‘lgan joylarda o‘simliklarning gullashi, changlanish, urug‘ hosil qilish jarayoniga zarar yetadi.

Keltirilgan har qanday zararni moddiy undirish mumkin, ammo shifobaxsh o‘simliklarni va ularning tabiat go‘zalligidagi o‘rnini qaytarib bo‘lmaydi.

Mulkiy zararni qoplash, shartnoma va bitimlarni buzish oqibatida o‘simliklar dunyosiga yetkazilgan zarar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi talabi asosida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksini 81-moddasida qizil kitobga kiritilgan o‘simliklarni yiqqanlik uchun ma‘muriy jazo ko‘rsatilgan bo‘lib, unga asosan, O‘zbekiston Respublikasining «Qizil kitobi»ga kiritilgan o‘simliklarni yoxud shunday o‘simliklarning ildizlari, poyalari, shoxlari, barglari, gullari, mevalari va urug‘larini o‘zboshimchalik bilan yig‘ish, –

fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, –

fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Shu bilan birga, mazkur kodeksning 89-moddasida o‘simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarni tashish, saqlash va qo‘llanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun ham jazo chorasi mavjudligi belgilangan. Unga asosan, o‘simliklarni himoya qilish vositalarini, ularning o‘shisini tezlashtiruvchi vositalarni, mineral o‘g‘itlar va boshqa dorilarni tashish, saqlash va qo‘llanish qoidalarini tuproq, suv, atmosfera havosining ifloslanishiga yoki o‘simliklar, hayvonot dunyosini yo‘q qilib yuborilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tarzda buzish, –

fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa yoxud tuproq, suv, atmosfera havosining ifloslanishiga, o‘simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetishiga olib kelsa, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Qayd qilish o‘rinliki, hozirgi paytda har qadamda o‘simliklar dunyosiga nisbatan vahshiyona munosabatda bo‘lish hollari uchraydiyu, ammo tegishli choralar qo‘llanilmaydi. Lekin qonunlarni chiqarishdan ko‘zlangan maqsad jarima solish emas, balki bebaho o‘simliklarni ko‘paytirish hamda o‘zligicha saqlab qolishdir.

*Jinoiy-huquqiy javobgarlik* – o‘simliklar dunyosini huquqiy- ekologik muhofaza qilishning birdan-bir to‘g‘ri tadbiri hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, bizning jinoyat qonunchiligimizda ekinzor, o‘rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish va o‘simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish uchunгина jinoiy javobgarlik o‘rnatilgan.

Fikrimizcha, aynan shifobaxsh o‘simliklarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish maqsadida alohida modda bo‘lmagani uchun ham keyingi paytlarda ko‘plab noyob o‘simliklarning turlari yo‘qolib ketmoqda. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksining 199-moddasida o‘simlik kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik ko‘rsatilgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, –

eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bizningcha, jinoyat kodeksida nabotot olami va shifobaxsh o‘simliklarni huquqiy muhofaza qilish uchun quyidagi talablarga e’tibor berish o‘rinli:

– yangi qonunlarga, jinoyat yoki o‘simliklarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunga asosan, o‘simliklardan foydalanish, ularni ekish, sotish, qazib yoki yulib olish uchun ma’muriy chora ko‘rilgandan keyin jinoiy javobgarlik belgilash o‘rinli;

– ko‘proq jinoiy javobgarlikdan tashqari ma’muriy, ya’ni keltirilgan zararni qoplash bilan bog‘liq jazolar qo‘llanishi lozim;

– jinoyat kodeksida «Qizil kitob»ga kirgan o‘simliklarni muhofaza qilish maqsadida, ularni qazish, olish, foydalanish, kesishni chegaralash maqsadga muvofiq va jinoiy javobgarlik belgilanishi lozim;

– o‘simliklarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunga «Shifobaxsh o‘simliklardan foydalanish va ularni muhofaza qilish» to‘g‘risida alohida bob kiritish, aniq holatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi zarur;

– o‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va ularni ko‘paytirish bilan shug‘ullanadigan alohida ekolog mutaxassislar tayyorlash shu kunning talabidir;

– dorivor va shifobaxsh o‘simliklardan noto‘g‘ri foydalanganlik uchun va ular to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik uchun ko‘proq iqtisodiy-huquqiy javobgarlik belgilash o‘rinlidir.

Xullas, o‘lkamiz tabiiy hamda madaniy holda o‘sadigan o‘simliklarga boy. O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari sanoatda, noz-ne‘mat sifatida hamda shifobaxsh dori sifatida foydalaniladi. Shuning uchun ham mevali bog‘larimiz, tabiiy holda o‘sadigan turli xil giyohlarni asrasak, ona-tabiatimizning chiroyi yanada ochilgan bo‘lur edi. Buning uchun hammamiz, keng jamoatchilik benihoya faol bo‘lmog‘imiz lozim.

O‘rmon to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini va o‘rmondan foydalanish huquqini buzganlik uchun ekologik-huquqiy javobgarlik qonunlarimizda o‘z aksini topgan. Jumladan, o‘rmon va boshqa daraxtlarni kesganlik, yondirganlik yoki qonunga zid boshqa xatti-harakatlar qilganlik uchun ma‘lum huquqiy javobgarliklar mavjud.

Shuningdek, o‘rmonlardan oqilona foydalanilmaganlik va ular haqidagi qonunlarni buzganlik uchun intizomiy, ma‘muriy, fuqarolik va jinoiy javobgarliklar mavjud.

O‘rmonlarni qo‘riqlash va ulardan foydalanish masalalariga oid nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

O‘rmon to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

*Intizomiy-huquqiy javobgarlik* – bu ekologik huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qo‘llanilib, asosan korxonalar, muassasa, tashkilot rahbari tomoni qo‘llaniladi. Masalan, o‘rmon xo‘jaligi rahbari tomonidan xodimga nisbatan mehnat majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaganligi munosabati bilan qo‘llanishi mumkin.

Intizomiy-huquqiy javobgarlik o‘rmonchilik sohasida Mehnat kodeksi yoki tegishli nizom talablarini buzganlik uchun qo‘llaniladi.

O‘rmon to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini va o‘rmondan foydalanish huquqini buzganlik uchun Mehnat kodeksiga asosan tegishli jazo choralari qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasiga asosan xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralarini qo‘llashga haqli:

1) xayfsan;

2) o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o‘rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorida jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish Mehnat kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi;

3) mehnat shartnomasi bekor qilish (100-moddaning ikkinchi qismi 3 va 4-bandlari).

Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo‘llash taqiqlanadi.

*Ma‘muriy-huquqiy javobgarlik* – o‘rmon to‘g‘risidagi qonunlarni va o‘rmondan foydalanish huquqini buzganlik uchun tegishli organlar tomonidan qo‘llaniladi.

U O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga asosan amalga oshiriladi. Mazkur kodeksda o‘rmon bilan bog‘liq 5 ta huquqbuzarlik uchun javobgarlik ko‘rsatilgan:

1. Kesiladigan o‘rmon fondidan foydalanish tartibini buzganlik uchun: Kesiladigan o‘rmon fondidan foydalanish, yog‘och tayyorlash va tashib olib ketish tartibini, shuningdek o‘rmon kesish chiptasi (orderi)da yoki o‘rmon chiptasida belgilangan boshqa talablarni buzish – fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha bo‘lgan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi (Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 78-m).

2. Daraxtlar, butalar, boshqa o‘rmon o‘simliklari va nihollarni g‘ayri-qonuniy ravishda kesish, shikastlantirish yoxud yo‘q qilganlik uchun:

Daraxtlar, butalarni, boshqa o‘rmon o‘simliklari va nihollarni g‘ayriqonuniy ravishda kesish, shikastlantirish yoki yo‘q qilish, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha

miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi (Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 79-m).

3. O‘rmonlarni tiklash, ularning holatini va turi tarkibini yaxshilashga, ularning mahsuldorligini oshirishga, shuningdek yetilgan yog‘och zaxiralaridan foydalanishga oid qoidalar va yo‘riqnomalarni buzish, –

mansabdor shaxslarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. (Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 80-m).

4. O‘rmon uchun foydali faunani yo‘q qilib yuborganlik uchun: O‘rmon uchun foydali faunani yo‘q qilib yuborish, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa bir baravaridan uch baravarigacha bo‘lgan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi (Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 83-m).

5. O‘rmonlarda yong‘in xavfsizligi talablarini buzganlik uchun: O‘rmonlarda yog‘in xavfsizligi talablarini buzish, –

fuqarolarga eng kam ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, –

fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi (Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 84-m).

*Fuqarolik-huquqiy javobgarlik* – mehnat intizomi va uni bajarilish majburiyatini buzganlikda, tuzilgan shartnoma talablarini bajarmaganlikda, qonunsizlik oqibatida davlatimizning ekologik tizimiga, jumladan o‘rmon boyliklariga yetkazilgan zarar natijasida vujudga keladi.

Bu yetkazilgan zararni to‘latish yoki qoplash huquqbuzarlik sodir etgan huquqbuzarlik subyektiga nisbatan da‘vo arizasi orqali murojaat etiladi va davlat xo‘jalik sudi yoki sudlar tomonidan mazmunan ko‘rib hal etiladi. O‘rmon to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va o‘rmondan foydalanish to‘g‘risidagi huquqlarni buzish oqibatida yetkazilgan zararni qoplash, undirish va to‘latish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablari va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi.

*Jinoiy-huquqiy javobgarlik* – o‘rmon to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat

kodeksida oʻrmon va ular bilan bogʻliq nojoʻya xatti-harakatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 198-moddasida ekinzor, oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilganlik uchun jinoiy javobgarlik koʻrsatilgan. Unga koʻra, olovga ehtiyotsizlik bilan munosabatda boʻlish natijasida ekinzor, oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish yoxud boshqacha ogʻir oqibatlariga sabab boʻlsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlarini yoxud uch oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesish koʻp miqdorda zarar yetkazilishiga sabab boʻlsa, –

eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch oydan olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ekinzor, oʻrmon yoki boshqa dov-daraxtlarga qasddan shikast yetkazish, ularni payhon qilish, nobud qilish koʻp miqdorda zarar yetkazilishiga sabab boʻlsa, –

eng kam oylik ish haqining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qoʻllanilmaydi.

Xullas, kasbi koridan qatʼi nazar, har bir fuqaro, korxonalar, muassasa, tashkilot, shirkat xoʻjaligi, dehqon, fermer xoʻjaliklari yurtimizning bebaho boyligi boʻlgan oʻrmonlarni muhofaza qilishga, ekologik holatining toʻla saqlanishiga oʻz hissasini qoʻshmogʻi lozim.

### **3-§. Oʻsimlik dunyosini va oʻrmon boyliklarini ekologik-huquqiy muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va vazifalari**

Oʻsimlik dunyosini va oʻrmon boyliklarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning oʻrni alohida ahamiyatga ega.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlardan biri boʻlgan prokuratura «Oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida»gi

va «Oʻrmon toʻgʻrisida»gi qonunlarning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi, maʼmuriy va jinoiy ishlarni qoʻzgʻatadi, ushbu resurslariga yetkazilgan zararni qoplash daʼvosini qoʻzgʻatadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlardan boʻlgan bojxona organlari «Qizil kitob»ga kiritilgan oʻsimliklar dunyosi va oʻrmon mahsulotlarining respublikamizdan tashqariga olib chiqib ketilishining oldini oladi va ekologik xavfli moddalarning mamlakatimiz hududiga kiritilishiga yoʻl qoʻymaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlardan biri boʻlgan ichki ishlar organlarining oʻsimlik dunyosini huquqiy ekologik muhofaza qilish va ulardan foydalanishdagi vazifalari juda keng. Ichki ishlar organlari, asosan, Oʻzbekiston Respublikasida «Qizil kitob»ga kiritilgan, yoʻqolib ketish xavfi boʻlgan oʻsimliklarni muhofaza qilishda katta ishlar olib borishlari lozim. Ichki ishlar organlarining hududiy profilaktika inspektorlari, qoʻriqlash xizmati boʻlimi va YPX xodimlari Oʻzbekiston iqlimida maʼlum sharoitlardagina uchraydigan, fan olamida «Endem» deb yuritiladigan, respublikamizning bebaho milliy boyligi hisoblangan oʻsimliklar dunyosini ekologik-huquqiy muhofaza qilishga yordam beradilar.

Zero, ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari ushbu turdagi oʻsimliklar dunyosini yoʻqolib ketishining oldini olish, yongʻindan saqlash, har qanday transport bilan ularni noqonuniy terib boshqa joyga olib borib sotish, turli kasalliklar tarqalishining oldini olishdan iborat boʻlishi kerak.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyatini yanada takomillashtirish choralari toʻgʻrisidagi normativ-huquqiy hujjatlar dastur boʻlib xizmat qiladi.

Oʻrmon boyliklaridan foydalanish va uni ekologik-huquqiy muhofaza qilishda ham ichki ishlar organlarining faoliyati juda keng. Ichki ishlar organlarining yongʻin xavfsizligi xizmati boʻlimi oʻrmon va oʻsimliklar dunyosi mavjud boʻlgan joylarda yongʻin xavfini oldini olish, unga qarshi kurashish, yongʻinga qarshi tegishli tadbirlar oʻtkazish va yongʻin chiqqanda tezlik bilan oʻchirish vazifasini bajaradi. Profilaktika inspektorlari – mavjud oʻrmonlar va u yerdagi barcha tabiat boyliklarini ekologik muhofazasiga alohida eʼtibor beradilar, oʻrmonlarni qirqish va ulardan noqonuniy foydalanishlarga qarshi tadbirlar olib boradilar.

DYHXX xodimlari – turli maqsadlarda noqonuniy (ordersiz) kesilgan daraxtlarni transport vositalari orqali olib ketish jarayonini nazorat qiladilar va ularning davlatga qaytarilishini taʼminlaydilar.



Ichki ishlar organlarining qo‘riqlash xizmati o‘rmon boyliklari mavjud bo‘lgan, davlat ahamiyatiga ega o‘rmon hududlarni qo‘riqlaydilar, muhofaza qiladilar va yong‘in xavfsizligini ta‘minlaydilar. Xullas, ichki ishlar organlari o‘rmon boyliklarini muhofaza qilishda bevosita O‘zbekiston Respublikasi Davlat xo‘jaligi bosh boshqarmasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan barcha normativ-huquqiy hujjatlarga, ko‘rsatma va buyruqlarga asosan amalga oshiradilar.

Shuningdek, ichki ishlar organlari O‘zbekiston Respublikasi «O‘rmon to‘g‘risida»gi qonun talablarini amalga oshirishda bir qator boshqa vazifalarni ham bajarishga ko‘maklashadilar.

### ***Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:***

1. *O‘simlik dunyosidan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?*

2. *O‘rmondan foydalanish huquqining vujudga kelishi va tugatilish asoslari haqida so‘z yuriting.*

3. *O‘rmondan foydalanish huquqini cheklash deganda nima tushuniladi?*

4. *O‘rmon to‘g‘risidagi qonunning mohiyati va maqsadi asosan nimalarda ko‘rinadi?*

5. *O‘rmondan vaqtinchalik va doimiy foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlariga nimalar kiradi?*

6. *O‘rmondan foydalanish va ularni muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining ishtiroki va vazifalari qanday?*

7. *O‘simlik dunyosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?*

8. *Qonunda o‘simlik dunyosi va o‘rmonlarga nisbatan mulkdorlik masalasi qanday yoritilgan?*

9. *O‘rmonlardan foydalanishning qanday turlari bor?*

10. *O‘rmonlar qanday vazifani bajaradi?*

11. *O‘simlik dunyosi obyektlariga nimalar kiradi?*

---

---

*Sakkizinchi bob*

**HAYVONOT DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH VA UNDA  
FOYDALANISHNING EKOLOGIK-HUQUQIY TARTIBI.  
MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLAR  
EKOLOGIK-HUQUQIY HOLATI**

**1-§. «Hayvonot dunyosi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy ekologik tartibi» tushunchasi va xususiyatlari**

Hayvonot dunyosi tabiat boyliklarining bir qismi bo'lib, jamiyatda va inson hayotida katta ekologik ahamiyatga ega.

Hayvonot dunyosining ahamiyati iqtisodiy nuqtai nazardan muhim tabiiy resurs, oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatbop, texnikaviy va dorivor xom ashyo va boshqa moddiy boyliklar olish manbai ekanligi ma'lum.

Ma'lumotlarga ko'ra, keyingi 100-150 yil mobaynida hayvonlarning ko'plab turlari yo'qotilib yuborildi. Masalan, 1800 yilgacha sut emizuvchilarning 33 turi, qushlarning 30 turi yo'q qilingan bo'lsa, undan keyingi 100 yilda 73 tur sut emizuvchi, 120 tur qushlar batamom yo'qolgan. Keyingi 50 yilda esa hayvonot dunyosining undan ham ko'prog'i yo'q qilib yuborilgan.

Markaziy Osiyo hududi o'z hayvonot va o'simlik olamining xilma-xilligi, boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, O'zbekistonda 650 dan ortiq umurtqali hayvonlar, shu jumladan, sut emizuvchilarning 99 turi, qushlarning 410 turi, sudralib yuruvchilarning 57 turi, mushlarning 410 turi, suvda va quruqlikda yashovchilarning 3 turi uchraydi.

Ammo shunisi achinarliki, O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga umurtqali hayvonlarning nodir va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan 63 turi va kenja turi kiritilgan bo'lib, ular orasida 22 tur sut emizuvchi hayvon, 31 tur qush, 5 tur sudralab yuruvchi hayvon va 5 tur baliq bor.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, iqtisodiy, ekologik, geografik va milliy xususiyatlarni hisobga olinib bir qator yangi qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish»gi, (1992 y), «Suv va suvdan foydalanish»gi (1993 y), «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar»gi (2004 y), «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi (2002 y), «Atmosfera havosini muhofaza qilish» (1996 y), «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish» (1997 y), «Hayvonot dunyosini

muhofaza qilish va undan foydalanish» (1997 y), «Yer kodeksi» (1998 y), «Oʻrmon toʻgʻrisida»gi (1999 y) bir qator qonunlari yurtimizdagi ekologik holatni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Jumladan, respublikamizdagi mavjud hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish maqsadida «Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 26-dekabrda sessiyasida qabul qilingan «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida»gi<sup>1</sup> qonuni katta ahamiyatga ega.

Ushbu Qonun quruqlikda, suvda, atmosferada va tuproqda tabiiy erkin holatda yashaydigan, Oʻzbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha turadigan yovvoyi hayvonlarni, shuningdek, ilmiy yoki tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida yarim erkin sharoitda yoki sunʼiy yaratilgan yashash muhitida boqilayotgan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

«Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida»gi qonunning 3-moddasida «hayvonot dunyosiga nisbatan mulkdorlik» masalasi koʻrsatilgan. Unga asosan:

Hayvonot dunyosi davlat mulki – umummilliy boʻlib, undan oqilona foydalanilishi lozim va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Shunday ekan, hayvonot dunyosi obyektlariga nimalar kirishini bilib olish zarur. Ushbu qonunning 4-moddasida koʻrsatilishicha, hayvonot dunyosi obyektlari quyidagilardan iborat:

– kelib chiqishi hayvonlarga mansub boʻlgan organizmlar - sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchi hayvonlar, ham quruqlikda, ham suvda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar va ularning populyatsiyalari;

– yovvoyi hayvonlardan tashkil topadigan tabiiy hayvon galalari yoki ularning har qanday toʻdalari;

– yovvoyi hayvonlarning kamyob yoki yoʻqolib ketish xavfi ostida boʻlgan turlari;

– yovvoyi hayvonlar yashash faoliyatining mahsulotlari.

Taʼkidlash oʻrinliki, amaliyotda har doim ham hayvonot dunyosini muhofaza qilishga, undan oqilona estetik maqsadda foydalanishga eʼtibor berilmaydi. Shuning uchun ham hayvonot dunyosini muhofaza qilishning quyidagi tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu holat qonunning 30-moddasida quyidagicha koʻrsatilgan:

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1998. – № 1. – 14-м.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish:

– hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va ularni takror yetishtirish qoidalari va normalarini belgilash;

– hayvonot dunyosidan foydalanishda cheklashlar va taqiqlar belgilash;

– hayvonot dunyosidan o‘zboshimchalik bilan foydalanishning va undan foydalanish borasida belgilangan tartibni boshqacha buzilishlarining oldini olish;

– hayvonlarning yashash muhiti, ularning urchishi shart-sharoitlari va ko‘chib yurish yo‘llari muhofaza qilinishini tashkil etish;

– xo‘jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirish, transport vositalaridan foydalanish paytida hayvonlar nobud bo‘lishining oldini olish;

– alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar barpo etish;

– kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon turlarini tutqunlikda urchitish;

– hayvonlar kasalikka chalinganda, ularning tabiiy ofatlar va boshqa sabablar oqibatida nobud bo‘lishi xavfi tug‘ilganda ularga yordam berish;

– hayvonot dunyosini muhofaza qilish tadbirlarini asoslashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish;

– hayvonot dunyosini muhofaza qilish bo‘yicha boshqa tadbirlarni o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchi subyektlar yuridik va jismoniy shaxslar, fuqarolar hamda jamoat birlashmalari hayvonot dunyosini hamda uning yashash muhitini muhofaza qilish sohasida ham e‘tiborli huquq va majburiyatlarni amalga oshirishlari zarur.

Shu bilan birga, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat boshqaruvining olib borilishi ham katta ahamiyatga ega.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish ustidan davlat nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanish umumiy va maxsus foydalanish tartibida amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartib bepul amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda beriladigan ruxsatnomalar asosida haq evaziga amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar qonunda ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlarini talab darajasida amalga oshirishlari shart. Ana shunday holatlar «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan qonunning 16-moddasida aniq ko‘rsatilgan. Jumladan, hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar:

- hayvonot dunyosi obyektlaridan ularni berib qo‘yish shartlariga muvofiq foydalanish;

- tutib olingan hayvonot dunyosi obyektlariga va ulardan olingan mahsulotga nisbatan mulkdorlik huquqiga egadirlar.

Ov qilish yoki baliq ovlash xo‘jaligini yurituvchi yuridik shaxslar:

- yuridik shaxslarga hayvonot dunyosi obyektlaridan belgilangan normalarda foydalanish uchun ruxsatnomalar berishga;

- yuridik va jismoniy shaxslar hayvonot dunyosi obyektlaridan ov qilish maqsadida belgilangan normalar doirasida foydalanishi uchun ular bilan shartnomalar tuzishga;

- ov va baliq mahsulotini qayta ishlash hamda hayvonot dunyosi obyektlaridan buyumlar ishlab chiqarishga;

- hayvonot dunyosi obyektlaridan ishlab chiqarilgan mahsulot va buyumlardan foydalanish hamda ularni sotishga;

- sun‘iy ravishda yetishtirilib, tabiiy yashash muhitiga chiqarib yuborilgan hayvon turlaridan foydalanishga haqlidirlar.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar:

- hayvonot dunyosidan foydalanishning belgilangan normalari va muddatlariga rioya etishlari;

- hayvonot dunyosining muhofaza qilinishini ta‘minlashlari;

- hayvonot dunyosidan tabiiy gallarning butligi buzilishiga yo‘l qo‘ymaydigan va foydalanishga berib qo‘yilmagan hayvonlarning saqlab qolinishini ta‘minlaydigan usullar bilan foydalanishlari;

- hayvonlarning yashash muhiti buzilishiga yo‘l qo‘ymasliklari;

- hayvonlar miqdorini hamda ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olishlari;

- hayvonot dunyosini tiklash va takror yetishtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishlari shart.

Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishlari mumkin.

Shuningdek, «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 24-moddasiga asosan, hayvonot dunyosi obyektlarining miqdorini tartibga solish kvotalar asosida amalga oshiriladi. Kvotalar O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan hisobga olish ma'lumotlari va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosalari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Xullas, hayvonot olamidan foydalanish huquqi mustaqil tartiblar majmui hisoblanib, u ekologik huquqning bir qismidir. Demak, hayvonot dunyosini huquqiy-ekologik muhofaza qilish va undan foydalanish deganda qonunda belgilangan va uning ekologik ahamiyatini saqlashga, jamiyatning iqtisodiy, ilmiy, madaniy, estetik, tabiiy, tarbiyaviy va boshqa ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan davlat va ijtimoiy huquqiy- ekologik tadbirlarning uyg'unligi tushuniladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanish turlaridan ov qilish va baliq ovlashni huquqiy tartibga solish katta ahamiyatga ega.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonunning 18-moddasida ov qilish bilan bog'liq masalalarning huquqiy izohi berilgan. Unga asosan, tabiiy erkinlik holatida yashaydigan yovvoyi hayvonlarni tutish maqsadida izlash, iziga tushish va quvlab borish, tutishga intilish yoki tutish (otish, tutib olish) ov qilish deb hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, mazkur qonunda ov qilish va baliq ovlashning man qilingan usullari ham yoritilgan. Ov qilish va baliq ovlashda umum-xavfli qurollar va usullarni qo'llash man etiladi. Falokatga uchragan va o'zi uchun notabiiy sharoitda turgan hayvonlarni ov qilish man etiladi.

## **2-§. Hayvonot dunyosidan foydalanish, muhofaza qilish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat tomonidan boshqarilishi va nazorat etish tartibi hamda yuridik javobgarlik masalalari**

Albatta, hayvonot dunyosini ekologik muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun intizomiy, ma'muriy, fuqarolik va jinoiy javobgarliklar mavjud. Shuningdek, hayvonot dunyosini muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 39-moddasida ham bayon etilgan.

*Intizomiy-huquqiy javobgarlik* – bu hayvonot dunyosining ekologik ahamiyatini hisobga olib, undan turli maqsadlarda foydalanish yoki muhofaza qilish qoidalarini buzilgan hollarda qoʻllaniladigan jazo. Huquqiy-intizomiy javobgarlik aynan hayvonot dunyosi muhofaza qilinayotgan, qoʻriqlanayotgan, koʻpaytirilayotgan, saqlanayotgan qoʻriqxona xodimlariga nisbatan qoʻllaniladi.

Intizomiy-huquqiy javobgarlik bevosita mehnat intizomi buzilishi oqibatida vujudga kelib, aynan shu xodim ishlayotgan korxonada, muassasada, tashkilot rahbari tomonidan qoʻllaniladi.

Intizomiy javobgarlik Oʻzbekiston Respublikasi «Mehnat Kodeksi»ning 181-moddasi talabi asosida sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qoʻllanilishi lozim.

*Fuqarolik-huquqiy javobgarlik* – hayvonot dunyosini huquqiy-ekologik muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega. U yetkazilgan zararni qoplash yoki toʻlash yoʻli bilan amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham Oʻzbekiston Respublikasining «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish toʻgʻrisida»gi qonunining 40-moddasida shunday deyiladi: Qonunga xilof ravishda tutilgan hayvonot dunyosi obyektlari, ulardan olingan mahsulot, qonunga xilof ravishda tutish quroli va vositalari, shu jumladan transport vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib qoʻyilishi yoki musodara qilinishi lozim.

Qonunga xilof ravishda tutilgan hayvonlarni va ulardan olingan mahsulotni aybdor shaxslardan olib qoʻyish imkoni boʻlmagan taqdirda, ularning qiymati qonun hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlar va tartibda undiriladi.

Hayvonot dunyosidan foydalanish va uni muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbiri sifatida maʼmuriy-huquqiy javobgarlik ham belgilanadi.

Mazkur javobgarlik turi maʼmuriy-ekologik huquqbuzarlikni sodir etgan subyektlarga nisbatan qoʻllaniladi.

Ushbu javobgarlik turi Oʻzbekiston Respublikasining «Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisida»gi kodeksida aniq koʻrsatilgan. Ushbu Kodeksining 90-moddasiga muvofiq, ov qilish, baliq tutish yoki baliq zaxiralarini muhofaza etish qoidalarini, shuningdek hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish qoidalarini buzish, –

fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Tegishli ruxsati boʻlmay turib yoki taqiqlangan joylarda yoxud taqiqlangan muddatlarda, taqiqlangan qurollar yoki usullar bilan ov

qilish yoki baliq tutish, shuningdek ov qilish yoki baliq tutishning boshqa qoidalarni muntazam ravishda buzish, –

shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli va ashyolarini musodara qilib yoki musodara qilmay, fuqarolarga eng kam ish haqining ikki baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoxud shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli va ashyolarini musodara qilib yoki musodara qilmay, uch yilgacha muddatga ov qilish huquqidan mahrum etishga sabab bo‘ladi.

Mazkur Kodeksning 92-moddasida esa boshqacha sodir etilgan ekologik huquqbuzarlik uchun javobgarlik holati bayon etilgan. Unga ko‘ra, hayvonlar yashaydigan muhitni va ularning ko‘chish yo‘llarini muhofaza qilish qoidalarni, zoologik va botanik kolleksiyalarni vujudga keltirish, to‘ldirish, saqlash, ulardan foydalanish va ularni hisobga olish qoidalarni, zoologik va botanik kolleksiyalar bilan savdo qilish qoidalarni, shuningdek hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarini, zoologik va botanik kolleksiyalarni boshqa joyga jo‘natish va chet elga olib ketish qoidalarni buzish, xuddi shuningdek hayvonlarni o‘zboshimchalik bilan boshqa yerga ko‘chirish, iqlimlashtirish yoki chatishtirish, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida»gi kodeksning 93-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan hayvonlar va o‘simliklar turlarini saqlashga zarar keltiradi deb topilgan hayvonlar yoki o‘simliklarni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasiga olib kelish, – fuqarolarga eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi.

E‘tiborli tomoni shundaki, ushbu Kodeksda noyob yoki yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida turgan hayvonlarni yo‘q qilib yuborish, o‘lja qilish yoxud shunday hayvonlarning soni kamayib ketishiga yoki yashash muhiti buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan harakatlar uchun javobgarlik va jazo choralari ham ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan hayvon turlariga mansub noyob yoki yo‘q bo‘lib ketish xavfida turgan hayvonlarni yo‘q qilib yuborish, o‘lja qilish yoxud ularning tuxum, uvildiriq qo‘yadigan inlarini, boshpanalarini yo‘q qilish, inlari, uyalari va boshqa yashirinish



joylarini buzish yoxud shunday hayvonlarning qirilib ketishiga, soni kamayib ketishiga yoki yashash muhiti buzilishiga sabab bo'ladigan boshqa harakatlar sodir etish yoxud bunday hayvonlarni ovlash ruxsatnomasida ko'rsatilgan shartlarni buzgan holda o'lja qilish, – shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli bo'lgan ashyolarni musodara qilib yoki musodara qilmay, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli bo'lgan ashyolarni musodara qilib, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbiri sifatida sodir etilgan ekologik-huquqbuzarlik (jinoiyat) uchun jinoiy-huquqiy javobgarlik belgilanishidir.

Albatta, jinoiy-huquqiy javobgarlik boshqa huquqiy javobgarlik turlariga nisbatan ancha og'ir shaklda, ya'ni hayvonot dunyosining o'lishiga, qirilib ketishiga, kamayib qolishi yoki boshqa holatlarda sodir etilgan ekologik huquqbuzarlik uchun qo'llaniladi. Sodir etilgan bunday huquqbuzarlik uchun O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilgan Jinoyat kodeksining 202-moddasida aniq javobgarlik va jazo chorasi belgilangan. Unga ko'ra, ovchilik, baliqchilik yoki hayvonot dunyosining boshqa turlarini ushlash qoidalarini buzish, noyob hayvonlarni tutishning belgilangan tartibi yoki shartlarini yoxud o'simliklarning dori-darmon, oziq-ovqat va manzarali (dekorativ) turlarini yig'ish yoki tayyorlash, shuningdek, maxsus qo'riqlanadigan tabiiy hududlardagi hayvonot va o'simlik olamidani foydalanish tartibini buzish ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

O'sha qilmishlar:

a) hayvonlar, parrandalar, baliq, hayvonot va o'simlik dunyosining «Qizil kitob»ga kiritilgan boshqa turlarini nobud qilish bilan;

b) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, –

eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha qilmishlar:

a) xavfli retsivist tomonidan;  
b) shaxsning o‘z xizmat mavqeidan foydalanib;  
v) yer, suv yoki havoda ishlatiladigan mexanizatsiyalashtirilgan vositalardan foydalanib;

g) portlash qurilmalari, zaharli kimyoviy moddalar yoki boshqa yalpi qirib yuboradigan yoki nobud qiladigan usullarni qo‘llagan holda;

d) uyushgan guruh tomonidan;

ye) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa, – eng kam oylik ish haqining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

«Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlik ushbu qonunning 39-moddasiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Shuningdek, «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi va «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunlarida ko‘rsatilgan.

Ushbu qonunning 49-moddasiga asosan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonun xujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

– tabiat-qo‘riqxonalar fondi hududlari va obyektlaridan o‘z o‘rnida foydalanmaslikda, alohida muhofaza etiladigan hududlarni barpo etish va ular ishini yo‘lga qo‘yish loyihalarining talablarini buzganlikda;

– muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ularning muhofaza etiladigan tegralari doirasida man etilgan xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanganlikda;

– muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning obyektlari va muhofaza etiladigan tegralarida oldindan ekologik ekspertiza o‘tkazmay turib yoki bunday ekspertiza xulosalarini buzgan holda xo‘jalik faoliyatini yo‘lga qo‘yganlikda;

– muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda falokatlarning ekologik oqibatlarini va boshqa zararli ta’sirlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rmaganlikda;

– muhofaza etiladigan tabiiy hududlar barpo etish to‘g‘risidagi iltimosnomalarni qarab chiqish muddatlari va tartibini buzganlikda;

– muhofaza etiladigan hududlardan foydalanish talablarini buzganlikda;

– muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanishda kimyoviy, fizik, biologik va o‘zga xil ta’sirlar yo‘l qo‘yiladigan me’yordan oshib ketganlikda, bunday hududlarini istifoda etish uchun berilgan ruxsatnomalarning talablarini buzganlikda;

– muhofaza etiladigan tabiiy obyektlarning tabiiy majmuilari hamda ularning tarkibiga kiritishni mo‘ljallab asrab qo‘yilgan joylarni buzganlikda, ularga shikast yetkazganlikda yoki ularni yo‘q qilganlikda;

– muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning chegarasini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirganlikda, bunday hududlarni o‘zboshimlik orqali boshqa ehtiyojlar uchun ajratib berganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar intizomiy, fuqarolik, ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunlarni o‘zgacha tarzda buzganlik uchun ham javobgarlik belgilanishi mumkin.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, o‘zga yuridik va jismoniy shaxslar muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ish tartibini buzish orqali yetkazgan zararlarining o‘rnini qonunlarda belgilangan hajmda va tartibda qoplashga majburdilar.

Umuman olganda, «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi qonun va talablarni buzganlik uchun intizomiy, mulkiy (fuqarolik) ma’muriy va jinoiy javobgarliklar qo‘llaniladi.

*Intizomiy-huquqiy javobgarlik* – ko‘proq holatda mehnat intizomini buzish oqibatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo turi.

Shuning uchun ham u, asosan, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining<sup>1</sup> 181-moddasiga binoan:

1) xayfsan;

2) o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima.

Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o‘rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish Mehnat kodeksining 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismining 3 va 4-bandlari).

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. – Т., 2010.

Ushbu moddada nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo‘llash taqiqlanadi.

*Fuqarolik-huquqiy javobgarlik* – muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonun va talablarni buzganlik uchun qo‘llaniladigan jazolardan biri.

Bu, asosan, yetkazilgan zararni qoplash, tiklash va qaytarish bilan ko‘proq bog‘liq va Fuqarolik kodeksi<sup>1</sup> bilan tartibga solinadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning holatiga zararli ta’sir o‘tkazayotgan korxonalar, tashkilotlar, sexlar, qurilmalarning faoliyati zararli ta’sir ko‘rsatayotgan manbalar, shu jumladan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hamda ularning muhofaza qo‘riqlanma tegralari tashqarisidagi manbalar bartaraf etilgunga qadar to‘xtatib turiladi yoki cheklab qo‘yiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga yetkazilayotgan zararni bartaraf etishning imkoni bo‘lmasa, korxonalar, tashkilotlar, sexlar va qurilmalarning faoliyati to‘xtatiladi hamda ularning faoliyat yo‘nalishi o‘zgartirilganidan va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga zararli ta’siri to‘la bartaraf qilinganidan keyingina faoliyatlari amaldagi qonunlarga muvofiq qayta tiklanishi mumkin.

*Ma’muriy-huquqiy javobgarlik* – O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining<sup>2</sup> 82-moddasiga ko‘ra «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar» tartibini buzganlik uchun qo‘llaniladi. Unga asosan, davlat qo‘riqxonasi tartibini buzish, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – uch baravaridan besh baravarigacha bo‘lgan miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Davlat milliy tabiat bog‘lari, buyurtma qo‘riqxonalari, tabiat yodgorliklari, suvni muhofaza qilish tegralari, kurort tabiiy hududlari, botanika bog‘lari, dendrologiya va hayvonot bog‘lari, qo‘riqlanma (oraliq) tegralar, o‘rmonlarning taqiqlangan mintaqalari, baliq xo‘jaligi tegralari va muhofaza etiladigan o‘zga hududlar tartibini buzish –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. – Т., 2011.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. – Т., 2010.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, –

fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan yetti baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

*Jinoiy-huquqiy javobgarlik* – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini (rejimini) buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi<sup>1</sup> 204-moddasiga asosan:

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, –

eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq ishlari bilan jazolanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hudud yoki obyektlarni qasddan nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, –

eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ish tartibini ta'min etish masalalariga doir korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar, davlat idoralari o'rtasidagi nizolar sud yoki xo'jalik sudi tomonidan qarab chiqiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi tabiiy zaxiralardan foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalariga doir nizolar yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari, atmosfera havosini muhofaza qilish, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarda belgilangan tartibda hal etiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga doir munosabatlar bilan bog'liq mulkiy nizolar qonunlarda belgilangan tartibda sud yoki xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2013.

### **3-§. Hayvonot dunyosidan foydalanish, muhofaza qilish hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va vazifalari**

O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilishda alohida o‘rin egallaydilar.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘z huquqlari doirasida o‘zaro kelishilgan yoki shartnoma asosida davlat qo‘riqxonalari, davlat milliy tabiat bog‘lari, davlat buyurtma qo‘riqxonalari va davlat tabiat yodgorliklarini, suvni muhofaza qilish mintaqalari (tegralari), kurort tabiiy hududlari, rekreatsion tegrallar, botanika bog‘lari, dendrologiya bog‘lari, qo‘riqlanma (oraliq) tegralari, hayvonot bog‘lari, baliq xo‘jalik tegralari va boshqa hududiy obyektlarni qo‘riqlaydilar.

Shuni uchun ham huquqni muhofaza qiluvchi organlardan biri bo‘lgan ichki ishlar organlari tarkibiga kiruvchi qo‘riqlash (xizmati) bo‘linmasining mazkur sohadagi vazifalari ancha ko‘p. Qo‘riqlash xizmatining ishi o‘z vaqtida profilaktika inspektorlari, yong‘in xavfsizligi xizmati va DYHXX xodimlari bilan ham bog‘liq bo‘lib, o‘z huquq jarayonida ular bilan birgalikda ish olib boradilar.

Ichki ishlar organlari xodimlari muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish davrida O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va IIVning bir qator normativ-huquqiy hujjatlariga amal qiladilar.

Demak, ichki ishlar organlari tizimidagi profilaktika inspektorlari, muhofaza (qo‘riqlash) hamda yong‘indan saqlash bo‘linmalari hayvonot dunyosini ekologik muhofaza qilishda muhim ishlarni olib boradilar.

Ichki ishlar organlarining bo‘linmalari O‘zbekiston Respublikasi-ning «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish», «Sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi, «Veterinariya to‘g‘risida»gi qonun talablarini amalga oshiradilar.

Barcha bo‘linmalar, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ish olib borib, hayvonot dunyosi va uning barcha turlaridan noqonuniy foydalanishga qarshi kurashadilar.

Shuningdek, ichki ishlar organlari hayvonot dunyosida turli kasalliklar, ularning oldini olish va ushbu kasalliklarga qarshi kurashish, noqonuniy ov qilish, ularni otib o‘ldirish, qirib yuborish, ular yashayotgan muhitni buzish, ular yashayotgan joylarda yong‘in xavfining oldini olish va boshqa bir qator vazifalarni amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan bu masalaga jiddiy e’tibor berdi va 2004-yil 3-dekabrda «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi qonun<sup>1</sup>ni qabul qildi.

Mazkur qonun hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko‘zlab noyob hamda ekologik, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, tibbiy va estetik nuqtai nazardan milliy boylik va umumxalq mulki bo‘lgan qimmatli tabiiy majmualarni muhofaza etishning umumiy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘simliklar va hayvonot dunyosini hamda davlat milliy tabiat bog‘lari va tarixiy yodgorliklarini saqlab qolish, ularning sonini ko‘paytirish inson hayotini ekologik normal saqlashga, tabiat bilan jamiyat va inson o‘rtasidagi ma’lum mutanosiblikni shakllantirishga katta yordam beradi.

Hozirgi paytda respublikamizda qo‘riqlanadigan yerlarning umumiy maydoni 2 million gektardan ortiq, alohida qo‘riqlanadigan 11 tabiiy hududiy obyekt, jumladan 9 qo‘riqxon, 400 dan ortiq tabiat yodgorliklari mavjud. Demak, ana shunga o‘xshash muhofaza etiladigan va boshqa tabiiy hududlar huquqiy muhofaza qilinmog‘i lozim.

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi qonunning asosiy vazifalari tipik, noyob qimmatli tabiiy obyektlar va majmualarni, o‘simlik va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolishdan, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatilishining oldini olishdan, tabiiy jarayonlarni o‘rganishdan, atrof tabiiy muhit monitoringini olib borishdan, ekologik ma’rifat va tarbiyalashni takomillashtirishdan iborat.

Mazkur qonunning 4-moddasiga ko‘ra, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar – bu yerning va (yoki) suv kengliklari (akvatoriyalar)ning ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik bo‘lgan, xo‘jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to‘liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisoblanadi.

Tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko‘paytirish va tiklash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda muhofaza kilish va foydalanish rejimi (bundan buyon matnda rejim deb yuritiladi) o‘rnatiladi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik, landshaft rang-barangligini ta’minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo‘ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2005. – №1. –14-м.

Xullas, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar huquqiy holatining quyidagi xususiyatlari mavjud:

1) uning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qo‘ygan talabiga mosligi, konstitutsiyaviy ustuvorlikka ega ekanligi hamda davlat tomonidan muhofaza etilishi;

2) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holatini o‘rganish va u to‘g‘risidagi qonun davlat qo‘riqxonalari, davlat milliy tabiat bog‘lari, davlat buyurtma qo‘riqxonalari va davlat tabiat yodgorliklari, muhofaza etiladigan o‘zga tabiiy hududlar va boshqa masalalarni hamda u bilan bog‘liq barcha munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishi;

3) u yangi ijtimoiy tuzum bozor munosabatlarini mustahkamlash va ekologik siyosatni barqarorlashtirish uchun yangi huquqiy-ekologik zamin bo‘lib, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish hamda ularni huquqiy tartibga solishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi;

4) mazkur sohani huquqiy tartibga solish bozor iqtisodiyotida qabul qilingan ekologik qonunlarni qo‘llash va ular bilan birgalikda ekologik muhitni yaxshilashga, tabiat obyektlaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga, ayniqsa, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlashga xizmat qilishi;

5) ushbu soha fuqarolarimizdan shu kungi hayot talabi asosida ekologik-huquqiy ma‘naviyat va madaniyatli bo‘lishni hamda ushbu yo‘nalishda doim yuksalish bo‘lishini taqozo qilishi va boshqa xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

*Davlat qo‘riqxonalari va ularning huquqiy tartibi.* O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning nodir va tugab borayotgan turlarini saqlab qolish, sonini ko‘paytirishda qo‘riqxonalar va xalq xiyobonlarining ahamiyati kattadir. Qo‘riqlanadigan yerlarning umumiy maydoni 2 million gektardan ortiq. Respublikada qo‘riqlanadigan 11 tabiiy-hududiy obyekt, shu jumladan 9 qo‘riqxonalar mavjud. Bular Chotqol, Qizilqum, Baday-to‘qay, Nurota, Zarafshon, Hisor, Surxon, Zomin, Kitob qo‘riqxonalaridir. Bu qo‘riqxonalarda bioekologik tadqiqotlar olib boriladi.

Ta’kidlash joizki, davlat qo‘riqxonalarining ta’rifi va vazifalari O‘zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi qonunida aniq ko‘rsatib berilgan. Mazkur qonunning 18-20-moddalari ushbu jarayonga bag‘ishlangan. Jumladan, 18-moddaga ko‘ra, davlat qo‘riqxonalarini tashkil etish: tabiiy obyektlar va majmualarni muhofaza qilishning qattiq rejimiga ega bo‘lgan, tipik ekologik tizimlar, o‘simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish hamda o‘rganish



uchun mo'ljallangan, umumdavlat ahamiyatiga molik muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat qo'riqxonalari hisoblanadi.

Davlat qo'riqxonalari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat tabiatni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot muassasasi shaklida tashkil etiladi. Davlat qo'riqxonalari bunday qo'riqxonalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

Shuningdek, 19-moddada davlat qo'riqxonalarining rejimi ham aniq ko'rsatilgan.

Davlat qo'riqxonalarining hududida har qanday faoliyat taqiqlanadi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish bundan mustasno. Davlat qo'riqxonalarida yong'inga karshi tadbirlar o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi.

Davlat qo'riqxonalari hududida hamda ularning qo'riqlanma zonalarida tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish taqiqlanadi.

Davlat qo'riqxonalarining yoki ular kaysi davlat organlarining tasarrufida bo'lsa, shu davlat organlarining xodimi hisoblanmaydigan fuqarolarning davlat qo'riqxonalari hududida bo'lishiga ularda ana shu organlar yoki davlat qo'riqxonasi ma'muriyati bergan ruxsatnoma bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Tabiat bog'lari:

Tabiat bog'lari bilan bog'liq bo'lgan barcha ekologik-huquqiy muammolar O'zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Qonunning V bo'lim 23-25-moddalari bevosita mazkur masalaga bag'ishlangan. Ushbu qonunda tabiat bog'larining ta'rifi va aniq vazifalari ko'rsatib berilgan.

Ekologik, madaniy va estetik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyektlar va majmualarni tabiatni muhofaza qilish yo'nalishidagi, rekreatsiya, ilmiy va madaniy maksadlarda saqlab qolish hamda ulardan foydalanish uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiat bog'lari hisoblanadi.

Tabiat bog'lari maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan tegishincha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari bilan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklida tashkil etiladigan milliy tabiat bog'lari va mahalliy ahamiyatga molik tabiat bog'lariga bo'linadi.

Tabiat bogʻlari bunday bogʻlar toʻgʻrisidagi, ular qaysi davlat organlarining tasarrufida boʻlsa, shu davlat organlari tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida faoliyat koʻrsatadi.

Davlat tabiat yodgorliklari:

Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi respublika hududida 400 dan ortiq tabiat yodgorligini hisobga olgan. Bulardan atiga 80 ga yaqini jonsiz tabiat yodgorliklaridir. Jonsiz tabiat yodgorliklari orasida xilma-xil karst relyefi shakllari, shu jumladan, arxeologik ahamiyatga ega boʻlgan gʻorlar va ungurlar, shuningdek nodir buloqlar, sharsharalar, ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega boʻlgan qoyalar va geologik ochilmalarni muhofaza qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, yer osti landshaftlari, ularning betakror, sehri va maftunkor manzaralari jiddiy muhofazaga muhtojdir.

Shuning uchun ham Oʻzbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida»gi qonunida VI boʻlim 26-28-moddalari aynan ana shu masala, yaʼni davlat tabiat yodgorliklarining huquqiy-ekologik ahamiyati va ularni muhofaza qilish masalasiga bagʻishlangan.

Jumladan, 26-moddaga koʻra, davlat tabiat yodgorliklarining turlari quyidagilardir: Noyob, oʻrnini toʻldirib boʻlmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlari bor muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat tabiat yodgorliklari hisoblanadi.

*Davlat tabiat yodgorliklari quyidagi turlarga boʻlinadi:*

– tabiiy suv obyektlarini saqlab qolish uchun moʻljallangan gidrologik (botqoq, koʻl, daryo va boshqa) yodgorliklar;

– ayrim oʻsimliklarni saqlab qolish uchun moʻljallangan botanik yodgorliklar;

– tabiat yaratgan relyef shakllarini saqlab qolish uchun moʻljallangan geomorfologik yodgorliklar;

– qazilma obyektlarni saqlab qolish uchun moʻljallangan paleontologik yodgorliklar;

– geologik va mineralogik hosilalarni saqlab kolish uchun moʻljallangan geologik va mineralogik yodgorliklar.

Tabiiyki, respublikamiz hududidagi tabiiy, tarixiy va arxeologik yodgorliklar hozirgi paytda aynan muhofazaga, tiklanish (restavratsiya)ga juda muhtoj.

Ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan noyob, oʻrnini toʻldirib boʻlmas, qimmatli, kelib chiqishi tabiiy boʻlgan obyektlar davlat tabiat yodgorliklari deb eʼlon qilinadi.

Shuningdek, mazkur qonunda, ayrim tabiiy obektlar va majmualarni saqlab qolish takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar (29-34-m.), muhofaza etiladigan lanshadlar (35-41-m.), ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar (42-43-m.) va boshqa muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy holati o'z ifodasini topgan.

### ***Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:***

- 1. Hayvonot dunyosidan foydalanish huquqining vujudga kelishi deganda ntmani tushunasiz?*
- 2. «Hayvonot dunyosiga nisbatan mulk huquqi» tushunchasi haqida so'z yuriting..*
- 3. Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?*
- 4. Hayvonot dunyosining monitoringi qanday amalga oshiriladi?*
- 5. O'zbekiston Respublikasining «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi qonunining ahamiyati va vazifalari nimalardan iborat?*
- 6. Davlat qo'riqxonalarining huquqiy holati to'g'risida so'z yuriting.*
- 7. Rekreatsiya zonalari va ularning huquqiy holati qanday bo'ladi?*
- 8. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik deganda nimani tushunasiz?*
- 9. Muhofaza etiladigan tabiiy huddalar qanday toifalarga bo'linadi?*
- 10. Hayvonot dunyosi obyektlariga nimalar kiradi?*
- 11. Hayvonot dunyosidan foydalanishning qanday turlari mavjud?*
- 12. Hayvonot dunyosidan foydalanishning qanday usullari bor?*

---

---

*To‘qqinchi bob*

**ATROF TABIIY MUHITNI XALQARO EKOLOGIK-HUQUQIY  
MUHOFAZA QILISH**

**1-§. «Xalqaro ekologiya huquqi» tushunchasi, vazifalari va uning  
o‘ziga xos xususiyatlari**

Hozirgi paytda atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish eng dolzarb muammodir. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish-xalqaro ekologiya huquqi bilan tartibga solinadi.

Xalqaro ekologiya huquqi rivojlanib borayotgan xalqaro huquqning ancha keng institutlaridan biri bo‘lib, keyinchalik huquq tizimining yagona bir tarmog‘i bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun ham ayrim yuridik adabiyotlarda xalqaro ekologiya huquqining turli muammolari ko‘rsatilgan va ushbu masalaga ko‘proq ahamiyat berilgan.

Xalqaro ekologiya huquqi hozirgi davrdagi xalqaro ekologik qonunchilikning rivojlanishi va amalga oshirilishi munosabati bilan rivojlanib bormoqda.

Xalqaro ekologiya huquqi xalqaro miqyosda ekologik qonunlarni va barcha xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan huquqiy normalarni tartibga solib, xalqaro prinsiplarga mos holatda tabiatni, atrof-muhitni muhofaza qilishga hamda barcha tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishga, dunyo xalqlariga sof, musaffo, boy tabiatni ta‘minlashga qaratilgandir.

Xalqaro ekologiya huquqining *predmeti* xalqaro ekologik munosabatlari, dunyo xalqlari, ya‘ni inson va atrof-tabiiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro chambarchas bog‘liqlik hisoblanadi.

Xalqaro ekologiya huquqining subyekti, millat va xalqlar, o‘z mustaqilligiga ega bo‘lgan barcha davlatlar, xalqaro tashkilot va birlashmalar, xalqaro ekologik munosabatlarga qatnashuvchi va hal etuvchi barcha yuridik hamda jismoniy shaxslar tan olinadi.

Xalqaro ekologiya huquqining obyektini dunyoviy ahamiyatga ega bo‘lgan, butun xalq, millat va elatning yashashi uchun hayot manbai, ya‘ni yer, suv, havo (atmosfera) o‘simlik va hayvonot dunyosi, o‘rmon, barcha yer osti va yer usti boyliklari, butun tabiat ona zamin hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro ekologiya huquqining bir qator xususiyatlari ham mavjud:

- xalqaro ekologik-huquqiy munosabatlarni mustahkamlaydi va tartibga soladi;
- mavjud xalqaro ekologik holat, ekologik xavfsizlik va muammolar xalqaro prinsiplar asosida ko‘rib chiqiladi va hal etilishi ta‘minlanadi;
- qabul qilingan barcha xalqaro ekologik-huquqiy normativ hujjatlar, bitta davlat emas, balki bir nechta davlatlar va xalqlar manfaatidan kelib chiqiladi;
- xalqaro miqyosda tuzilgan barcha ekologik-huquqiy normalar xalqaro prinsiplarga asosan amalga oshirilishi davlatlar tomonidan ta‘minlanadi va hokazo.

## **2-§. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilishning tamoyillari va manbalari. Xalqaro hamkorlik**

Ekologiya huquqida atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish tamoyilari xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan kelib chiqadi va xalqaro ekologiya huquqiga nisbatan qo‘llaniladi.

Mazkur tamoyil (prinsip)larni qo‘llashdan asosiy maqsad, tabiiy muhitni va uning boylik manbalarini saqlash hamda ulardan oqilona foydalanishdir.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish tamoyillari asosan BMT va uning atrof muhit bo‘yicha o‘tkazilgan Stokgolm konferensiyasi (1972), Yevropada xavfsizlikni ta‘minlashning yakuniy hujjatida (Xelsinki, 1975) va Umumjahon tabiat xartiyasida hamda Rio-de-Janeyro konferensiyasi (1992) qarorlarida aniq ko‘rsatib berildi.

*1. Tabiatni muhofaza qilish va uning mutanosibligini saqlash tamoyili.* Bunga asosan barcha davlatlar tabiat va uning boyliklarini muhofaza qilishlari hozirgi va kelajak avlodlar faravonligini ko‘zlab ekologik tadbirlarni birgalikda amalga oshirishlari lozim. Zero, tabiatni muhofaza qilish ishida barcha davlatlar bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari zarur. Bunday ekologik hamkorliklar teng huquqli va o‘zaro manfaat asosidagi shartnomalarga muvofiq amalga oshirilishi shart.

*2. O‘z hududida tabiat boyliklariga nisbatan suverenitetlik prinsipi.* Ushbu prinsip dastlab BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1962-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Tabiiy boylik manbalari ustidan ajralmas suverenitet» qarorida o‘z ifodasini topgan. Bu prinsip har bir davlat o‘z tabiiy boyliklarini o‘z siyosatiga muvofiq erkin tasarruf etish bo‘yicha suveren huquqqa ega ekanligini ko‘zda tutadi, boshqa davlatlarga esa bu huquqni hurmat qilish majburiyatini yuqalaydi.

3. *Inson ekologik huquqining afzalligi.* Bu prinsipga asosan insonning yashashi uchun qulay ekologik sharoit bo'lishini ta'minlash, har qanday jarayonda insonning ekologik yashash omili birinchi o'rinda turishi lozim.

4. *Hamma sohada ekologik nazoratni tashkil etish va olib borish.* Olib borilayotgan barcha nazorat tartibi xalqaro huquq qoidalariga mos bo'lib, O'zbekiston Respublikasida «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning VII bo'lim 28-32-moddalari asosida amalga oshirilishi lozim.

5. *Xalqaro miqyosda ekologik axborotni erkin almashinish tamoyili.* Mazkur holat bo'yicha davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati tabiiy muhitda sodir bo'layotgan fizik, kimyoviy, biologik jarayonlarni, atmosfera havosi, tuproq, yer usti va yer osti suvlarining ifloslanish darajasini, ifloslanishning o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri oqibatlarini kuzatib borish, manfaatdor tashkilotlar va aholini atrof tabiiy muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida joriy va shoshilinch axborotlar hamda bu muhit holatiga doir taxminlar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

6. *Favqulodda ekologik vaziyat holatida davlatlarning bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatishi.* Davlatlarning o'zaro kelishuvlari asosida favqulodda ekologiya vaziyati va ekologiya ofati mintaqalarida shu vaziyatni keltirib chiqargan ishlar to'xtatilib qo'yiladi, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir etuvchi faoliyat (aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat bundan mustasno) taqiqlanadi, tabiiy muhitni tiklash va sog'lomlashtirish chora-tadbirlari ko'riladi.

7. *Xalqaro ekologik-huquqiy kelishmovchilik va nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish.* Xalqaro miqyosda kelib chiqadigan ekologik-huquqiy nizolar, davlatlarning o'zaro kelishuviga asosan tuzilgan bitim yoki shartnoma asosida tinch yo'l bilan hal etiladi.

Shuningdek, hozirgi davrda yana bir qator tamoyillarni shakllanish jarayoni kechmoqda:

– boshqa davlatlarning ekologik masalalar bilan bog'liq bo'lgan ishlariga aralashmaslik;

– ekologik muammolarni hal etishdagi hamkorlik;

– tinchlik va ekologik xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

– ekologik muammolarni hal qilishni ko'p tomonlama kelishuv asosida rivojlantirish;

– ekologik baho berish va boshqalar.

Xalqaro ekologiya huquqida atrof tabiiy muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilish obyektlarini o'rganish juda katta ahamiyatga ega.

Atrof tabiiy muhit xalqaro ekologik-huquqiy muhofazasi obyekti bo‘lib, bunga yerning butun sayyora muhiti, jahon ummoni va uning tabiiy boyliklari bo‘lgan atmosfera havosi, yer atrofi kosmik fazosi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, suv boyliklari, yerning genetik fondi va boshqalar kiradi.

*Xalqaro huquqda xalqaro ekologik-huquqiy nuqtai nazardan barcha jahon tabiiy boyliklari asosan ikki turkumga bo‘linadi:*

- 1) ichki davlat (milliy) tabiiy boyliklari;
- 2) xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy boyliklar.

*Ichki davlat (milliy) tabiiy boyliklari* mustaqil davlatlarning bevosita yuridiksiyasi ostida bo‘ladi. Zero, ularning huquqiy-ekologik holatini belgilashda davlatning ichki ekologik-huquqiy va boshqa normalari katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Hozirgi paytda mustaqil Respublikamizning ushbu boyliklarini muhofaza qilishga oid bir qancha bitim va shartnomalar qabul qilinmoqda.

*Xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy boyliklar* milliy yuridiksiyaning amal qilish chegaralari doirasidan tashqari holatda bo‘lib, turli davlatlar hududida bo‘ladi. Ushbu obyektlar, odatda barcha davlatlar o‘rtasida foydalaniladi.

Masalan, ochiq dengiz, kosmos, havo basseyni, Antarktida, dengiz tubi, daryolarning suv resurslari, ko‘chib va uchib yuradigan hayvonot turlari hamda davlatlar o‘rtasidagi chegara doirasidan tashqari holatda foydalanadigan barcha obyektlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, xalqaro miqyosda gi «xalqaro Qizil kitob»ga kirgan barcha hayvonot va o‘simliklar dunyosining turlari ham alohida obyektlar bo‘lib, ularni muhofaza qilishda xalqaro hamkorlik kerak bo‘ladi.

Masalan, Antarktida. U oltinchi qit‘a sifatida hech qanday davlat va xalqaro tashkilot yurisdiksiyasiga kirmaydi. Uni muhofaza qilish barcha davlatlarning o‘zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Hozirgi paytda Antarktida qit‘asidan foydalanish va muhofaza qilishning asosiy prinsiplari 1959-yilda imzolangan «Antarktida to‘g‘risida»gi shartnomaga asosan tartibga solinadi. Unga asosan, erkin ilmiy-tekshiruv faoliyati olib borish, har qanday harbiy xarakterdagi zararli tadbirlarni o‘tkazmaslik, tirik mavjudotni qo‘riqlash kabi muammolarni xalqaro birgalikda hal etishga alohida e‘tibor berilgan.

Xullas, xalqaro tabiiy boyliklarning ekologik muhofazasi va ulardan foydalanish huquqiy-ekologik holati xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Xalqaro huquqda atrof tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofaza qilish manbalari bu xalqaro hamjamiyat davlatlarning atrof-tabiiy

muhitni ekologik-huquqiy muhofaza qilishga va undan oqilona foydalanishga qaratilgan o'zaro hamkorligi faoliyatini erkin amalga oshirishdir.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilishning manbalarini ikki guruhga bo'lish mumkin. *Birinchi kategoriya manbalarga* konvensiya (kelishuv bitim va shartnomalar) kiradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi jahondagi yetakchi mamlakatlarning 120 dan ortig'i bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan.

Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan hamda 19 xorijiy davlatning elchisi O'zbekiston Respublikasida o'rindoshlik yo'li bilan ishlab turibdi.

O'zbekistonda 88 xorijiy vakolatxona ro'yxatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo va 13 ta hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida ko'pgina nufuzli davlatlar bilan bir qator konvensiyalarga qo'shilgan, ular bilan tegishli shartnoma, bitim va kelishuvlar tuzilgan.

Iqlimning o'zgarishi bo'yicha konvensiya (1993-yil 14-may), Biologik xilma-xillikni ta'minlash bo'yicha konvensiya (1996-yil 7-may), Xavfli chiqindilarning chegaradan olib o'tilishini nazorat qilish bo'yicha Bazel konvensiyasi (1996-yil 7-may), Yerlarning cho'lga aylanib qolishiga qarshi kurash bo'yicha konvensiya (1995-yil 13-oktabr)lar shular jumlasidandir.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bu konvensiyalarda qabul qilingan majburiyatlarini bajarish bo'yicha qator amaliy choralarni ko'rmoqda. Jumladan, atmosfera havosini, ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi va Monreal protokoli doirasida ozon qatlamini yemiradigan moddalar inventarizatsiyasi o'tkazilib, milliy harakat dasturi tayyorlanmoqda. Bu dastur asosida biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha barcha tadbirlar Markaziy Osiyo respublikalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasida Turkiya Respublikasi (1996-yil 8-may) va Xitoy Xalq Respublikasi (1997-yil 11-dekabr) bilan ikki tomonlama hamkorlik bitimlari imzolangan. Bunday bitimlarni boshqa davlatlar bilan tuzish uchun ham tayyorgarlik mavjud.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi Davlatlararo ekologik kengash (DEK)ning faol ishtirokchisi hisoblanadi. DEK tashkil etilgandan beri sakkiz marta sessiya (3-sessiya 1993-yil may oyida



Toshkentda) o‘tkazilib, ularda ekologiya sohasida ishtirok davlatlar o‘zaro hamkorligining dolzarb masalalari muhokama qilindi, qator bitimlar imzolanib, nizomlar ishlab chiqildi.

MDH doirasida ham atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Gruziya davlatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik bitimlari imzolangan.

Ikkinchi kategoriya manbalarga BMT Bosh Assambleyasining bir qator rezolyutsiya, deklaratsiya va xartiyalari kiradi.

Ushbu kategoriyadagi manbalar ichida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tashkil etilgan va chaqirilgan Stokgolm deklaratsiyasi (1972-yil) katta ahamiyatga ega.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1980-yil sentabr oyida qabul qilingan «Barcha davlatlarning hozirgi va kelajak avlod uchun yer (kurrasi)ni saqlash uchun tarixiy javobgarligi» to‘g‘risidagi rezolyutsiyasi ahamiyatlidir. Mazkur rezolyutsiya dunyo xalqlari va barcha davlatlarning harbiy qurollanishni qisqartirishga va tabiatni muhofaza qilishga oid aniq tadbirlarini belgilaydi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1982-yil tasdiqlangan «Butun jahon tabiatni muhofaza qilish xartiyasi» ham katta ahamiyatga ega hujjat.

Ushbu hujjat 1982-yil 28-oktabr BMT Bosh Assambleyasi 37-sessiyasining rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan. Xartiyada tabiatni muhofaza qilishning 24 asosiy prinsiplari ko‘rsatib berilgan. Mazkur hujjatda ekologik ta’lim va tarbiya masalasiga alohida e’tibor berilgan.

Xalqaro huquqda jahon ummoni – daryo, dengiz, okean va boshqa suv resurslarini xalqaro ekologik muhofaza qilish katta ahamiyatga ega. Chunki inson va boshqa tirik mavjudotlarning normal yashashi, ko‘payishi hamda saqlanishi uchun suv boyliklari ma’lum mutanosiblikda saqlanishi zarur.

Dengiz muhitini himoya qilish bo‘yicha davlatlarning birgalikdagi harakati qoida tariqasida universal (amalda barcha manfaatdor davlatlar ishtiroki bilan) yoki mintaqaviy (aniq dengizlar – Boltiq, O‘rta yer va boshqa dengizlar bo‘yi davlatlarning ishtiroki bilan) darajalarda amalga oshiriladi. Bunday xalqaro hamkorlik rivojlanishi asosan dengizlarning kema qatnovi oqibatida, kemalar va quruqlikdagi manbalardan chiqindilarni chiqarib tashlash tufayli, dengiz tubi imkoniyatlarini tadqiq qilish va foydalanish natijasida ifloslanishining oldini olishni ko‘zda tutadi.

Dengiz muhitini muhofaza qilishga qaratilgan ko‘plab xalqaro hujjatlar orasida 1954-yildagi dengizlarni neft bilan ifloslanishining oldini olish to‘g‘risidagi London konvensiyasi (1962, 1969 va 1971-

yillardagi tuzatishlar bilan), 1973-yildagi kemalardan dengizlar ifloslanishining oldini olish bo'yicha xalqaro konvensiya, 1972-yildagi chiqitlar va boshqa materiallar bilan dengizlar ifloslanishining oldini olish bo'yicha konvensiya singari ko'p tomonlama xalqaro bitimlar markaziy o'rinni egallaydi.

1954-yilgi London konvensiyasi (1958-yili kuchga kirgan) davlatlarning zimmasiga dengiz muhiti ifloslanishining oldini olish bo'yicha muayyan majburiyatlar yuklovchi dastlabki xalqaro bitim bo'lgan edi. Konvensiya kemalardan neft va neft-suv aralashmasini to'kishni taqiqlaydi. Dastlab to'kish uchun taqiqlanmagan maxsus zonalar belgilangandi, lekin keyinchalik (1969-yilgi tuzatishga muvofiq) juda oz darajadagi istisnoni hisobga olmaganda jahon ummonining butun akvatoriyasida bunday to'kish taqiqlab qo'yildi. Konvensiya ishtirokchi davlatlar zimmasiga portlarda kemalar va tankerlardan neft qoldiqlari va aralashmalarini qabul qilib oluvchi qurilmalar qurish majburiyatini yuklaydi.

Jahon ummoni suvlarini ifloslanishdan saqlash bilan birga jonli dengiz boyliklarini kamayishdan saqlash va ulardan oqilona foydalanish ham g'oyat muhim vazifa hisoblanadi. London konvensiyasi dengiz baliqchiligini xalqaro huquqiy tartibga solishning asosiy g'oyasini tashkil etadi. 1958-yilgi ochiq dengizda baliq ovlash va tirik jonivorlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi (1966-yilda kuchga kirgan) ochiq dengizda baliq ovlash erkinligi tamoyilini e'lon qildi. Shu bilan birga, davlatlarga jonli resurslarni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar ko'rish va bu yo'nalishdagi jamoaviy tadbirlarda ishtirok etish majburiyatini yuklaydi. Xalqaro huquqning keng tan olingan qoidalari bunday masalalar bo'yicha ko'p tomonlama bitimlarda aniqlashtiriladi va rivojlantiriladi. Bular:

– davlatlarning jonli dengiz boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishda mintaqaviy hamkorlikni tashkil etish (1949-yildagi Atlantika ummonining shimoliy-g'arbiy qismida baliq ovlash to'g'risidagi konvensiya, 1959-yildagi Atlantika ummonining shimoliy-sharqiy qismida baliq ovlash to'g'risidagi konvensiya, 1959-yildagi Qora dengizda baliq ovlash to'g'risidagi bitim, Boltiq dengizida baliq ovlash va jonli resurslarni muhofaza qilish to'g'risidagi 1973-yilgi konvensiya va boshqalar);

– ovni tartibga solish va dengizdagi jonivorlarning ayrim turlarini muhofaza qilish (1962-yilgi Boltiq dengizidagi jonivorlarni muhofaza qilish to'g'risidagi bitim, 1946-yildagi Kit ovlashni tartibga solish

bo'yicha xalqaro konvensiya, 1972-yildagi Antarktida tulenlarni saqlash bo'yicha konvensiya) va boshqalar.

Chiqitlar va boshqa materiallar bilan dengizlarni ifloslantirishning oldini olish ifodalagan 1972-yilgi konvensiya (1975-yili kuchga kirgan) barcha xavfli moddalar va materiallarni jahon ummoniga cho'ktirib yuborishni tartibga soladi. Konvensiyada ko'zda tutilganidek, eng xavfli moddalar bunday tartibda cho'ktirib yoki ko'mib yuborilmaydi. Bunday moddalarni ko'mib yoki cho'ktirib yuborish uchun maxsus ruxsatnoma zarur. Unchalik xavfli bo'lmagan moddalarni ko'mish yoki cho'ktirish uchun esa umumiy ruxsat beriladi. Bunday modda va materiallarning ro'yxati konvensiyada ilovalarda ko'rsatib berilgan. Xususan, ishlanmagan yoki yoqilg'i nefti, og'ir dizel yoqilg'isi va moyi, yuqori radiaktiv chiqitlar, simob va simob birikmalari, mu'tadil plastmassalar, shuningdek, biologik va urushda foydalanish uchun tayyorlagan kimyoviy materiallarni dengiz va ummonga tashlash butunlay taqiqlanadi.

Kemalardan dengizlar ifloslanishining oldini olishga qaratilgan 1973-yilgi konvensiya (hali kuchga kirmagan) dengiz muhitini kemalardan dengizga chiqarilib tashlanuvchi har qanday moddalar: neft, zaharli suyuq moddalar, oqava suvlar va axlat bilan ifloslanishining barcha turlariga chek qo'yish zaruriyatidan kelib chiqadi. Uning qoidalari amalda barcha turdagi dengiz kemalariga, shu jumladan havo «yostig'i» bo'lgan kemalar, suvosti kemalari, doim bir joyda turuvchi va suzib yuruvchi kichik stansiyalarga taalluqli bo'ladi. Faqat harbiy, harbiy-yordam kemalari va hukumat savdo kemalari bundan mustasnodirlar. Konvensiyaga muvofiq neft va suyuq zaharli moddalar tashish uchun xizmat qiluvchi barcha tanker va boshqa kemalar vaqti-vaqti bilan tekshirib turilishi va tegishli xalqaro guvohnoma olishi kerak bo'ladi.

Xalqaro tarzdagi choralar davlatlarning mintaqaviy hamkorligi bilan to'ldirilmas, u yoki bu dengiz mintaqalarining o'ziga xosligi va xususiyatlari hisobga olinmas ekan, jahon ummoni muhitini muhofaza qilish yetarli darajada bo'lmaydi. Keyingi yillarda bir qator mintaqaviy xalqaro bitimlar xuddi mana shu maqsadlarni ko'zlab tuzildi. Bular: 1974-yildagi Boltiq dengizi mintaqasi muhitini muhofaza qilish bo'yicha konvensiya, 1976-yildagi O'rta yer dengizini ifloslanishdan muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya, Shimoliy dengizni ifloslanishdan saqlashga qaratilgan bir qator bitimlar, dengiz muhitini ifloslanishdan muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik qilish to'g'risidagi 1978-yilda qabul qilingan Quvayt mintaqaviy konvensiyasi shular jumlasidandir.

Hozirgi paytda transchegaraviy daryolar va boshqa suv havzalari davlatlar tomonidan asosan sanoat, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilmoqda.

Shuning uchun ham transchegaraviy daryolarning suvlaridan foydalanishning barcha masalalari hamma manfaatdor (qirg'oqbo'yi) davlatlarning kelishib yondashishi va hamkorligini taqozo etadi. Xalqaro shartnoma amaliyoti xuddi mana shu yildan borayotir. Xalqaro huquqda hozircha transchegaraviy daryolardan kema qatnovi, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa maqsadlarda foydalanishni tartibga soluvchi tamoyillar va me'yorlarni kodifikatsiyalovchi universal xalqaro konvensiya yo'q. Bunday foydalanishning barcha turlari (yoki ularning ayrimlari)ni tartibga soluvchi me'yorlar qirg'oqbo'yi davlatlar tomonidan turli daryo havzalari uchun xos bo'lgan omillarni, tabiiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlar hisobga olingan holda tuziladigan maxsus xalqaro bitimlarda ifodalanadi. Bu bitimlarning asosini suvdan teng huquqli odil foydalanish tamoyili tashkil etadi va boshqa davlatlarga suvni ifloslantirish yoki biron-bir boshqa yo'l bilan ziyon yetkazishdan tiyilish majburiyatini yuklaydi.

Xalqaro ekologiya huquqi muammosi sifatida Orol muammosi alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ekologik vaziyatlar, atrof-muhit muhofazasi chegara bilmaydi. Ayniqsa, bizning mintaqadagi davlatlar barcha ekologik muammolarni birgalikda, hamkorlikda hal etishlari zarur. Chunki, ular bir daryodan suv ichadilar, bir havodan nafas oladilar, bir zaminda yashaydilar. Shuning uchun ham atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlik respublikamiz tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xalqaro hamkorlik esa asosan Orol havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash, o'simlik va hayvonot dunyosi genetik fondini saqlab qolish, yer, suv, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish doirasida olib borilmoqda.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48 va 50-sessiyalarida hamda 2008-yilda Toshkent shahrida «Orol muammolari, ularning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot olamiga ta'siri hamda oqibatlarini yengillash-tirish uchun xalqaro hamkorlik chora-tadbirlari» xalqaro konferensiyasi ishtirokchilarigada so'zlagan nutqlarida<sup>1</sup> ham Orol muammosining Markaziy Osiyo hududi doirasidan chiqib ketganligi, uning jahonshumul

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодийетимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т. 16. – Т., 2008. – Б. 281-287.

ahamiyat kasb etganligi hamda uning salbiy oqibatlarini bugungi kunda iqlim sharoiti, biologik muvozanatning o'zgarishida, aholi salomatligi va bo'lg'usi avlod genefondiga salbiy ta'sirida ko'rinishi mumkin, deb juda to'g'ri ta'kidlagan edi.

Hozirgi paytda Orol muammosi nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo oldida turgan eng dolzarb ekologik muammodir. Shuning uchun bu masalani hal qilishda Markaziy Osiyo davlatlari, boshqa xorijiy davlatlar, keng jamoatchilik, turli tashkilotlar birgalikda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Shu masala yuzasidan 1993-yilda Toshkent va Qizilo'rda, 1994-yilda Nukus shahridagi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yuqori darajadagi uchrashuvida Orol dengizini qutqarish xalqaro fondini hamda Orol dengizi va Orolbo'yi mintaqasi muammolari bo'yicha davlatlararo Kengash tuzish haqida qaror qabul qilindi.

Shuning uchun ham Orol va Orolbo'yi muammolarini hal qilishda Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlikda ish olib bormoqdalar. AQSh, Yaponiya, GDR, Fransiya va boshqa rivojlangan davlatlar, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Jahon banki va boshqa turli davlat va nodavlat xalqaro tashkilotlari bu asr muammosini ijobiy hal qilishga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jahon ummoni daryo, dengiz va suv boyliklarini xalqaro huquqiy-ekologik muhofaza qilish barcha xalq, millat va elat hamda barcha davlatlarning o'zaro hamkorligini mustahkamlashni taqozo qiladi.

Xalqaro huquqda atmosfera havosi va kosmik fazoni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish katta ahamiyatga ega bo'lib, ular xalqaro havo huquqi va xalqaro kosmik huquqlar bilan ko'proq tartibga solinadi.

Tabiat boyliklari ichida atmosfera havosi inson hayotini saqlash, yashash turmush tarzini rivojlantirishda ko'proq ahamiyatga ega.

Shuningdek, atmosfera havosini doim barqaror, ekologik sof bo'lishi kosmik fazoning xavfsizligini, ekologik muvozanatda saqlanishini ta'minlaydi. Umuman olganda, atmosfera havosi chegara bilmaydigan atrof-muhitning serharakat elementi hisoblanadi. Shuning uchun ham atmosfera havosi va kosmik fazoni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilishda barcha davlatlarning o'zaro hamkorligi hamda faol ishtiroki kerak bo'ladi.

Binobarin, ana shunday talablarni amalga oshirish uchun 1920-1930-yillarda ko'pgina davlatlar o'z hududlarida atmosfera havosini va osmondagi havo kengligining huquqiy tartibini belgilovchi maxsus qonun hamda huquqiy hujjatlar qabul qildilar.

1929-yilda davlatlar xalqaro havo qatnoviga taalluqli ayrim qoidalarni bir me'yorga solish uchun konvensiya (1929-yil Varshava konvensiyasi) ishlab chiqish va tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

Havo kemalarining fazodagi uchish qoidalari va boshqa barcha muammolar 1944-yildagi Chikago konvensiyasida aniq ko'rsatib berilgan edi.

Kosmik fazoni o'zlashtirishning tezlashuvi, oy va boshqa samoviy jismlarning tatbiq etilishi shunga olib keldiki, kosmik muhitni zararli oqibatlardan muhofaza qilish zarurati tug'ildi.

Kosmosning radiaktiv zaharlanishidagi to'siq, ya'ni uni yadroviy sinov maydoniga aylantirishga to'siq bo'lib xizmat qilayotgan hujjat 1963-yildagi Moskva shartnomasidir. Bu shartnoma kosmik fazoda yadroviy qurollarni sinashni taqiqladi. 1967-yildagi Kosmos to'g'risidagi shartnoma, 1979-yilgi Oy va boshqa samoviy jismlardagi davlatlarning faoliyati to'g'risidagi bitim muhim muhofaza qoidalarini ifodalaydi. Jumladan, 1967-yildagi shartnomaning 9-moddasida, Oy to'g'risidagi bitimning 6-moddasida davlatlarga kosmik fazoni, oy va boshqa samoviy jismlarni ifloslantirish, shuningdek, yerdan tashqaridagi moddalarni yetkazib kelish oqibatida yerdagi muhitni nomaqbul tarzda o'zgartirishdan saqlanish va buning uchun tegishli choralar ko'rish majburiyatini yuklovchi qoidalar keltirildi. Kosmos to'g'risidagi shartnoma oy va boshqa samoviy jismlarga yadro qurolini joylashtirish yoki bu qurolni yer atrofi orbitasiga chiqarishni taqiqlash ham kosmik muhitni ifloslanish va zaharlanishdan saqlash uchun katta ahamiyatga ega.

Zero, 1971-yilgi Monreal konvensiyasida (Gaaga konvensiyasiga nisbatan) fuqaro havo kemasi xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoiy aktlar aniq va keng qamrovli uchish chog'ida havo kemasi ichida bo'lgan shaxsga nisbatan zo'ravonlik, ishlab turgan havo kemasini buzish va unga zarar yetkazish mumkin bo'lgan qurilmalar va moddalar, yerdagi aeronavigatsiya uskunalari buzish, zararlantirish, havo kemasi uchish xavfsizligiga tahdid soluvchi mutlaqo yolg'on ma'lumotlar berish kabilar ko'rsatib o'tilgan.

Keyingi yillarda fan-texnika taraqqiyoti natijasida keng yo'l ochilgan tabiat va iqlimga sun'iy ta'sir ustidan nazorat o'rnatish g'oyat qiyin bo'lib, bu yer atmosferasi uchun katta xavf solmoqda. Xususan, hozir yog'ingarchiliklar (yomg'ir yoki do'l)ni hosil qilish yoki uning oldini olish imkoniyati mavjud. Xuddi shuningdek, bo'ron va tayfunlarning yo'nalishi hamda kuchini o'zgartirish mumkin. Tabiat va iqlimga ta'sir ko'rsatish insonga buyuk farovonlik yoki juda katta zarar

ham keltirishi mumkin. Masalan, AQShning Vyetnamdagi agressiyasi chog'ida Pentagon maxfiy ravishda «havo urushi» olib borib, kuchli yomg'irlarni sun'iy ravishda hosil qildi va yo'llar, damba va to'siqlarni yuvib yubordi. Kelgusida chindan ham urush olib borishning «apokaliptik» usullari paydo bo'lishi, bu esa yerdagi hayotning, quyosh ultrabinafsha nurlarining g'oyat xatarli ta'siridan saqlovchi ozon qatlamini buzib yuborishi, katta hududlarda sun'iy suv bosishi yoki sun'iy qurg'oqchilik hosil qilishi mumkin. Bunday jiddiy xavfni his etgan rivojlangan davlatlar tashabbusi bilan 1977-yilda tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatish vositalaridan harbiy yoki har qanday boshqa dushmanlik maqsadlarida foydalanishni taqiqlash to'g'risida konvensiya qabul qilinishiga olib keldi (1978-yil kuchga kirdi). Unda qatnashuvchi davlatlar boshqa ishtirokchi davlatlarga vayronagarchilik, zarar yetkazish yoki dushmanlik maqsadlarida salbiy oqibatlariga olib keluvchi tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatish vositalaridan foydalanishga intilmaslikka ahdlashdilar.

O'zbekiston Respublikasi 1985-yilgi Ozon qatlamini himoya qilish (Vena) konvensiyasi, 1987-yilgi Ozon qatlamini yemiruvchi birikmalar bo'yicha protokoli (Monreal), 1989-yilgi (Bazel) Xavfli chiqindilarni chegaralararo tashishni nazorat qilish konvensiyasi, 1992-yilgi (Nyu-York) Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi bir qator konvensiyalarga qo'shildi hamda ushbu yo'nalishda bir qator faol harakatlar amalga oshirilmoqda.

Atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi va Monreal protokoli mavjud. Vena konvensiyasiga jahondagi 147 mamlakat imzo chekkan. Jahon xalqlari 1995-yildan boshlab, 16 sentabrni atmosferaning ozon qatlamini muhofaza qilish xalqaro kuni sifatida keng nishonlab kelmoqdalar.

Bizning mamlakatimiz ham Vena konvensiyasi va Monreal protokoliga qo'shilib, tegishli majburiyatlarni zimmasiga oldi. Ozon qatlami holatini muntazam kuzatib borish, yemiruvchi moddalardan foydalanishni bosqichma-bosqich kamaytirish shular jumlasidandir.

1996-yil 26-29-avgustda Shveysariyaning Jeneva shahrida Monreal protokoliga qo'shilgan davlatlar ishchi guruhining kengashi bo'lib o'tdi. O'n uchinchi marta o'tkazilayotgan bu kengashda 147 mamlakatdan 400 delegat ishtirok etdi. Mustaqil davlatlar hamdo'stligidan O'zbekiston, Rossiya, Belorussiya, Ukraina va Gruziya ham qatnashgan.

Hozirgi paytda olimlarimiz tomonidan O'zbekistonda ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoqda. Tog'lar tabiati, aholisi, iqtisodiyotining o'ziga xos «Tog'» shakllariga egaligi, barqaror rivojlanish yo'nalishlari bilan tekisliklardan

tubdan farq qiladi. Tog‘ hududlari dunyo quruqlik yuzasining 40 foizini tashkil etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining (BA) 53-sessiyasida (1998-yil 10-noyabr) dunyoning 130 mamlakati delegatsiyalari konsensus metodi bo‘yicha (ovoz bermasdan) 2002-yilni Xalqaro Tog‘ yili (XTY) deb e‘lon qilish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi. Shundan keyin BMTning iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi (ECOSOS), Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tashkiloti (FAO) bilan birgalikda ko‘plab manfaatdor mamlakatlar, tashkilotlar va mutaxassislar bilan maslahatlar o‘tkazdilar va 1998-yilda BMT Bosh kotibiga taklif tayyorladilar. Olib borilgan katta tashkilotchilik ishlari natijasida Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash BMT BAning 53-sessiyasiga 2002-yilni XTY deb e‘lon qilish to‘g‘risida taklif bilan murojaat qilib, bu haqda maxsus qaror qabul qildi. Bu qarorni 106 mamlakat qo‘llab-quvvatladi. Shveysariya, Peru, Avstriya va Fransiya bu tashabbusni eng faol qo‘llab-quvvatlagan mamlakatlar bo‘ldi.

Xalqaro hamjamiyatning oliy organi – BMTning ushbu qarori birinchidan, tog‘ regionlari va uning aholisining sayyoramiz hayotidagi ahamiyatining tan olinishi bo‘lsa, ikkinchidan, ko‘plab mamlakatlarda 2002-yilgacha qolgan davrda xilma-xil tadbirlarni amalga oshirishga asos bo‘ldi. Bu qaror BMTning atrof-muhitni himoyalash va barqaror rivojlanishga bag‘ishlangan konferensiyasida (1992-yil, Rio-de-Janeyro) qabul qilingan hujjatning (XXI asr kun tartibi) XIII bobi «Mo‘rt ekotizimlarni boshqarish: tog‘ rayonlarining barqaror rivojlanishi» bo‘yicha tamoyillarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan muhim amaliy tadbiri hisoblanadi. Qarorda dunyo mamlakatlari hukumatlariga XTYni o‘tkazishga tayyorgarlik jarayonida tog‘ hududlarini barqaror rivojlantirishning muhimligini har tomonlama hisobga olgan holda, milliy rejalarni ishlab chiqib, amalga oshirish tavsiya etilgan. Shu jumladan, ko‘rsatib o‘tilgan XIII bobning ijrochisi FAO Tog‘ forumi orqali barcha manfaatdor tashkilotlar va shaxslarga murojaat qilib, XTYni eng samarali o‘tkazish yuzasidan taklif va g‘oyalar berishni, qolgan 4 yil mobaynida qanday ishlarni amalga oshirish kerakligini so‘radi.

Shuni ta‘kidlash joizki, tog‘li hududlar O‘zbekistonning 21,3 foiz maydonini egallaydi va bu yerda mamlakat aholisining 10 foizdan ko‘prog‘i yashaydi. Maydonining kattaligi (96 ming kv.km), aholisining soni (2,5 mln. kishi), tabiiy-iqtisodiy imkoniyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha O‘zbekiston dunyoning tog‘li mamlakatlari qatoridan salmoqli o‘rin egallaydi. Vatanimiz tog‘lari maydoni Armanistondan 3,2 marta, Shveysariyadan 2,3 marta, Gruziyadan 1,4 marta, Avstriyadan 1,4 marta



katta bo'lsa, aholisining soni esa Mo'g'uliston va Panamaga teng, tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari yetakchi tog'li o'lkalardan qolishmaydi. Tog'lar umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan katta milliy boyligimiz bo'lib, ular g'oyat muhim tabiiy-ekologik (eng yirik ekotizim, biologik va landshaft xilma-xilligining asosiy markazi, turli-tuman tabiiy boyliklar manbai), ijtimoiy-iqtisodiy (tog' iqtisodiyoti, tog' aholisi madaniyati) hamda tabiat muhofazasi obyekti vazifalarini bajaradi. Shu sababdan O'zbekistonning tog'li hududlarini asrash, ekologik xavfsizligini ta'minlash, barqaror rivojlantirish dolzarb muammoga aylanmoqda. Ushbu yo'nalishda xalqaro hamkorlik, birinchi navbatda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni (yagona tog' makoni-Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog' tizimlari barqaror rivojlantirish muammolari bo'yicha) kengaytirish va chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida o'tkazilayotgan muhim tadbirlar qatoriga tog' regionlari muammolari bo'yicha tayyorlangan davlatlararo hujjat – Markaziy Osiyo tog' regionlari konvensiyasi (xartiyasi), XXI asrda Markaziy Osiyo tog' hududlari va ularning xalqlarini barqaror rivojlantirish strategiyasi deb ataladigan loyiha hisoblanadi. Bu loyiha hozirgi paytda Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari tomonidan o'rganilayotir va uni imzolash muddatlari kelishilmoqda. Xartiya tog' regionlarida boshqarish, resurslarni ekspluatatsiya qilish, barqaror rivojlanish, tog' muhitini muhofaza qilishni shakllantirish va amalga oshirishda ayrim davlatlar, davlatlararo o'zaro aloqalar va ta'sirning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish maqsadini ko'zga tutadi. 1999-yil may oyida Bishkek shahrida Markaziy Osiyo iqtisodiy uyushmasi (MOIU) mamlakatlarining ekspert guruhlari Markaziy Osiyoda 2002-yilda Xalqaro tog' yiliga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha birgalikda harakat qilish dasturi loyihasini muhokama qilib, qabul qildilar. Bu loyiha muhokama uchun MOIU davlatlararo kengashi majlisining kun tartibiga kiritilgan. Ushbu hujjatda BMTning XTY o'tkazish to'g'risidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlanib, unda Markaziy Osiyo mamlakatlariga XTY bo'yicha tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish milliy dasturini ishlab chiqish tavsiya etilgan. Bu dasturda Markaziy Osiyo tog' hududlarini barqaror rivojlantirish strategiyasini birgalikda ishlab chiqish, tog' rayonlarini rivojlantirishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va tabiiy resurslardan foydalanish va tog' muhitini muhofaza qilish bo'yicha bitimlar ro'yxatini kelishib olish, ilmiy tadqiqotlar mavzu va yo'nalishlarini belgilash, seminar va konferensiyalar o'tkazish, axborot byulletenlarini chiqarish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish mo'ljallangan.

XTYni O‘zbekistonda o‘tkazish borasidagi tayyorgarliklar to‘g‘risida mulohaza yuritishda mustaqillik sharoitida mamlakatimiz tog‘ hududlarida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni ham har tomonlama hisobga olish g‘oyat muhimdir. Masalan, tog‘larda totalitar tuzum sharoitida shakllangan xo‘jalik funksiyalari o‘zgarib, bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirilmoqda. Obyektiv sabablarga ko‘ra, industrial rivojlanish va foydali qazilmalarni qazib olish ikkinchi darajaga tushib, agrar sektorni qayta tiklash, g‘oyat katta imkoniyatlarga ega tog‘ rekreatsiya quvvatlaridan kengroq foydalanishga harakat qilish (kurort, turizm va boshqalar), tog‘ hududlarining tranzit quvvatlarini tobora ko‘proq ishga tushirish (avtomobil, temir yo‘llar, tunnellar qurish), muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish (qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar) katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Tog‘ aholisi manfaatlarini hisobga olish va ularni ijtimoiy himoyalashga tobora ko‘proq ahamiyat berilmoqda. Bunday o‘zgarishlar istiqbolda tog‘ zonasini integral yo‘nalishda rivojlantirish siyosatining eng muhim jihatlarini belgilab olishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, tog‘ hududlarining tabiiy-resurs quvvatlari, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanish strategiyasini qayta ko‘rib chiqish va uni barqaror rivojlantirish maqsadlariga bo‘y-sundirish ham muhim vazifadir.

XTYni O‘zbekistonda o‘tkazish bo‘yicha eng muhim tadbirlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- respublika jamoatchiligi e‘tiborini tog‘ muammolariga jalb etish (radio, televideniye, matbuot);
- namunaviy dasturlar tuzish;
- milliy tog‘ siyosatini ishlab chiqish;
- ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish;
- regional montologiya (tog‘shunoslik) fanini shakllantirish;
- xilma-xil tadbirlar o‘tkazish (konferensiyalar, seminarlar, festivallar);
- xalqaro munosabatlarni rivojlantirish lozim.

Ta’kidlash joizki, bizning mamlakatimizda tog‘-kon bilan bog‘liq masalalar 2002-yil 13-dekabrda qabul qilingan «Yer osti boyliklari to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinadi.

### **3-§. Atrof-tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofaza qilishda xalqaro tashkilotlar va konferensiyalarning faoliyati hamda ahamiyati**

Inson hayot faoliyati uchun qulay ekologik shart-sharoit yaratish, odamlarning hayotiy manfaatlarini – salomatligini ta’minlash, barqaror

ekologik vaziyatni vujudga keltirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Keyingi yillarda respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan juda ko'p tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin respublika huqumati atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bu borada xorijiy davlatlar, tashkilotlar, uyushmalar bilan mustahkam aloqa o'rnatish, ular bilan uzviy hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida ahamiyat berib kelmoqda.

Hozirgi paytda atrof-muhitning xilma-xil muammoli jihatlar bilan shug'ullanuvchi bir qancha xalqaro (hukumatlararo va nohukumat) tashkilotlar mavjud.

Nohukumat tashkilotlar orasida 1948-yilda tashkil etilgan tabiat va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish xalqaro Ittifoqi (MSOP) markaziy o'rinni egallaydi. Unga davlatlar, milliy va xalqaro tashkilotlar hamda assotsiatsiyalar a'zo bo'lishi mumkin. Ittifoq hukumatlar, milliy va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikda ko'maklashish uchun tuzilgan. Shuningdek, u atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklarni saqlash masalalari bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi hamkorlikka ham ko'maklashadi. Shu maqsadda MSOP milliy va xalqaro tadbirlar o'tkazadi, bu sohadagi eng yangi milliy va texnika yutuqlarini yoyadi, maorifni rivojlantirib, tabiatni muhofaza qilish g'oyalarini targ'ib qiladi. MSOP tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiyalar va bitimlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti davlatlar va xalqaro tashkilotlarning tabiatni qo'riqlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari BMTning Bosh organlari: Bosh Assambleya, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy komissiyalar, YUNKTAD, YUNIDO, PROONning muttasil diqqat markazida turadi.

1972-yil Stokgolmda BMTning insonni qurshab turgan muhit muammolari bo'yicha o'tkazgan konferensiyasi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Uning qarorlari va rezolyutsiyasiga binoan BMT doirasida yangi maxsus organ – BMTning atrof-muhit programmasi (YUNEP) tashkil etildi. YUNEP o'zining yuridik tabiatiga ko'ra BMTning yordamchi organlari qatoriga kiradi. Ayni paytda u g'oyat katta avtonomiyadan foydalandi va xalqaro tashkilotning bir qator belgilariga ega bo'ldi.

YUNEP atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro huquq normalarini rivojlantirishga ko'p e'tibor bermoqda. Programma universal va mintaqaviy konvensiyalar hamda bitimlar ishlab chiqilishiga

ko‘maklashmoqda. Uning tashabbusi bilan mintaqaviy dengiz – O‘rta yer, Qizil dengizlar, shuningdek Fors qo‘ltig‘i va boshqalarda dengiz muhitini muhofaza qilishga qaratilgan dastur amalga oshirila boshlandi. Bu tegishli xalqaro bitimlarning ishlab chiqilishini ko‘zda tutadi. YUNEP BMTning YUNESKO, XST, FAO, IMKO, XMT, BDT, IKAO, shuningdek, MAGATE singari ixtisoslashgan tashkilotlarning tabiatni qo‘riqlashga qaratilgan tadbirlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi va muvofiqlashtiradi.

1993-2010-yillarda Orol muammolariga bag‘ishlanib respublikamizda bir qator kengashlar, seminarlar, konferensiyalar va shu kabi boshqa anjumanlar o‘tkazildi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEHHT)ning Toshkent-Urganch shaharlarida bo‘lib o‘tgan «Atrof-muhitni tiklash»ga bag‘ishlangan xalqaro seminarida esa Markaziy Osiyoda atrof-muhitni tiklash bo‘yicha quriladigan tadbirlar va unda jahon hamjamiyatlarining ishtiroki muhokama qilindi. Shuningdek, 1996-yilda Orol dengizi havzasida barqaror ekologik rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha YEHHTning xalqaro seminari o‘tkazildi.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va uning ilmiy tekshirish institutlari Norvegiya mamlakati mutaxassislari bilan hamkorlik qilib tayyorlagan «O‘zbekiston Respublikasida ekologik axborot tizimi» loyihasini nashr ettirgani ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek, xalqaro rivojlanish bo‘yicha Yaponiya agentligi bilan hamkorlikda Orol mintaqasidagi oltita shaharga toza ichimlik suvi yetkazib berishning texnik-iqtisodiy asoslari loyihasi ishlab chiqildi. Shveysariya hukumati-ning moliyaviy nazoratga ixtisoslashgan davlat inspeksiyasining laboratoriyalari asbob-uskunalar, kimyoviy reaktivlar bilan ta‘minlandi. Ayni paytda Jahon banki homiyligida O‘zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha milliy harakat rejasi ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi paytda tog‘ muammolariga qiziqish keskin oshdi va bunga oid konferensiyalar, seminarlar o‘tkazish, monografiyalar, ilmiy ishlar, fotoalbomlar nashr etish ancha ko‘paydi. Dunyoning qator mamlakatlari, ayniqsa Yevropa mamlakatlari (Italiya, Fransiya, Shveysariya, Avstriya, Lyuksemburg va boshqalar), AQSh, Xitoy, Rossiya, Nepal, Pokiston, Peru, Qirg‘iziston va boshqalar XTYga katta qiziqish bilan qarab, muhim tadbirlar majmuasini amalga oshirmoqdalar.

Eng avvalo Qirg‘iziston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2002-yilning XTY deb e‘lon qilinishi ko‘p mamlakatlarda, birinchi navbatda MDHda, shu jumladan Markaziy Osiyoda turli tog‘ dasturlari

va loyihalarini ishlab chiqishni sezilarli darajada kuchaytirdi. Qirg'iziston tog' rayonlarini rivojlantirish Milliy markazi, Xalqaro Tog' instituti tashkil etildi, tog' rayonlarini barqaror rivojlantirish bo'yicha bir nechta dasturlar tavsiya qilindi. Shu jumladan, tog' qishloqlari tarmoqlarini modelli rivojlantirish asosida tog'larda yashash barqarorligini oshirish dasturida ijtimoiy sheriklik asosida mahalliy tog' resurslaridan foydalanishning qator yangi konsepsiyalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, 1997-yil Qozog'istonda Markaziy Osiyo arid (qurg'oq) tog'larini tadqiq etish bo'yicha Xalqaro markaz tashkil etildi. Rossiya davlati tashabbusi bilan MDH olimlari hamkorligiga asoslangan «Tog' ekologiyasi va barqaror rivojlanish» dasturi ishlab chiqilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining XTY o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va tog'larni o'rganish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni muvofiq- lashtirish (koordinatsiyalash) masalalariga bag'ishlangan va 1998-yil may oyida Bishkekda o'tkazilgan «Markaziy Osiyo tog'lari: muammolar, tajriba, istiqbollar» mavzusidagi xalqaro ilmiy seminari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qirg'iziston Milliy Fanlar akademiyasi va Qirg'iziston Xalqaro universiteti tomonidan tashkil etilgan ushbu seminarda Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston delegatsiyalariga respublikalar Fanlar akademiyalarining prezidentlari va vitse-prezidentlari boshchilik qildilar. Unda Markaziy Osiyo tog' hududlarini barqaror rivojlantirish strategiyasi va ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish, resurslardan ratsional foydalanish va tog' muhitini muhofaza qilish bo'yicha kompleks dasturlar, loyihalar, huquqiy normalar va qonunlar qabul qilishda hamkorlik qilish masalalari muhokama qilindi va tegishli qarorlar qabul qilindi. 1999-yil 10-13-mayda Bishkekda «Markaziy Osiyo tog'lari: regional aspekt» mavzusida ikkinchi xalqaro seminar o'tkazilib, unda Markaziy Osiyo davlatlari ilmiy-tadqiqot salohiyatini aniqlash, Markaziy Osiyo Tog' axborot tarmog'i (MOTAT) doirasida hamkorlik qilish dasturi konsepsiyasi, MOTATni tashkil etish masalalari muhokama qilindi. Seminar ishida O'zbekiston delegatsiyasi qator tavsiya va takliflar berdi. Seminarda Markaziy Osiyo regional tog' axborot tarmog'i markazini tashkil etish va uning shtab-kvartirasini Bishkek shahrida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi, markaz faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

XTY munosabati bilan 1999-yil 28-30-sentabrda Dushanbe shahrida «Markaziy Osiyo tog' regionlari. Barqaror rivojlanish muammolari» mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya ishida O'zbekiston delegatsiyasi faol ishtirok etdi. Konferensiyada tog' regionlarining

asosiy muammolari – barqaror rivojlanishga erishish yo‘llari, tog‘larda inson ehtiyojlari rivoji va xavfsizlik, texnologik to‘siqlar va rivojlanish, tog‘ ayollari ehtiyojlari va tog‘ regionlari kelajagi va boshqalar muhokama qilindi. Konferensiya yakunida ikki muhim hujjat – anjuman qarori va Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlariga murojaat qabul qilindi. Murojaatda Xalqaro Tog‘ yilini o‘tkazish uchun Markaziy Osiyo qo‘mitasini tuzish va 2001-yilda tog‘ regionlarini barqaror rivojlantirishning davlatlararo hamkorligi masalalariga bag‘ishlangan xalqaro hukumatlararo konferensiya o‘tkazish taklif etildi. Unda MDH mamlakatlari Fanlar akademiyalari xalqaro assotsiatsiyasi (Moskva) doirasida Tog‘ dasturini bajarish tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida tog‘ regionlari rivojlanishi bo‘yicha mutaxassislar va tadbirkor-menedjer mutaxassislar tayyorlaydigan (Xorog shahrida tashkil etilayotgan Xalqaro universitetga o‘xshash) institutlar va markazlar barpo etish tavsiya etildi.

1998-yil iyun oyida Daniyaning Orxus shahrida atrof-muhit muhofazasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan to‘rtinchi xalqaro konferensiyada O‘zbekiston Respublikasi vakillari ham ishtirok etdi. Konferensiya ishida atrof-muhitning transport vositalari bilan ifloslanishini va issiqlik elektrstansiyalarining chiqindilarini kamaytirish, qishloq xo‘jaligida turli zaharli o‘g‘itlar ishlatilishiga barham berish kabi qator masalalar ko‘rildi va O‘zbekiston Respublikasida ham xuddi shu yo‘nalishda ishlar olib borilayotgani konferensiya qatnashchilariga ma’lum qilindi. Konferensiyada yangi mustaqil davlatlar ehtiyojlariga e’tiborni qaratish, ayniqsa Markaziy Osiyodagi davlatlarga donorlik yordamini kuchaytirish, uning samarali yo‘llarini izlab topishga qaror qilindi.

Xulosa qilib aytganda, atrof-muhit muhofazasi va ekologik vaziyatni yaxshilash barcha davlatlar, xalqaro hamjamiyatlar, nohukumat uyushmalar bilan hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish orqaligina barqaror iqtisodiy rivojlanish, tabiat resurslaridan samarali foydalanish, ekologik tanglikni bartaraf etish va atrof-muhitni muhofaza qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

### ***Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:***

*1. Ekologik muammolarni hal etish va ularning oldini olish borasida Prezidentimiz Islom Karimovning asosiy g‘oyalari nimalardan iborat?*

*2. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish prinsiplariga asosan nimalar kiradi?*

*3. Atmosfera havosi va kosmik fazoni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilida davlatlarning ishtiroki qanday bo‘lishi lozim?*

4. *BMTning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatiga misollar keltiring.*

5. *BMTning ekologiya sohasidagi xalqaro tashkilotlari tizimi va funksiyalari to'g'risida so'z yuriting.*

6. *Ekologik huquqbuzarlik uchun xalqaro huquqiy javobgarlik deganda nimani tushunasiz?*

7. *Xalqaro ekologiya huquqi manbalarining turlari va amal qilish doirasi haqida nimalarni bilasiz?*

8. *Markaziy Osiy davlatlari hududida mavjud ekologik muammolarni hamkorlik asosida hal qilish yo'llariga misollar keltiring.*

---

---

## GLOSSARIY

**Adir** – togʻlarga yaqin, togʻ etaklaridagi alohida tepalik yerlar.

**Agrar** – (lot. «agrarius» – yerga, dalaga oid) yer-suv, yerga egalik va yer-suvdan foydalanishga oid.

**Akvalang** – (ingl. «aqualang» – lot. «aqua» – suv+ingl. «lung» – oʻpka) – odamning suv ostida bemaolol nafas olib suzishiga hamda ishlashiga imkon beradigan apparat.

**Akvarium** – (lot. «aquarium» - cuv; suvdan) suv hayvonlari va oʻsimliklarini asrash va urchitish uchun foydalaniladigan shisha idish yoki suv jonivorlari va oʻsimliklarini oʻrganish va namoyish qilish bilan shugʻullanadigan maxsus muassasa.

**Akvatoriya** – (lot. «aqua» – suv+«territorium» – joy; viloyat) – suv havzasi yuzasining bir qismi.

**Amfibiya** – umurtqalilarning bir sinfi, suvda va quruqlikda yashashga moslangan jonivor yoki ham suvda, ham quruqlikda yashay oladigan oʻsimlik.

**Antropogen** – (grekchada «anthropos» – kishi) oʻzgargan tabiiy muhit – kishilarning xoʻjalik faoliyati jarayonida maʼlum bir hudud yoki tegralarda tubdan oʻzgargan atrof tabiiy muhit holati. Bu hudud yoki tegralarni keltirib chiqaruvchi omillar majmuasiga qarab, *shahar*, *sanoat* va *agrar* (qishloq xoʻjaligi) tegralariga ajratib olsak boʻladi. Bu hudud va tegralarda tabiat elementlari (yer, suv, atmosfera havosi...)ning son va sifat koʻrsatgichlari, morfologik (tashqi) va morfometrik (oʻlchamli) belgilari oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. Masalan, atmosfera havosi antropogen oʻzgargan tabiiy hududlarda boshqa kam taʼsirlangan atrof tabiiy muhitga nisbatan 10-15 barobar koʻproq ifloslangan boʻladi. Sanoat tegralarida havo tarkibida zaharli is gazi (SO)ning koʻpayishi asosan metallurgiya (30-40%) va ximiya sanoati (15-20%), transport (10-15%) taʼsirida yuzaga kelsa, shaharlarda esa is gazi asosan transport (60-80%), ogʻir sanoat (15-20%), ximiya sanoati (5-10%) taʼsirida yuzaga keladi. Agrar tegralarda tuproqlarning morfologik (koʻzga tashlanadigan tashqi) koʻrinishi 1-1,5 metr chuqurlikkacha tubdan oʻzgargan va yangi tur hosil qilgan boʻladi. Ularda tuproq ifloslanishi pestitsid, gerbitsid, azot, fosfor, turli tuzlar; shaharlarda – maishiy axlat; sanoat tegralarida – sanoat chiqindilari hisobiga amalga oshadi. Sanoat tegralari toifasiga kiruvchi atom elektrostansiyalari atrofidagi suv, tuproq va atmosfera havosida radioaktiv ele-



mentlar miqdori shaharlarga nisbatan bir necha o'n barobar ko'p bo'ladi, lekin is gazining miqdori elektrostansiya atrofida agrar tegralarga tenglashgan, shaharlarga nisbatan esa bir necha o'nlab barobar kam bo'ladi.

**Areal** – (lot. «area» – maydon, makon) o'simlik va hayvonlarning biror turi, turkumi yoki oilasi tarqalgan hudud.

**Atmosfera** – (yun. «atmos» – nafas, bug', havo, «sphaira» – shar) yerni va boshqa ba'zi planetalarni o'rab turgan gazsimon qobiq.

**Atrof tabiiy muhitning sifati** – tabiatda, tabiat va inson orasida moddalar va energiyaning almashuv jarayonini doimo ta'minlab turuvchi va hayotni qayta tiklashni kafolatlovchi ekologik tizimlarning holati. Atrof tabiiy muhitning sifati tabiatning o'zi tomonidan unga zararli bo'lgan moddalardan o'z-o'zini tozalash, tabiiy obyektlarning o'z-o'zini tiklanishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Tabiatda tabiiy jarayonlar shunday o'tadiki, bunda qaysidir obyektning yakuniy mahsuli boshqa obyektning ko'payishi, o'z-o'zini tiklashi uchun xom ashyo bo'lib, chiqindisiz jarayon tamoyillari asosida hayot o'tib boradi. Atrof tabiiy muhitning sifati insoning sog'ligiga, uning hayotiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, tabiiy obyektlar va komplekslarning saqlanishini ta'minlaydigan darajadagi barcha tabiiy resurslarning holati demakdir. Bu tushuncha orqali biz tabiiy obyektlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini, birining sifati o'zgargan taqdirda boshqalarga ta'sir ko'rsatishini hamda ularning inson salomatligiga ta'sir qilishini tan olamiz.

**Aysberg** – (ingl. «iceberg» – muz tog') qutb dengizlarida qirg'oqdan yoki muz tepaliklaridan o'pirilib tushib, suvda suzib yuradigan katta muz.

**Barqaror rivojlanish** – kelgusi avlodlarning ehtiyojlarini xavf-xatarga qo'ymasdan hozirgi davrdagi aholining ehtiyojlarini qoniqtiradigan aniq rivojlanish.

**Barxan(lar)** – sahro va cho'llarda shamol ta'siri (kuchi) bilan paydo bo'ladigan ko'chma qumtepalar.

**Biosfera** – yun. yerning hayotga makon bo'lgan, tirik organizmlar tarqalgan joyi, qismi.

**Chiqindi** – kerakli qismi ishlatilgandan qolgan narsalar; chiqit, qoldiq.

**Davlat o'rmon fondi** – O'zbekiston hududidagi hamma o'rmonlar davlat o'rmon fondini tashkil etadi. Davlat o'rmon fondi: davlat ahamiyatiga ega bo'lgan o'rmonlardan, ya'ni davlat o'rmon xo'jaligi organlari qaramog'idagi o'rmonlardan hamda boshqa idoralar va yuridik shaxslar foydalanishidagi o'rmonlardan iborat bo'ladi.

**Davlat o'rmon fondi uchastkalari** – muayyan chegarasi, maydoni, joylashgan manzili, huquqiy rejimi qayd etilgan hamda chizma-kartografik materiallarda ko'rsatilgan davlat o'rmon fondining bir qismi.

**Ekologik inqiroz** – bu ekologik tizimda modda va energiya almashuvining tabiiy holatda kechishi buzilishi yoki modda va energiyaning kichik va katta aylanish jarayonlarining ma'lum bir bosqichdagi uzilishidir. Masalan, dehqonchilik madaniyatining fan talablari darajasida bo'lmashligi, tuproq unumdorligining pasayishi va undagi mikroorganizmlarning qirilib ketishi oqibatida yerga tushadigan organik moddalarning o'simlik dunyosi uchun ozuqa bo'lgan mineral moddalarga aylanmasligi sodir bo'ladi. Natijada tuproq ekologiyasi buziladi va inqirozli holat yuzaga keladi. Orol dengizining qurib borishi natijasida Orolbo'yi hududlarida iqlim resurslari, tuproq unumdorligi, atmosfera havosi, yer osti va yer usti suvlari, o'simlik va hayvonot olamida ro'y berayotgan o'zgarishlar va salbiy jarayonlar ekologik inqirozga misol bo'la oladi. Ekologik inqirozli hududlarning ekologik tizimlarida modda va energiya almashuvining ekologik xavfsiz darajada tiklash juda murakkab va o'ta ko'p chiqimli tadbirdir. Shuning uchun ham ekologik xavfning oldini olish chora-tadbirlari birlamchi, unga qarshi kurash esa ikkilamchi ahamiyat kasb etishi darkor.

**Ekologik komplekslar** – ma'lum hududdagi ekologik tizimlarning majmui, ya'ni hududiylik xossasi bilan tavsiflanadi. Unga ko'ra, ma'lum makonda mavjud bo'lgan barcha biologik mavjudotlar, ular egallab turgan hudud bilan birgalikda ekologik kompleksni tashkil etadi. Ekologik kompleks muzlik, tundra, o'rmon tundrasi, tayga, o'rmon, subtropik cho'llar, o'rmon cho'l, cho'l, tropik cho'l, yarim dasht, namli subtropik, savanna, yapaloq bargli o'rmon, tropik nam o'rmon, tog', tog'oldi va shu kabi hududlarda o'ziga xos tusda shakllanadi.

**Ekologik siyosat** – bu subyekt (individ, guruh, partiya, davlat va boshqa)larning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, tashkiliy-huquqiy tusdagi chora-tadbirlari majmui.

**Ekologik tahdid** – insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (stixiyali talofatlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshqalar) har qanday hodisa.

**Ekologik tizim** – bu birgalikda yashovchi har xil turdagi organizmlar va ular yashashining shart-sharoitlaridir. Ular o'zlarini o'rab turgan tabiiy muhit bilan aloqada bo'ladilar.

**Ekologik xavfsizlik** – atrof tabiiy muhit holatini organizmlarning hayotiy zarur ehtiyojlariga javob bera olishi yoki insonlar uchun sog'lom,

toza va qulay tabiiy sharoitga ega atrof-muhit holati. U atrof-muhitga salbiy antropogen ta'sirni kamaytirishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali erishiladi. N.F.Reymers ekologik xavfsizlikka ikki xil yondashgan: 1) tabiat obyektlari, alohida inson va insoniyatning bevosita yoki bilvosita hayotiy muhim elementlarini zararlanishiga (yoki bu zararlanishdan keladigan xavflarga) olib kelmaydigan faoliyat, vaziyat va jarayonlar uyg'unligi; 2) Yer shari va uning turli mintaqalarida insoniyatning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, texnogen va siyosiy tayyorgarligi (jiddiy bo'lmagan talofatlarga moslashishi) darajasida ekologik muvozanatni ta'minlovchi vaziyat, jarayon va faoliyatlar majmuasi.

**Ekologiya** (yunoncha «oikos» – uy, yashash joyi, yashash muhiti, «logos» – ta'limot) – tirik organizmlarning o'zaro va ularning yashash muhiti bilan bo'ladigan munosabati haqidagi fan bo'lib, noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi tabiat tizimidagi tirik organizmlar va ularning atrof-muhit bilan bo'ladigan munosabatlariga doir qonuniyatlarni tadqiq qiladi.

**Eroziya** – lot. tuproqning, yer qobig'ining suv, muz yoki shamol ta'sirida yemirilishi, nurashi.

**Fauna** - (nem. «Fauna» – hayvonot dunyosi, Rim mifologiyasida dala va o'rmonlar ma'budasi). Biror hudud, mamlakat yoki geologik davrning hayvonot dunyosi, ularda yashagan yoki yashayotgan hayvonlar majmui.

**Flora** – (lot. «Flora» – rim mifologiyasida gullar, bahor va yoshlik ma'budasi, «flos», «floris» – gul) Yer kurrasining biror qismida yoki biror geologik davrida mavjud bo'lgan barcha o'simliklar majmui, o'simliklar dunyosi.

**Gidrosfera** – yer sharining suv qatlami, yer yuzasidagi suvlarning (okean, dengiz, ko'l, daryo suvlarining) jami.

**Iqlim** – biror joyning o'ziga xos ob-havo sharoiti, tog' iqlimi, dengiz iqlimi.

**Ixota** – atrofni to'sish, o'rash va shu maqsadda qilingan to'siqning o'zi. Ixota daraxtlari qattiq shamol, bo'ron, garmsel va shu kabilardan saqlash maqsadida ekilgan daraxtlar.

**Kadastr** – ma'lum bir tabiiy xo'jalik yoki boshqa obyekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdori, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risidagi yangilanib turiladigan ma'lumotlar va hujjatlar tizimi (Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonunning 3-moddasi). Kadastr tizimida ma'lum bir tabiiy obyektlardan huquqiy foydalanish haqidagi tavsiyanomalar, foydalanuvchilar va ifloslantiruvchilar ro'yxati, ularni qayta tiklash choralari haqida takliflar hamda kelajakdagi izlanishlar va boshqa shunga o'xshash ma'lumotlar keltirilishi mumkin.

**Landshaft** – o‘zaro ta’sir etuvchi tabiat yoki tabiiy va antropogen komponentlardan hamda pastroq taksonomik tabaqali majmualardan tashkil topgan tabiiy hududiy majmua. Landshaftning o‘zgarishi uning tashqi ta’sir ostida yoki ichki o‘zgarishi davomida yangi xususiyatlarga ega bo‘lishi yoki avvalgilarini yo‘qotishi. Tabiat muhofazasiga oid adabiyotlarda quyidagi tushunchalar zanjirida o‘rta mavqeni egallaydi: landshaftga bo‘lgan ta’sir – landshaftning o‘zgarishi – aholining xo‘jalik faoliyati yoki salomatligidagi asoratlari. Landshaft chegaralari bir-biriga qo‘shni landshaftlarning bo‘linish yuzasi, ularning sifat va xususiyatlari almashtirinishi hamda landshaftni boshqa nolandschaft tuzilmalardan ajratgandek yuzalıklar (masalan: landshaft tarkibiga kirmaydigan atmosfera yoki litosfera qatlamlari). Landshaft chegaralarini aniqlab olish landshaftlarni xaritalashning muhim elementidir.

**Nabotot** – o‘simliklar dunyosi, o‘simliklar.

**O‘rmon** – muayyan hududda daraxt va butasimon o‘simliklar hamda tabiatning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan boshqa elementlari majmui asosida shakllangan tabiiy kompleks bo‘lib, muhim ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

**O‘rmon fondi yerlari** – o‘rmon bilan qoplangan yerlar, shuningdek o‘rmon bilan qoplanmagan, ammo o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar.

**O‘rmon kasalliklari** – atrof tabiiy muhitning salbiy noqulay omillari yoxud organizmlar ta’mirida kelib chiqqan, kasal o‘simlikdan sog‘lom o‘tuvchi hamda o‘simliklar tarkibi o‘zgarishi yoki ularning nobud bo‘lishiga sabab bo‘luvchi patologik jarayonlar.

**O‘rmon zararkunandalari** – o‘rmon o‘simliklariga zarar yetkazuvchi organizmlar.

**O‘rmondan foydalanish** – o‘rmon resurslari va o‘rmonning foydali xususiyatlaridan foydalanish bo‘yicha yuridik va iqtisodiy jihatdan tartibga solingan faoliyat.

**O‘rmondan foydalanuvchi** – o‘rmondan foydalanish huquqi o‘rmon qonunchiligida belgilangan tartibda taqdim etilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar.

**O‘rmonlarning vazifalari** – o‘rmonlar asosan ekologik (suvni muhofaza qilish, qo‘riqlash, sanitariya-gigiyena, sog‘lomlashtirish, rekreatsion), estetik va boshqa vazifalarni bajaradi, cheklangan darajada foydalanish ahamiyatiga ega.

**O‘rmonlashuv** – muayyan bir hududning o‘rmon bilan qoplanganlik darajasi bo‘lib, yerning o‘rmon bilan qoplangan qismini umumiy maydoniga nisbatan aniqlanadi hamda foizlarda ifodalanadi.

**Oqindi** – korxonalar va xonadonlar hovlisidan oʻtgan ariqlardan oqib chiqayotgan chiqindi yoki yogʻin suvlari.

**Oqova** – hovuz, ekinzor kabi joylarga bir tomondan kirib, ikkinchi tomondan chiqib ketadigan suv yoki partov suv. Oqova qilib sugʻorish – ekinni egatlardan suv oqizib qoʻyib sugʻorish.

**Pitomnik** – oʻsimlik yoki hayvonotlar oʻstiriladigan va koʻpaytiriladigan joy.

**Plaj** – dengiz, daryo, koʻl va umuman suv boʻyicha choʻmilib chiqqach quyosh nuri qabul qilish uchun qulay boʻlgan, koʻpincha maxsus jihozlangan joy; qumloq, oftobroʻya, sohil.

**Plotina** – suv oqimini toʻsish uchun qurilgan inshoot, katta toʻgʻon.

**Qizil kitob** – bu yoʻqolgan yoki yoʻqolish arafasida turgan, yoʻqolib borayotgan, kamyob va kamayib borayotgan oʻsimlik va hayvonot dunyosining genofondini saqlab qolish maqsadida tashkil etilgan maʼlumotlar roʻyxati (reyestri). Ushbu kitobda oʻsimlik va hayvonot dunyosi tur-larining qisqacha tavsifi, tarqalishi, oʻsish va yashash sharoiti, koʻpayishi, areali (tarqalish maydoni) va uning oʻzgarishi, ularni madaniylashtirish va xonakilashtirish, muhofaza etish choralari koʻrsatilgan boʻladi.

**Qoʻriqxonalar** – noyob hayvonlar, oʻsimlik va daraxtlarni saqlash va koʻpaytirish uchun ajratilgan, davlat tomonidan himoya qilinadigan territoriya (bunday joylarda ov qilish, daraxt kesish man qilinadi).

**Resurs** – zarurat tugʻilganda foydalanish uchun mavjud boʻlgan imkoniyat, boylik.

**Sanitariya kesish** – oʻrmonning sanitariya holatini yaxshilash maqsadida kasal, jarohatlangan, quriyotgan yoki qurigan daraxtlarni kesish.

**Suv isteʼmolchilari uyushmasi** – yuridik shaxs boʻlgan suv isteʼmolchilari tomonidan suvga doir munosabatlar sohasidagi oʻz faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun ixtiyoriy asosda tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkiloti.

**Suv isteʼmoli (suvni isteʼmol qilish)** – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan oʻz ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslaridan ularni suv obyektidan belgilangan tartibda olgan holda foydalanish.

**Suv obyekti** – suvlar doimiy ravishda yoki vaqtincha toʻplanadigan va suv rejimining oʻziga xos shakllari va belgilari boʻlgan tabiiy (jilgʻalar, soylar, daryolar va boshqalar) hamda sunʼiy (ochiq va yopiq kanallar, shuningdek kollektor-drenaj tarmoqlari) suv oqimlari, tabiiy (koʻllar, dengizlar, yer osti suvli qatlamlari) va sunʼiy (suv omborlari, sel suvlari toʻplanadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) suv havzalari, shuningdek buloqlar va boshqa obyektlar.

**Suv obyektlaridan muddatli foydalanish** – suv obyektlaridan belgilangan ma’lum muddatda foydalanish bo‘lib, u ikki xil bo‘ladi: qisqa muddatli foydalanish; suv obyektlaridan yigirma yilgacha foydalanish.

**Suv obyektlarini muhofaza qilish** – suv obyektlarini saqlash va tiklashga qaratilgan tadbirlar tizimi.

**Suv ombori** – turli suvdan foydalanuvchilarning va suv iste’molchilarning suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirishni tartibga solish maqsadida bunyod etiladigan, suv yig‘iladigan maxsus tabiiy yoki sun’iy kelib chiqishga ega bo‘lgan suv havzasi.

**Suv rejimi** – suv obyektlari va tuproq-gruntda suv sathi, tezligi, sarfi va hajmining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi.

**Suv resurslari** – foydalaniladigan yoki foydalanilishi lozim bo‘lgan suv obyektlari suvlari. Suv resurslari yer usti suvlari – yer qobig‘ining ustida joylashgan suvlar hamda yer osti suvlari – yer sathidan pastda yer qobig‘ining tog‘ jinslari qatlamlarida joylashgan suvlarga bo‘linadi.

**Suv xo‘jaligi** – iqtisodiyotning suv resurslarini va suv obyektlarini o‘rganish, hisobga olish, boshqarish, ulardan foydalanish, ularni muhofaza qilish, shuningdek suvlarning zararli ta’siriga amalga oshiriladigan suv obyekti.

**Suv xo‘jaligi obyekti** – suv resurslarini to‘plash, boshqarish, yetkazib berish, ulardan foydalanish, ularni iste’mol qilish, ajratib berish va muhofaza qilish maqsadida suv xo‘jaligi faoliyati amalga oshiriladigan suv obyekti.

**Suvdan foydalanish** – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suv resurslarini suv obyektidan olmagan holda ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish.

**Suvdan maxsus foydalanish** – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta’sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo‘llagan holda amalga oshiriladigan suvdan foydalanish. Ayrim hollarda suvdan maxsus foydalanishga maxsus inshootlar va qurilmalarni qo‘llamagan holda, ammo suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta’sir etadigan suvdan foydalanish ham kiritilishi mumkin.

**Suvdan umumiy foydalanish** – jismoniy shaxslar tomonidan suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta’sir etuvchi maxsus inshootlar va qurilmalarni qo‘llamagan holda o‘z ehtiyojlarini hamda boshqa ehtiyojlarni qondirish maqsadida suvdan foydalanish.

**Tabiiy resurs (zaxira)** – tabiiy kelib chiqqan o‘simlik va hayvonot dunyosi, yer va yer osti boyliklari, atmosfera havosi va suv obyektlaridan kishilarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy va boshqa hayotiy zarur

ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlatilayotgan yoki shu maqsadlarga mo'ljallangan tabiiy obyektlar. Ular fanda va amaliyotda floristik, faunistik, ekologik, mineral, gidrologik, yer va o'rmon resurslari deb ataladi.

**Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish** – insonlarning xo'jalik va boshqa faoliyatlarida tabiat boyliklaridan ularning qayta tiklanish qobiliyatini saqlash, modda va energiya almashuvining tabiiy kechuvini to'xtatmasdan, zaxiralarning umumiy hajmini hisobga olgan holda samarali foydalanish.

**Taksa** – lotincha «taxatio» so'zidan olingan bo'lib «narxni belgilash», degan ma'noni anglatadi. U ayrim hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining belgilangan narxini o'zida ifoda etadi. Tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan fuqaroviy-huquqiy choralar orasida muhim o'rin tutib, yetkazilgan zararni qoplashning mazkur usuli asosan, noqonuniy ovlash, baliq ovlash, o'rmondan foydalanish qoidalarini buzish kabi holatlarda keng qo'llaniladi. Taksa javobgarligi hayvonot dunyosi obyektlarini noqonuniy foydalanganlik, shuningdek, o'rmon resurslariga hamda alohida tabiat obyektlariga zarar yetkazilganlik uchun qo'llanilishi ko'zda tutilgan hamda zararining qiymati va bahosi tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda oldindan belgilangan bo'ladi.

**Tegra** – tevarak, atrof.

**Tiklanadigan (tugamaydigan) tabiiy resurslar** – floristik, faunistik, gidrologik, o'rmon, kosmik va yer obyektlari. Ammo «Qizil kitob»ga kirgan noyob va yo'qolib ketayotgan floristik va faunistik resurslar, tuproqlarning tabiiy unumdorligi, ularni tiklash imkoniyatining pastligi uchun ham nisbatan tiklanmaydigan resurslar toifasiga kiritiladi. Cheklanmagan darajada foydalanish imkoniyati bo'lgan resurslarga tugamaydigan resurslar deyiladi. Chunonchi, quyosh energiyalari, shamol, okean va dengiz suvlarining ko'tarilishi ana shunday resurslardir.

**Tiklanmaydigan (tugaydigan) tabiiy resurslar** – mineral (neft, gaz, ruda, ko'mir va h.k.) boyliklar, ayrim turdagi yo'qolib ketgan hayvonot va o'simlik dunyosi. Yaqin yillarda yoki uzoq muddat davrida tamom bo'ladigan resurslar tugaydigan resurslar deb ataladi.

**Transchegaraviy suvlar** – ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o'tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan har qanday yer usti yoki osti suvlari.

**Yagona davlat suv fondi** – jilg'alar, soylar, daryolar, suv omborlari, ko'llar, dengizlardan, kanallar, kollektor-drenaj tarmoqlari, buloqlar, hovuzlarning suvlari va boshqa yer usti suvlaridan: yer osti suvlari, qor zaxiralari va muzliklardan iborat.

---

---

## EKOLOGIK KALENDAR

### *(Tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq muhim sanalar)*

- 11-yanvar – Qo‘riqxonalar va milliy parklar kuni.  
2-fevral – Xalqaro suv botqoqliklari kuni.  
9-fevral – Xalqaro dengiz sut emizuvchilarini muhofaza qilish kuni.  
14-mart – Xalqaro to‘g‘onlarga qarshi harakat qilish kuni.  
21-mart – Xalqaro Ona sayyora kuni.  
21-mart – Xalqaro o‘rmon kuni.  
22-mart – Xalqaro obi-hayot kuni. Butunjahon suv kuni.  
23-mart – Butunjahon meteorologiya kuni.  
29 (30)-mart – Yerni muhofaza qilish kuni.  
1-aprel – Xalqaro qushlar kuni /1906/.  
7-aprel – Xalqaro sog‘liqni saqlash kuni.  
15-aprel – Xalqaro ekologik bilimlar kuni.  
18-22-aprel – Parklar paradi.  
22-aprel – Xalqaro olamni asrash kuni /1990/.  
22-aprel – Xalqaro yerni muhofazalash kuni /1992/.  
19-24-aprel Bog‘lar kuni.  
24-aprel – Butundunyo laboratoriya hayvonlarini muhofaza qilish kuni.  
28-aprel – Kimyoviy xavfsizlik kuni.  
3-may – Quyosh kuni.  
12-may – Ekologik ta‘lim kuni.  
15-may – Xalqaro iqlim kuni.  
15-may – Kichik daryo va havzalarni himoyalash kuni.  
22-may – Xalqaro bioxilma – xillik kuni /2000/.  
5-iyun – Butunjahon atrof muhitni muhofaza qilish kuni /1972/.  
8-iyun – Butunjahon okeanlar kuni.  
15-iyun – Yunnat harakatining tashkil topgan kuni.  
17-iyun – Umumjahon cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurash kuni /1994/.  
11-iyul – Xalqaro aholi kuni.  
11-iyul – Baliq tutishga qarshi tadbirlar kuni.  
2-avgust – Kiyik (bug‘u) kuni.  
6-avgust – Yadro qurollarini qo‘llashni ta‘qiq qilish kuni.



- 15-sentabr – Butunjahon tinchlik kuni.
- 15-sentabr – O‘rmon kuni.
- 16-sentabr – Xalqaro ozon qatlamini muhofaza qilish kuni /1994/.
- 17-sentabr – Xalqaro ko‘rshapalaklar kechasi kuni.
- 21-27-sentabr – «Biz olamni tozalaymiz» haftaligi.
- 22-sentabr – Butunjahon avtomobillardan holi kun.
- 26-sentabr – Butunjahon dengizlar kuni.
- 27-sentabr – Butunjahon turizm kuni.
- 29 sentabr – Butun jahon dengiz kuni.
- 4 (5)-oktabr – Xalqaro hayvonlarni muhofaza qilish kuni.
- 6-oktabr – Butunjahon yashash (tabiiy) muhitni muhofaza qilish kuni.
- 8-oktabr – Xalqaro ekologik falokatlariga qarshi kurashish kuni.
- 11-oktabr – Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni.
- 14-oktabr – Xalqaro standartlashtirish kuni.
- 14-oktabr – Qo‘riqxonalar ishchilari kuni.
- 16-oktabr – Butundunyo ovqatlanish kuni.
- 17-oktabr – Xalqaro qashshoqlikka qarshi kurashish kuni.
- 17-oktabr – Xalqaro BMT kuni.
- 15-noyabr – Ikkilamchi qayta ishlash kuni.
- 20-noyabr – Chekishdan voz kechish kuni.
- 24-noyabr – Savdosizlikka barham berish kuni.
- 29-noyabr – Butunjahon Tabiatni muhofaza qilish jamiyati tashkil etilgan kun.
- 3-dekabr – Xalqaro pestitsidlarga qarshi kurashish kuni.
- 5-dekabr – Xalqaro ko‘ngillilar kuni.
- 9-dekabr – Xalqaro bio xilma – xillikni saqlash kuni.
- 10-dekabr – Hayvonlar huquqlari bo‘yicha deklaratsiyasi qabul qilinganligiga bag‘ishlangan tadbirlar kuni.
- 11-dekabr – Xalqaro tog‘ kuni.
- 29-dekabr – Xalqaro bio xilma-xillik kuni.

---

---

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

О‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т., 2012.

*Каримов И. А.* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996.

*Каримов И. А.* Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Т., 1996.

*Каримов И. А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996.

*Каримов И. А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т., 1996.

*Каримов И. А.* Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Т., 1997.

*Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998.

*Каримов И. А.* Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7. – Т., 1999.

*Каримов И. А.* Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т., 2000.

*Каримов И. А.* Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т., 2001.

*Каримов И. А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Т., 2002.

*Каримов И. А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. –Т., 2003.

*Каримов И. А.* Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т. 12. – Т., 2004.

*Каримов И.А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005.

*Каримов И. А.* Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т. 14. – Т., 2006.

*Каримов И. А.* Жамиятимизни эркинлаштириш ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т. 15. – Т., 2007.

*Каримов И. А.* Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўллари. Т. 16. – Т., 2008.

*Каримов И. А.* Ватанимизнинг босқичма-босқич ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т.17. – Т., 2009.

*Каримов И. А.* Жаҳон инқирози оқибатларини енгиш мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т.18. – Т., 2010.

*Каримов И.А.* Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т.19. – Т., 2011.

*Каримов И.А.* Бизнинг йўлимиз – демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. – Т. 20. – Т., 2012.

*Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008.

*Каримов И.А.* Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2011.

Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси. – Т., 2011.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. – Т., 2013.

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. – Т., 2011.

Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. – Т., 2010.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. – Т., 2010.

Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. – Т., 2010.

Ўзбекистон Республикасининг «Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1993. – № 1. – 37-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1993. – №5. – 221-м.

Ўзбекистон Республикаси «Табиатни муҳофаза қилиш давлат кўмитаси тўғрисида»ги Низом // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1996. – № 5–6. – 70-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Атмосфера хавосини муҳофаза қилиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1997. – №2. – 52-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Давлат ер кадастри тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1998. – № 9. – 165-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Ўсимлик дунёсини муҳофаза этиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1998. – № 1. – 12-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1998. – №1. – 14-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Ўрмон тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1999. – №5. – 122-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Давлат кадастрлари тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2001. – № 1-2. – 18-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Чиқиндилар тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2002. – № 4-5. – 72-м.

Ўзбекистон Республикаси «Суғурта фаолияти тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2002. – № 4-5. – 68-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Ер ости бойликлари тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2003. – №1. – 5-м.

Ўзбекистон Республикаси Қизил Китоби. I-жилд. Ўсимликлар. – Т., 1998.

Ўзбекистон Республикаси Қизил Китоби. II жилд. Ҳайвонот олами. – Т., 2003.

*Бринчук М.М.* Правовая охрана атмосферного воздуха. – М., 1985. – С.5.

*Баратов П.* Табиатни муҳофаза қилиш. – Т., 1991.

*Шодиметов Ю.* Ижтимоий экологияга кириш: Дарслик. – Т., 1994.

*Тўхтаев А., Хайдарова Х., Сидиқов Ю.* Экология алифбоси. – Т., 2004.

*Турсунов Х.* Экология асослари ва табиатни муҳофаза қилиш. – Т., 1997.

*Усмонов М.Б. ва бошқ.* Экология ҳуқуқи: Дарслик. – Т., 2001.

*Усмонов М.Б.* Атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш муаммолари // Қонун ҳимоясида. – 2004. – № 7.

*Холмўминов Ж.Т.* Табиат ва муҳофаза // Ҳаёт ва қонун. – 1998. – № 12. – Б. 49-51.

*Холмўминов Ж.Т., Мирзаев Т.* Экология ва ҳуқуқ // Фан ва турмуш. – 1998. – № 6. – Б. 16-17.

*Холмўминов Ж.Т.* Экология ва қонун. – Т., 2000.

*Холмўминов Ж.Т., Маллаев Н.* Табиат ёрдамга муҳтож. Природа требует защиты // Сельское хозяйство Узбекистана. – 1991. – № 1. – Б. 39-40.

*Холмўминов Ж.Т.* Экологик қонун талабларини бузганлик учун фуқаровий-ҳуқуқий жавобгарлик муаммолари // Хўжалик ва ҳуқуқ. – 2001. – №2. – Б.17-20.

*Ражабов Н.Ш.* Экологик меъёрлашнинг ҳуқуқий муаммолари // Давлат ва ҳуқуқ. – 2004. – № 4.

*Холмўминов Ж.Т.* Экология муаммолари: кеча, бугун, эртага // Муҳофаза. – 2004. – № 3-4. – Б. 20-21.

*Холмўминов Ж.Т., Маллаев М.Р.* Атмосфера ҳавосини ҳуқуқий муҳофаза қилиш: Ўқув қўлланма. – Т., 2004.

*Холмўминов Ж.Т.* Ресурслардан оқилона фойдаланинг // Муҳофаза. 2004. – №2. – Б. 20-21.

*Алиханов Б.Б., Лим В.П., Аҳмедов Н.А. ва бошқ.* Қўриқхоналар ва миллий боғлар. – Т., 2005.

*Холмўминов Ж.Т.* Хавф билан ёнма-ён // Муҳофаза. –2005. –№1. – Б. 20-21.

*Холмўминов Ж.Т.* Ёшларга экологик-ҳуқуқий тарбия бериш ва шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2006. – №3. – Б. 65-67.

*Эргашев А., Эргашев Т.* Агроэкология: Дарслик. – Т., 2006.

*Ражабов Н.Ш.* Экологик меъёрлашнинг ҳуқуқий муаммолари: Монография. – Т., 2007.

*Намозов Ф.С.* Ўзбекистон Республикасида ўрмонларни муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштиришнинг ҳуқуқий муаммолари. – Т., 2008.

*Маматқулов Р.* Табиатни соф сақлаш – одамни асраш демак // Ўзбекистон овози. – 2008. – 22 май.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Саноатда, кончиликда ва коммунал-маиший секторда ишларнинг беҳатар олиб борилишини назорат қилиш давлат инспекцияси фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида»ги қарори // Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами. – 2008. – №5. – 25-м.

*Бўронов Ю.* Иқлим ўзгаришлари: тилсим ва ечим // Халқ сўзи. – 2008. – 6 нояб.

*Содиқов Д.* Онажоним – табиат // Халқ сўзи. – 2008. – 23 июль.

*Сайхун С.* Табиатга муносабат // Ўзбекистон овози. – 2008. – 5 июнь.

*Холмўминов Ж.Т.* Табиий ресурслардан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг экологик-ҳуқуқий муаммолари. – Т., 2009.

*Холмўминов Ж.Т.* Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш, иқлим ўзгариши ва озон қатлами бузилиши олдини олишнинг халқаро ҳуқуқий асослари // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2009. – № 2. – Б.14-17.

*Холмўминов Ж.Т.* Аҳоли соғлиғини муҳофаза қилишнинг экологик-ҳуқуқий асослари // Соғлом авлод учун. – 2009. – № 4. – Б. 8-13.

*Холмўминов Ж.Т.* Инсон ва фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини кафолатлашнинг халқаро-ҳуқуқий асослари // Инсон ҳуқуқлари ва гуманитар ҳуқуқ: фалсафий ва ҳуқуқий масалалари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т., 2009. – Б. 30-35.

*Холмўминов Ж.Т.* Ёшлар тарбиясида экологик-ҳуқуқий, валеологик ва акмеологик ёндашув. – Т., 2010.

*Холмўминов Ж.Т.* Экология ва ҳаёт: конунчиликни такомиллаштириш масалалари. – Т., 2010.

*Холмўминов Ж.Т.* Баркамол авлодни шакллантиришда экологик-ҳуқуқий таълим ва тарбиянинг ўрни // Ҳуқуқий тарбия – баркамол авлодни шакллантиришнинг муҳим омили: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т., 2010. – 18 май. – Б. 46-51.

*Холмўминов Ж.Т.* Экология ва ёшлар // Тошкент оқшоми. – 2010. – 4 июнь.

*Холмўминов Ж.Т.* Экологик муҳофазанинг айрим масалалари // Арбитраж ва ҳуқуқ. – 2010. – 11 авг.

*Холмўминов Ж.Т.* Инсоннинг асосий бузилмас ҳуқуқларига мос равишда // Соғлом авлод учун. – 2011. – №10. – Б. 12-15.

*Холмўминов Ж.Т.* Экология ва экология ҳуқуқи фанларини ўқитишни такомиллаштириш масалалари // Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси – ёш олимлар илмий тадқиқотларини юксалтириш асоси. – Т., 2011. – Б.14-17.

*Холмўминов Ж.Т.* Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг экологик ҳуқуқларини ҳимоя қилиш масалалари // Научные исследования в сфере прав и свобод человека: состояние и перспективы. – Т., 2011. – С. 58-67.

Сув ҳуқуқи: Дарслик / ю.ф.д., проф. Ж.Т.Холмўминовнинг умумий таҳрири остида. – Т., 2011.

Ўрмон ҳуқуқи: Дарслик / ю.ф.д., проф. Ж.Т.Холмўминовнинг умумий таҳрири остида. – Т., 2011.

*Холмўминов Ж.Т.* Конституция ва экологик қонунчилик // Жамият. – 2012. – 23 нояб.

*Холмўминов Ж.Т.* Оилада экологик ҳуқуқий таълим ва тарбияни олиб бориш ва уни узлуксизлигини таъминлашнинг ҳуқуқий асослари // ТДЮИ Ахборотномаси. – 2012. – №1. – Б. 73-77.

*Холмўминов Ж.Т.* Экологик муаммолар ечими: табиатни муҳофаза қилишнинг конституциявий асослари // Инсон ва қонун. – 2012. – 31 янв.

*Холмўминов Ж.Т.* Келажакка муҳим одим // Жамият. – 2012. – 13 апр.

*Аҳмедов Т.* Иқлим ўзгаришлари: дунё ҳамжамияти эътиборида // Жамият. – 2012. – 30 нояб.

*Шоимов Н.Б.* Ички ишлар органларининг экологик қонунлар ижросини таъминлаш фаолияти: Ўқув қўлланма. – Т., 2011.

*Шоимов Н.Б.* Ички ишлар идоралари фаолияти учун экология ҳуқуқи фанини ўқитишнинг аҳамияти // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг Ахборотномаси. – 2010. – №4. – Б.72-75.

*Холмўминов О.Ж.* Ер участкаси тушунчаси ва унинг мазмуни // Суд-ҳуқуқ ислохатларининг истиқболлари: кеча ва бугун: Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т., 2010. – Б.337-339.

*Холмўминов О.Ж.* Яна сервитут ҳуқуқи ҳақида // Баркамол авлодни тарбиялашда экологик қонунчиликнинг ўрни: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2010. – Б. 180-183.

*Холмўминов О.Ж.* Ер участкасиларидан ижара асосида фойдаланишнинг айрим ҳуқуқий масалалари // Фалсафа ва ҳуқуқ илмий-назарий, маънавий-маърифий журнали. – Т., 2010. – №3. – Б.65-68.

*Шоимов Н.Б.* Халқаро экологик хавфсизликни таъминлашда Ўзбекистоннинг тутган ўрни // Халқаро ҳуқуқий муносабатларда Ўзбекистоннинг ўрни ва роли: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2011. – 22 апр. – Б. 251-255.

*Шоимов Н.Б.* Экология соҳасидаги жиноятлар учун жавобгарликни кучайтиришнинг баъзи жиҳатлари // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг Ахборотномаси. – 2012. – №2. – Б. 29-33.

*Шоимов Н.Б.* Атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш ва экологик хавфсизликни таъминлашнинг конституциявий-ҳуқуқий асослари // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг Ахборотномаси. – 2012. №4. – Б. 62-65.

---

---

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

### *UMUMIY QISM*

#### ***I bob. Jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqadorligi. Ekologiya huquqi, uning predmeti, tizimi va manbalari***

1-§. Tabiat, jamiyat va inson. Atrof-tabiiy muhitning hozirgi zamon holati.....	7
2-§. «Ekologiya huquqi» tushunchasi, predmeti, vazifalari va tizimi.....	15
3-§. Ekologiya huquqining metodi, prinsiplari va manbalari.....	18

#### ***II bob. Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorati. Tabiiy obyektlarga nisbatan mulk huquqi***

1-§. «Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi va nazorat etish» tushunchasi hamda uning vazifalari.....	28
2-§. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlarining tizimi va vakolatlari.....	34
3-§. Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining obyektlari, subyektlari tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari.....	40

#### ***III bob. Ekologik-huquqiy javobgarlik va ekologik huquqbuzarlikning oldini olish***

1-§. Ekologik huquqbuzarliklar: tushunchasi, mohiyati, mazmuni va xususiyatlari.....	50
2-§. «Ekologik javobgarlik» tushunchasi, mohiyati va turlari.....	54
3-§. Ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ularning oldini olish borasidagi ichki ishlar organlarining roli va vazifalari.....	66

### *MAXSUS QISM*

#### ***IV bob. Yer resurslaridan foydalanish va uni muhofaza qilishning ekologik-huquqiy tartibi***

1-§. «Yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning ekologik-huquqiy tartibi» tushunchasi.....	69
--	----



2-§. Yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi, nazorat etish tartibi hamda yer qonunchiligi talablarini buzganlik uchun javobgarlik.....	75
3-§. Yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va vazifalari.....	91

**V bob. Suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishning ekologik-huquqiy tartibi**

1-§. «Suv resurslaridan foydalanish va uni ekologik muhofaza qilishning huquqiy tartibi» tushunchasi.....	94
2-§. Suvdan foydalanish va uni ekologik muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi hamda nazorat etish tartibi hamda javobgarlik masalalari.....	100
3-§. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va vazifalari.....	114

**VI bob. Yer osti boyliklari va atmosfera havosidan foydalanish, ularni muhofaza qilishning ekologik-huquqiy tartibi**

1-§. «Yer osti boyliklaridan foydalanish va uni ekologik muhofaza qilishning hozirgi ahvoli, huquqiy tartibi» tushunchasi va mazmuni.....	117
2-§. Atmosfera havosining tirik mavjudot uchun ekologik ahamiyati va uni huquqiy ekologik muhofaza qilish masalalari.....	131
3-§. Yer osti boyliklari va atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.....	143
4-§. Yer osti boyliklari va atmosfera havosini ekologik-huquqiy muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va vazifalari.....	152

**VII bob. O'simliklar dunyosi va o'rmon boyliklarini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanishning ekologik-huquqiy tartibi**

1-§. «O'simlik dunyosi va o'rmon boyliklarini ekologik muhofaza qilish va ulardan foydalanishning ekologik huquqiy tartibi» tushunchasi va xususiyatlari.....	155
2-§. O'simlik dunyosi va o'rmon boyliklariga nisbatan mulk huquqi. O'simlik dunyosi va o'rmon boyliklaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari, bu sohaga oid nizolarni hal etish va yuridik javobgarlik asoslari.....	163
3-§. O'simlik dunyosini va o'rmon boyliklarini ekologik-huquqiy muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va vazifalari.....	175

**VIII bob. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning ekologik-huquqiy tartibi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik-huquqiy holati**

1-§. «Hayvonot dunyosi va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy ekologik tartibi» tushunchasi va xususiyatlari.....	178
2-§. Hayvonot dunyosidan foydalanish, muhofaza qilish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning davlat tomonidan boshqarilishi va nazorat etish tartibi hamda yuridik javobgarlik masalalari.....	182
3-§. Hayvonot dunyosidan foydalanish, muhofaza qilish hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va vazifalari.....	190

**IX bob. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik-huquqiy muhofaza qilish**

1-§. «Xalqaro ekologiya huquqi» tushunchasi, vazifalari va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	196
2-§. Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilishning tamoyillari va manbalari. Xalqaro hamkorlik.....	197
3-§. Atrof-tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofaza qilishda xalqaro tashkilotlar va konferensiyalarning faoliyati hamda ahamiyati.....	210
<b>Glossariy</b> .....	216
<b>Ekologik kalendar</b> .....	224

# EKOLOGIYA HUQUQI

*(Ikkinchi nashr)*

*Darslik*

*Muharrir S. S. Qosimov*  
*Texnik muharrir D. X. Xamidullayev*

Bosishga ruxsat etildi 09. 09. 2013. Nashriyot hisob tabog‘i 16,0.  
Adadi 150 nusxa. Buyurtma . Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
100197, Toshkent shahri, Intizor ko‘chasi, 68.